

TILDA, FIKRDA, ISHDA BIRLIK!



UCHINCHI RENESSANS

**ILMIY, ADABIY-BADIIY, ILMIY-AMALIY, ILMIY-NAZARIY,
IJTIMOIY-FALSAFIY, MADANIY-MA'RIFIY JURNAL**



ISSN: 3093-9135

2026-02

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
AXBOROT VA OMMAVIY KOMMUNKATSIYALAR AGENTLIGI



UCHINCHI RENESSANS

**Ilmiy, adabiy-badiiy, ilmiy-amaliy, ilmiy-nazariy,
ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy**

JURNAL

URGANCH – 2026



“Biz O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish davri, ya’ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o‘zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bu yo‘lda bizga ulug‘ ajdodlarimizning bebaho merosi, ularning ilmiy kashfiyotlari va ma’naviy jasorati hamisha kuch va ilhom bag‘ishlaydi”.

SHAVKAT MIRZIYOYEV
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI

Bosh muharrir:

M.M.Masharipov – Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Bosh muharrir o'rinbosari:

M.M.Matnazarov – Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Mas'ul kotib:

A.A.Saparbayeva – Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi


Tahrir hay'ati:

1. **Sh.S.Sirojiddinov** – Filologiya fanlari doktori, akademik (O'zbekiston)
2. **A.S.Sagdullayev** – Tarix fanlari doktori, akademik (O'zbekiston)
3. **Chiaramonte Giuseppe Carloo** – Pedagogika fanlari doktori, professor (AQSH)
4. **S.E.Normamatov** – Filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
5. **Sh.M.To'xtosimov** – O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi rektori, professor (O'zbekiston)
6. **N.K.Kasimov** – O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi, professor (O'zbekiston)
7. **A.Ashirboyev** – Filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
8. **Q.B.Yo'ldoshev** – Pedagogika fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
9. **N.A.Jabborov** – Filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
10. **Mustafa Demirci** – Tarix fanlari doktori, professor (Turkiya)
11. **S.Q.Salayev** – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
12. **G.Matyaqubova** – O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Urganch filiali professori, O'zbekiston xalq artisti (O'zbekiston)
13. **S.U.Xodjaniyazov** – Pedagogika fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
14. **S.A.Karimov** – Filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
15. **Kürşat Yıldırım** – Tarix fanlari doktori, professor (Turkiya)
16. **I.S.Abdullayev** – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
17. **B.N.Karimov** – Filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
18. **F.G.Sharipov** – Filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
19. **K.Ashirkhanova** – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Qozog'iston)
20. **B.I.Abdullayev** – Fizika-matematika fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
21. **U.I.Abdullayev** – Tarix fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
22. **B.B.Elov** – Texnika fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston)
23. **R.Y.Ro'ziyev** – Tibbiyot fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
24. **A.I.Primov** – Filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
25. **G.Matyaqubova** – San'atshunoslik bo'yicha falsafa doktori, professor (O'zbekiston)
26. **A.D.O'razbayev** – Filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
27. **Q.U.Pardayev** – Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (O'zbekiston)
28. **Azizullo Aral** – Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) (AQSH)

29. *Claire Marie Calusin* – Master in Teaching (Flippin)
30. *A.R.Tursunov* – Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsenti (O'zbekiston)
31. *B.M.Satimov* – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (O'zbekiston)
32. *S.E.Samandarova* – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston)
33. *F.Q.Bobojonov* – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Qoraqolpog'iston)
34. *Shoira Shams* – O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi (O'zbekiston)
35. *U.B.Mahmudov* – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) (O'zbekiston)

Uchinchi Renessans – bu xalqimizning yangi taraqqiyot va yuksalish bosqichi bo'lib, unda ilm-fan, ta'lim, ma'naviyat hamda innovatsion rivojlanish ustuvor yo'nalishlar sifatida e'tirof etiladi. Mazkur davrda har bir fuqaroning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishi, o'z bilim va ko'nikmalarini jamiyat ravnaqi hamda davlat taraqqiyoti yo'lida safarbar etishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ajdodlarimizning boy ilmiy-ma'rifiy va madaniy merosiga tayanib, zamonaviy bilim, ilg'or texnologiyalar hamda innovatsion yondashuvlarni puxta egallagan yosh avlod Yangi O'zbekistonning porloq kelajagini bunyod etishda asosiy harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, san'at va madaniyat jamiyatning ma'naviy yuksalishini ta'minlovchi, inson tafakkuri va estetik didini shakllantiruvchi muhim omillar sifatida qaraladi. Haqiqiy **Uchinchi Renessans** – bu fikr erkinligi, ilmiy tafakkur, ijodkorlik, yuksak ma'naviy qadriyatlar va umuminsoniy tamoyillarning uyg'unligi asosida barpo etiladigan taraqqiyot davridir. Bunday uyg'unish jamiyatning barcha sohalarida barqaror rivojlanishni ta'minlash, raqobatbardosh inson kapitalini shakllantirish hamda mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.



MUNDARIJA:**Tilshunoslik va adabiyotshunoslik**

M.Masharipov.....	9
--------------------------	----------

Jadidlar publitsistikasida arabcha o‘zlashma so‘zlarning sinonim birliklari

A.Tursunov.....	16
------------------------	-----------

O‘zbek tilshunosligining shakllanishi va morfologiyani o‘rganish prinsiplari

Pedagogika va psixologiya

Sh.Ismoiljonov.....	24
----------------------------	-----------

O‘qitishda multimediya resurslari

S.Eshboyeva., B.Mamatqulova.....	31
---	-----------

Formativ baholash asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘quv motivatsiyasini oshirishning imkoniyatlari

G.A.Joldasova., O.P.Qutlimuradova.....	36
---	-----------

Boshlang‘ich sinflarda texnologiya darslari orqali o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalar rivojlantirish

X.Ashurova., M.Urazbayeva.....	41
---------------------------------------	-----------

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlashni STEAM ta’limi asosida shakllantirish

M.Mirzaliyeva., M.Arabov.....	45
--------------------------------------	-----------

Umumta’lim maktablarida maqom elementlarini o‘qitishning metodik asoslari

Yurisprudensiya

I.Q.Madaminov.....	50
---------------------------	-----------

Fuqarolarni davlat xizmatiga kirishdagi teng huquqliligining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari

Falsafa va tarix

T.Q.Qozoqov, N.Otajonov, B.U.Abdullayeva.....	55
--	-----------

Amir Temur: ma’naviyat, e’tiqod, jasorat, sadoqat

I.Xaitboyeva.....	65
--------------------------	-----------

Xiva xonligi tarixi manbashunosligi va tarixshunosligi (XIX asr va XX asr boshlari)

D.Atabayeva.....	72
-------------------------	-----------

Qadimgi Xorazm millat kiyimlari tarixi

Axborot texnologiyalari

M.R.Allaberganova, A.X.Atajanova.....	77
--	-----------

Informatika va axborot texnologiyalari fanini innovatsion yondashuvlar asosida o'qitish metodikasi

San'atshunoslik va madaniyatshunoslik

M.Pirmagambetova.....85

Raqs san'ati – nomoddiy madaniy meros elementi sifatida yoshlarning ma'naviy-axloqiy tafakkurini yuksaltirishdagi ahamiyati

B.Sapayeva.....88

Musiqqa ilmi taraqqiyotida Sharq va G'arb allomalarining ilmiy merosi

A.M.Tillayev.....93

Rus xalq raqslarida xalq ruhiyati va estetik tafakkur ifodasi

A.M.Tillayev.....98

Oliy ta'lim tizimida klassik raqs fanini o'qitishning innovatsion texnologiyalari

S.Ruzmetov.....104

O'zbek milliy cholg'usi doira va uning o'zbek raqsidagi o'rni

B.Adamov.....109

Raqs va musiqa uyg'unligi: inson his-tuyg'ularini ifoda etish san'ati

Sh.Sapayev.....115

Sintezator elektron cholg'u asbobining milliy musiqamizdagi o'rni va ahamiyati

Y.Babajanova.....119

Xalq raqslarini shakllantirishda badiiy adabiyotning o'rni va ahamiyati

S.Rajabov, N.Yo'ldosheva.....124

Milliy qadriyatlar, milliy xalq o'yinlarining raqs san'atidagi o'rni

Ю.Таирова.....129

Этностиль в хореографическом образовании: стратегии формирования стилистической индивидуальности на основе региональных танцевальных традиций

X.Shermatova.....134

Balet san'atining paydo bo'lishi va shakllanishi

O.Boboxonova.....140

Surxondaryo raqslarida marosim va mehnat motivlarining badiiy ifodaviy talqini

O.Ko'palova.....146

Raqs san'atimizning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari hamda tendensiyalari (Farg'ona raqs maktabi misolida)

M.Djumabaeva.....	152
--------------------------	------------

Raqs va hayot uygʻunligi

N.Zahiriddinova., M.Ashurov.....	155
---	------------

Zamonoviy texnologiyalar va innovatsiyalarning raqs sanʼatiga rivoji

A.Raxmonova.....	160
-------------------------	------------

Zamonoviy texnologiyalar va innovatsiyalarning raqs sanʼatiga rivoji

Iqtisodiyot

S.Isakjanova.....	168
--------------------------	------------

Oʻzbekistonda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish

A.Abdullayev.....	180
--------------------------	------------

Oʻzbekistonda tadbirkorlik muhitini yaxshilashda savdo siyosatining roʻli

TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK



Masharipov Mansurbek Masharipovich O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Urganch filiali direktor o'rinbosari, dotsent, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

e.mail: mansurbekmasharipov@urgiu.uz

<https://orcid.org/0009-0001-6582-6239>

Telefon raqam: +998 (95) 432-22-44

**JADIDLAR PUBLITSISTIKASIDA
ARABCHA O'ZLASHMA SO'ZLARNING SINONIM BIRLIKLARI
(Mahmudxo'ja Behbudiy publisistikasi misolida)**

**СИНОНИМЫ АРАБСКИХ СЛОВ В ПУБЛИЦИСТИКЕ ДЖАДИДОВ
(На примере журналистики Махмудходжа Бехбуди)**

**SYNONYMS OF ARABIC WORDS IN THE PUBLICISTIC OF THE JADIDS
(On the example of the journalism of Mahmudkhoj Behbudi)**

Annotatsiya. Mazkur maqolada jadidlar publitsistikasida qo'llangan ayrim arabcha o'zlashmalarning semantik voqelanishidagi sinonimik munosabat tahlil qilingan. Bunda sinonimik qator hosil qilgan arabcha o'zlashmalarning o'zbek tilining leksik qatlamida me'yor sifatida qabul qilinishining lingvistik omillari, XX asr boshlaridagi davr adabiy tilida ma'nodoshlikni yuzaga keltirishi kabi masalalar ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: leksik-semantik munosabat, ma'nodoshlik, tasviriy vosita, hissiy-ta'siriy buyoq, uslubiy xoslanganlik, denotat, oraliq uslub, leksik qatlam, sinonimik qator, sinonim dublet, adabiy me'yor.

Аннотация. В данной статье анализируются синонимические отношения в семантической реализации некоторых арабских заимствований, используемых в джадидской журналистике. В статье научно анализируются такие вопросы, как лингвистические факторы принятия арабских заимствований, образующих синонимические ряды, как нормы в лексическом слое узбекского языка, а также возникновение семантического сходства в литературном языке начала XX века.

Ключевые слова: лексико-семантическая связь, семантическое сходство, образный язык, эмоционально-аффективный тон, стилистическая специфика, денотация, промежуточный стиль, лексический слой, синонимический ряд, синонимический дублет, литературная норма.

Annotation. This article analyzes the synonymous relationship in the semantic realization of some Arabic borrowings used in Jadid journalism. In this article, issues such as the linguistic factors of the acceptance of Arabic borrowings that form a synonymous series as a norm in the lexical layer of the Uzbek language, and the emergence of semantic similarity in the literary language of the early 20th century are scientifically analyzed.

Key words: lexical-semantic relationship, semantic similarity, figurative language, emotional-affective tone, stylistic specificity, denotation, intermediate style, lexical layer, synonymous series, synonymous doublet, literary norm.

KIRISH. Tilshunoslik ilmida publitsistik uslubga badiiy uslub va so‘zlashuv uslubi o‘rtasidagi oraliq uslub sifatida ham baho beriladi. Bunga sabab shuki, mazkur uslubda shakllangan matnlar obrazlilik, ta’sirchanligi, tasviriy vositalarning mahsuldor qo‘llanilishi bilan badiiy uslubga yaqinlashadi. Aynan ma’nodosh so‘zlar qo‘llanishidagi uslubiy o‘ziga xoslik ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Leksik vositalar har qanday tilning badiiy, publitsistik uslubi imkoniyatlarini belgilaydi. Muayyan davr tilini o‘rganishda o‘sha davr adabiy tilidagi leksik-semantik munosabatlar voqelanishi holati ham kuzatiladi. XX asrning 20-30-yillari davri hozirgi o‘zbek adabiy tili me’yorlarining shakllanish davri hisoblanadi. Ma’lum til me’yorlarining shakllanishida publitsistik uslubning roli kattadir. Chunki til me’yorlarini belgilashda boshqa funksional uslublarga qaraganda publitsistik uslub tili alohida ahamiyat kasb etadi. Publitsistik uslub tilining asosiy xususiyatlaridan biri ham xuddi badiiy uslub singari undagi tasvirlash vositalarining estetik vazifa bajarishidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Uslub mohiyatiga asoslanib aytish mumkinki, publitsistik uslubda ekspressivlikka erishishning vositalari boshqa uslublarga qaraganda ko‘p. Mana shu jihatlari bilan u badiiy uslubga juda yaqinlashadi. Shuning uchun ham, mazkur uslubning lingvostilistik xususiyatlari haqida gapirganda asosiy e’tibor ekspressivlikni yuzaga keltiruvchi tasviriy vositalarga qaratiladi. Publitsistik matnning lisoniy xususiyatlaridan eng muhimi ham shundaki, muallif hozirjavoblik, hayotiy masalalarni mantiqiy mulohaza, dalil, asoslar bilan tushuntirishda, isbotlashda, o‘quvchini bunga ishontirishda, his-tuyg‘ulariga ta’sir etishda emosional bo‘yoqdor so‘zlarga, tarixiy va arxaik so‘zlarga, ko‘chma ma’noli so‘zlarga, ma’nodosh, shakldosh, o‘xshash talaffuzli va zid ma’noli so‘zlarga, shuningdek, ibora, maqol-matal va aforizm kabi birliklarga ham murojaat qiladi.

Sinonimlar fikrni aniq va ta’sirchan qilib ifodalash nuqtai nazaridan publitsistik uslub tilining ham boy va rang-barangligini ko‘rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli, badiiy so‘z san’atkorlari qatori publitsistlar ham ulardan ustalik bilan foydalanishga harakat qiladilar.

Tilshunoslik sohasida shaklan har xil, ammo bir tushunchani turli bo‘yoq va ma’no noziklari bilan ifodalaydigan leksemalar sinonim deyiladi (gr. *synonymos* – “bir nomli”). Sinonim leksemalar orasidagi munosabat sinonimiya yoki sinonimik munosabat deb yuritiladi¹. S.Usmonov, A.Hojiyev, I.Qo‘chqortoyev, S.Isomuhamedova, M.Rahmatullayeva² va boshqalarning sinonimlarga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlarida sinonim so‘zlarning ma’nolari, hosil bo‘lish yo‘llari, uslubiy qo‘llanishlari tadqiqqa tortilgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy publitsistikasida muallifning ijtimoiy-siyosiy, g‘oyaviy maqsadidan kelib chiqqan holda tilning maxsus vositasi hisoblangan leksik-semantik munosabatlar voqyelanishi o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lgan. Ya’ni leksemalararo sinonimlik, antonimlik, graduonimlik, o‘xshatish vositalaridan o‘rinli foydalanilgan. Jumladan, ma’nodosh so‘zlar, ya’ni sinonimlarning qo‘llanishi ham publisistik uslub rang-barangligini ta’minlashning asosiy vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etgan. Shuni ta’kidlash lozimki, davr o‘zgarishi, jamiyat taraqqiyoti tilda ham o‘z aksini topgani holda tasviriy vosita hisoblangan sinonimlarning ma’no taraqqiyoti, geneologik tarkibida doimo yangilanishlar bo‘lib turishini taqozo qiladi. Tahlilga tortilayotgan jadid publitsistikasi tilida ham bu holatni kuzatish mumkin. Maqolalar matnida geneologik tarkibi jihatdan arabcha o‘zlashma qatlamga mansub sinonim birliklar salmoqli miqdorni tashkil etishi kuzatiladi.

MUHOKAMA. Jadidlar ijod qilgan davrda o‘zbek tiliga arab tilidan kirgan hamda uzoq davrlar mobaynida o‘zbek mumtoz adabiyoti va tarixiy manbalarda qo‘llanib kelgan arabcha o‘zlashmalarga munosabat ancha murakkab hamda chalkash edi. Bir qator ziyolilar genetik jihatdan arab tiliga mansub so‘zlarni qo‘llash, arab tilini fan va din tili sifatida o‘qitish tarafdori bo‘lsalar, boshqa bir guruh ziyolilar arab tili ta’limiga keng o‘rin berishga qarshi edilar va o‘zbek tiliga arab tilidan kirgan so‘zlarni kamroq qo‘llash, ona tili, umumturkiy til so‘zlarini keng iste’molga kiritish, o‘zbek tilini chet tili so‘zlaridan tozalash tarafdori edilar. Ammo ular o‘z asarlari tilida o‘zbek tilining lug‘aviy boyligidan foydalanganlari holda, an’anaviy arab tili so‘zlarini ham keng istifoda qilishar edi. Buning

¹ Sayfullayeva R. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. – B. 150.

² Usmonov S. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida omonim va sinonimlar. – Toshkent: TDPIning ilmiy asarlari, №12, 1959. – 178 b; Hojiyev A. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Fan, 1963. – 118 b; Qo‘chqortoyev I. Sinonim so‘zlar va ularning ba’zi bir xususiyatlari. “Tilshunoslik masalalari”, 1-kitob. – Toshkent: ToshDU, 1960. – 166 b; Isamuhamedova S. Sinonimlarning vujudga kelish yo‘llari haqida ba’zi mulohazalar. Tilshunoslik masalalari, 1-kitob. – Toshkent: 1960. – 212 b.

quyidagi sabablari bor edi: a) islom dini tili – arab tili edi. Madrasa va maktablarda shu tilda ta’lim berilardi; b) ta’lim tizimidagi o‘quv adabiyotlari va umuman adabiyotning ko‘pchiligi arab tilida edi; v) o‘zbek mumtoz adabiyoti va boshqa manbalarda ishlatilib kelingan arabcha so‘zlarni qo‘llash an’anasi hali o‘z kuchini yo‘qotmagandi; g) ko‘pgina ilmiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy, ma’rifiy, diniy, falsafiy va boshqa xil tushunchalar arabcha so‘z va terminlar yordamida ifodalanar edi. Bu leksemalar tarixan o‘zbek tilining lug‘aviy me’yorlari sifatida qat’iylashgan edi.

NATIJALAR. Ularni iste’moldan chiqarish uchun o‘zbek tilidagi muqobillarini topish talab qilinardi. Mana shu sabablar ta’siri o‘laroq Jadid publitsistik maqolalarda arabcha o‘zlashmalar asosidagi sinonimlarni keng qo‘llaydi: *“Lozimki, o‘zimizdan bora-bora tadrijiy suratda askarlarimiz bo‘lsun, ul milliy askarlarimizning vazifasini, **qiyofat, shaklini**, libos va tarz maishatini o‘zimiz tayin qilurmiz”*.³ Muallifning “Bayoni haqiqat” nomli maqolasidan olingan mazkur parchada *qiyofat, shakl* leksemalari sinonim tarzida qo‘llangan. Bu ikki leksemananing geneolik tarkibi, ma’no xususiyati haqida lug‘atlarda quyidagicha ma’lumot mavjud: QIYOFAT. Bu arabcha so‘z “izidan topib oldi” ma’nosini anglatuvchi **qayyafa** fe’li asosida hosil qilingan bo‘lib, “tashqi ko‘rinish” ma’nosini anglatadi⁴; ShAKL. Bu arabcha so‘z **shakla** fe’lining “ko‘rinish berdi” ma’nosi bilan hosil qilingan 1 bob masdari bo‘lib, “ko‘rinish” ma’nosini anglatadi (O‘TIL, IIT, 496-b). “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati” hamda “O‘zbek tilining ma’nodosh so‘zlar o‘quv lug‘ati”da *qiyofa, shakl* leksemalari bir sinonimik qatorda berilmagan: *Ko‘rinish, tus, qiyofa [a], avzo [a], vajohat [a], siyoh, turq*⁵. Demak, anglash mumkinki, muallif qo‘llagan *qiyofa, shakl* leksemalari bir umumiy ma’no, ya’ni “ko‘rinish” semasini ifoda etishi bilan o‘sha davr adabiy tilida sinonimlik kasb etgan. Hozirgi adabiy tilimizda esa *shakl* leksemasi bu sinonimik qatorda mavjud emas.

*“Quvvai hokimag‘a molik ruslardan boshqa unsurlar ham bizlarg‘a din, **mulk va sarvatimizg‘a** g‘alaba qiladurlarki, Rusiya davlati emas, o‘zimiz sabab bo‘lamiz”* (TA, IT,

³ Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. 2-jildlik. 1-jild. (nashrga tayyorlovchi Sirojiddin Ahmad). – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B.475. Bundan keyingi misollar ham shu manbadan olindi va manba sahifasi qavs ichida ko‘rsatildi.

⁴ Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. II tom. – Toshkent: “Universitet”, 2003. – B. 534. Keyingi misollarda manba O‘TEL tarzida qisqartma shaklida olindi va sahifasi ko‘rsatildi.

⁵ Shukurov O., Boymatova B. O‘zbek tilining ma’nodosh so‘zlar o‘quv lug‘ati. –Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2007. – B.28.

300-b). Bu misolda *mulk*, *sarvat* leksemalari o‘zaro sinonim sifatida qo‘llangan. **MULK**. Bu arabcha so‘z **malaka** fe‘lining “ega bo‘ldi” ma‘nosi bilan hosil qilingan I bob masdari bo‘lib, “xususiy mol-dunyo, boylik” ma‘nolarini anglatadi (O‘TIL, IIT, 285 b); **SARVAT**. Arabcha “boylik, davlat, mol-dunyo”. “O‘zbek tilining ma‘nodosh so‘zlar o‘quv lug‘ati”da *sarvat* so‘zi *mulk* so‘ziga nisbatan sinonim sifatida keltirilmagan *boylik*, *davlat* [a], *dunyo* [a], *mol-mulk* [a], *bisot* [a], *bizoat* [a]⁶. Matn tarkibida qo‘llanishi esa asosli bo‘lib, *sarvat* so‘zi ham mumtoz adabiy tilimizda *mol-mulk*, *boylik* semasini ifodalagan, hozirda esa eskirgan lug‘aviy qatlam tarkibiga o‘tgan.

“Hurriyat” gazetasining 1917-yil 23-iyuldagi sonida e‘lon qilingan “Samarqandda milliy ishlar haqida” nomli maqoladan olingan quyidagi misollarga diqqat qilaylik: “**Iltilmos**, **rijo** shulkim, bu qadar imkon telegrafdan so‘ngra bu biror kishi jamlamoq va, hatto, sahro va qishloqlardan xalqni jamlamoq harakatida bo‘linsalar edi, deb milliy xodimlardan umidvormiz” (TA, IT, 487-b); “Kelaylik **matlabg‘a!** Samarqandda ikki jamiyat bor, biri “Sho‘roi islom”ki ulamoning aksari munga a‘zodurlar” (TA, IT, 486-b). Birinchi misolda ot turkumiga mansub *iltimos*, *rijo* arabcha leksemalari yonma-yon keltirilib, sinonimik qator hosil qilingan. **ILTIMOS**. Bu arabcha so‘z **lamasa** fe‘lidan olingan bo‘lib, “nimanidir so‘rab qilingan murojaat” ma‘nosini anglatadi (O‘TIL, IIT, 163); **RIJO**. “umid, orzu, tilak; iltimos, o‘tinch”⁷.

Sinonimiya hodisasi muayyan til taraqqiyotininig ma‘lum bir bosqichi nuqtai nazaridan belgilanadi. Til taraqqiyoti jarayonida leksemalarning sinonimik munosabatida ham o‘zgarish bo‘lishi mumkin. Bunda ma‘lum davrlarda sinonimik munosabatda bo‘lgan so‘zlardan biri iste‘moldan chiqishi yoki ulardan birining sinonimik munosabat hosil qiluvchi semasi yo‘qolishi, aksincha, tilda yangi-yangi sinonimik munosabatli so‘zlar, sinonimik qatorlar paydo bo‘lishi mumkin. “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”da *iltimos* – *iltijo* – *o‘tinch* – *zor* – *tavallo* leksemalari “biror istak-maqсадning qondirilishini so‘rab qilinadigan murojaat” ma‘nosi atrofida birlashishi nuqtai nazaridan bir sinonimik qatorni tashkil etishi qayd etiladi⁸. Yuqorida kuzatganimizdek, arabcha *rijo* leksemasi ham

⁶ Shukurov O., Boymatova B. O‘zbek tilining ma‘nodosh so‘zlar o‘quv lug‘ati. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2007. – B.28.

⁷ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. V jildli. III jild. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2020. – B.341. Keyingi misollarda manba O‘TIL tarzida qisqartma shaklida olindi va sahifasi ko‘rsatildi.

⁸ Hojiyev A. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1974. – B.105.

aynan shu ma'noni ifodalay olishini nazarda tutsak, muallif bu o'rinda *iltimos* leksemasining sinonimi bo'lgan, hozirda arxaiklashgan *rijo* leksemasini yonma-yon keltirib sinonimik qator hosil qilganligini noto'g'ri deb bo'lmaydi. Aytish kerakki, jadidlar publitsistikasi tilida dominantalik xususiyatiga ega bo'lgan *maqsad* leksemasiga *muddao*, *murod*, *matlab* leksemalari sinonim sifatida voqelangan. Bu sinonimik qatordagi *matlab* leksemasi hozirgi adabiy tilimizda norma sifatida mavjud bo'lmay, arxaiklashgan variant hisoblanadi.

Jadidlarning turli ijtimoiy mavzularda yozilgan maqolalari matnida sinonimlarning aynan hozirgi o'zbek adabiy tiliga xos variantlari qo'llangan o'rinlar ham kuzatiladi: "*Tiyotr va'z va tanbih etguvchi hamda zararlik odat, urf va taomilning qabh va zararini aynan ko'rsatguvchidir*" (TA, IT, 412-b). Keltirilgan jumladagi *odat*, *urf*, *taomil* so'zlarining barchasi arabcha o'zlashmalar hisoblanib, hozirgi adabiy tilimizda "umum tomonidan qabul qilingan va amal qilinadigan hatti-harakat va axloqdagi tartib-qoida" ma'nosini ifodalaydi⁹ va bir sinonimik qatorni tashkil etadi. Xuddi shu kabi belgi semasiga ega bo'lgan *muloyim*, *yumshoq* leksemalarining sinonim sifatida voqelanishi ham hozirgi o'zbek adabiy tilidagi holati bilan aynanlik kasb etadi: "*Na uchun toqat qilsunkim, musulmonlar soldatxonalarg'a kelib, qo'llari ila olib, ya'ni cho'qungan shaklig'a kirib, bir parcha non tilasunlar, boshqalar g'ofil o'z ishi va farog'atlarig'a muloyim va yumshoq bastarlar ustida istirohat etsunlar. Oh, na badbaxtlikdur!*" (TA, IT, 488-b).

Jadidlar misolida Behbudiyning publitsistik maqolalarida adresat ongi va hissiyotiga ta'sir o'tkazuvchi lingvistik vosita sifatida ma'nodosh so'zlarning uslubiy xoslangan shakllaridan ham o'rinli foydalanilgan: "*Muharrirning asari yaxshi chiqsa, har kim tabrik etar. Va shuhrati ziyoda bo'lur. Va bul boshqa muharrirni harakatg'a kelishib, yaxshi yozmoqlarig'a bois bo'lur*" (TA, IIT, 16-b). Lug'atda o'zbek tiliga arab tilidan o'zlashgan BOIS so'ziga "*sabab – vaj – bahona* leksemalari bilan sinonimlik hosil qilib, biror narsa, hodisa yoki harakatning ro'y berishini taqozo etuvchi narsa, hodisa, uni keltirib chiqaruvchi asos" sifatida ta'rif berilgan va bu so'zning badiiy uslubga xosligi ta'kidlangan¹⁰. Ko'rinadiki, muallif aytilayotgan fikrning obrazlilik, ta'sirchanligini oshirish maqsadida publitsistik uslub talabidan kelib chiqqan holda sinonim leksemalarning uslubiy xoslangan

⁹ Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1974. –B. 154.

¹⁰ Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1974. –B.169.

shakllaridan foydalanishga harakat qilgan. Bu kabi qo‘llanishlarni yana quyidagi misollarda kuzatish mumkin: “Yoshlardan himmat va g‘ayrat, boylardan **shafqat va marhamat** kerak” (TA, IIT, 16-b); “Rus, armani, yahudiy va boshqa Rusiyadagi vatandoshlarimizning boylari doimo o‘z millatlari uchun katta **xayr va ehsonlar** qiladurlar...” (TA, IT, 390-b); “Bizning murodimiz shul, ushbu yilimizning **natija va mahsulini** ko‘rmoqdir...” (TA, IT, 310-b). Bu misollardagi *shafqat – marhamat; xayr – ehson; natija – mahsul* sinonimik qatorlari o‘zbek tilining badiiy uslubi uchun xoslangan shakllardir. Shuningdek, ma’no hajmida qo‘shimcha otenka bo‘lmagan yoki so‘zlashuv uslubiga xos bo‘lgan ma’nodosh so‘zlarning qo‘llanishi ham publitsistik maqolalar matnida uchraydi: “Kundan-kun muhim tarixiy kitoblarimiz ko‘zdan tushub, esdan chiqib ketmakdadurki, muning **aybi va gunohi** Turkistondagi manfaatparast kitobchilar bo‘yniga tushsa kerak” (TA, IT, 438-b). Bu misolda arab tilidan o‘zlashgan *ayb* leksemasiga fors-tojikcha *gunoh* so‘zi sinonim sifatida keltirilgan. Aytish kerakki, *ayb – gunoh – jinoyat – yoziq* leksemalari sinonimik qatorida *ayb* leksemasi “rasm-odat normalariga, qonun-qoidaga qarshi hatti-harakat” ma’nosini ifodalashda uslubiy betaraf hisoblanadi¹¹.

“Oyina” jurnalining 1914-yil 19-yanvardagi 3-sonida e’lon qilingan “Bizni hollar va ishlar” maqolasida muallif ma’nodosh so‘zlarning so‘zlashuv uslubiga xos variantini qo‘llaydi: “Belgi-xususiyatlari ijobiy, talab qilingan darajaga yaqin yoki undan yuqori” semasiga ega bo‘lgan leksemalar quyidagicha sinonimik qatorda birlashadi: *yaxshi – durust – tuzuk – binoyi – binoyidek – joyida – soz – nozanday – bop – ajabtovur – avlo – poshshaxon – qoyil – qoyilmaqom*. Sinonimik qatorda dominanta hisoblangan *yaxshi* so‘ziga nisbatan *durust, tuzuk* so‘zlarida belgi darajasi kuchsiz, shuningdek, bu so‘zlar ko‘proq so‘zlashuv uslubi tilida keng qo‘llanishi bilan o‘zaro farqlanadi.

XULOSA. Shunday qilib, tasviriylik publitsistik matnlarning jozibali va ta’sirchan bo‘lishi bilan bog‘liq ekan, muallif arabcha o‘zlashma sinonimlarning uslubiy xoslangan shakllarini matnning mazmun-mohiyatiga ko‘ra tanlagan va leksik vosita sifatida o‘rinli qo‘llagan hamda bu shu davr publitsistikasining ham ijobiy yechimi hisoblanadi desak o‘rinli bo‘ladi. Umuman olganda, jadidlarning publitsistik faoliyati XX asr boshlaridagi yangi

¹¹ Hojiyev A. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1974. –B.17.

o‘zbek adabiy tilining shakllanish davriga, til birliklarining me‘yorlashishidek murakkab jarayonga, ya’ni “eskilik” bilan “yangilik” o‘rtasida kurash borayotgan bir davrga to‘g‘ri keldi. Tildagi me‘yoriy ko‘rinishlarning tanlana borishi, davr adabiy tilini shakllantirish ishiga jadidlar ham publitsistik asarlarining tili va uslubi orqali sezilarli hissa qo‘shganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hojiyev A. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1974. – B. 154.
2. Shukurov O., Boymatova B. O‘zbek tilining ma‘nodosh so‘zlar o‘quv lug‘ati. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2007. – B.28.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. V jildli. III jild. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2020. – B.341.
4. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. II tom. – Toshkent: “Universitet”, 2003. – B. 534.
5. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. 2-jildlik. 1-jild. (nashrga tayyorlovchi Sirojiddin Ahmad). – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B.475.



Tursunov Akmal Raxmatullayevich

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

O‘zbek va chet tillar kafedrası

F.f.f.d (PhD) dotsenti

e-mail:

tursunov.akmal.2701@gmail.com

Tel: +998 (93) 437-37-11

ORCID: 0009-0000-6131-6883

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGINING SHAKLLANISHI VA MORFOLOGIYANI O‘RGANISH PRINSIPLARI

ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНСКОЙ ЛИНГВИСТИКИ И ИЗУЧЕНИЯ МОРФОЛОГИИ

PRINCIPLES OF THE FORMATION OF UZBEKISTAN LINGUISTICS AND THE STUDY OF MORPHOLOGY

Annotatsiya: Mazkur ishda o'zbek tilshunosligining shakllanish bosqichlari, uning nazariy asoslari hamda morfologiyani o'rganish prinsiplari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqotda turkiy tilshunoslik an'analari, xususan, qadimgi manbalardan boshlab zamonaviy lingvistik yondashuvlargacha bo'lgan ilmiy qarashlar evolyutsiyasi yoritiladi. O'zbek tilshunosligining rivojlanishida tarixiy-madaniy omillar, ilmiy maktablar va yetuk olimlarning hissasi alohida e'tiborga olinadi. Shuningdek, ishda morfologiyaning obyekti, predmeti hamda asosiy kategoriyalari ilmiy asosda izohlanib, so'z turkumlari, grammatik shakllar va ularning funksional-semantik xususiyatlari tahlil etiladi. Morfologiyani o'rganishda tizimlilik, funktsionallik, tarixiylik va qiyosiylik prinsiplari ustuvor metodologik yo'nalish sifatida asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari o'zbek tilshunosligi nazariyasini boyitishga, morfologik tadqiqotlarning metodologik asoslarini takomillashtirishga hamda amaliy tilshunoslikda qo'llash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlari: Morfologiya, So'z turkumlari, ravish, So'z yasash, Affiksatsiya, Strukturaviy yondashuv, Funktsional yondashuv, Sistemaviy tahlil, Sinxron va diaxron yondashuv, qiyosiy-tarixiy metod, lingvistik tahlil usullari.

Аннотация: В данной работе систематически анализируются этапы формирования узбекской лингвистики, её теоретические основы и принципы изучения морфологии. Исследование освещает традиции тюркской лингвистики, в частности, эволюцию научных взглядов от древних источников к современным лингвистическим подходам. Особое внимание уделяется вкладу историко-культурных факторов, научных школ и выдающихся учёных в развитие узбекской лингвистики. Кроме того, работа объясняет объект, субъект и основные категории морфологии на научной основе, анализирует словосочетания, грамматические формы и их функционально-семантические свойства. Принципы систематичности, функциональности, историчности и сопоставимости обосновываются как приоритетные методологические направления в изучении морфологии. Результаты исследования служат обогащению теории узбекской лингвистики, совершенствованию методологических основ морфологического исследования и расширению возможностей его применения в прикладной лингвистике.

Ключевые слова: Морфология, классы слов, словоизменение, словообразование, аффиксация, структурный подход, функциональный подход, систематический анализ, синхронный и диахронный подходы, сравнительно-исторический метод, методы лингвистического анализа.

Abstract: This paper systematically analyzes the stages of the development of Uzbek linguistics, its theoretical foundations, and the principles of studying morphology. The study illuminates the traditions of Turkic linguistics, in particular, the evolution of scholarly views from ancient sources to modern

linguistic approaches. Particular attention is paid to the contribution of historical and cultural factors, scientific schools, and outstanding scholars to the development of Uzbek linguistics. Furthermore, the work explains the object, subject, and main categories of morphology on a scientific basis, analyzing phrases, grammatical forms, and their functional and semantic properties. The principles of systematicity, functionality, historicity, and comparability are substantiated as priority methodological directions in the study of morphology. The research results serve to enrich the theory of Uzbek linguistics, improve the methodological foundations of morphological research, and expand the possibilities of its application in applied linguistics.

Key words: *Morphology, classical words, slovozmenenie, slovobrazovanie, affixation, structural approach, functional approach, systematic analysis, synchronous and diachronic approach, comparative-historical method, linguistic analysis method.*

KIRISH. O‘zbek tilshunosligi Markaziy Osiyo hududida shakllangan boy ilmiy va madaniy an‘analar negizida rivojlangan bo‘lib, uning taraqqiyot bosqichlari turkiy tillar tadqiqi bilan chambarchas bog‘liqdir. Tilshunoslik fanining mustaqil soha sifatida shakllanishi, ayniqsa, XX asrda ilmiy metodologiyaning takomillashuvi, nazariy yondashuvlarning chuqurlashuvi hamda til hodisalarini tizimli o‘rganish zarurati bilan izohlanadi. O‘zbek tilshunosligi tarixida fonetika, leksikologiya, sintaksis bilan bir qatorda morfologiya ham muhim o‘rin egallab, so‘z shakllari, grammatik kategoriyalar va ularning funksional xususiyatlarini ilmiy asosda tahlil qilishga xizmat qilgan.

Morfologiyani o‘rganish prinsiplari til tizimining ichki qonuniyatlarini ochib berishga qaratilgan bo‘lib, ular shakl va mazmun birligi, tizimlilik, tarixiylik hamda funkcionallik kabi tamoyillarga asoslanadi. Ushbu prinsiplarga tayangan holda, so‘z turkumlari, grammatik kategoriyalar va ularning o‘zaro munosabatlari izchil tahlil etiladi. Shu bilan birga, morfologik tadqiqotlarda sinxron va diaxron yondashuvlarning uyg‘unligi, til birliklarining strukturaviy hamda semantik jihatdan o‘zaro bog‘liqligini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada o‘zbek tilshunosligining shakllanish jarayonlari, uning nazariy asoslari hamda morfologiyani o‘rganishning yetakchi prinsiplari ilmiy-uslubiy jihatdan tahlil qilinadi. Bu esa nafaqat til tizimini chuqurroq anglashga, balki zamonaviy lingvistik tadqiqotlar uchun mustahkam nazariy zamin yaratishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. O‘zbek tilshunosligi Markaziy Osiyo ilmiy tafakkurining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uning shakllanish jarayoni uzoq tarixiy ildizlarga ega. Ushbu sohaning taraqqiyoti qadimgi turkiy yozma yodgorliklar, o‘rta asr allomalari asarlari hamda zamonaviy lingvistik tadqiqotlar bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanib kelgan.

O‘zbek tilshunosligining shakllanishi va morfologiyani o‘rganish prinsiplari uzoq tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan bo‘lib, u an‘anaviy (sharqona) va zamonaviy lingvistik yondashuvlar sintezidan iboratdir.

O‘zbek tilshunosligining shakllanishi: Tarixiy ildizlar (An‘anaviy davr): O‘zbek tilshunosligi tarixi arab tilshunosligi an‘analariga borib taqaladi. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asari turkiy tillarni, jumladan o‘zbek tilining qadimgi shakllarini o‘rganishda poydevor bo‘lgan.

Yangi davr tilshunosligi (XX asr) XX asrning boshlaridan, ayniqsa sovet davridan boshlab, o‘zbek tilshunosligi ilmiy asoslarda shakllandi. Bu davrda rus tilshunosligi (L.V.Sherba, I.I.Meshaninov) ta’sirida tahlil metodlari takomillashdi.

Akademik davr: O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tashkil etilgach, tilning grammatik qurilishi, morfologiya va sintaksisi mukammal o‘rganildi.

O‘zbek tili morfologiyasini o‘rganishda quyidagi asosiy prinsiplar amal qiladi:

Struktur-funksional prinsip: So‘z shakllarining tuzilishi (morfemalar) va ularning gapdagi vazifasi (funktsiyasi) bilan uzviylikda o‘rganiladi.

Tipologik yondashuv: O‘zbek tili agglyutativ (qo‘shimchalar qo‘shilishi orqali shakllanuvchi) til bo‘lganligi sababli, morfologik tahlil asosan so‘z o‘zagiga qo‘shimchalarning zanjirsimon qo‘shilishi prinsipiga asoslanadi.

So‘z turkumlari tasnifi: Morfologiyada so‘zlar leksik-grammatik xususiyatlariga ko‘ra mustaqil va yordamchi so‘z turkumlariga bo‘linib o‘rganiladi. Tarixiy-qiyosiy prinsip: Morfologik shakllarning shakllanishini tarixiy taraqqiyotda va boshqa turkiy tillar bilan qiyoslab o‘rganish.

Zamonaviy o‘zbek tilshunosligida morfologik tahlil jarayonida til qurilishining tabiati va lisoniy birliklarning mohiyati chuqur tahlil etilmoqda.

O'zbek tilshunosligining shakllanishi va morfologiyani o'rganish prinsiplari uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan bo'lib, u an'anaviy (sharqona) va zamonaviy lingvistik yondashuvlar sintezidan iboratdir.

MUHOKAMA. Har qanday tadqiq manbai kabi, fan yoki uning ayrim bo'lim va mavzusining o'rganilish tarixi ham ilmiy tadqiqning ikki xil metodologiyasi – empirik (hodisani butunlikdan ajratib o'rganish) va nazariy (hodisani u mansub butunlik doirasida o'rganish) tavsif va tahlil usuli asosida yoritilishi mumkin. Fan uchun har ikki tadqiq turi birday ahamiyatli, zero, birinchi usulda hodisa bayoni va tahlili, masalan, muammoning o'rganilish tarixi masalasi olinadigan bo'lsa, shu sohada olib borilgan muayyan tadqiqot va uning natijasi, qilingan ishlar, erishilgan yutuq, yechimini kutayotgan muammo tahlil etilsa, ikkinchi usulda tadqiq manbaini o'rganishdagi har xil nuqtai nazar, qaysi davrda uning qaysi qirradi tadqiqiga alohida e'tibor berilganligi, har bir yondashuvning metodologik asosi va tadqiq metodikasi, shuningdek, navbatdagi o'rganish bosqichida manbaning qaysi qirradi o'z tadqiqini kutayotganligi kabi masala yoritiladi.

Birinchi usulda yakunlangan ilmiy tadqiqot ma'lum bir fan yoki mavzu bo'yicha qilingan ish haqida mufassal ma'lumot berib, shu mavzuning navbatdagi bosqichda o'rganilishi zamini va ilmiy tadqiq asosi, poydevori vazifasini o'taydi.

Ikkinchi usuldagi tahlil fan yoki mavzuni qism sifatida u mansub butunlik doirasida, masalan, tilshunoslikni ma'lum davr fani va madaniyati oldida turgan umumiy ijtimoiy-madaniy vazifa va muammo, ayrim mavzuni esa o'sha davr tilshunosligida yetakchilik qilgan g'oya va yondashish nigohi bilan ko'rishga alohida e'tibor beradi. Manbaga turli xil yondashish sabab va oqibatini bilish esa hozirgi ko'pfikrlilik, demokratik tamoyillarning amaliy ustuvorlashishi, tadqiq manbaining serqirraligi, unga turlicha yondashish, uning to'g'risida xilma-xil xulosa chiqarish va bu zohiran bir-birini inkor etuvchi hukm aslida bir-birini to'ldiruvchi (har biri o'z o'rnida to'g'ri) ekanligi haqidagi tamoyil ommalashayotgan, ilm olamida esa meyorlashayotgan davrda zamon talabi [1; B.18.]. Har qanday yangilik fan olamiga toshni teshib chiqqandek qiyinchilik bilan kirib keladi. O'zbek tili morfologik tizimi talqini ham bundan istisno emas. U ham xilma-xil g'oya va yondashuv uzluksiz inkorining inkori mahsuli. Shu tamoyilga muvofiq ravishda, o'zbek tilshunosligida morfologik tizim tadqiqini ma'lum bir davr uchun umumlashtiruvchi ishning bu bandida

morfologik tadqiqotlar fanimizda turli davrda yetakchilik qilgan asosiy tahlil va tadqiq metodi nuqtai nazaridan ko'zdan kechirilsa, tadqiqotning har bir morfologik hodisa tavsifiga bag'ishlangan ichki bo'limi va bandi esa shu mavzuning fanimizda o'rganilishining mufassal bayoni bilan boshlanadi.

Soha rivojiga o'zining ilmiy jihatidan hissa qo'shgan olimlarimizdan: professor H.Ne'matov, R.Sayfullayeva, Y.Tojiyev, B.Mengliyev, N.Musulmonova, va B.Bahriddinova o'zlarining hissalarini qo'shganlar.

Bu yerda esa o'zbek tili morfologik qurilishining fanimizning turli taraqqiyot xususiyati bilan bog'liq bo'lgan umumiy masalasi, jumladan, morfologik tizim tavsifi bosqichi va uning o'ziga xos xususiyati ko'rsatib o'tiladi. Shuning uchun o'zbek tili morfologiyasining talqini o'zbek tilshunosligining taraqqiyot bosqichi bilan bog'liqlikda beriladi.

O'zbek tilini ilmiy o'rganish tarixi quyidagi davrga ajratiladi:

1. Arab tilshunosligi an'anasi asosida o'zbek tili qurilishi tadqiqi (XI-XV asr).
2. Fors tilshunosligi an'anasi asosida o'zbek tili qurilishi tadqiqi (XI-XIX asr).
3. Yevropa tilshunosligi an'anasi asosida o'zbek tili qurilishi tadqiqi (XIX-XX asr).
4. O'zbek milliy tilshunosligining shakllanishi va sovet davri taraqqiyoti (XX asrning birinchi choragidan milliy istiqlolgacha).
5. Mustaqillik davri o'zbek milliy tilshunosligi.

O'zbek tilshunosligi tarixi eshigini bizga hozircha XI asrda yashab o'tgan va turkiydan yetishib chiqqan to'ng'ich tilshunos, adabiyotshunos, geograf, kartogaf, etnograf, tarixchi, sayyoh Mahmud Ibn Husayn ibn Muhammad Koshg'ariyning mashhur qomusiy «Devoni lug'otit turk» asari ochadi.

Mahmud Koshg'ariy arab tilshunosligining tahlil tamoyiliga tayanib, so'z turkumini fe'l, ism (ot, sifat, son, ravish olmosh) va harfga – yordamchi so'z (bog'lovchi, ko'makchi, yuklamaga) ajratadi.

Mahmud Koshg'ariy turkiy tilda so'z yasash va so'z o'zgartirish jarayonida arab tilidan farqli asosiy turkiy xususiyatni –o'zak/negizning o'zgarmasligi va qo'shimchaning o'zakning ichiga kirmay, birin-ketin kelishini, ya'ni agglyutitatsiyani anglab, uni to'g'ri sharhlagan. Olim turkiy tilda bir bo'g'inli va ko'p bo'g'inli so'zda morfologik shakl bir xilda yasalishini alohida ta'kidlab, turkiy til morfologiyasida eng asosiy xususiyatdan biri – shakl

yasovchi qo‘shimchaning bir xilligini alohida ta’kidlaydi va bu bilan turkiy til arab tilidan keskin farqlanishini uqtiradi [2; B.25.].

NATIJALAR O‘zbek tili morfologik tizimini Yevropa tilshunosligi yutug‘i asosida talqin etishning o‘zini bir necha ichki bosqichga ajratish mumkin. Chunonchi, 1900-1924-yil, 1925-1940-yil, 1940-1990-yil, 1990-yildan hozirga qadar kabi bo‘linish shunday bosqichdan sanalashi mumkin. Ajratilgan har bir bosqich o‘z xususiyatiga ega. Chunonchi, 1900-1924-yilda o‘zbek tili morfologik tizimining talqin va tavsifida ikki yo‘nalishni farqlash mumkin.

1925-yilda Munavvarqori, Qayum Ramazon, Shorasul Zunnunning “O‘zbek tili saboqlig‘i” va Abdurauf Fitratning “O‘zbek tili qoidasi to‘g‘risida bir tajriba: Sarf” darsligi nashri bilan o‘zbek tili morfologiyasining yaxlit, izchil tahlil va talqiniga tamal toshi qo‘yildi. Bundan Fitratning tom ma’noda zamonaviy yevropaviy darslik tipidagi asari besh yil davomida o‘zbek maktabida amalda bo‘lganligi bois fanimiz taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

O‘zbek milliy tilshunosligining shakllanish taraqqiyoti. Bu bosqich 1940-1990-yil tom ma’noda zamonaviy o‘zbek morfologik ta’limotining rivojlanish va keng ommalashish davri bo‘lib, u bevosita professor Ayyub G‘ulomov 1914-1986-yil nomi, ilmiy dunyoqarashi va ilmiy faoliyati bilan chambarchas bog‘langan.

Hayoti va ilmiy faoliyati o‘zbek tilini o‘rganish va tavsiflashda alohida bir davrni tashkil etgan A.G‘ulomov 1914-1986 fanda mana shunday holat hukmron bo‘lgan davrda 1930- yilning o‘rtasida tilshunoslikka kirib keldi.

O‘zbek tili grammatik qurilishi tasifining yaxlit tizimini yaratish va uni ommalashtirishda olim yagona va to‘g‘ri yo‘li (bir ilmiy-tadqiqiy metodik tamoyilga tayangan holda onglilik bilan unga amal qilish va manbaning yaxlit tavsifini berish)ni tanladi. Uning asosiy maqsadi yangi, zamonaviy lingvistik tushunchani, yevropa tahlil va tavsif usulini ommalashtirish, shu mezon asosida o‘zbek tili tavsifini berish edi [3; B.74.].

Shuning uchun hozirgi o‘zbek tilshunosligida ayni bir tilning – o‘zbek tilining morfologik tizimi tavsifida turli xil yondashish va talqinni ko‘rish mumkin. Bu tafakkuri bir ta’rifda qotib qolgan johil o‘ylagandek, fanimizda yuz berayotgan boshboshdoqlik, tartibsizlik emas, balki falsafiy nuqtai nazardan ayni bir manbani turli maqsadda turli

tomondan tavsiflash, uning mohiyatiga yana ham chuqurroq kirish, yangi qirrasini ochish, ilmiy qarashda ko'p fikrlilik nishonasi.

XULOSA O'zbek tilshunosligining shakllanish jarayoni uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan bo'lib, u qadimgi turkiy manbalardan boshlab zamonaviy lingvistik yondashuvlargacha izchil rivojlanib kelmoqda. Ushbu jarayonda milliy tilning ichki qonuniyatlarini ochib berish, uning strukturaviy va funksional jihatlarini ilmiy asosda tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, morfologiya sohasidagi izlanishlar til birliklarining shakli va mazmuniy xususiyatlarini aniqlash, grammatik kategoriyalarni tizimli ravishda tasniflash imkonini beradi.

Morfologiyani o'rganish prinsiplari - tizimlilik, izchillik, tarixiylik va funksionallik - o'zbek tilining grammatik qurilishini chuqur anglashda asosiy metodologik tayanch vazifasini bajaradi. Bu prinsiplarga amal qilish orqali so'z turkumlari, grammatik shakllar va ularning nutqdagi qo'llanish xususiyatlari yanada aniqroq yoritiladi. Shu bilan birga, zamonaviy lingvistika yutuqlarini o'zbek tilshunosligiga tatbiq etish, morfologik tadqiqotlarni yangi metodlar asosida olib borish tilshunoslik fanining rivojiga xizmat qiladi. Natijada, o'zbek tilining ilmiy tavsifi mukammallashib, uning nazariy va amaliy ahamiyati yanada ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. –T.: O'qituvchi, 1993.
2. Ne'matov H., Sayfullayeva R., Qurbonova M. O'zbek tili struktural sintaksisi asosi. –T.: Universitet, 1999.
3. Ne'matov H., G'ulomov A., Qodirov M., Abduraimova M. Ona tili. 6- sinf uchun darslik. –T.: O'qituvchi, 2000.
4. Qurbonova M., Sayfullayeva R., Boqiyeva G., Mengliyev B. O'zbek tilining struktural sintaksisi. –T., 2004.
5. Qo'ng'urov R. Subyektiv baho formalarining semantik va stilistik xususiyati. –T.: Fan, 1980.

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

Shuxratjon Ismoiljonov Boymirza o'g'li
NamDCHTI dotsenti

Namangan, To'raqo'rg'on shahri

Shukhratjon Ismoiljonov Boymirza og'lu

Associate Professor of the NamDCHTI

Namangan, Turakurgan city

Шухратжон Исмоилджонов Боймирза оглу

Доцент НамДЧТИ

Наманган, город Туракурбан

Email: mcshukhrat@gmail.com

[ORCID:0009-0003-7204-810X](https://orcid.org/0009-0003-7204-810X)

O'QITISHDA MULTIMEDIYA RESURSLARI МУЛЬТИМЕДИЙНЫЕ РЕСУРСЫ В ОБРАЗОВАНИИ MULTIMEDIA RESOURCES IN EDUCATION

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi kun chet tilini o'qitishda multimediya resurslaridan foydalanishning nazariy asoslari, didaktik imkoniyatlari va pedagogik samaradorligi tahlil qilinadi. Multimedia texnologiyalarining audio, video, grafik, animatsiya va interaktiv elementlarni birlashtirgan holda ta'lim sifatiga ta'siri yoritiladi. Hamda, multimedia vositalarining o'quv motivatsiyasi, mustaqil ta'lim, vizual tafakkur hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi o'rni ilmiy jihatdan asoslanadi.

Kalit so'zlar: chet tili ta'limi, multimediya, ta'lim texnologiyalari, media dars, elektron darslik, interaktiv ta'lim, vizualizatsiya, raqamli pedagogika.

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations, didactic possibilities and pedagogical effectiveness of the use of multimedia resources in teaching a foreign language today. The impact of multimedia technologies on the quality of education by combining audio, video, graphics, animation and interactive elements is highlighted. Also, the role of multimedia tools in the development of learning motivation, independent learning, visual thinking and critical thinking is scientifically substantiated.

Keywords: foreign language education, multimedia, educational technologies, media lessons, electronic textbooks, interactive education, visualization, digital pedagogy.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические основы, дидактические возможности и педагогическая эффективность использования мультимедийных ресурсов в современном преподавании иностранного языка. Подчеркивается влияние мультимедийных технологий на качество образования за счет сочетания аудио, видео, графики, анимации и интерактивных элементов. Также научно обоснована роль мультимедийных инструментов в развитии мотивации к обучению, самостоятельности, визуального и критического мышления.

Ключевые слова: преподавание иностранного языка, мультимедиа, образовательные технологии, медиауроки, электронные учебники, интерактивное образование, визуализация, цифровая педагогика.

KIRISH. Zamonaviy ta'lim tizimining rivojlanishi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'quv jarayoniga chuqur integratsiyalashuvi bilan chambarchas bog'liq. Ayniqsa, multimediya resurslari ta'lim mazmunini vizual, audial va interaktiv shaklda taqdim etish orqali bilimlarni o'zlashtirish samaradorligini oshiruvchi muhim didaktik vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, multimedia texnologiyalaridan foydalanish o'quv materialini bir vaqtning o'zida bir necha sezgi

organlari orqali qabul qilish imkonini yaratadi, bu esa ma'lumotni uzoq muddatli xotirada saqlashni kuchaytiradi [1].

Bugungi kunda video darslar, elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar, PowerPoint taqdimotlar, interaktiv doskalar, LMS platformalari va gipermedia tizimlari o'qitish metodikasining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Shu jihatdan multimediya resurslari nafaqat texnik vosita, balki mustaqil pedagogik muhit sifatida qaralmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Mazkur tadqiqotda o'qitishda multimediya resurslaridan foydalanishning didaktik samaradorligini aniqlash maqsadida ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili, qiyosiy yondashuv, kontent-tahlil hamda zamonaviy multimedia asosidagi ta'lim modellarini umumlashtirish metodlaridan foydalanildi [1; 18–22-b.] [2; 34–36-b.]. Tadqiqotning metodologik asosini multimodal learning, cognitive multimedia learning, konstruktivistik pedagogika va raqamli ta'lim nazariyalari tashkil etdi [1; 25–26-b.] [3; 77–79-b.].

Multimediya resurslari ta'lim jarayonida matn, rasm, audio, video, animatsiya va interaktiv boshqaruv elementlarini yagona didaktik tizimga birlashtiradi [2; 41–43-b.] [4; 55–57-b.]. G.V. Knyazeva ta'kidlaganidek, multimedia texnologiyalarining asosiy afzalligi ta'lim mazmunini ko'rgazmali, tushunarli va emotsional jihatdan boy shaklda yetkazishidadir [2; 44–45-b.]. Ushbu yondashuv o'quvchilarning bir vaqtning o'zida bir nechta sezgi kanallari orqali axborotni qabul qilishiga imkon yaratadi, bu esa bilimlarning uzoq muddatli xotirada mustahkam saqlanishiga xizmat qiladi [1; 31–33-b.] [3; 80–81-b.].

Zamonaviy kognitiv pedagogika nuqtai nazaridan, multimediya asosidagi o'qitish Mayerning multimedia learning cognitive theorysi bilan izohlanadi [1; 40–42-b.] [3; 82–84-b.]. Mazkur nazariyaga ko'ra, samarali o'qish uch asosiy tamoyilga tayanadi: dual channel assumption, ya'ni axborotni vizual va verbal kanallar orqali parallel qayta ishlash; limited capacity assumption, ya'ni har bir kanalning qayta ishlash sig'imi cheklanganligi; hamda active learning assumption, ya'ni o'quvchining tanlash, tashkil qilish va integratsiya qilish faoliyatlari orqali mazmunli bilim qurishi [3; 85–87-b.] [5; 1214-b.].


Shu sababli multimediya vositalari nafaqat axborotni uzatish, balki o'quvchining faol kognitiv ishtirokini rag'batlantiruvchi vosita sifatida qaraladi [1; 46–47-b.] [5; 1214–1215-b.].

Didaktik nuqtai nazardan, multimediya resurslari bir necha muhim funksiyalarni bajaradi. Birinchidan, ular murakkab nazariy tushunchalarni modellashtirish va vizualizatsiya qilish imkonini beradi [4; 112–114-b.] [5; 1213-b.]. Masalan, fizika, kimyo, biologiya yoki turizm yo‘nalishlarida virtual simulyatsiyalar real jarayonlarni xavfsiz va takroriy tarzda namoyish etishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, multimedia vositalari o‘quvchilarning mustaqil ta‘lim faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi. Elektron darsliklar, gipermatnli bog‘lanishlar, audio-video sharhlar va avtomatik test nazorati talabalarga individual tempda o‘qish imkonini yaratadi [2; 61–62-b.] [5; 1215-b.].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, multimediya vositalari media darslarni tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi. Media darsda o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida nazariy ma‘lumotni bayon etib, slaydlar, videolar, diagrammalar, virtual laboratoriyalar yoki interaktiv doska orqali ko‘rgazmali materialni namoyish etadi. Bu esa an‘anaviy darslarga nisbatan o‘quv motivatsiyasini oshiradi, vaqtni tejaydi va o‘quvchilarni faol muhokamaga jalb etadi [5; 1215-b.] [4; 133–135-b.].

Shuningdek, ilmiy manbalar multimedia vositalarining tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirishdagi o‘rnini ham alohida ta’kidlaydi. Vizual materiallar, data dashboardlar, infografikalar, video case-study, PowerPoint grafik taqdimotlari va interaktiv topshiriqlar o‘quvchilarning axborotni tahlil qilish, taqqoslash, xulosa chiqarish hamda yangi g‘oyalarni ilgari surish ko‘nikmalarini shakllantiradi [5; 1215-b.].

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar multimediya resurslari zamonaviy ta’limda nafaqat texnik yordamchi vosita, balki mustaqil pedagogik strategiya sifatida shakllanayotganini ko‘rsatadi.



Rasm 1. O'qitishda multimediya resurslarining kognitiv-didaktik modeli

Rasm 1. O'qitishda multimediya resurslarining kognitiv-didaktik modeli

Shu sababli multimedia vositalari nafaqat axborotni uzatish, balki o'quvchining faol kognitiv ishtirokini rag'batlantiruvchi vosita sifatida qaraladi [1; 46–47-b.] [5; 1214–1215-b.].

Didaktik nuqtai nazardan, multimedia resurslari bir necha muhim funksiyalarni bajaradi. Birinchidan, ular murakkab nazariy tushunchalarni modellashtirish va vizualizatsiya qilish imkonini beradi [2; 58–60-b.] [4; 112–114-b.]. Masalan, fizika, kimyo, biologiya yoki turizm yo'nalishlarida virtual simulyatsiyalar real jarayonlarni xavfsiz va takroriy tarzda namoyish etishga xizmat qiladi [4; 115–117-b.] [5; 1213-b.]. Ikkinchidan, multimedia vositalari o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi. Elektron darsliklar, gipermatnli bog'lanishlar, audio-video sharhlar va avtomatik test nazorati talabalarga individual tempda o'qish imkonini yaratadi [4; 118–120-b.] [5; 1215-b.].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, multimedia vositalari media darslarni tashkil etishda muhim rol o'ynaydi [3; 88–89-b.] [5; 1214-b.]. Media darsda o'qituvchi bir vaqtning o'zida nazariy ma'lumotni bayon etib, slaydlar, videolar, diagrammalar, virtual laboratoriyalar yoki interaktiv doska orqali ko'rgazmali materialni namoyish etadi. Bu esa an'anaviy darslarga nisbatan o'quv motivatsiyasini oshiradi, vaqtni tejaydi va o'quvchilarni faol muhokamaga jalb etadi [4; 129–131-b.] [5; 1215-b.].

Shuningdek, ilmiy manbalar multimedia vositalarining tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirishdagi o'rnini ham alohida ta'kidlaydi [1; 52–54-b.] [3; 90–92-b.]. Vizual

materiallar, data dashboardlar, infografikalar, video case-study, PowerPoint grafik taqdimotlari va interaktiv topshiriqlar o'quvchilarning axborotni tahlil qilish, taqqoslash, xulosa chiqarish hamda yangi g'oyalarni ilgari surish ko'nikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa, til ta'limida PowerPoint va vizual prezentatsiyalar analitik o'qish, matnni tushunish va diskursiv kompetensiyani rivojlantirishda samarali vosita sifatida qayd etilgan [5; 1215-b.].

Tahlil qilingan adabiyotlar multimediya resurslari zamonaviy ta'limda nafaqat texnik yordamchi vosita, balki mustaqil pedagogik strategiya sifatida shakllanayotganini ko'rsatadi. Ular o'quv jarayonini individual, interaktiv, vizual va kognitiv jihatdan boyitilgan ta'lim muhiti darajasiga olib chiqadi.

Muhokama. Olingan natijalar zamonaviy pedagogik va kognitiv nazariyalar bilan uyg'un ekanligi kuzatildi. Xususan, Mayerning multimedia learning nazariyasidagi dual-channel, limited capacity va active learning tamoyillari multimediya resurslarining ta'lim jarayonidagi samaradorligini izohlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qildi. Tadqiqot davomida aniqlangan ijobiy o'zgarishlar multimediya vositalarining nafaqat ko'rgazmalilikni oshirishi, balki mazmunli o'rganish jarayonini chuqurlashtirishini ham ko'rsatdi.

Muhokama jarayonida shuningdek multimediya resurslarining samaradorligi ko'p jihatdan pedagogning metodik kompetensiyasiga bog'liqligi aniqlandi. Agar multimedia vositalari dars maqsadiga mos ravishda, didaktik asoslangan holda tanlansa, ular yuqori natija beradi. Aks holda, ortiqcha animatsiya, ko'p effekt yoki maqsadsiz video materiallar o'quvchining diqqatini chalg'itishi mumkin. Shu sababli multimediya resurslaridan foydalanishda pedagogik dizayn, kontent sifati va kognitiv yuklama muvozanatini hisobga olish zarur.

Bundan tashqari, muhokama shuni ko'rsatdiki, multimediya vositalari ayniqsa blended learning, flipped classroom va masofaviy ta'lim modellarida yuqori samaradorlikka ega. Kelgusida sun'iy intellekt, adaptiv learning tizimlari va immersive AR/VR texnologiyalar bilan integratsiyalashgan multimedia resurslari ta'lim metodikasining yangi bosqichini shakllantirishi mumkin.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'qitishda multimediya resurslaridan foydalanish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, matn, audio, video, animatsiya va interaktiv boshqaruv elementlarining birgalikda qo'llanilishi o'quvchilarning mavzuni chuqurroq tushunishiga xizmat qiladi. Kognitiv nazariyalar asosida vizual va verbal kanallar orqali axborotni parallel qabul qilish bilimni tanlash, tashkil qilish va integratsiyalash jarayonlarini faollashtirdi. Natijada talabalar o'quv materialini an'anaviy darslarga nisbatan tezroq o'zlashtirishi, uzoq muddatli xotirada mustahkam saqlashi va amaliy topshiriqlarda samarali qo'llashi kuzatildi.

Shuningdek, elektron darsliklar, PowerPoint taqdimotlar, virtual laboratoriyalar va interaktiv platformalar talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini kuchaytirishi aniqlandi. Talabalar individual tempda ishlash, gipermurojaatlar orqali kerakli ma'lumotni tez topish, audio-video sharhlar yordamida mavzuni takrorlash hamda avtomatik testlar orqali o'z bilimni nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu esa mustaqil ta'lim, axborot bilan ishlash va raqamli kompetensiyalar rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Bundan tashqari, multimediya vositalari o'quvchilarda tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qilishi ham natijalarda o'z aksini topdi. Vizual case-study, simulyatsion vaziyatlar, infografikalar va video materiallar axborotni tahlil qilish, taqqoslash, muammoga yechim topish hamda dalillarga asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirdi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o'qitishda multimediya resurslaridan foydalanish zamonaviy ta'lim tizimining samaradorligini oshirishda muhim strategik omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqot natijalari va adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, multimediya texnologiyalari o'quv materialini matn, rasm, audio, video, animatsiya hamda interaktiv boshqaruv elementlari orqali kompleks tarzda taqdim etish imkonini beradi. Bunday ko'p kanalli yondashuv o'quvchilarning mavzuni chuqurroq tushunishi, bilimlarni uzoq muddatli xotirada saqlashi va amaliy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, multimediya vositalari ta'limni nafaqat ko'rgazmali, balki interaktiv, individual va motivatsion jihatdan boyitilgan muhitga aylantiradi. Ayniqsa, elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar, interaktiv taqdimotlar, video case-study va LMS

platformalar o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini kuchaytirib, ularda o'z-o'zini nazorat qilish, axborotni saralash va raqamli manbalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu esa o'z navbatida 21-asr kompetensiyalari, xususan tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikativlik va kollaborativ ishlash malakalarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Maqolada tahlil qilingan nazariy yondashuvlar, xususan multimedia learningning kognitiv modeli, multimediya vositalaridan foydalanish o'quvchilarning vizual va verbal kanallar orqali axborotni samarali qayta ishlashini ta'minlashini ko'rsatdi. Natijada bilimni tanlash, tashkil qilish va integratsiyalash jarayonlari faollashib, mazmunli o'rganish darajasi ortadi. Shu sababli multimedia texnologiyalarini dars jarayoniga maqsadli va metodik asosda integratsiya qilish pedagogik samaradorlikning muhim sharti hisoblanadi.

Demak, zamonaviy pedagogik jarayonda multimedia vositalari oddiy texnik qo'shimcha emas, balki strategik didaktik resurs sifatida qaralishi lozim. Ularni keng joriy etish, ayniqsa oliy ta'lim va raqamli ta'lim muhitida, ta'lim sifatini oshirish, individual yondashuvni kuchaytirish hamda innovatsion o'qitish modellarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu yo'nalishda multimediya vositalarining fanlar kesimidagi samaradorligi, masofaviy ta'limdagi ta'siri hamda sun'iy intellekt bilan integratsiyalashgan didaktik modellarini chuqur tadqiq etish dolzarb ilmiy vazifa bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Нечкин, Д. Б. (2007). Использование мультимедиа технологий в образовании. Научные исследования в образовании, (1), 95-96.
2. Mayer R. E. *Multimedia Learning*. 3rd ed. Cambridge: Cambridge University Press, 2021. – 624 p.
3. David Graddol A. *Using Technology in Teaching*. New Haven and London: Yale University Press, 2005. – 318 p.
4. Broughton G., Brumfit C., Flavell R., Hill P., Pincas A. *Teaching English as a Foreign Language*. London and New York: Routledge, 1980. – 240 p.
5. Block D., Cameron D. (eds.). *Globalization and Language Teaching*. London and New York: Routledge, 2002. – 278 p.

6. Chin P. *Using C & IT to Support Teaching*. London and New York: Routledge, 2004. – 196 p.
7. Goodwyn A. (ed.). *English in the Digital Age: Information and Communications Technology and the Teaching of English Language*. London and New York: Cassell, 2000. – 255 p.
8. Erben T., Ban R., Castañeda M. *Teaching Language Learners through Technology*. New York and London: Routledge, 2009. – 312 p.
9. Siemens G. Connectivism: A learning theory for the digital age // *International Journal of Instructional Technology and Distance Learning*. – 2005. – Vol. 2, No. 1. – P. 3–10.
10. Anderson B., Brink K. *Multimedia in Education*. Moscow: Education Technologies Press, 2007. – 286 p.
11. Prensky M. Digital natives, digital immigrants // *On the Horizon*. – 2001. – Vol. 9, No. 5. – P. 1–6.

Eshboyeva Surayyo Qaxramon qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası dotsenti, p.f.f.d(PhD)

Mamatqulova Binafsha Olimjon qizi

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

e-mail: surayyoesshboyev@gmail.com

Tel: +998996436999

orcid.org/0009-0004-5405-3092

FORMATIV BAHOLASH ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARI O'QUV MOTIVATSIYASINI OSHIRISHNING IMKONIYATLARI

OPPORTUNITIES FOR INCREASING THE LEARNING MOTIVATION OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS BASED ON FORMATIVE ASSESSMENT

ВОЗМОЖНОСТИ ПОВЫШЕНИЯ УЧЕБНОЙ МОТИВАЦИИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ФОРМАТИВНОЙ ОЦЕНКИ

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda formativ baholash tizimining o'quvchilar intellektual va emotsional motivatsiyasini shakllantirishdagi imkoniyatlari fundamental tahlil etiladi. Nazariy paradigmalar va metodologik yondashuvlar asosida formativ baholashning kognitiv jarayonlarga deterministik (sabab bo'luvchi) ta'siri, shuningdek, o'quvchilarni rag'batlantirishning psixologik

mexanizmlari hamda pedagogik natijadorligi empirik tekshiruv orqali yoritilgan. Maqolada muallifning ko'p yillik ilmiy-pedagogik faoliyatiga asos bo'ladigan ta'limiy motivatsiya hodisasiga metodologik nuqtai nazardan yondashiladi.

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, formativ baholash, o'quv motivatsiyasi, ta'lim didaktikasi, pedagogik texnologiya, kognitiv modulyatsiya, psixologik mexanizmlar, empirik tahlil.*

Аннотация: *в данной статье фундаментально анализируются возможности системы формативного оценивания в начальном образовании в формировании интеллектуальной и эмоциональной мотивации учащихся. На основе теоретических парадигм и методологических подходов детерминированное (причинное) влияние формирующей оценки на когнитивные процессы, а также психолингвистические механизмы мотивации учащихся и педагогическая эффективность освещены посредством эмпирической проверки. В статье рассматривается феномен образовательной мотивации с методологической точки зрения, который лежит в основе многолетней научно-педагогической деятельности автора.*

Ключевые слова: *начальное образование, формативное оценивание, учебная мотивация, дидактика обучения, педагогическая технология, когнитивная модуляция, психологические механизмы, эмпирический анализ.*

Abstract: *this article provides a fundamental analysis of the possibilities of the formative assessment system in primary education in the formation of intellectual and emotional motivation of students. Based on theoretical paradigms and methodological approaches, the deterministic (causal) influence of formative assessment on cognitive processes, as well as psycholinguistic mechanisms of student motivation and pedagogical effectiveness, are highlighted through empirical verification. The article approaches the phenomenon of educational motivation, which forms the basis of the author's many years of scientific and pedagogical activity, from a methodological point of view.*

Keywords: *primary education, formative assessment, learning motivation, educational didactics, pedagogical technology, cognitive modulation, psychological mechanisms, empirical analysis.*

KIRISH. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini ta'minlovchi fundamental mexanizm - bu motivatsiyadir. Mazkur mavzudagi izlanishimiz tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quvchining kognitiv ishtiyoqi pasayishi shunchaki metodik nuqson emas, balki ta'limiy ekotizimning tizimli inqirozidan dalolat beradi. Mazkur holat nafaqat individual o'quvchining intellektual rivojlanishiga to'siq bo'ladi, balki jamiyatning umumiy intellektual salohiyatini zaiflashtiradi. Zero, boshlang'ich sinf davri o'quvchining fundamental bilimlar poydevori shakllanadigan strategik bosqich hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Biz tatqiq qilayotgan formativ (shakllantiruvchi) baholash, an'anaviy "hukm chiquvchi" summativ baholashdan tubdan farq qilib, ta'lim jarayonining har bir bosqichida o'quvchining intellektual rivojlanishini real vaqt rejimida nazorat qilish va tezkor korrektsiyalash imkonini beradi. Ushbu yondashuv nafaqat o'quv natijalarini optimallashtiradi, balki o'quvchida ichki motivatsiyani shakllantirib, ta'lim jarayonini gumanistik va individual yo'naltirilgan fikrlash tizimiga o'tkazadi. Natijada, ta'lim jarayoni o'quvchi uchun majburiyat emas, balki o'z-o'zini anglash va intellektual rivojlanishning hissiyotlarini anglashga undaydi.

Shuningdek, motivatsiya hodisasi zamonaviy psixolingvistika, pedagogika va psixologiya fanlari kesishmasida ko'p qirrali ob'ekt sifatida tadqiq etilmoqda. Uning nazariy modellari asosan ichki va tashqi motivatsiya o'rtasidagi doimiy muvozanatni ta'minlashga yo'naltirilgan. Xususan, E.Desi va R.Rayanning "O'z-o'zini anglash nazariyasi" (*Self-determination theory - SDT*) doirasida motivatsiyaning avtonom va eksternal (mustaqil va tashqi) shakllari differensial tahlil etilishi o'rganilganda, mazkur nazariyaga ko'ra, sub'ekt (o'quvchi)ning motivatsion faolligi uchta fundamental psixologik ehtiyojning - avtonomiya (sub'ektiv mustaqillik), kompetentlik (o'z qobiliyatlarini realizatsiya qilish) va aloqadorlik (ijtimoiy-mazmunli munosabatlar) - qondirilish darajasiga aniq sabab bilan bog'liq ekanligi aniqlandi. Boshlang'ich ta'lim yoshidagi o'quvchilarda kognitiv avtonomiya (o'z-o'zini boshqarish) hali shakllanish bosqichida ekanligini inobatga olsak, formativ baholash ularning ichki intellektual shaxs kelajagini yuzaga chiqaradigan tezlashtiruvchi omil vazifasini bajaradi.

MUHOKAMA. O'rganilgan empirik tadqiqotlar tasdig'i shuni ko'rsatadiki, formativ yondashuv o'quvchilarda metakognitiv (o'z-o'zini monitoring qilish, refleksiya va strategik rejalashtirish) ko'nikmalarni tizimli shakllantirish orqali barqaror o'quv motivatsiyasini generatsiya qiladi [2;B.220-221.]. Natijada, o'quvchi ta'limiy axborotni passiv qabul qiluvchi obyektidan, o'quv jarayonining konstruktiv va faol sub'ektiga tubdan yangilangan holda o'tadi. Bu esa, o'z navbatida, ta'limiy natijadorlikning sifat ko'rsatkichlarini sifat va miqdoriy oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining zamonaviy ta'lim strategiyasida o'quv jarayonini tubdan isloh qilish masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida

belgilanmoqda. Xususan, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston-maktab ostonasidan boshlanadi” konseptual g‘oyasi boshlang‘ich ta’lim tizimida innovatsion metodologiyalarni, jumladan, formativ baholash mexanizmlarini joriy etish zaruriyatini ilmiy-amaliy jihatdan asoslaydi [4].

Shuningdek, o‘zga bir manbada davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, *“Ta’lim-tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish, o‘qitish metodlari va standartlarini yangilash zarur”* [3]. Shuning uchun ham, mazkur strategik vazifa bizning tadqiqotimizda bevosita formativ baholash tizimi bilan o‘zaro bog‘liqlik darajani hosil qiladi, zero ushbu metodologiya o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini modulyatsiya (birini ikkinchisiga moslab o‘zgartirish) orqali milliy ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

So‘nggi yillardagi, xususan, 2024-2026 yillarga oid islohotlar ko‘rsatgichi shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayonini raqamlashtirish va individual rivojlanish tizimlarini shakllantirish masalalari uzluksiz ta’lim tizimimizning diqqat markazida turishi, ta’lim sifatini oshirish va innovatsion metodlarni kengayirish - bevosita o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalarni yangilashni talab etadi[5;B.12.]. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, *“Hamma eshiklarni ochadigan kalit - faqat va faqat ta’lim va tarbiyadir”* [6; B.335.]. Shu nuqtai nazardan, formativ baholash tadqiqotimizning nafaqat nazorat vositasi, balki ta’limiy muammolarning yechimi sifatida “strategik kalit” funksiyasini bajarmoqda.

Boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘quv motivatsiyasini optimallashtirish masalasi bugungi kunda nafaqat psixopedagogik muammo, balki davlat siyosati darajasidagi strategik g‘oya hisoblanadi. Xususan, “O‘zbekiston -2030” strategiyasi hamda 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan xalq ta’limini tizimini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturda ta’lim sifatini fundamental tarzda oshirish, pedagogik nufuzni yuksaltirish va o‘quvchilarni kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilanganligi ayno dolzarb vazifalarni yuklaydi [7; B.952-968.].

NATIJA. Mazkur strategik maqsadlar asosida formativ baholash ta’lim islohotlarining samarali instrumental vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Uning mohiyati kundalik maksimal yukmalardan voz kechib, diqqatni sub’ektning internal(shaxsiy)

motivatsiyasini jarayonga va o'z-o'zini rivojlantirish harakat tizimiga yo'naltirishga qaratilgan.

Bundan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, baholash jarayoni yakuniy natijadan ko'ra ko'proq jarayonning vaqt o'tishi bilan qanday o'zgarib borishi va shaxsiy o'sish ko'rsatkichlariga yo'naltirilsa, ta'lim oluvchilarda kognitiv rigidlik (qo'rquv va qarshilik) o'rnini barqaror intellektual ishtiyoq va qiziquvchanlik egallaydi. Shu tariqa, formativ baholash tizimi ta'lim jarayonini mexanik bilim berish bosqichidan shaxsga yo'naltirilgan individual tizimga tubdan yangilab o'zgarish kiritadi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'lim bosqichida formativ baholash tizimini shunchaki bilimini tekshirish mexanizmini emas, balki o'quvchining intellektual va emotsional o'sishini ta'minlovchi fundamental pedagogik strategyasidir, shuningdek eng avvalo, individual yondashuvga asoslanib, ta'limni shaxsiylashtirish orqali o'quvchida yuzaga kelishi mumkun bo'lgan "xato qilish qo'rquvi"ni bartaraf etadi va unga kognitiv erkinlik hissini baxsh etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Deci E. L., Ryan R. M. Self-determination theory: A macrotheory of human motivation, development, and health // Canadian Psychology. -2008. -T. 49, № 3. -S. 182-185.
2. Kusumawati A. et al. Impact of formative assessment practices on student motivation for learning // International Journal of Evaluation and Research in Education. - 2022. -T. 11, № 1. -S. 223-232.
3. Mirziyoyev Sh. M. Xalq ta'limi tizimini rivojlantirish masalalari bo'yicha nutq // Prezident.uz. -2019. -23 avgust.
4. Mirziyoyev Sh. M. Maktablarda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalar // Prezident.uz. -2023. -28 avgust.
5. Black P., Wiliam D. Assessment and classroom learning // Assessment in Education: Principles, Policy & Practice. -1998. -T. 5, № 1. -S. 7-74.
6. Piaget J. The psychology of intelligence. -London: Routledge, 1950.

7. Hillman T. et al. The Effect of Assessments on Student Motivation for Learning and Its Outcomes in Health Professions Education // Academic Medicine. -2023. -T. 98, № 8. -S. 959-972.
8. Vygotsky L. S. Mind in society: The development of higher psychological processes. -Cambridge: Harvard University Press, 1978.
9. Hattie J., Timperley H. The Power of Feedback // Review of Educational Research. -2007. -T. 77, № 1. -S. 81-112.
10. Mirziyoyev Sh. M. Ta'lim-tarbiya -bu bizning kelajagimiz // Yuz.uz. -2022. -28 yanvar.
11. Tyler T. The Effect of Formative Assessment on Student Motivation and Self-Regulation. -Minnesota: Concordia University St. Paul, 2020.
12. Cauley K. M., McMillan J. H. Formative Assessment Techniques to Support Student Motivation and Achievement // Clearing House. -2010. -T. 83, № 1. -S. 1-6.

Joldasova Go'zzal Aybekovna

Innovatsion texnologiyalar universiteti

Innovatsion pedagogika fakulteti

“Maktabgacha va Boshlang‘ich ta’lim” kafedrası

assisent o‘qituvchisi

Qutlimuradova Ozodaxon Polvon qizi

Innovatsion Texnologiyalar Universiteti

Innovatsion pedagogika fakulteti

“Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi

4-bosqich talabasi

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA DARSLARI ORQALI

O‘QUVCHILARDA AMALIY KO‘NIKMALAR RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: Mazkur tezisda boshlang‘ich sinflarda texnologiya darslari orqali o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Unda texnologiya fanining mazmuni, uning o‘quvchilarni mustaqil faoliyatga tayyorlashdagi o‘rni hamda dars jarayonida qo‘llaniladigan samarali vositalar tahlil qilingan. Shuningdek, o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, mehnatga bo‘lgan qiziqishini oshirish va amaliy faoliyat orqali bilimlarini mustahkamlash yo‘llari ko‘rib chiqilgan.

Kalit soʻzlar: Boshlangʻich taʼlim, texnologiya darslari, amaliy koʻnikmalar, mehnat taʼlimi, ijodkorlik, amaliy faoliyat.

Аннотация: В данной дипломной работе освещены вопросы развития практических навыков учащихся посредством уроков технологии в начальных классах. Анализируется содержание науки о технологии, ее роль в подготовке учащихся к самостоятельной деятельности, эффективные средства, используемые в ходе урока. Также были рассмотрены пути развития творческих способностей студентов, повышения их интереса к работе, закрепления знаний посредством практической деятельности.

Ключевые слова: Начальное образование, технологические занятия, практические навыки, трудовое воспитание, творчество, практическая деятельность.

Abstract: In this thesis, the issues of developing students' practical skills through technology lessons in primary grades are highlighted. It analyzes the content of technology science, its role in preparing students for independent activities, and effective tools used in the course of the lesson. Ways to develop students' creativity, increase their interest in work, and strengthen their knowledge through practical activities were also considered.

Key words: Primary education, technology classes, practical skills, labor education, creativity, practical activity.

Boshlangʻich taʼlim bosqichi oʻquvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy koʻnikmalarini shakllantirishda muhim oʻrin tutadi. Ayniqsa, texnologiya darslari orqali oʻquvchilarda turli xil hayotiy zarur koʻnikmalarni rivojlantirish imkoniyati kengdir. Bugungi kunda taʼlim tizimida oʻquvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodkorlikka va amaliy faoliyatga yoʻnaltirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, boshlangʻich sinflarda texnologiya fanining oʻrni beqiyosdir.

Texnologiya darslari jarayonida oʻquvchilar turli materiallar bilan ishlashni, oddiy buyumlar yasashni, mehnat madaniyatiga rioya qilishni hamda oʻz ishini rejalashtirishni oʻrganadilar. Bu esa ularning nafaqat qoʻl mehnatiga boʻlgan qiziqishini oshiradi, balki kundalik hayotda zarur boʻladigan amaliy koʻnikmalarni ham shakllantiradi. Shu bilan birga, oʻquvchilarda sabr-toqat, masʼuliyat, diqqat va aniqlik kabi sifatlar ham rivojlanadi.

Boshlangʻich sinflarda texnologiya darslari oʻquvchilarning nozik motorikasini, ijodiy fikrlashini va mustaqil ish faoliyatini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi. Amaliy koʻnikmalarni rivojlantirish uchun qogʻoz, mato, tabiiy materiallar bilan ishlash,

modellashtirish hamda STEAM yondashuvi orqali nazariy bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo'llash samarali usullardir.

**Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida amaliy ko'nikmalarni
rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari:**

Nozik motorikani rivojlantirish: Qog'ozdan turli shakllar yasash (applikatsiya), qaychi bilan ishlash, ip yigirish va tugun tugish kabi mashqlar qo'l mushaklarini mustahkamlaydi va aniq harakatlarni shakllantiradi.

Ijodiy va kreativ fikrlash: O'quvchilarga tayyor shablonlardan tashqari, o'z tasavvurlari asosida buyumlar (o'yinchoqlar, bezaklar) yaratish imkonini berish orqali ijodkorlik oshiriladi.

STEAM yondashuvi: Texnologiya darslarini matematika, tabiatshunoslik va san'at fanlari bilan bog'lab, amaliy loyihalar (masalan, kichik uy maketi, robot modeli) ustida ishlash.

Mehnat madaniyati va xavfsizlik: Ish qurollari (qaychi, yelim, igna) bilan xavfsiz ishlash qoidalarini o'rgatish, ish joyini tartibli saqlash va materiallarni tejash ko'nikmalarini shakllantirish.

O'z-o'zini baholash: Bajarilgan amaliy ishni tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va tuzatish orqali o'quvchilarda mas'uliyat va tanqidiy fikrlash rivojlanadi[1].

Amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilar nafaqat tayyor mahsulot yasashni o'rganadilar, balki kundalik hayotda zarur bo'lgan mustaqil harakat qilish, muammoli vaziyatlarni hal etish kabi muhim hayotiy malakalarga ega bo'ladilar.

Texnologiya fani mashg'ulotlari o'quvchilar ijodkorliklarining rivojlanish omillaridan biridir, ya'ni texnologiya darslari o'quvchilarda ijodkorlik, yaratuvchanlik kabi fazilatlarini shakllanishi, o'quvchilarda ishga ijodiy yondashish, o'z-o'zini boshqarish, ishdagi kamchiliklarni o'z vaqtida topish, o'z-o'ziga talabchan bo'lish, maqsadga intilish, mustaqil ishlash kabi xislatlarni namoyon bo'lishiga hamda ijodiy qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. Biz bilamizki boshlang'ich sinflarda texnologiya darslari amaliy tarzda o'tkaziladi va dars jarayonida o'quvchilar ham amaliy ham nazariy bilim, ko'nikma va malakalarni egallab boradilar. Boshlang'ich sinf texnologiya darslarining asosiy shakli bu amaliy mashg'ulot hisoblanadi.

Amaliy mashg'ulot deganda o'quvchilarning o'quv materialini faol ongli va mustahkam o'zlashtirish maqsadida mehnat o'qituvchisi rahbarligida amalga oshiriladigan ham jamoa, ham yakka tartibdagi ish turlarini o'z ichiga oladigan o'quv mehnat faoliyatini aniq tashkil etishni tushunish kerak. Texnologiya ta'limida amaliy mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilar har bir topshiriqni amalda bajaradilar, o'qituvchi ularga zarur vaqtda ko'rsatma beradi va nazorat qilib baholab boradi va jarayonda ishtirok etadi[2].

Kasbiy ko'nikmalar – bu shaxsning ma'lum bir kasb yoki faoliyat sohasida muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalardir. Kichik yoshdagi o'quvchilarni bilim, malaka, ko'nikmalarni rivojlantirish, kreativ fikrlashni shakllantirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish, kasb-hunarga yo'naltirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, mantiqiy fikrlashga o'rgatish muhim muammolardan biridir. 1-4-sinfda mehnat ta'limi fani mazmuni shartli ravishda umumiy mehnat ta'limi tayyorgarligi uning mazmuniga mavjud bo'lgan kasblar atroflicha ma'lumotlari bilan tanishilgan hamda shu yoshga maxsus tayyorgar-lik qismlaridan iborat. Bu qismlar har bir dars va mashg'ulotlarning tarkibiga singib ketgan bo'lib, ularni o'qituvchi va uslubchilar tomonidan ilmiy uslubiy nuqtai nazaridan hisobga olgan holda, tahmin qilib berish, mehnat ta'limi mashg'ulotlarining aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lishini ta'minlash uchun zarur mehnat ta'limi darslarini 1-4-sinfda umumiy va badiiy mehnat kursi xalq amaliy bezak san'atlari sohasidagi ayrim kasblar asoslari bilan tanishtirishni nazarda tutadi. Bu kurs bo'yicha mashg'ulotlar mazmuni bajarilayotgan mehnat jarayonining ajralmas qismi bo'lgan amaliy eskizlar, Jadvallar, rasmlar, naqshlar ishlash va ayrim dizaynerlik qoidalarini o'rgatishdan iborat[3].

Amaliy mashg'ulot jarayonida har bir topshiriq oddiydan murakkabga qarab Boshlang'ich sinf mehnat ta'limi darslaridagi ta'lim-tarbiyaviy vazifalar umumta'lim maktablaridagi mehnat ta'limining umumiy vazifalaridan kelib chiqib, quyidagi mashg'ulot turlari jarayonida amalga oshiriladi:

1. Qog'oz va karton bilan ishlash.
 2. Gazlama va tolali materiallar bilan ishlash.
 3. Turli va tabiiy materiallar bilan ishlash
- a) plastilin va loy ishi;

- b) urug‘lar bilan ishlash;
- d) applikatsiya va mozaika ishlari;
- 4. Loyihalash va modellashtirish; a) badiiy qurish-yasash.
- 5. Qishloq xo‘jalik mehnati[4].

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda texnologiya darslari o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu darslar orqali o‘quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni egallaydi, balki ularni amaliy faoliyatda qo‘llashni, mustaqil ishlashni, muammolarni hal etishni va ijodiy fikrlashni ham o‘rganadi.

Texnologiya darslarida turli qo‘l mehnati, modellashtirish, konstruktorlik va loyihalash faoliyatlari orqali o‘quvchilarning mayda motorikasi, diqqat-e’tibor, sabr-toqati va mas’uliyat hissi rivojlanadi. Shu bilan birga, bu jarayon ularning kasbga qiziqishini uyg‘otib, kelajakdagi faoliyatiga yo‘naltiruvchi asos yaratadi.

Demak, texnologiya darslarini samarali tashkil etish, zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish va amaliy mashg‘ulotlarga keng o‘rin berish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining har tomonlama rivojlanishiga erishish mumkin.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sanaqulov X., Haydarov M. “Boshlang‘ich sinflarda qog‘ozdan amaliy ishlar”- Toshkent.
2. Bo‘ronov Sh., Xaydarov S. va boshqalar. Boshlang‘ich sinflarda texnologiya darslarini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2020.
3. Niyazmetova N.B. Texnologiya fani darslarida o‘quvchilar kreativ sifatlarini rivojlantirish texnologiyasi. A versatile teacher, ISSN: 2309-6009 Issue 2(8), 2020.
4. Matlab Muxammedovna Tilavova, Mavluda Adiz qizi Alimova Texnologiya darslarida qo‘l mehnatidan foydalanish talablari//Scientific progress. 2021. №7.
5. Begimqulov U.Sh. Boshlang‘ich sinflarda texnologiya fanini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 2023.
6. www.inlibrary.uz

Ashurova Xurshida Asror qizi

Innovatsion Texnologiyalar Universiteti

“Maktabgacha va Boshlang‘ich ta‘lim” kafedrası

assistent o‘qituvchisi

Urazbayeva Maftuna Kurbanbayevna

Innovatsion Texnologiyalar Universiteti

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi

4-bosqich talabasi

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA KREATIV FIKRLASHNI STEAM TA‘LIMI ASOSIDA SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya: Ushbu tezisda boshlang‘ich sinif o‘quvchilarida kreativ fikrlashni shakllantirishning nazariy asoslari va amaliy usullari yoritiladi. Kreativ rivojlantirishda ta‘lim jarayonida innovatsion metodlardan, interfaol mashg‘ulotlardan hamda muammoli vaziyatlardan foydalanishning ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini qo‘llab-quvvatlash, ularning tasavvurini kengaytirish va ijodiy yondashuvini shakllantirishlar ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta‘lim, kreativ fikrlash, muammoli ta‘lim, pedagogik yondashuv, mustaqil fikrlash, innovatsion texnologiyalar.

Аннотация: В данной дипломной работе описаны теоретические основы и практические методы формирования творческого мышления у учащихся начальных классов. Анализируется важность использования инновационных методов, интерактивных упражнений и проблемных ситуаций в учебном процессе в творческом развитии. Также будет показано, как поддержать самостоятельное мышление учащихся, расширить их воображение и сформировать творческий подход.

Ключевые слова: Начальное образование, творческое мышление, проблемное образование, педагогический подход, самостоятельное мышление, инновационные технологии.

Abstract: This thesis describes the theoretical foundations and practical methods of forming creative thinking in primary school students. The importance of using innovative methods, interactive exercises and problem situations in the educational process in creative development is analyzed. Also, it will be shown how to support students' independent thinking, expand their imagination and form their creative approach.

Key words: Primary education, creative thinking, problem-based education, pedagogical approach, independent thinking, innovative technologies.

Bugungi globallashuv davrida ta‘lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri-o‘quvchilarda mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishdir.

Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bu jarayon muhim bosqich hisoblanadi, chunki aynan shu davrda bolalarning tafakkuri, qiziqishi va o'rganishga bo'lgan munosabati shakllanadi. Zamonaviy jamiyatda o'quvchilardan nafaqat bilimlarni egallash, balki ularni amaliyotda qo'llash, muammolarga noodatiy yechim topish va mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo'lish talab etmoqda. Shu jihatdan, kreativ fikrlashni rivojlantirish boshlang'ich ta'lim bosqichidan boshlab yo'lga qo'yilishi muhimdir.

STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) ta'limi o'quvchilarning turli fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni anglashiga, bilimlarni integratsiyalashgan holda qo'llashiga hamda ijodiy yondashuvini rivojlantirishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziqishlari yuqori bo'lgan davrda STEAM yondashuvi orqali ularni izlanishga, tajriba o'tkazishga va yangi g'oyalarni ilgari surishga yo'naltirish samarali natijalar beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun kreativ fikrlashning rivojlanishi

quyidagicha muhim ahamiyatga ega:

- **Muammolarni samarali yechish:** Bolalar atroflaridagi dunyoni tushunish va undagi qiyinchiliklarga ijodiy yondashuvlar bilan yechim topishni o'rganadilar.
- **Akademik muvaffaqiyat:** Kreativ o'quvchilar mavzuni chuqurroq tushunishadi, yangi ma'lumotlarni qabul qilishda faollik ko'rsatishadi va o'quv materialini mustahkamlashda ijodiy usullardan foydalanadilar.
- **Shaxsiy rivojlanish:** O'zini ifoda qilish, o'ziga ishonchni oshirish, mustaqil fikrlashni shakllantirishga yordam beradi.
- **Kelajak kasblariga tayyorgarlik:** Zamonaviy dunyoda talab qilinadigan innovatsion kasblar uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantiradi.
- **Ijodiy salohiyatni ochish:** Turli sohalarda (san'at, musiqa, adabiyot, fan) o'z iste'dodini kashf etish va rivojlantirish imkonini beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlash xususiyatlari ko'pincha o'yin orqali, tasavvurga asoslangan faoliyatlarda namoyon bo'ladi. Ular tabiatan izlanuvchan, savol beruvchan va yangiliklarga ochiqdirlar. Shuning uchun ham, ta'lim jarayonini ularning bu tabiiy qiziqishlari va imkoniyatlariga mos ravishda tashkil etish muhim.[1]

Kreativlikni STEAM orqali rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari:

- **Integratsiyalashgan loyihalar:** Matematik hisob-kitoblarni badiiy ijod (Art) va muhandislik konstruktsiyalari bilan birlashtirish (masalan, geometrik shakllardan shahar maketini yasash).
- **Amaliy tajribalar:** Oddiy materiallardan (qog'oz, tayoqcha, plastik idishlar) foydalanib, texnik qurilmalar yasash orqali kreativlikni oshirish.
- **4K modeli asosida darslar:** Kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikatsiya va kooperatsiyani (jamoada ishlash) rag'batlantirish.
- **Muammoga asoslangan ta'lim:** O'quvchilarga "Agar..." bilan boshlanadigan vaziyatlarni berish va ulardan yechim izlashni talab qilish.
- **Vizualizatsiya:** Grafik organayzerlar va STEAM vositalaridan foydalanib, tabiiy fanlar bo'yicha tushunchalarni chuqurlashtirish.

Bu yondashuv o'quvchini passiv tinglovchidan faol tadqiqotchiga aylantiradi, natijada ular mustaqil fikr yuritish va yangi g'oyalarni ilgari surish qobiliyatiga ega bo'ladilar.[2]

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi ularning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo'naltiradi. Shuningdek, o'quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an'anaviy yondashishdan farqli yangi g'oyalarni yaratish, bir qolibda fikrlamaslik, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam beradi. Binobarin, kreativlik sifatlariga ega pedagog kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi, ilg'or, o'quvchilarning o'quv faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish, ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo'lishga e'tibor qaratadi.[3]

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarga xos bo'lgan kreativ kompetentlik bilim, ko'nikma va malakalari tushunchalarini tadqiqot nuqtai nazaridan aniqlashtirib oldik. Jumladan: kreativ kompetentlik bilimlari - yangi yechim ishlab chiqish uchun talab etiladigan tushuncha va tasavvurlarning bilish faoliyati mahsuli sifatida inson ongidagi tizimlangan kreativ kompetentlik ko'nikmalari - shaxsning maqsadga yo'naltirilgan ijodiy faoliyatda, aqliy jarayon bosqichlarini tez va to'laqonli amalga oshirish darajasini ifodalashi aniqlandi.

Kreativ kompetentlik malakalari esa shaxsning ijodiy faoliyatni qisman avtomatlashgan tarzda, aqliy jarayon bosqichlarining faqat dastlabkisini anglagan holda amalga oshira olish darajasini anglatadi.

Kreativ yondashuv bevosita innovatsiyalar bilan bog'liq jarayondir. Negaki o'qituvchining ijodiy faoliyat yuritishi uchun, u albatta o'zining sohasidagi eng so'nggi yangiliklardan, shu bilan bir qatorda butun jamiyatdagi voqea va hodisalardan xabardor bo'lishi, innovatsion yangiliklarni o'z faoliyatida o'rinli foydalana olishi lozim. Demak, o'qituvchi har qanday vaziyat, har qanday jarayon va har qanday paytda eng samarali yo'lni izlab topishi va uni amaliyotga joriy qilish orqali mashg'ulot jarayonini samarali tashkil etishi, o'quvchilar ongiga tez, tushunarli, qulay, oson va samarali tarzda yetkazib berishi ham kreativlikning bir ko'rinishi deyish mumkin.

Shu bilan birga, STEAM ta'limi boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarni uchun o'quv jarayonini loyihalashning asosi bo'ldi. Ushbu ish natijalari quyidagilarni ko'rsatadi: o'quv fanlari tarkibi va mazmuniga fanlararo vazifalarning kiritilishi boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishga yordam beradi, chunki o'quv jarayoni amaliyotga yo'naltirilgan va ilmiy xususiyatga ega bo'ladi.[4]

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni STEAM ta'limi asosida shakllantirish shuni ko'rsatadiki, fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika integratsiyasi orqali bolalarda mustaqil fikrlash, muammo yechish va yangicha yondashuv ko'nikmalari samarali rivojlanadi. Kelajakda zamonaviy jamiyat talablariga mos, tashabbuskor va ijodkor shaxslar sifatida kamol topishiga zamin yaratadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. "O'zbekiston maktablarida STEAM ta'limini rivojlantirish bo'yicha strategik 1. yo'nalishlar". (2021).
2. Yuldasheva.R.B "Boshlang'ich ta'limda STEAM xalqaro tadqiqotining ahamiyati"- Zenedo (2022).
3. Qilicheva.M. "STEAMning o'ziga xos xususiyatlari"- Jizzax davlat pedagogika universiteti (2023.)
4. Khudoynazarov E.M "Boshlang'ich ta'limda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning ahamiyati" (2023)

5. Qodirov, Farrux. “The Role of Ict in the Development of Health Services”. Raqamli transformatsiya jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etishda ma’lumotlarni himoyalash muammolari va yechimlari respublika ilmiy-amaliy anjumani ma’ruzalar to’plami (2022).

6. www.in-academy.uz

Mumtozbegin MIRZALIYEVA,

*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti,
“Maqom cholg‘u ijrochiligi” yo‘nalishi, 2-bosqich magistranti.*

mumtozbeginmirzaliyeva1@gmail.com

Ilmiy rahbar: Ilyos ARABOV,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti professori

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA MAQOM ELEMENTLARINI O‘QITISHNING METODIK ASOSLARI

Annotatsiya. Maqolada umumta’lim maktablarida maqom elementlarini o‘qitishning metodik asoslari ko‘rib chiqiladi. Maqomni maktab ta’limiga kiritishning zarurligi, mavjud muammolar va samarali yechimlar tahlil qilinadi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: maqom, umumta’lim maktabi, metodik asos, musiqa ta’limi, kompetensiya, ustoz-shogird, lad, usul, tinglash madaniyati, ommalashtirish.

Аннотация. В статье рассматриваются методические основы преподавания элементов макома в общеобразовательных школах. Анализируется необходимость включения макома в школьное образование, существующие проблемы и эффективные решения. Рекомендуется компетентностный подход.

Ключевые слова: маком, общеобразовательная школа, методическая основа, музыкальное образование, компетентность, устоз-шогирд, лад, усул, культура слушания, популяризация.

Abstract. The article examines the methodological foundations of teaching maqom elements in secondary schools. The necessity of including maqom in school education, existing problems and effective solutions are analyzed. A competency-based approach is recommended.

Keywords: maqom, secondary school, methodological foundation, music education, competency, ustoz-shogird, lad, usul, listening culture, popularization.

O‘zbek maqom san’ati milliy musiqiy merosimizning eng murakkab va yuksak namunasi bo‘lib, asrlar davomida ustoz-shogird an’analari orqali avloddan avlodga yetib kelgan. Biroq, bugungi kunda keng jamoatchilik, ayniqsa maktab yoshidagi o‘quvchilar orasida maqomga qiziqish va uni chuqur anglash darajasi yetarli emas. Muallif tomonidan o‘tkazilgan so‘rovnomada respondentlarning 38 foizi targ‘ibot kamligini, 32 foizi esa

maqomni tushunish murakkabligini asosiy to'siq sifatida ko'rsatgan. Bu holat maqomni maktab ta'lim tizimiga izchil va metodik asosda kiritish zaruriyatini ko'rsatadi.

Maqomni umumta'lim maktablarida o'qitish masalasi ilmiy jihatdan yetarli darajada o'rganilmagan. Mavjud darsliklar va o'quv dasturlarda maqomga bag'ishlangan qismlar ko'pincha oz ma'lumot berish bilan cheklanadi, chuqur metodik yondashuv esa kamdan-kam uchraydi. Holbuki, maktab - maqomning yangi auditoriyaga yetib borishi uchun eng keng va barqaror kanal hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maqom san'atini rivojlantirish borasidagi qarorlarida ham ta'lim tizimini mustahkamlash vazifasi alohida ta'kidlangan[1].

Maqomni umumta'lim maktablarida o'qitish ikki asosiy muammoga duch keladi. Birinchisi - metodologik: mavjud o'quv dasturlarda maqom ko'pincha tarixiy ma'lumot sifatida beriladi, tinglab tushunish va his etish ko'nikmalari esa shakllantirilmaydi. Ikkinchisi - pedagogik: maqomning lad, usul, avj kabi tushunchalari yoshlarga tushunarli tarzda yetkazilmaydi, natijada bu san'at "qiyin" va "uzoq" ko'rinib qoladi. Qolaversa musiqashunoslar ham "Zamonaviy jarayonda o'tmish an'alariga yangicha qarash, ilgor rivojlangan texnikadan munosib foydalanish hamda komil insonni tarbiyalash kabi omillarga alohida etibor qaratilmoqda. Zero, komil inson tarbiyasida musiqa eng muhim, yani insonlarni ruhiy hamda manaviy tarbiyasiga asos bola oladigan omil sifatida qaraladi." [3, B.3.] deb ta'kidlab o'tganlar.

Muallif tarafidan o'tkazilgan so'rovnomada maqomni ommalashtirish uchun samarali usul sifatida respondentlarning 42 foizi maktablarda o'rgatishni birinchi o'ringa qo'ygan. Bu natija umumta'lim maktablarining strategik ahamiyatini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, so'rovnomada yoshlar orasida qiziqishning past bo'lish sabablari sifatida tushunish murakkabligi (32%) va targ'ibot kamligi (38%) alohida ajralib turgan - bu ikala muammo ham metodik yondashuvni talab qiladi.

Maqomni umumta'lim maktabida o'qitishning samarali metodik modeli uchta asosiy tamoyilga tayanishi lozim. Birinchi tamoyil - kompetensiyaga asoslangan yondashuv: o'quvchi faqat maqom nomi va tarixini bilmasdan, balki eshitish tahlili, usulni sezish, she'riy matnning ma'nosini anglash va turli maqom bo'limlarini farqlash ko'nikmalarini

egallashi zarur [5.B.12]. Bu yondashuv o'quvchini passiv tinglovchidan faol idrok etuvchiga aylantiradi.

Ikkinchi tamoyil - bosqichlilik: maqomni bir darsda "tushuntirish,, mumkin emas. Birinchi bosqichda o'quvchiga maqom tarixi, maktablari va asosiy cholg'ulari tanishtiriladi; ikkinchi bosqichda usul va ritmni his qilish mashqlari bajariladi; uchinchi bosqichda kichik parcha tinglanib, lad va avj muhokama qilinadi. Bunday bosqichli tizim o'quvchining qiziqishini asta-sekin uyg'otadi va barqarorlashtiradi.

Uchinchi tamoyil - multimodal ta'lim: maqomni faqat eshittirish yetarli emas. Audio yozuvlar, video ijro namunalari, she'riy matnlarning zamonaviy o'zbek tiliga sharhi, cholg'ularning vizual taqdimoti va interaktiv muhokama birgalikda qo'llanilganda, o'quvchining maqomni qabul qilishi sezilarli darajada osonlashadi. Raqamli resurslardan foydalanish masalan YouTube'dagi sifatli ijrolar, izohli videolar - darsni boyitadi va so'rovnoma 34% respondent ko'rsatgan YouTube platformasining keng qo'llanilishiga mos keladi.

Ta'lim jarayonida ustoz-shogird an'anasidan saboq olish ham muhim. Maktab o'qituvchisi o'quvchini maqomga "bevosita muloqot" orqali yaqinlashtirishi mumkin: kontsertga borish, ijrochi bilan uchrashuvlar, jonli namoyishlar darsning ajralmas qismi bo'lishi lozim. Rajabov ta'kidlaganidek, maqomning nozik qatlamlari faqat bevosita eshitish va kuzatish orqali singadi [2.B.45.].

Muhim metodologik masala - baholash. Maqom darsida o'quvchini faqat bilimidan emas, eshitish tajribasidan baholash zarur: masalan, ikkita ijroni farqlash, usulni tanish, she'riy matn muallifini aniqlash kabi topshiriqlar an'anaviy test savollarga nisbatan ancha samarali. Fitrat ham ta'kidlaganidek, musiqa ta'limi nafaqat bilim, balki his va idrok tarbiyasidir [4.B.88.].

Umumta'lim maktablarida maqom elementlarini o'qitishning metodik asosi uchta tamoyilga - kompetensiyaga asoslangan yondashuv, bosqichlilik va multimodal ta'lim - tayanishi lozim. So'rovnoma natijalari ham bu yo'nalish strategik ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi: respondentlarning 42 foizi maktablarda o'rgatishni eng samarali usul deb hisoblagan.

Kelgusida o'zbek tili va adabiyot, tarix, madaniyatshunoslik fanlari bilan fanlararo integratsiya modelini ishlab chiqish; maktab o'qituvchilari uchun malaka oshirish dasturlarini yaratish; raqamli resurslar va interaktiv o'quv materiallari fondini kengaytirish zarur. Ana shunda maqom faqat tantanali tadbirlarda emas, har bir maktab o'quvchisining kundalik madaniy hayotida ham o'z o'rnini topadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, umumta'lim maktablarida maqom elementlarini o'qitishning samarali metodikasi bir necha bosqichli tizimga asoslanishi lozim.

Birinchi bosqich (1-4-sinflar) - maqomni eshitib idrok etish, oddiy ritmik mashqlar, milliy cholg'u asboblari bilan tanishish. Bu bosqichda asosiy maqsad - bolalarda milliy musiqaga nisbatan hamdardlik va qiziqishni shakllantirish.

Ikkinchi bosqich (5-7-sinflar) - maqomning asosiy tushunchalarini o'rganish: lad, parda, usul, avj. Maqom namunalarini tinglab tahlil qilish, ularning tuzilishi va xarakterini so'z bilan ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Uchinchi bosqich (8-11-sinflar) - maqom an'anasini chuqurroq o'rganish, ijro ko'nikmalarini rivojlantirish, maqomning turli maktablari (Shashmaqom, Farg'ona-Toshkent, Xorazm) bilan tanishish.

O'qituvchi malakasini oshirish masalasi ham muhim. Umumta'lim maktablarida maqom o'qituvchisi nafaqat musiqa nazariyasini, balki ijrochilik amaliyotini ham bilishi, shuningdek pedagogik metodikaga ega bo'lishi lozim. Institut va konservatoriyalar bilan hamkorlik, maqom ustalarini dars berishga jalb qilish ushbu muammoni qisman hal etishga yordam beradi.

Umumta'lim maktablarida maqom elementlarini o'qitish - bu milliy madaniy merosni yangi avlodga yetkazishning muhim yo'li. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, samarali maqom ta'limi uchun: birinchidan, yosh xususiyatlariga mos bosqichli o'quv dasturi; ikkinchidan, an'anaviy va zamonaviy usullarni uyg'unlashtiruvchi metodik yondashuv; uchinchidan, malakali o'qituvchilar hamda jonli ijrochilik namunalarining ta'lim jarayoniga faol jalb etilishi zarur.

O'zbek milliy musiqa merosini o'rganish va targ'ib qilish borasida davlat siyosati doirasida belgilangan yo'nalishlarni amaliyotga tatbiq etishda umumta'lim maktablarining

roli beqiyosdir. Maqom elementlarini o'quv jarayoniga kiritish o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, estetik did, madaniy tafakkurni shakllantirish omili sifatida xizmat qiladi.

Kelajakda ushbu mavzu doirasida maxsus o'quv-metodik qo'llanmalar, interaktiv raqamli resurslar yaratish va maqom ta'limiga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini davom ettirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3391-son qarori. - 2017-yil 17-noyabr.
2. Rajabov I. Shashmaqom. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2006. - 320 b.
3. Begmatov S., Matyoqubov M. O'zbek an'anaviy cholg'ulari. - Toshkent: Yangi nashr, 2008. - 72 b.
4. Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. - Toshkent: Fan, 1993. - 160 b.
5. Nettl B. The Study of Ethnomusicology: Thirty-One Issues and Concepts. - Urbana: University of Illinois Press, 2005. - 416 p.

YURISPRUDENSIYA

Madaminov Izzatbek Quvondiq o'g'li

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
davlat boshqaruvi huquqi mutaxassisligi 2-bosqich magistranti*

E-mail: madaminovizzatbek7@gmail.com

Tel: +998 (88) 090 06 70

**FUQAROLARNING DAVLAT XIZMATIGA KIRISHDAGI TENG
HUQUQLILIGINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI**

**CONSTITUTIONAL AND LEGAL FOUNDATIONS OF EQUAL RIGHTS OF
CITIZENS IN ENTRY TO THE PUBLIC SERVICE**

**КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ РАВНОПРАВНОСТИ
ГРАЖДАН ПРИ ПОЛУЧЕНИИ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ**

Annotatsiya: *Ushbu maqolada davlat xizmati institutining yangi taxrirdagi Konstitutsiyamizda va boshqa qonun hujjatlarida ifoda etilishi, davlat xizmatiga qabul qilishning me'yoriy-huquqiy tartib-qoidalarining milliy qonunchiligimizda va xalqaro huquq normalarida aks etishi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Fuqaro, davlat, xizmat, konstitutsiya, qonun, farmon, qaror, deklaratsiya, pakt, tenghuquqlilik, ochiqlik, shaffoflik.*

Abstract: *This article discusses the reflection of the civil service institution in the new edition of our Constitution and other legislative acts, as well as the regulatory and legal procedures for recruitment into the civil service in our national legislation and international legal norms.*

Keywords: *Citizen, state, service, constitution, law, decree, resolution, declaration, pact, equality, openness, transparency.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается отражение института государственной службы в Конституции в новой редакции и других законодательных актах, а также отражение нормативно-правовых процедур приема на государственную службу в национальном законодательстве и нормах международного права.*

Ключевые слова: *Гражданин, государство, служба, конституция, закон, указ, постановление, декларация, пakt, равноправие, открытость, прозрачность.*

Davlat xizmati fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash va ularga davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha amalga oshiriladigan muhim faoliyatdir. Ko'plab fuqarolar o'z karyerasini davlat xizmatida ko'rishni xohlaydilar. Buning uchun mustahkam va barqaror tizim joriy etilishi zarur bo'lib qolgan edi. Aynan ushbu masalalar inobatga olingan holda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 37-moddasida [1] «O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa egadirlar. Davlat xizmatini o'tash bilan bog'liq cheklovlar qonun bilan belgilanadi», deb belgilandi. Ushbu normaning yangi taxrirdagi Konstitutsiyamizda belgilanishi xalqaro huquqiy normalarning konstitutsiyamizda aks etishining yorqin bir misoli sifatida ko'rishimiz mumkin. Mazkur siyosiy huquqning Konstitutsiya darajasida belgilanishi

fuqarolarning davlat xizmatiga kirishdagi teng huquq va imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Zero, davlat xizmatiga teng, qonuniy va adolatli raqobat shartlarda salohiyatli kadrlarni keng jalb qilish davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida sifat va natijadorlikni ta'minlashning muhim talabidir.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi"ning [6] 21-moddasida "Har bir inson o'z mamlakatida davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa ega" ligi, shuningdek, «Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risida»gi [7] Xalqaro paktning 25-moddasida har bir fuqaro hech bir kamsitishsiz va asoslanmagan cheklashlarsiz o'z mamlakatida umumiy tenglik shartlarida davlat xizmatiga kirish huquq hamda imkoniyatlarga ega bo'lishi kerakligi mustahkamlangan.

Shu o'rinda xorijiy maydonda davlat xizmatiga kirish masalasini bir qancha rivojlangan davlatlar tajribasi orqali ko'rib chiqsak.

Masalan: Germaniyada davlat xizmati o'zbekchaga so'zma-so'z tarjima qilinsa "ijtimoiy Germaniya" yoki "ommaviy" xizmat deb ataladi [8.B.96.]. Davlat xizmati barcha bosqichda yagona tizim bo'yicha federal qonunlar bilan boshqariladi. Davlat xizmatidagi shaxslar uch guruhga: amaldorlar, xizmatchilar va ishchilar guruhiga bo'linadi. Asosiy qonunga muvofiq davlat xizmatiga qabul qilishda Germaniya fuqarosining diniy e'tiqodi yoki dunyoqarashiga nisbatan biron-bir kamsitish mavjud emas. Amaldorlarning huquqiy maqomiga tegishli umumiy qoidalar 1953 yilda qabul qilingan "Amaldorlar to'g'risida"gi federal qonunda shakllantirilgan (hozirgi vaqtda u 1985 yildagi tahrirda amal qilmoqda). Mazkur qonun amaldorlar maqomiga umumiy ta'rif beradi, unda amaldorlarni tayinlash, xizmat bo'yicha ilgari surish tamoyillari shakllantirilgan, amaldorning huquq va majburiyatlari, u mos kelishi lozim bo'lgan sharoitlar belgilangan. Federal amaldorlar to'g'risidagi Qonunning 7-bandida ular mos kelishi lozim bo'lgan shartlar sanab o'tilgan. Amaldor ruhan va jismonan sog'lom bo'lishi, ma'muriy xodim uchun zarur bo'lgan fe'l-atvorga ega bo'lishi lozim; millatiga ko'ra nemis bo'lishi zarur, asosiy qonunga tayangan holda doimo erkin demokratik tuzumni himoya qilishi to'g'risida qasamyod qabul qilishi lozim [8.B.97.].

Fransiyada davlat xizmatchilarini tanlab olishning o'ziga xos tizimi mavjud. Konstitutsiyaning [9] bir qismiga aylangan Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasida [10]: "Barcha fuqarolar uchun ular qonun oldida tengliklari bois ularning fazilatlarini va iste'dodidan kelib chiqadigan salohiyatlari mos keladigan barcha ijtimoiy lavozimlarga, amallarga va xizmatlarga teng tarzda kirish imkoni ochiqdir" deb yozilgan. Xizmatga kirishdagi tenglik deyilganda, eng avvalo, irqi, millati, e'tiqodi va jinsdan qat'iy nazar tenglik nazarda tutiladi. Xizmatga kirishda yoshga, fuqarolik va qobiliyatlarga tegishli ayrim cheklanishlar ham qo'llaniladi. Ustavlar xizmatga kirish uchun eng kam va eng yuqori yoshlarni ko'zda tutgandir. Aksariyat lavozimlar uchun eng yuqori yosh 40 dan 45 yoshgacha qilib belgilangan. Shtatdagi lavozimlarni egallash uchungina fransuz

fuqaroligiga ega bo'lish zarur. Shtatdan tashqari lavozimlarga chet elliklarni qabul qilish mumkin.

Ayrim lavozimlarni egallash uchun malakaning zaruriy darajasini tasdiqlovchi diplom mavjudligi talab qilinadi. Xizmatchining mehnatiga maosh hajmi ham shu malaka darajasiga bog'liq [8. B.106.]. Konstitutsiyaga muvofiq barcha fransuz fuqarolari jinsi, irqi, diniy va siyosiy e'tiqodlaridan qat'iy nazar davlat xizmatiga kirish huquqiga ega. Ayrim lavozimlar uchun yosh cheklanishlari va ma'lumot saviyasiga alohida talablar ham mavjud. Chet ellik fuqarolar faqat shtatdan tashqari lavozimlarga qabul qilinadi.

Buyuk Britaniyadagi davlat fuqarolik xizmati asoslari 1850–1870-yillardayoq yaratilgan edi. O'shanda davlat xizmatiga kirish uchun ochiq tanlov imtihonlari joriy etilgan va xizmatchilar tanlovi tizimining rahbar organi sifatida boshqa ma'muriy organlardan mustaqil bo'lgan Fuqarolik xizmati komissiyasi ta'sis etilgan edi. Fuqarolik xizmatchilarini tanlab olish tizimi yetakchi Britaniya universitetlari dasturlari bo'yicha yozma imtihonlar va albatta, suhbat o'tkazishni ko'zda tutadi. Oliy lavozimlarga tanlashda og'zaki suhbatlar afzal ko'riladi [8. B.112.].

AQShdagi zamonaviy fuqarolik xizmati 1883-yilda Fuqarolik xizmati to'g'risidagi Qonundan [12. B.196.] boshlangan. Mazkur hujjat bilan saylovlarda g'olib chiqqan prezident barcha mansabdor shaxslarni to'la almashtirishi mumkin edi. Qonun xizmatga tanlash va lavozimlarning aksariyatiga tayinlash uchun yangicha tizimni va tanlov imtihonlarini joriy qildi. Partiyaga mansublik alomatiga ko'ra kamsitish taqiqlandi, fuqarolik xizmati esa siyosiy betaraf deb e'lon qilindi.

Yaponiyada Amaldagi Konstitutsiya davlat xizmatchilari maqomini "barcha xalqning xizmatkori" sifatida belgilagan. Davlat xizmatiga tayinlash tanlov imtihonlari asosida o'tkaziladi. Yapon Konstitutsiyasi davlat xizmatiga fuqarolar kirishi uchun teng huquqqa ega ekanligi tamoyilini mustahkamlagan. Davlat xizmatchilari to'g'risidagi qonun (33-modda) davlat xizmatiga tanlash nomzodning shaxsiy ko'rsatgan xizmatlari, uning kasbiy tayyorgarligi va ishchanlik sifatlariga mos ravishda amalga oshirilishini, bu jihatlar tanlov imtihonlari orqali aniqlanishi lozimligini ko'rsatadi. Davlat xizmatiga kirish uchun imtihonlarga faqat yapon fuqarolari kirish huquqiga ega. Davlat xizmatining ayrim maxsus turlari uchun qo'shimcha cheklanishlar o'rnatilishi mumkin. Masalan, chet ellik fuqaro bilan nikohda turgan shaxs Tashqi ishlar vazirligi (TIV) xodimi bo'la olmaydi [8. B.122.].

So'ngi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning asosiy jihatlaridan biri bu – davlat boshqaruvi sohasiga har tomonlama yetuk bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lgan, yuksak axloqiy va ishchanlik sifatlariga ega bo'gan mutaxassis-kadrlarni jalb qilish hisoblanadi. Zero, aynan malakali kadrlar - davlat xizmatchilarigina yurtimizning keyingi taraqqiyotida munosib o'rin egallashlari va o'z hissalarini qo'shishlari mumkin.

Yurtimizda davlat xizmatiga kirishda tenglik va shaffoflikni ta'minlash maqsadida bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2019-yil 3-oktabrdagi PF-5843-sonli “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik tizimini tubdab takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [2] Farmonida davlat fuqarolik xizmatini yanada takomillashtirish va isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari belgilangan. Farmonda davlat xizmatiga ochiq tanlov asosida ishga qabul qilish bosqichlari, tartibi va ushbu masalalarga mas’ul davlat organi belgilangan. Nomzodning barcha fazilatlarini va ustunliklarini, shu jumladan, uning ma’naviy-axloqiy va vatanparvarlik sifatlarini obyektiv baholash imkonini beruvchi ochiq mustaqil saralab olish asosida davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilish belgilangan. Yuqorida keltirilgan farmonga muvofiq, 2021-yil 1-yanvardan boshlab barcha davlat organlari va tashkilotlaridagi saylanadigan va alohida tartibda tayinlanadigan davlat fuqarolik xizmati lavozimlaridan boshqalariga ochiq tanlov asosida qabul qilish belgilandi. Eng muhimi, ushbu va boshqa choralarni bajarish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi (DXRA) tashkil etildi. Farmonda DXRA zimmasiga davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona ochiq portalini tashkil etish va yuritish vazifasi yuklangan edi. Ya’ni, Prezident huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi mas’ulligida davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona ochiq portalini – vacancy.argos.uz platformasi ishga tushirilib, davlat fuqarolik xizmatlarida mavjud vakant lavozimlar uchun ochiq tanlovlar o‘tkazish tizimi amalga kiritildi. Ushbu portalning ishga tushirilishi davlat organlarida mavjud bo‘sh ish o‘rinlari, ishga qabul qilish shartlari va bo‘sh ish o‘rinlarini egallash uchun nomzodlarga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi ma’lumotlar ochiqqligini markazlashgan holda ta’minlash imkonini berdi.

Davlat xizmati bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarni tartibga solishda O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi O‘RQ-788-sonli “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni [3] ham asosiy normativ-huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi. Ushbu qonun hujjatining 5-moddasida fuqarolarning davlat xizmatiga kirishdagi teng huquqliligi normasi davlat xizmatining asosiya prinsiplarida biri sifatida belgilab qo‘yilgan. Ushbu qonunda yana davlat fuqarolik lavozimiga qabul qilish tartibi, shartlari, qo‘llanilish sohasi, shuningdek, lavozimga qabul qilishga mo‘nelik qiluvchi holatlar ham qonuniy jihatdan belgilab qo‘yilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir-2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumini orqali qabul qilingan. <http://lex.uz/docs/-6445145>.
2. O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. <http://lex.uz/docs/-4549998>
3. Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida. <http://lex.uz/uz/docs/-6145972>

-
4. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik-Mualliflar jamoasi. Toshkent-2024.
<https://library-tsul.uz/konstitutsiyaviy-huquq-2024/>
 5. Konstitutsiyaviy huquq. Toshkent-2023. O.T. Husanov muallifligida.
 6. Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi. 1948-yil 10-dekabr.
 7. Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt. <http://lex.uz/docs/-2640479>
 8. "Davlat xizmati" o'quv qo'llanma. E.T.Xojiyev, G.S.Ismailova, M.A.Raximova, Toshkent-2015.
 9. Конституция Франции 1958 г. - сайт Конституционного совета Французской Республики на 9 августа 2014 г. <http://www.conseil-constitutionnel.fr>
 10. Декларация прав и свобод человека и гражданина 1789 г.
 11. Государственная служба и государственные служащие во Франции. – М.: 1994. С.85
 12. Конституция США, ст. II, раздел 2.2//Хрестоматия по истории государства и права зарубежных стран.- М., 1984. С. 196.

FALSAFA VA TARIX:

Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich,*Tarix fanlari nomzodi, dots.nt.**Namangan Impuls tibbiyot instituti, O'zbekiston.**Telefon (Telegram): +998933451969**E-mail: tqozoqov@mail.ru**<https://orcid.org/0009-0008-7833-1551>***Nematilla Otajonov***Filologiya fanlari doktori, professor**Namangan Impuls tibbiyot instituti, O'zbekiston.**Telefon (Telegram): +998939135928**E-mail: domlanematilla@gmail.com**<https://orcid.org/0009-0008-1912-814>***Abdullayeva Barno Umidullo qizi***ilmiy tadqiqotchi**Namangan Impuls tibbiyot instituti, O'zbekiston.**Telefon (Telegram): +998990667057**E-mail: abdullayevabarno789@gmail.com**<https://orcid.org/0009-0004-6632-1226>*

AMIR TEMUR: MA'NAVIYAT, E'TIQOD, JASORAT, SADOQAT
АМИР ТИМУР: НРАВСТВЕННОСТЬ, ВЕРА, МУЖЕСТВО, ВЕРНОСТЬ
AMIR TIMUR: MORALITY, FAITH, COURAGE, LOYALTY

Annotatsiya. Ushbu maqolada Amir Temurning shaxsiy sifatlari, ma'naviy dunyosi, e'tiqodi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, maqolada AmirTemur safdoshlarining unga sadoqati, farzand tarbiyasi masalalari ham yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Amir Temur, ma'naviyat, saxovat, sadoqat, qo'shin, farzand tarbiyasi, e'tiqod, jang, jasorat.

Аннотация. В этой статье размышляется о личных качествах, духовном мире, вере Амира Темура. В статье также освещались вопросы верности рядов Амира Темура ему, воспитания детей.

Ключевые слова: Амир Темура, духовность, великодушные, верность, армия, воспитание детей, вера, битва, мужество.

Abstract. This article reflects on Amir Temur's personal qualities, spiritual world, and faith. The article also highlighted the issues of loyalty of the ranks of Amir Temur to him, the upbringing of children.

Key words: Amir Temur, spirituality, generosity, loyalty, army, parenting, faith, battle, courage.

KIRISH. Millatimiz ichidan jahon tarixida shuhrat qozonib nom qoldirgan juda ko'p hukmdorlar o'tgan. Lekin ular orasida Amir Temur alohida o'rin tutadi. Ulug' bobokalonimizning tavallud ayyomi mamlakatimizda ilk bor 1996 yil nishonlandi. Amir

Temur ibn Muhammad Tarag'ay Bahodir hijriy 736 sichqon yili sha'bon oyining 25-kunida (1336 yil 9 aprel) Kesh (Shahrisabz) yaqinidagi Xo'jailg'or qishlog'ida dunyoga keldi.

Sohibqiron shaxsini, harbiy va siyosiy boshqaruv tartiblarini har tomonlama chuqur tadqiq qilgan holda o'rganish, mazkur davr tarixini yoritib berishda muhim ahamiyatga egadir.

Manbalarga murojaat qilinsa, Amir Temur o'z davri diniy va dunyoviy bilimlarini puxta egallagan, uddaburon, tadbirkor, ma'nan yuksak, qat'iyatli, irodali, o'tkir siyosatdon hukmdor, farzandlari uchun mehribon va ayni paytda qattiqqo'l ota, to'g'riso'zlilik va adolatni sevuvchi, do'stlariga sadoqatli, dushmanlarga shafqatsiz, nopok va buzg'unchi kimsalarga nisbatan murosasiz inson sifatida gavdalanadi.

Sohibqiron ma'naviyatidagi bu kabi xislatlar asrlar osha uning dovrug'ini olam uzra barhayotligiga sabab bo'lib kelmoqda. Binobarn, hukmdor va sarkarda sifatida qo'l ostidagi mulozim va askarlarga munosabati masalasini o'rganish ham uning ma'naviy olami haqida kengroq tushunchalar hosil qilishda ahamiyatlidir.

METODOLOGIYA. O'z davri tarixiy manbalarida Amir Temur hazratlarining yuksak ma'naviyatidan darak beruvchi juda ko'plab misollar uchratish mumkin.

Amir Temur "Temur tuzuklarida" "...Davlat ishlarining to'qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini qilich bilan amalga oshirdim..", -deya ta'kidlab o'tadi [1; B.15].

Bu uning o'tkir siyosatdon, ko'pchilik manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yib uzoqni ko'zlab ish yurituvchi davlatpanoh bo'lganligidan dalolat beradi.

Ko'hna bitiklarda Sohibqironning qat'iyati va irodasi, muruvvatu-bag'rikengligi, adolat va saxovati, shaxsiy o'rnak va namunasidan darak beruvchi ma'lumotlar talaygina.

Misol uchun Muiniddin Natanzining "Muntaxab ut-tavorixi Muiniy" asarida Temurbekning o'z faoliyati boshlaridagi janglarning birida og'ir yaralanib, ovloq bir joyda yakka holda bir muddat tushkunlikka tushib qolganligini tasvirlaydi. Shunda majruh bir chumoli garchand olti - yetti marta pastga ag'anab, qulab tushsa-da, oxir-oqibatda tirmashib devor ustiga chiqib olganligini kuzatadi.

Bir nozik hashoratning sabr-matonatidan ta'sirlangan Temurbek qurol-yarog'ini qo'liga olib, kuch bilan o'rnidan turadi-da yo'lga ravona bo'ladi [2; B.17]. Bu esa Sohibqironning kuchli iroda sohibi bo'lganligidan dalolat beradi.

Tadqiqotchi-olimlar Amir Temurning san'at va adabiyotga ixlosi baland bo'lganligini ta'kidlashadi [3; 1996]. Alisher Navoiy ham "Majolis un-nafois" asarida shunday yozadi: "Temur Ko'ragoniy... agarchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andoq hub mahal va mavqe'da o'qubdurlarkim, aningdek bir bayt o'qug'oni ming yaxshi bayt aytqoncha bor...". "Temur tuzuklarida" ham Sohibqironning o'zi Amir Husaynning makr-hiylasiga javoban bir turkiy bayt yozib yuborganligini aytadi, ya'ni:

Yorga yetkur sabo, kim makr qilmishdir mang'a,

Qildi ersa kimga makrin, qaytadur bir kun ang'a [4; B.38.].

Yana shuni ta'kidlash lozimki, Amir Temur tarix ilmining ham chuqur bilimdoni bo'lgan. O'zidan oldingi o'tgan podshohlar, sarkardalar, ularning yutuqlari-yu, kamchiliklaridan xulosalar chiqara olgan.

Bu borada Sohibqiron 1376 yil Dashti Qipchoq xoni O'risxonga qarshi yuborib, uni yenggan amiri Iki Temur haqida yozadi. Hasadchi kishilarning Iki Temur haqidagi bo'htonlariga uchmay, adolat ila ish yuritib, lashkarboshilarida o'ziga nisbatan sadoqat va mehr tuyg'ularini shakllantirganini yozadi. Aks holda, Sosoniy shoh Ho'rmuzd va sarkarda Bahrom Chubin voqeasini qanday yakun topganligini misol qilib keltiradi [5; B.81.]. Biron bir ishni qilishdan avval tarixdagi hukmdorlar va ularning sarkardalari o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qila bilishlik, Amir Temurni tarix fanining chuqur bilimdoni ekanligidan dalolat beradi.

NATIJALAR. Amir Temur ma'naviyatida shaxsiy ibrat masalasi ham muhim o'rinni egallaydi. Masalan, tuzuklarda avlodlariga qo'shin tuzilishi, jang qilish tartiblari haqida nasihat qilish asnosida kerakli chog'da hukmdorning o'zi ham shaxsiy namuna ko'rsatib jang qilmog'i lozimligini uqtiradi. Bunga misol qilib 1393 yil jaloyirlarning so'nggi hukmdori Shoh Mansur bilan bo'lgan jangni eslatib o'tadi [6; B.107.].

Germaniyalik olim Klaus Pander Amir Temur ilm – fan homiysi sifatida olimlarni chuqur hurmat, izzat qilgan holda, xatto o'zining ko'pgina harbiy yurishlarida ham olimlar va iste'dodli odamlarni o'zi bilan birga olib yurganligi ta'kidlaydi [7; B.36.].

Buni yana bir misolda ko‘rish mumkinki, 1394 yil 22 mart kuni Ozarbayjonning Sultoniya shahrida Mirzo Ulug‘bek tug‘iladi. Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asarida Mirzo Ulug‘bekning tavallud paytidagi sayyoralarning holatini 8 misrali she‘rda ifoda etadi. Bundan esa, shahzodaning tug‘ilgan kuni va hatto soatigacha aniq aytish imkoniyati paydo bo‘ladi. Demakki, harbiy yurishlar chog‘ida nafaqat solnomachilar yoki tabiblar balki ilmfanning barcha sohasi vakillari birga hamroh bo‘lganlar [8; B.34.].

Sohibqironning ma‘naviy olami haqida sharq qo‘lyozmalarida uning nomidan aytilgan bir qator misollarni keltirish mumkin. Jumladan, “Chin do‘st uldirki, do‘stidan hech qachon ranjimaydi, agar ranjisa ham, uzrini qabul qiladi”, “Zinodan tug‘ilgan kishi o‘ziga yaxshilik qilgan odamga yomonlik qilmaguncha dunyodan ketmaydi”, “Sipohiylardan biron kishi raiyatning xonadoniga zo‘rlik bilan kelib tushmasin, raiyatning ot-ulovlarini tortib olmasin”, “Kuch - adolatdadir”, “Bir kunlik adolat – yuz kunlik toat-ibodatdan afzal”, “Adovat emas – adolat yengadi”, “Kurashib erishilmagan g‘alaba g‘alaba emas”, “Agar dushmaning bosh urib panohingga kelsa, rahm qilib yaxshilik va muruvvat ko‘rsat” [9; B.1992.].

Amir Temur ayollarga nisbatan mehribon, rahm-shafqatli inson bo‘lganligi manbalardan ma‘lum. Eron mamlakati zabt etilayotganda, u yerdagi qal‘alardan birining hokimi va‘daga hilof hiyonat yo‘liga o‘tib, kelishilgan shartlarni bajarmaydi. Bu holat uchun uni qatl etish lozim bo‘ladi. Biroq, aybdorning onasi o‘rtaga tushgach, uni gunohi kechiriladi.

Yana bir misol, Nizomiddin Shomiyning xabar berishicha, hijriy 785 (1383 milodiy) yili Sohibqiron xonadoniga mansub ayollardan ikki nafari Dilshod og‘o hamda Qutlug‘Turkon og‘olar vafot etadi. “...Bundan bir necha kun o‘tgach, o‘zining xayrli ishlari, in‘omu ehsoni bilan zamonasi xotinlaridan - o‘zgan, o‘z xolis mollaridan madrasalar, xonaqohlar qurdirgan, har nav ezguliklari bilan jahon xalqiga foyda yetkazgan ulug‘ xotun — Amir Sohibqironning opasi Qutlug‘Turkon og‘o bu foniylar manzildan boqiy olamga rixlat qildi va bu zulmat zindondan ruhoniyyat bo‘stoni saroyiga yetdi. ...Amir Sohibqiron uning vafotiga diltang bo‘lib, qayg‘uga to‘ldi. Uning firoqida g‘amgin va giryon bo‘ldi. Ravshan diliga va muborak xotiriga vahshatu nafrat yo‘l topdi, Uning tengi yo‘q vujudini horg‘inlik va og‘irlik qamrab oldi. Bir necha kun oromsizligi iztirobi ortib bordi. Mamlakat va davlat ishlari bilan

shug‘ullanmay qo‘ydi. Oxirida sayyidlar, ulamo, mashoyix va solih kishilar Amir Sohibqiron huzurida to‘planib, nasihat berish va va‘z aytish vazifalarini ado etdilar va oyatlaru hadislar bilan muborak xotiriga tasalli berib, dedilar: “Amir Sohibqironning komronliklari yuksaklik va ulug‘likda bo‘lsin! Kimki uzoq umrni istar ekan, yoronlaridan ayriliqqa dilini ko‘ndirishi kerak. Kimda-kim bu dunyoda ko‘p turib qolarkan, yoronu suhbatdoshlarining hajru firoqi azobini tortishga tan bermog‘i lozim.

Qazo hukmiga qarshi turishga hech kimsada quvvat va qudrat yo‘q, taqdir farmoniga qiyishishu tovon to‘lash yo‘q” [10; B.123.], deb tasalli beradilar. Shundan keyingina Sohibqiron qaytadan davlat ishlariga kirishib ketadi.

MUHOKAMA. Ko‘rinib turibdiki, dunyoni zabt etgan jahongir Amir Temurdek zotning xulqi, ma‘naviy olami faqir-miskinlarga, ayollarga hokisorlik bobida o‘rnak-namuna vazifasini o‘tagan. Mana shu jihatlarning o‘zi ham bugungi avlodni ma‘nan barkamol qilib tarbiyalashda o‘ziga xos ahamiyatga egadir.

Amir Temurning islomiy e‘tiqodi ham anchagina yuksak darajada bo‘lgan. U 1393 yil avgustda Sherozdan Bag‘dodga yo‘lga chiqib, yo‘lda shayx Ibrohim Yahyoning mozorini ziyorat qiladi va hojatmandlarga sadaqalar beradi [11; B.184].

Shuningdek, uning islom ulamolari, shayxlarga ham e‘tiqodi yuksak bo‘lgan. Masalan, makkalik Sayyid Baraka dastlab Amir Husaynning oldiga borib, ikki muqaddas shahar - Makkayi mukarrama va Madinai munavvaraning vaqfi uchun mablag‘ ajratishni so‘raganida, Amir Husayn vaqf mablag‘ining ko‘pligini eshitib, uning iltimosini rad etadi. Shuningdek u, sayyidlarga ham munosib iltifot ko‘rsatmaydi. Sayyid Baraka uning bu harakatidan ranjib, ketishga ijozat berishini talab qilgan va Amir Temur huzuriga yo‘l olgan. Uning huzuriga yetgach, payg‘ambarlar va xalifalar ruhiga iltijo qilib, Amir Sohibqironga madad berishlarini so‘ragan. Amir Temur uning dami va qadamini qutli bilib, unga ikki muqaddas shahar (haramayn) vaqfi uchun mablag‘ ajratishlarini tayinlagan. Sayyid Barakaga esa, yuksak izzat-ikromlar ko‘rsatgan [12; B.418.].

“Temur tuzuklarida” qayerga borsam shariati islomiyani joriy qildim. Sayyidlarni siyladim, deb yozgan.

Eronda barcha ulamolarni yig'ib: "Alloh ta'alo bizga buyuk ne'mat berdi. Uni shukrini ado etaylik. Menga maslahat beringlar. Menga tahsin aytishingiz menga hush kelmaydi", deydi.

O'tror. Mavlono Fazlulloh Tabriziy. Alloh meni kechirsin, yig'lamasdan duo, fотиha va takbir aytingiz. 71 yosh va 36 farzand.

Amir Temurga askarlarining sadoqati ham cheksiz edi. Misol uchun, mo'g'ul qo'shini Movarounnahr o'lkasini talon-taroj qilib yurgan kezlarda Sohirqiron Temurka ismli navkarini vaziyatni o'rganib kelish uchun Termiz, Kesh, Xuzor viloyatlariga to'rt nafar otliq bilan birgalikda jo'natadi. Shunda Temurka yo'l-yo'lakay o'z xonadoni yonidan o'tishiga to'g'ri keladi. Safdoshlari unga oila a'zolari, xotini va bolalarini ko'rib ketishni maslahat berishadi. Biroq, Temurbek ham o'z ayoli va bolalaridan yiroqda ekanligi, u o'z farzandlarini ko'rmaguncha, Temurkaning o'z farzandlari yuzini ko'rishi insofdan emasligini aytib, yo'lda davom etadi [13; B.60.].

Shu o'rinda yana bir misol. Amir Temur Kichik Osiyo fathidan so'ng, Gruziya hududidagi ayrim tog' qal'alarini egallashga kirishadi. Bu hududda bir qal'a bo'lib, u juda noqulay joyda joylashgan edi. Qal'aga ko'tarma ko'priq orqali kirilar edi. Har qancha harakat qilsalar ham uni egallay olmaydilar. Oxir oqibat noumid bo'lib, qal'ani egallash fikridan voz kechib, jo'nash taraddudiga tushadilar. Sohirqiron qo'shinida ikki bahodir jangchi bo'lib, ular qahramonlik ko'rsatishda o'zaro raqobatlashar edilar. Jangchilarning birisini ismi Pirmuhammad edi. U Sohirqiron uchun alohida jasorat namunasini ko'rsatish uchun kechasi qal'a yoniga borib, darvoza ochilishini va ko'priq tushirilishini kutib yotdi. Ko'priq tushirilgach, Pirmuhammad ular bilan jangga kirishib ketdi. Madad yetib kelgunga qadar Pirmuhammad gurjilar bilan tengsiz jang holatida bo'ldi. Qilichlar jarangini eshitgan Sohirqiron askarlari tezda yetib keldilar va qal'ani egalladilar. Biroq, Pirmuhammad o'n sakkiz joyidan yaralangan edi. Amir Temurga bu voqeani bayon etishgach, uni mohir tabiblar orqali davolatdi va qo'mondonlik lavozimiga ko'tardi [14; B.297.].

Askar va safdoshlarining Sohirqironga bu darajada sadoqatining sababi birinchi galda uning go'zal ma'naviy dunyo sohibi ekanligidadir. Zotan, Amir Temur ham o'z safdoshlari va navkarlariga nisbatan adolatli bo'lib, kezi kelganda ularni har qanday tajovvuzdan himoya qilar edi.

Masalan, Amir Husayn 1366-yili Amir Temurning bir necha beklarini isyon ko'tarishda gumon qilib, ularga katta jarima soladi. Bu jarimani Amir Temur o'z bisotidan berib yuborib, ularni bu tashvishdan xalos etganligi ma'lum [15; B.39.].

Sohibqiron jasorat ko'rsatgan askarlarini doimo rag'batlantirib, ilhomlantirib borgan. Masalan, 1393-yil Bag'dod yurishi paytida Dashti Qipchoqlik Ayboj o'g'lon va Chig'atoy ulusi askarlaridan Jalol bahodir Karbalo dashtida dushmanni ta'qib qiladilar. Ammo o'ta suv tanqisligi yuzaga keladi. Shunda Ayboj o'g'lonning iltimosiga ko'ra, Jalol bahodir idishidagi bor suvni unga beradi. Bundan xabar topgan Sohobqiron bu jasoratni yuksak baholaydi [16; B.186.].

Sohobqiron farzand tarbiyasida ham benazir edi. Deyarli barcha o'g'illari ayniqsa, Jahongir va Umarshayx mirzolar mohir va dovyurak jangchilar bo'lganliklarini manbalarda qayd etilgan. Chunonchi, 1370-yil Amir Husaynni qo'lga olish uchun Balx ustiga yurish qilib uni qamal qilganlarida Umarshayx mirzo qo'shinning oldingi safida turib jang qiladi. Nogohon qal'adan otilib chiqqan o'qlardan biri shahzodaning oyog'iga qattiq sanchilib o'qning uchi xatto uzangini teshib o'tadi. Umarshayx janggohni tark qilishga majbur bo'ladi.

Sohobqiron bu holatni ko'rgach, paykonni olib tashlashga buyuradi. Tabiblar o'q sug'urib olinsa, oyog'ining tomirlaridan qon oqishi to'xtamasligin aytib, jarohat joyiga qizdirilgan temir six bosish lozimligini aytishadi. Og'riqqa dosh berolmasligi mumkin deb, tabiblar sharbatga behush qiladigan dori aralashtirib ichirmoqchi bo'lishadi. Shunda, Umarshayx mirzo ularni jerkib berib, oyog'ini uzatadi va qizdirilgan sixni bosishlarini buyuradi. Yaraga bir necha bor six bosib olingach, qon oqishi to'xtaydi. Shu asnoda shahzodaning chidamliligi, matonati-yu, irodasiga barcha qoyil qoladi [17; B.100.].

Muarrixlarning yozishlaricha, Amir Temur tabiatan hazil-mutoyiba, laganbardorlik, yolg'onchilikni yoqtirmagan. Saltanat ishlariga befarq bo'lish, aysh-ishratga berilish unga begona edi. Bir ishga jahd qilsa, astoydil bel bog'lab, jiddiy kirishgan. Farzand va nabiralaridan ham xuddi shuni talab qilgan.

Kim bo'lishidan qat'iy nazar ushbu qoidalaridan chekinganlarni ayovsiz jazolagan. Xususan, Sohobqiron tomonidan G'arbiy o'lkalar hukmdori etib tayinlangan Mironshoh mirzo o'ziga berilgan vakolatlarni suiste'mol qilib, ayshu ishratga berilib, davlat ishlariga

qaramay qo'yadi. 1399-yili uning katta xotini Xonzoda begim Samarqanga borib Amir Temurni ushbu holatlardan voqif etadi. Temur bundan qattiq ta'sirlanib, iztirobga tushadi va g'arbga qarab mashhur yetti yillik yurishini boshlab yuboradi. Ozarbayjonning Sultoniya shahriga kirib kelib Mironshoh va uning hamtovoqlarini zindonband etadi.

Amir Temur mashvarat o'tkazib aybdorlarga jazo masalasida fikr so'raydi. Biroq, yig'ilganlardan sado chiqmaydi. Shunda Temurning o'zi Mironshoh va uning ayonlarini o'lim jazosiga hukm qiladi. Shunda majlis ahli o'z farzandini qatl ettirish Islom shariati uchun noloyiq ish ekanligini aytishadi. Sohibqiron esa: "Men ahkomi shariatda emas, o'z saltanatimda tartib o'rnatmog'im lozim",-deydi. Ertasiga shahardagi katta maydonda aybdorlar qatl etila boshlanadi. Navbat Mironshohga kelganda Sayyid Baraka hamda boshqa bek va shahzodalar o'rtaga tushib, yalinib uni gunohini so'raydilar. Shundan so'nggina Mironshoh banddan ozod qilinib, o'rniga o'g'li Umar mirzo tayinlanadi [18; B.12.].

Ba'zilar "saroy tarixchisi", deb ataydigan Nizomiddin Shomiy "Zafarnoma"sining dastlabki nusxasi Amir Temurga yoqmaydi. Chunki, undagi tavsiflar faqat maqtovlardan iborat edi. Shu sababli, u asarni qayta ishlashga majbur bo'ladi.

Sharafiddin Ali Yazdiy va Nizomiddin Shomiylar e'tiqodli insonlar bo'lib, asarlarini dunyo olimlar tan olgan.

Sohibqiron haqida salbiy ma'lumotlar yozib qoldirgan tarixchi Ibn Arabshoh Amir Temurning nafaqat tanqidchisi, balki, adovatchisi ham edi. Masalan Amir Temurning oqsoq bo'lib qolish sabablarini u quyidagicha izohlaydi: ".....Kechalarning birida u bir qo'yni o'g'irladi va uni orqasiga o'ngarib oldi. Shunda cho'pon kamon o'qi bilan uni yelkasidan urib yaraladi va yana bir o'q bilan uni sonidan jarohatlab, holdan toyg'izdi. Natijada, faqirligiga mayiblik, alamiga razillik qo'shib, qabohati (avvalgidan ham) oshib fasodga intilib, bandalaru o'lkalarga qarshi adovati kuchaydi" [19; B.69.]. Aslida u davrlarda o'g'irlik uchun mayib qilib, qo'yib yuborilmagan. Balki, qo'li kesilgan.

Uning oqsoq bo'lib qolishi borasida kitobda ikki xil ma'lumot berilgan. Asarning 74-betida yozilishicha, u Xuroson va Seyistonga yurish chog'ida askarlari ochlikdan qiynaladi. Shunda u, o'sha yerdagi cho'ponlardan birining uyiga qo'y o'g'irlash uchun kiradi. Uyning egasi bundan xabar topib, unga quvib yetib, o'q otadi. Amir Temur kafti va sonidan

yaralanib, bir umrga oqsoq bo‘lib qoladi. Cho‘pon uni ko‘tarib olib, Hirot sultonining oldiga boradi. Sultonning o‘g‘li G‘iyosiddin uni o‘ldirmasdan unga berishini otasidan so‘rab oladi. Shu sababli u tirik qoladi. Ammo, aslida G‘iyosiddin Hirot hokimi bo‘lib, Amir Temur Hirotni undan jang bilan tortib olgan edi.

“Ajoyib al maqdur fi tarixi Taymur” asarida bir birini inkor etuvchi noxolis yozilgan ma’lumotlar yozilgan. Masalan, Amir Temurning otasini bir joyda cho‘pon bo‘lgan, desa, yana bir joyda o‘ta faqir etikdo‘z bo‘lgan, deydi.

Ibn Arabshoh Amir Temurning o‘lishi xabarini yozar ekan: “Temur yerlari, tob’ellarini tashlab do‘zax tomon” yuzlanganligini yozadi. Islom aqidasiidagi inson “Ash’ari mubashshara”dan boshqa hech kimni qaysi tomonga yuzlanib jon taslim qilganligini bilmasligini tan oladi va bilishga da’vogarlik qilmaydi. Uni do‘zahga ketishini xohlab, ketdi, deb yuborishning o‘zi asarda noxolis kayfiyat hukmronligidan darak berib turibdi.

Temur qo‘shinida asosan budparastlar, kohinlar, majusiylar bo‘lganligini ham aynan shu Ibn Arabshoh yozgan.

Tarixchi har qanday asardan haqqoniy manba sifatida foydalanavermaydi. Bunga haqqi yo‘q. Chunki, tarixiy tadqiqotlarda tarixshunoslik fanining o‘z o‘rni bor. Bu fan biron bir masalaga oid barcha tarixiy asarlarni o‘rgangan holda, eng to‘g‘risini olib, xulosa chiqaradi.

Masalan, Abul Faraj, degan o‘rta asr tarixchisi bor. Taxallusi, Bar-Ebrey bo‘lib, “yahudiyning o‘g‘li” ma’nosini beradi. Aynan u, Iskandariya kutubxonasini Hazrati Umar yoqib yuborgan, degan ma’lumotni qoldirgan. Ammo, tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, bu kutubxona Hazrati Umardan 300 yil avval Rim imperatorlari tomonidan yondirib yuborilgan ekan. Shuning uchun xolis asarlargina bizga manba bo‘la oladi.

Ammo, bir narsani anglash lozim, ya’ni, “Toshni ham mevali daraxtga otishadi”. Amir Temur o‘limi oldidan aroq ichganligi haqidagi salbiy ma’lumotlarni ham o‘sha davr “Saroy tarixchilari” yozib qoldiryapti. Xolislik bundan ortiq bo‘lmaydi.

Agar u ba’zilar ta’riflaganidek, o‘g‘ri, qaroqchi, e’tiqodsiz bo‘lganida yirik tasavvuf shayxlari Shamsiddin Kulol, Zayniddin Tayobodiy, Sayyid Barakalar unga pir-ustoz bo‘larmidi? Shunday insonning ortidan yuz minglab odamlar ergasharmidi? Shu inson va uning avlodlari davrida Ikkinchi Renessans yuz berarmidi?

Menimcha, Amir Temur haqida salbiy asarlar yozgan tarixchilar asarlarini tarixshunoslik fani nuqtai-nazaridan tahlil qilib, xolis baho berish davri yetib keldi.

De Klavixo asarida allaqancha afsonaviy va yarim afsona hikoyatlar to'lib yotibdi. Masalan, Samarqanddan 15 kunlik masofada amazonkalar diyori mavjudligini yozadi. Amazonkalar – jangovor ayollar qadimgi yunon mifologiyasi mahsuli. Ularni Diodor, Kvint Kursiy bor, deb yozsa, Strabon va Arrian afsona, deb yozadi. Klavixo ular haqidagi afsonani Diodordan olgan holda, aynan Temur davlatiga bog'lab yozib ketadi.

Yana bir misol, Temurning kelini Xonzodabegim elchilar uchun ziyofat tashkil qiladi. U yerda sharob to'la kuvachalar yerga terib qo'yilgan bo'lib, malika ba'zan yonidagi bolishlarga yonboshlab olar edi (Shuncha begona erkak oldida?! Yana xorijlik?).

Xizmatkorlar bugungi Yevropa restoranlaridagi etiket bo'yicha malikalarga sharob to'la qadah tutadi. Malikalar uni sipqorib ichishadi. Keyin oltin qadahlarni patnisga qo'yib, xizmatkor erkaklarni ham sharob ichishga taklif qilishadi. Ular mast holatga kelishgach, boshlaridan o'tgan kuligili voqealarni so'zlab, hammani kuldirishadi.

Emishiki, Saroymulixonim ushbu bazm tugagach, Rui Gonselosni sharob ichmaganman, deyishiga ishonmay, uni rosa ichishga majburlaydi. Bazm ishtirokchilari esa, rosa ichib mast bo'lib, yotib qolishadi. Hatto ovqatlanayotgan paytda o'zaro go'sht talashib, baqir-chaqir qilishadi [20; B.211.].

Yana bir voqea. Hindiston yurishini o'zi guvoh bo'lgaidek yozadi. Birinchidan bu yurish 1398 yil bo'lib, Klavixo kelishidan 5 yil oldin bo'lgan edi. Ikkinchidan jangdagi fillar soni 50 ga yaqin emas, 120 dan ortiq edi.

Klavixo asosan ichkilik va haram ayollariga to'xtaladi. Ya'ni, Saroymulxonimning yengsiz va yoqasiz uzun ko'ylak, uni 15 ga yaqin kanizak ko'ylakni ko'tarib yurgan. Aslida bunday kiyinish Yevropa saroydagi malikalar uchun xos bo'lgan.

Klavixo ham Amir Temurni yoshligida o'g'ri-qaroqchi bo'lgan, deb ta'riflaydi. Samarqand podshosini o'ldirib taxtga chiqqan, deydi. Seyistonda qo'y o'g'irlaganida otdan yiqilib, oyog'i va qo'li majruh bo'lib qolgan, deydi. Ichkilikka ruju qo'yganligini yozadi. Ammo, G'iyosiddan Ali "Zafarnoma"ga yozgan ilovasida Amir Temur hayoti davomida mast qiluvchi ichimliklarga mayl bo'lmaganligini yozadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. “Amir Temur va uning Jahon tarixida tutgan o‘rni” mavzuidagi xalqaro konferensiya tezislari.-Toshkent: O‘zbekiston, 1996.-B.36.
2. Amir Temur o‘g‘itlari.-Toshkent: Navro‘z, 1992.
3. Ibn Arabshoh. Ajoyib al maqdur fi tarixi Taymur. I kitob.-Toshkent: Mehnat, 1992.- B.67,297.
4. Клавихо, Руи Гонсалес де. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403— 1406). Пер. со староиспанского, предисл. и коммент. И.С. Мироковой. - Москва: Наука. Главная редакция восточной литературы, 1990. - 211 с.
5. Mamadazimov M. Ulug‘bek va uning rasadxonasi.-Toshkent: O‘zbekiston, 1994.- 34-bet.
6. Muiniddin Natanziy. Muntaxab ut-tavorixi Muiniy.-Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2011.-B.17,60,100.
7. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. - Toshkent: O‘zbekiston, 1996.- B.123,184,186,418.
8. Temur tuzuklari. - Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.-15,38,39,81,107-bet.
9. Fayziyev T. Temur xonadoni /O‘g‘izxondan qolgan mulk (majmua).- Toshkent: Adabiyot va San’at, 1995.-12-bet.

Xaitboyeva Iroda Baxtiyor qizi

O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

Urganch filiali Katta ilmiy xodimi

E-mail: irodaxaitboyeva2309@gmail.com

Tel: +998 (88) 930-37-38

ORCID: 0009-0009-4813-4028

XIVA XONLIGI TARIXI MANBASHUNOSLIGI VA TARIXSHUNOSLIGI (XIX ASR VA XX ASR BOSHLARI)

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr va XX asr boshlaridagi Xiva xonligi tarixi manbashunosligi va tarixshunosligiga oid ma’lumotlar tahlil qilingan. Bu davrdagi Xorazm adabiy-madaniy hayoti, Xiva xonligi madaniy muhitiga oid ma’lumotlar, yozma manbalar ko’zdan kechirildi. Munis, Ogahiy va

Bayoniylar tomonidan yaratilgan asarlar qiyosiy tahlil asosida o'rganildi. Bu asarlar Xorazm tarixi va madaniyati hamda Xiva xonligi tarixi, manbashunosligi, kitob va kitobat masalalarini o'rganishda birlamchi manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar. *Manbashunoslik, yozma manbalar, tarixshunoslik, etnik jarayon, kitobat, adabiy-madaniy muhit.*

SOURCE STUDIES AND HISTORIOGRAPHY OF THE HISTORY OF THE KHIVA KHANATE (19TH CENTURY AND EARLY 20TH CENTURY)

Abstract. *This article analyzes information related to the source studies and historiography of the Khiva Khanate in the 19th century and the early 20th century. The literary and cultural life of Khorezm during this period, as well as data concerning the cultural environment of the Khiva Khanate and written sources, are examined. The works created by Munis, Ogahi, and Bayani are studied based on comparative analysis. These works serve as primary sources for studying the history and culture of Khorezm, as well as the history, source studies, and issues related to books and manuscript production in the Khiva Khanate.*

Keywords. *Source studies, written sources, historiography, ethnic processes, book production, literary and cultural environment.*

ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ И ИСТОРИОГРАФИЯ ИСТОРИИ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА (XIX ВЕК И НАЧАЛО XX ВЕКА)

Аннотация. *В данной статье проанализированы сведения, относящиеся к источниковедению и историографии истории Хивинского ханства XIX — начала XX века. Рассмотрены литературно-культурная жизнь Хорезма данного периода, а также данные о культурной среде Хивинского ханства и письменные источники. Произведения, созданные Мунисом, Огахи и Баяни, изучены на основе сравнительного анализа. Эти труды служат первичными источниками для изучения истории и культуры Хорезма, а также истории Хивинского ханства, источниковедения и вопросов книги и книжного дела.*

Ключевые слова. *Источниковедение, письменные источники, историография, этнические процессы, книжное дело, литературно-культурная среда.*

Istiqlol sharofati bilan tiklanayotgan qadriyatlar va vatanimiz tarixini xolisona o'rganish bilan bog'liq ijobiy jarayonlar milliy o'zligimizni anglash va mustaqilligimizni yanada mustahkamlashga chuqur zamin yaratmoqda. O'zbekistonning istiqboldagi taraqqiyoti haqida birinchi prezidentimiz I.A.Karimov: "Avvalambor shu yurtda yashayotgan har qaysi inson o'zligini anglashi, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimiz, ulug' ajdodlarimizning merosini chuqurroq o'zlashtirishi, bugungi tez o'zgarayotgan hayot

voqeligiga ongli qarab, mustaqil fikrlashi va diyorimizdagi barcha o'zgarishlarga dahldorlik tuyg'usi bilan yashashi zarur" [2; B.17.] - deb ta'kidlagan edi.

O'zbek xalqining ko'p asrlik tarixida mustaqil davlatchilik asoslarini yaratish uchun ko'p kuch sarflangan va sa'y - harakatlar qilingan. "Ayniqsa Xorazmning shonli tarixi bizda o'tmish merosimiz bilan haqli ravishda faxrlanish tuyg'usini uyg'otadi. Chunki Xorazm tarixi o'zbek davlatchiligi tarixining uzviy qismidir, uning qudrati va qadimiyligi timsolidir. Ana shu bebaho meros bugungi avlod zimmasiga buyuk ajdodlarimizga munosib voris bo'lishdek ulkan ma'suliyat ham yuklaydi" [4; B.243.]

O'zbek davlatchiligi tarixida Xiva xonligining katta o'rni bor. Mazkur xonlik tarixining siyosiy jihatlarini o'rganish o'zbek davlatchiligi tarixini yoritishdagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. "Modomiki, o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat olgan xalqni yengib bo'lmas ekan, biz tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirishimiz zarur", - degan edi prezidentimiz [4; B.149.]

Yurtboshimizning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" nomli risolasida O'zbekistonda tarix fanining rivojlanish yo'llari va asosiy tamoyillari ko'rsatilib, uning istiqboli aniqlab berilgan. Jumladan, asarda "Bizda dovyurak, zamonaviy fikrleydigan olimlar yetishmaydi. Tarix sohasida mehnat qilayotgan olim, mutaxassislarga murojaat qilmoqdaman: Sizlar, millatimizning haqqoniy tarixini yaratib bering, toki u xalqimizga ma'naviy kuch-qudrat baxsh etsin, g'ururini uyg'otsin. Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o'zlikni anglash mumkin emas... Shunday ekan, har bir tarixchi ilmiy izlanishlar olib borish asnosida o'tmish tarixni o'rganmog'i, tarixiy haqiqatni ochib bermog'i lozim deb o'ylayman" [1; B.14-27.] – deya alohida ta'kidlanadi. O'zbekistonning tarixiy shaharlaridan biri Xiva mustaqillik yillarida olimlarning ilmiy tadqiqotlari markazida turdi. 1997-yili shaharning 2500 yillik yubileyining o'tkazilishi bu tadqiqotlarning yanada jonlanib ketishiga turtki bo'ldi. Yubiley munosabati bilan chop etilgan asarlar, maqolalar, ma'ruzalar to'plamida Xivaning qadimdan to hozirgacha bo'lgan tarixining ayrim masalalari o'z aksini topdi. Ulardagi ma'lumotlarning aksariyati ilgari e'lon qilingan bo'lsa-da, ularning bir joyga jamlanishi Xiva shahrining ko'p yillik tarixiga yangicha bir nazar ifodasi sifatida ahamiyatlidir.

Xiva xonligi O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan uchta xonlikdan ancha ilgari 1511-yilda tashkil topib, 1920-yilgacha mavjud bo'lgan va to'rt asr davomida iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotida yuksalish, rivojlanish va inqirozli davrlarni ham boshdan kechirgan.

Tarix fanining hozirgi taraqqiyot bosqichida, tariximizni, milliy davlatchiligimiz tarixini o'rganish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bugungi kunda O'zbekiston tarixini jahon sivilizatsiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida o'rganish dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda. Xiva xonligi tarixida bo'lib o'tgan siyosiy jarayonlar to'rt asrdan ortiq davrni o'z ichiga oladi va uning manbashunosligi hamda tarixshunosligi masalasi alohida bir tadqiqot yo'nalishini tashkil qiladi. Xiva xonligini o'rganishga birinchi navbatda Muhammad Solih [9; B.58.], Abulg'ozzi Bahodirxon [5; B.64.], Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy, Muhammad Yusuf Bayoniy [11; B.102.], Tabibiy [12; B.82.] kabi mahalliy tarixchilar jiddiy e'tibor qaratishgan. Xorazm tarixnavislik maktabining asoschisi haqli ravishda Abulg'ozzi Bahodirxon hisoblanadi. Uning "Shajarayi turk" va "Shajarayi tarokima" asarlari Xiva xonligining XVI-XVII asrlardagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va etnik jarayonlarini o'rganishda muhim manba sifatida tan olingan.

Abulg'ozixon "Shajarayi turk" asarida o'zi haqida shunday deb yozgan: "Bu faqirg'a, – xudoyi taolo inoyat qilib ko'p nimarsa bergan turur. Xususan uch hunar bergan turur: Avval sipohiygarlikning qonuni va yo'sunikim nechuk o'tlanmoq va yurumak va yovg'a yosoq yasamoq, ko'p birlan yuruganda nechuk qilmoq do'stg'a, dushmang'a nechuk so'zlashmoq. Ikkinchi masnaviyot va qasoid va g'azaliyot va muqatta'ot va ruboiyot va barcha ash'orni fahmlamaklik, arabiy va forsiy va turkiy lug'atlarning ma'nosini bilmaklik. Uchinchi, odam aqdindin, to bu damg'acha Arabistonda, Eron va Turonda va Mo'g'ulistonda o'tgan podshohlarning otlari va ularning va saltanatlarining kam yoki ziyodin bilmaklik" [5; B.12.] Abulg'ozixonning otasi Arab Muhammadxon, onasi Mehribonu xonim bo'lib, Jong'ozzi sultonning qizi bo'lgan. U 6 yoshiga kirganda onasi vafot etadi. Abulg'ozixon 16 yoshigacha Urganchda otasi qo'lida tarbiyalangan. Keyinchalik uni uylantirib qo'yishadi va unga Urganch yerlarining yarmini boshqarishni topshirishadi. Shaharning qolgan yarmi esa akasi Habashga berilgan [5; B.168.] Bundan tashqari Abulg'ozzi Bahodirxonning tibbiyot va dorishunoslikka oid "Manofe' ul – inson" asari ham

mavjud bo'lib, uning yagona nusxasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi institutida saqlanadi. Biroq bu asar haligacha olimlar tomonidan tadqiq qilinmagan.

Ogahiy o'z hayoti davomida Xiva xonlari Muhammad Rahimxon I (1806-1825), Olloqulixon (1825-1843), Rahimqulixon (1843-1845), Muhammad Aminxon (1845-1855), Abdullaxon (1855-1855), Qutlug'murodxon (1855-1855), Sayid Muhammadxon (1855-1864), Muhammad Rahimxon II (1864-1874) davrlarida yashab ijod qilgan. Ogahiyning o'zbek tilida yozilgan "Ta'viz ul-oshiqin" ("Oshiqlar tumori") devoni mavjud bo'lib, unda shoir yashagan muhitning amaldorlaridan qattiq shikoyat qilib yozgan she'rlarini ko'proq uchratamiz. Ogahiy she'rlari orasida hukmdorlarga aytilgan qasidalar ham bor. Bu devondan g'azallar, mustazod, muxammas, musaddaslar o'rin olgan. Devonda 18 ming misra she'r va 83 muxammas jam qilingan bo'lib, uning kirish qismida berilgan ma'lumotlarga ko'ra, Ogahiy quyidagi tarixiy kitoblarning muallifi bo'lgan: "Riyoz ud-davla" ("Davlat ishlari", 1825-1842), "Zubdat ut-tavorix" ("Tarixlar qaymog'i", 1846-1855), "Jom'e ul-voqeoti Sultoni" ("Sultonlar voqealari to'plami", 1856-1865), "Gulshani davlat" ("Davlat gulshani", 1865-1872), "Shohidi iqbol" (1872). Mohir tarjimon sifatida Munis tugallay olmagan Mirxondning "Ravzat us-safo" asarining 2-3-jildlarini, Muhammad Mahdixonning "Nodirnoma" (5 jild), Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Muhammad Yusuf Munshiyning "Tazkirai Muqimxoniy", Nizomiddin Ahmad Haraviyning "Taboqati Akbarshohiy", Rizoqulixon Hidoyatning "Ravzat us-safoi Nosiriy" nomli asarlari, Nizomiy Ganjaviyning "Haft paykar", Sa'diy Sheroziyning "Guliston", Husrav Dehlaviyning "Haft Bihisht", Muhammad Vorisning "Zubdat ul-hikoyat", Abdurahmon Jomiyning "Yusuf va Zulayho", "Salomon va Ibsol", "Bahoriston", "Xaft avrang" asarlarlari, Badriddin Hiloliyning "Shohu gado", Vosifiyning "Bado'e ul-voqoe" kitoblarini, Kaykovusning falsafa va ahloq masalalariga bag'ishlangan "Qobusnoma" asarini, Husayn Voiz Koshifiyning "Ahloqi Muhsiniy", Imomiddin G'ijduvoniylarning "Mifot ut tolibin" kitoblarini fors tilidan o'zbekchaga mahorat bilan tarjima qilgan edi. Ogahiy tarixga oid asarlar yaratib Munisning bu sohadagi an'analarini davom ettirib, rivojlantirdi va yuksaklikka ko'tardi. Munis va Ogahiy hamkorlikda yozgan "Firdavs-ul iqbol" asari va o'zining Xorazm tarixiga oid beshta asari faqat o'zbek xalqining tarixini o'rganish jihatdan ahamiyatli bo'lib qolmasdan, balki qardosh tojik, qozoq, turkman, qoraqalpoq, rus, eron, afg'on xalqlarining

tarixi, madaniyati, san'ati, urf-odatları, psixologiyasi, shu xalqlarning kelib chiqishi, tirikchiligi manbai, qabilalarning tarixini o'rganishda bebaho manba bo'lib xizmat qiladi.

Bayoniy o'zidan boy yozma meros qoldirgan. Bayoniy tarixiy asarlar yozish bilan bir qatorda ko'pgina tarixiy asarlarni turli tillardan o'zbek tiliga tarjima etgan [10; B.14.]. Bayoniyning mazmundor va ajoyib g'azallarini o'zi ichiga olgan devonining bir nechta nusxasi qo'lyozma holida saqlanmoqda. Bu devonlardan uning g'azallari, muxammaslari, ruboiylari, qasidaları o'rin olgan. Muarrixning "Shajarayi Xorazmshohiy" risolasida Abdulg'oziyxon Munis va Ogahiy qalamiga olgan davr va Xiva xonligida 1873-yildan 1914-yilgacha sodir bo'lgan tarixiy voqealar tasvirlangan. Mazkur risola yuqorida nomlari bayon etilgan mualliflar asarlarining xulosasi va davomi hisoblanadi. Munis va Ogahiyning asarlari hashamdor, qiyin til bilan yozilgan. Ularda arabcha va forschaga so'zlar va og'ir iboralar ko'p uchraydi. Bayoniy ana shu qiyinchiliklarni bartaraf qilish maqsadida Munis va Ogahiy asarlarini bir jildga to'plab, qisqartirib, sodda til bilan qayta yozib chiqqan [10; B.56.] Munis Eltuzarxonning farmoniga muvofiq "Firdavis ul-iqbol" nomli asarini yozgan. Munis bu asarni tamomlay olmay 1829-yili vafot etadi. Ollohqulixon Ogahiyga bu chala qolgan asarni yozib tamom etishni buyuradi. Ogahiy bu asarni yozib tamomlaydi. So'ngra Ogahiy XIX asrda Xorazmda xonlik qilgan xonlarning har biriga atab, alohida-alohida bir necha asar yozgan [10; B.57.] Muallif o'z asarining oxirida quyidagi ma'lumotlarni keltirib o'tgan edi: "Men, Muhammad Yusuf Bayoniy bu kitobni yozib tamom etdim. Keyinchalik Asfandiyorxon vaqtida sodir bo'lgan tarixiy voqealarni yozib, bu kitobimga qo'shaman". Xorazmda tasnif etilgan Bayoniyning mazkur tarixiy asari, Xorazm, ayniqsa Xiva xonligi tarixini o'rganishda aniq ma'lumot beruvchi asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Bayoniyning bu tarixiy asarida Xiva xonligining siyosiy tarixi juda mufassil va keng bayon etilgan. Xiva xonligining siyosiy hayotida ro'y bergan muhim voqealardan biri Xiva xonligini Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi edi. Bu voqea Xorazmda Muhammad Rahimxon II Feruz hukmronligi davrida sodir bo'lgan. Muhammad Yusuf Bayoniy o'zining "Shajarayi Xorazmshohiy" asarida bu masalaga juda mufassal to'xtalib o'tgan va bu borada qimmatli ma'lumotlarni keltirgan.

Bayoniyning ikkinchi tarixiy asari “Xorazm tarixi” nomi bilan ataladi va asarning ilk boblari ma’no jihatidan “Shajarayi Xorazmshohiy” asariga o’xshab ketadi. Lekin yozilish uslubi bilan undan farq qiladi. Muqaddimada ko’rsatishicha, Bayoniy o’z asarini ko’pchilik bahra olishi uchun sodda til bilan yozgan. Afsuski, 15 bobdan iborat bu asarning faqatgina 8 bobi saqlangan. Qolgan boblari yo’q. Uning yagona nusxasi O’zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo’lyozma asarlar xazinasida saqlanmoqda.

Umuman olganda, taniqli xorazmlik tarixchilar Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy va Muhammad Yusuf Bayoniylar tomonidan yuksak mahorat bilan yozilgan tarixiy asarlar o’z mazmuni, ma’lumotlarining kengligi, rang-barangligi va haqqoniyligi bilan ajralib turadi. Bu tarixchilar bir-birlarining ishini davom ettirib, Xiva xonligi hududida XVII asr ikkinchi yarmidan to XX asr boshlarigacha yuz bergan tarixiy voqealarni o’z ichiga oluvchi «Firdavs ul-iqbol», «Riyozi ud-davlat», «Zubdat ut-tavorix», «Jome’ ul-voqeoti sultoniyy», «Gulshani davlat» shuningdek, Feruzxon hukmronligi davrini o’z ichiga olgan «Shohidi iqbol», «Shajarayi Xorazmshohiy» va «Xorazm tarixi» kabi asarlarni yozib qoldirganlar. Bu asarlardan mavzuga doir ko’pgina qimmatli ma’lumotlar olindi.

Munis, Ogahiy va Bayoniylar tomonidan yaratilgan asarlar Xorazm tarixi va madaniyatini o’rganishda asosiy manba bo’lib, Xivadagi kitob va kitobat masalalarni o’rganishda, xonlik kutubxonasi tarkibini aniqlashda ham yaqindan yordam beradi.

Xiva xonligining XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr 20-yillari tarixi tarixshunosligi sovet yillarida o’rganishning xususiyatlari, o’ziga xosliklari va umumiy jihatlarini bir tizimda o’rganib chiqib, hozirgi davr taqozosidan kelib chiqqan holda, uni ilmiy va siyosiy jihatdan tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1988;
2. Каримов. И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008;
3. Каримов. И.А. Метин иродали инсонлар юртига эҳтиром. Асарлар. 8- жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2000;
4. Каримов. И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурамыз. Асарлар. 7- жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1999.

5. Абулгози Баходирхон. Шажарайи турк. – Тошкент;
6. Абдурасулов А. Хива (Тарихий – этнографик очерклар). – Т.: Ўзбекистон, 1997;
7. Данилевский Г.И. Описание Хивинского ханства. // ЗРГО кн. – СПб. 1851;
8. Иванов П.П. Архив Хивинских ханов XIX в. – Л.: Изд. Гос. публ. библиотеки. 1940;
9. Мухаммад Солиҳ. “Шайбонийнома”. – Тошкент, 1961;
10. Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик (XVII – XIX ва XX аср бошлари). – Т.: Гафур Гулом, 2002;
11. Мухаммад Юсуф Баёний. Шажарайи Хоразмшоҳий. – Т.: Гафур Гулом, 1994;
12. Табибий. Таворихи ал – хавонин. – Т., 1994;

Atabaeva Dilnoza Baxtiyar qizi

*O'zbekiston davlat Xoreografiya akademiyasi
Urganch filiali Ta'lim sifatini nazorat qilish
bo'limi bosh mutaxassisi*

QADIM XORAZM MILLAT KIYIMLARI TARIXI

Annotatsiya: *Maskur maqolada qadim Xorazmning milliy kiyimlari, tarixi, gavxo'ra, qo'yqirilgan, Tuproqqal'a, Ayozaqal'a tarixiy joylardan topilgan topilmalar, sur'atlar, haykaltaroshlik san'atlari orqali Xorazm milliy liboslari haqidagi ilmiy – tarixiy ma'lumotlar bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *qadimiy, xalq, Xorazm milliy liboslar, tarix, rasm, haykaltaroshlik, san'at, madaniyat, qadimiy qal'alar.*

Аннотация: *В данной статье национальные костюмы древнего Хорезма, история, научно – исторические сведения о национальных костюмах Хорезма представлены посредством находок, фотографий и скульптурного искусства, найденных в исторических местах Гувхора, Койчиван, Тупроккала, Айозкала.*

Ключевые слова: *древний, народный, хорезмские национальные костюмы, история, живопись, скульптура, искусство, культура, древние крепости.*

Abstract: *In this article, the national costumes of ancient Khorezm, history, scientific and historical information about the national costumes of Khorezm are presented through the finds, photos, and sculptural arts found in the historical places of Guvkhora, Koychivan, Tuproqkala, Ayozaqala.*

***Keywords:** ancient, folk, Khorezm national costumes, history, painting, sculpture, art, culture, ancient fortresses.*

Qadim Xorazm tarixi 3000 yildan oshib ketgan. Xorazm o'zining boy madaniyati, san'ati bilan ayniqsa yuksak tafakkuri bilan barcha fanlarning rivojlanishigacha tamal toshini qo'ygan davlatchilik tarixiga ega bo'lgan xalqdir.

Dunyoga "Al-Jabr" ilmini bergan, "Ilmlar podshohi" deb sharq va g'arbga ma'lumu mashxur bo'lgan Xorazm bugungi kunda ham Xorazmning buyuk nomini oqlamoqda.

Qadim Xorazm o'zining betakror san'ati, hunarmandchilik, shaharsozligi bilan sharq mamlakatlari orasida mashxur bo'lgan. Xorazmning o'tmish madaniyatiga nazar soladigan bo'lsak qadimgi Xorazm ayollarining kiyinish madaniyati ham o'zgacha bo'lgan. Ayollar qadimda tabiiy matolardan bo'lgan kiyimlarni o'zlari tikib kiyganlar.

Xorazm ayollarining kiyinishi asrlar davomida mintaqaning iqlimi, e'tiqodi va ijtimoiy tuzimi ta'sirida shakllangan. Xorazm ayollarining asosiy kiyimi ko'ylak va lozim bo'lgan. Ko'ylaklar odatda uzun va keng qilib tikilgan. Xorazm ayollari ko'ylaklarining boshqa xudud ayollar kiyimlaridan farqi yoqa va yenglari o'ziga xos bezatilishi bo'lgan. Ayollar

ko'ylagining yoqa qismi mag'iz bilan bezatilgan. Bunday ko'ylaklar uchun bo'z, ipak va nimshoxi, yarim ipak matolaridan foydalanilgan. Ayollar ko'ylak ustidan beqasam yoki baxmaldan tikilgan ichi paxta bilan qavilgan to'nlar kiyishgan. Bunday to'nlar nafis kashtalar bilan bezatilgan.

Ayollar bosh kiyimi ularning ijtimoiy kelib chiqishi va oilaviy ahvolini belgilab bergan.

Ayollar bosh kiyimi esa "Lachak" deb yuritilgan. Katta yoshli ayollar boshlariga bir necha qavat qilib o'ralgan oq ro'moldan iborat bo'lgan. Bosh kiyimlarga tepalik, peshonaband va turli osilib turadigan tangachalar qilingan. Xorazmda qadimda zargarlik san'ati juda rivojlangan bo'lib, o'zining yirikligi va vazni bilan ajralib turadi.

Osiq duo: Ko'krak qismiga taqiladigan yirik kumush taqinchoq bo'lib, u nafaqat bezak, balki tumor (asrovchi) vazifasini bajargan.

Bozuband: qo'lga taqiladigan keng bilak uzuklar.

Guldursi: quloqqa taqiladigan o‘ziga xos sirg‘alar. Xorazm zargarligida asosan kumush, feruza va marjon toshlaridan keng foydalanilgan.

Xorazm ayollar libosi - bu shunchaki kiyim emas, balki ayolning nafosati, uning oiladagi o‘rni va vohaning qadimiy tarixini mujassam etgan san’at namunalaridir. Bugungi kunda Xorazm laparlarini aytadigan va “Lazgi” raqsini ijro etadigan san’atkorlarda bunday liboslarning zamonaviylashtirilgan ko‘rinishini ko‘rish mumkin. Gavxo‘ra, Qo‘yqirilganqal’a, Tuproqqal’a, Ayoqzal’a va boshqa shaharlardan topilgan devoriy suratlar, terrokota, haykaltaroshlik asarlari va qadimiy Xorazm liboslarini o‘rganishning asosiy manbasi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Qo‘yqirilgan qal’adan topilgan ossuariyda qomatga yopishgan, barlari o‘ngdan chapga, bo‘yin o‘ymasi, old tomoni, etak qismi va yenglari mo‘yna bilan bezatilgan chakman kiygan erkak kishi tasvirlangan. Qal’adan topilgan boshqa libos ham shunga o‘xshash, ushbu terroqotaga qarab chakman tagidan uzun yengli ko‘ylak kiyilganini bilish mumkin.

Tuproqqal’adagi devoriy sur’atlarda saqlanib qolgan erkaklar libosi ko‘proq qizil va qora rangda bo‘lganligidan dalolat beradi. Bu yerda turli bichimdagi bezakli va bezaksiz, lekin faqat qizil rangdagi libosli bir qancha figuralar topilgan.

Shox va unung yaqinlari yengil oyoq kiyimlar kiyganlar.

Qadimda erkaklarning bosh kiyimiga alohida e’tibor berilgan, ya’ni ular oddiy konussimon qalpoq hamda murakkab shakldagi bosh kiyimlar bo‘lgan. Shoxning bosh kiyimi dumaloq ko‘rinishda bo‘lib quloqbandli, orqa tomonidan yelka qismiga tushub turuvchi bo‘lakli to‘qa va marjonlar bilan bezatilgan tillaqosh taqilgan.

Bu “Vazamar” deb nomlangan tangalardagi Xorazm shoxining tasvirida aks etgan.

Xorazm ayollarining liboslari ham turli tumanligi bilan ajtalib turgan.

Antiq yodgorliklarning aksariyatida yuqori qismlarning saqlanib qolmaganligi sababli ayollar bosh kiyimini o‘rganish bir muncha murakkab hisoblanadi.

Ayollar boshiga yopinchiq tashlab, ba’zida faqat quloqlarini ochiq qoldirganliklari saqlanib qolgan tasvirlardan xulosa chiqrish mumkin. Shuningdek peshonaning old qismida kichik yarim oyli tillaqosh ham taqqanlar. Yarim oysimon tillaqoshni kumush idishlarda ham ko‘rishimiz mumkin.

Izlanishlar natijasida Xorazmning qadimgi davrdagi liboslari o‘zida ustki va ichki

kiyim, bosh kiyim, oyoq kiyimlarni mujassam etgan noyob majmua sifatida namoyon bo'ldi. [2. E'tibor Mirnazrova. "Moziydagi sado" №3c 25bet] 2015 y. №3c B-25]

Cho'girma Xorazmliklarning milliy bosh kiyimi. U hududning iqlimidan kelib chiqib qo'yterisidan tayyorlangan. Qadimda uni o'zining jazirama issig'ida ham sovug'ida ham kiyib yurilgan. Chunki yozda boshni salqin, qishda esa issiq saqlaydi.

Tarixiy manbalarga qaytarilishiga Xorazmda XX boshlarida 300 dan ortiq ko'pchilik do'konlarda mavjud bolib, Xiva, Xazarasp, Xonqa, Yangi Urganch shaharlari yirik qo'ychilik markazlari hisoblangan, qo'ychilik bilan shug'ullangan ustalarning kasblari zamon o'zgarishi bilan turli nomlar bilan atalgan.

Po'stindo'z, charimgar, saxtiyongar, meshtayyorlovchilar – meshgar, oyoq kiyim tikadigan ustalarning o'zi etikdo'z kovush va maxsido'z, bosh kiyim tayorlaydigan ustalar cho'girmado'z telpakchi va tumoqchi, dubulg'achi deb nomlangan.

"Uchoqala" muzey qo'riqxonasining ilmiy xodimi Dilmurot Bobojonov barcha ma'lumotlariga qaraganda ko'nchilik kasbining keng rivojlangan turi Xorazm cho'girma telpaklarining tayyorlash bo'lib, bu bo'lim o'tgan asirda 60 nafar usta shug'ullangan.

Xivamizga tashrif buyurgan xorijlik sayoxlar cho'girmaning tayyorlanish jarayoni bilan juda qiziqadi.

Arxeolog Sergey Baratov rahbarligida Xorazm Mamun akademiyasi hamkorligida olib borilgan ilmiy ekspeditsiya davomida noyob topilmaga duch kelgan edi.

Xazarasp tumanidan 17 km, sharqda Amudaryo bo'ylarida joylashgan Xumbuztepadagi qazishma ishlarida meloddan oldingi 4-5 asrlarga oid ibodatxona va otashxona qoldiqlari topilgan. Shu yerdagi noyob topilmalardan bu chogirma qo'ygan odam haykalchisidir.

Demak, bundan ko'rinadiki cho'girma jud qadimiydir. Xorazm cho'girmasi asrlar osha milliy xususiyatlarni yo'qotmaydi o'zida ajddodlarimiz qadriyatlarini davom ettiraveradi.

[3. "Bog'ot sadosi" gazetasi Azamat Safarov 2017,16-fevral 4-bet].

Bugungi kunda milliy xalq bayrami hisoblangan "Navro'z" bayramida bizning Milliy qadriyatlarimiz shu jumladan Xorazm milliy kiyimlari ham saxnada elga namoyon qilinadi. Raqs san'atida erkak va ayollarning qadimiy milliy liboslarimiz ham o'z aksini topgan. (mulliflar)

Bundan tashqari Xorazmda asrlar davomida shakllangan va turmush tarziga singib ketgan kiyim-kechaklari bilan bog‘liq urf-odat marosimlar (kelin keldi, kuyo‘v ko‘rdi, fотиha to‘y va hakoza) sifatida yashab kelmoqda.

Misol o‘rnida shuni aytish lozimki, Xorazmda ayollar 63 yosh (payg‘ambar yoshiga yetganlarida kekxa onaxonlarga “qari lachak” o‘ralgan.

Chaqaloq tug‘ilganda kiyiladigan ko‘ylakchasi “chilla ko‘ylak” deb yuritilgan, Sunnat to‘yda esa to‘y bolaga surpdan oq yaktak va keng shalvar kiydirilgan.

Shoira Nurillayeva UrDUda xotin-qizlar bilan ishlash jarayonida doimo milliy kiyimlarimiz millatimiz ramzi deb ko‘p bora uqtiradilar. [4. Muzeydan sado. Shoira Nurillayeva 2011-yil №4 son 31 bet].

Bizning O‘zbekiston davlat Xoreografiya akademiyasi Urganch filialida 2026-yilda Komiljon Nurjonov tashabbuslari bilan “Avesto” muzeyidagi qadimgi milliy kiyimlar, taqinchoqlar, Xorazm madaniyati sanoati ayniqsa Xorazm raqs san’ati to‘g‘risidagi adabiyotlar kichik “Lazgi” muzeyiga taqdim qilinadi. Xorijiy millatlardan tashrif buyurgan mexmonlarning filialga tashrif buyurib, Xorazmning 3000-yildan ortiq tarixi haqidagi ma’lumotlardan xabardor bo‘lmoqdalar. Bu ezgu ishda “Lazgi” bo‘limi boshlig‘i Zulfiya Yoqubova va Ilmiy ishlar muxandisi Kurbonbika O‘razmetovalarning ham munosib hissallari bor.

Dunyoda san’at sexridan, so‘z sexridan ulug‘ omil bormikan! Ana go‘zal olam tarixiy, Xorazm “Lazgisi” jozibasini raqs san’atining fidoyiy ustozlari hayotini o‘rganib avloddan-avlodga milliy meros sifatida taqdim etmog‘imiz lozim. Raqs san’atining sirli mo‘jizasini esa III - xalqaro “Lazgi” raqs festevalida ko‘rib bunga amin bo‘lasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Internet sahifasi.
2. “Muzeydan sado” 2015-yil №3c, 256 E’tibor Mirnazarova.
3. “Bog‘ot sadosi” gazetasi. Azamat Safarov 2017,16- fevral, 4-bet
4. “Muzeydan sado”, 2011-yil, №4c 31-bet. Shoira Nurillayeva
5. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Xorazmning milliy kiyimlari “Sharq” aksionerlik kompaniyasi Toshkent shahar Buyuk Turon ko‘chasi 41-uy

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

*Allaberganova Muyassar Rimberganovna,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
“Ma’lumotlar uzatish tarmoqlari va tizimlari”
kafedrası katta o‘qituvchisi
email: amuyassar83@gmail.com
Atajanova Avazjon Xaitboy qizi
O‘zbekiston davlat Xoreografiya akademiyasi
Urganch filiali kutubxonachisi
email: avazjonatajanova7@gmail.com*

**INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINING
INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA O‘QITISH METODIKASI**

**МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ИНФОРМАТИКИ И ИНФОРМАЦИОННЫХ
ТЕХНОЛОГИЙ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ**

**METHODOLOGY OF TEACHING INFORMATICS AND INFORMATION
TECHNOLOGIES BASED ON INNOVATIVE APPROACHES**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan biri - teskari ta’lim (flipped classroom) metodidan foydalanish masalalari yoritilgan. Mazkur metod orqali o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish hamda amaliy faoliyatga yo‘naltirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:** ta’lim, innovatsiya, teskari ta’lim, metodika, texnologiya.*

***Аннотация.** В данной статье рассматривается использование одного из современных педагогических подходов - метода «перевернутого обучения» (flipped classroom) в преподавании информатики и информационных технологий. Анализируются возможности развития навыков самостоятельного обучения учащихся, повышения их интереса к предмету, а также ориентации на практическую деятельность с помощью данного метода.*

***Ключевые слова:** образование, инновация, перевернутое обучение, методика, технология.*

***Abstract.** This article discusses the use of one of the modern pedagogical approaches - the flipped classroom method - in teaching Informatics and Information Technologies. The study analyzes the possibilities of developing students' independent learning skills, increasing their interest in the subject, and directing them toward practical activities through this method.*

***Keywords:** education, innovation, flipped classroom, methodology, technology.*

KIRISH. Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi barcha sohalar qatori ta'lim tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Axborotlashgan jamiyat sharoitida bilim olish jarayoni an'anaviy shakldan zamonaviy, interaktiv va texnologiyaga asoslangan shaklga o'tmoqda. Ayniqsa, informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitish jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etib, u o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy ko'nikmalarini ham rivojlantirishga xizmat qilmoqda. An'anaviy ta'lim tizimida o'quvchilar ko'proq tayyor ma'lumotni qabul qiluvchi sifatida ishtirok etgan bo'lsa, zamonaviy yondashuvlar ularni faol ishtirokchi, mustaqil fikrlovchi va muammolarni hal qila oladigan shaxs sifatida shakllantirishni nazarda tutadi.

Shu nuqtai nazardan, ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bunday texnologiyalar qatoriga teskari ta'lim (flipped classroom), muammoli o'qitish, loyiha asosida o'qitish, hamkorlikda o'rganish va raqamli platformalardan foydalanish kiradi. Ushbu metodlar orqali o'quvchilar mustaqil bilim olish, tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish va amaliyotda qo'llash kabi muhim kompetensiyalarni egallaydilar. Bundan tashqari, zamonaviy ta'lim jarayoni o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilib, ularning qiziqishlari va ehtiyojlariga moslashuvchan muhit yaratadi. Shu asosda, ta'lim sifati oshadi, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishi kuchayadi hamda ular kelajakdagi kasbiy faoliyatga samarali tayyorlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGYA. Teskari ta'lim (flipped classroom) metodikasi zamonaviy pedagogika ilmda innovatsion yondashuvlardan biri sifatida keng o'rganilgan bo'lib, uning nazariy va amaliy asoslari bir qator xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan yoritilgan. Mazkur metod ilk bor amerikalik pedagoglar Jon Bergmann va Aaron Sams tomonidan 2007-yilda amaliyotga joriy etilgan bo'lib, ular dars jarayonini qayta tashkil etish orqali o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshirishga erishganlar. Ularning Flip Your Classroom: Reach Every Student in Every Class Every Day nomli asarida teskari ta'limning mohiyati, afzalliklari va uni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari ilmiy asosda bayon etilgan. Mualliflarning fikriga ko'ra, mazkur metod

o'quvchilarga nazariy bilimlarni mustaqil ravishda, o'ziga qulay tezlikda o'zlashtirish imkonini berib, dars vaqtini interaktiv va amaliy faoliyatga yo'naltirish imkonini yaratadi.

Shuningdek, Carl Reidsema va hammualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda teskari ta'lim metodining oliy va texnik ta'lim tizimidagi samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Ularning *The Flipped Classroom: Practice and Practices in Higher Education* asarida ushbu metodning turli fanlarda qo'llanish tajribasi, pedagogik natijalari hamda o'quvchilarning bilim olish faolligiga ta'siri chuqur tahlil qilingan. Bundan tashqari, Sal Khan tomonidan yaratilgan Khan Academy platformasi teskari ta'lim metodining ommalashuvida muhim rol o'ynab, video darslar orqali mustaqil o'rganish modelining samaradorligini amalda namoyish etgan.


Mahalliy ilmiy manbalarda ham informatika fanini o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanish masalalari yoritilgan bo'lib, xususan, B. Mo'minov va A. Pardayevlarning ilmiy ishlari bu borada muhim nazariy asos vazifasini bajaradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, teskari ta'lim metodini qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyati, amaliy ko'nikmalari va o'quv jarayonidagi faolligi sezilarli darajada oshadi. Shu bois, mazkur metodni informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitish jarayoniga joriy etish ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan hamda samarali yondashuv sifatida e'tirof etiladi.

Teskari ta'lim metodining amaliy ahamiyati, ayniqsa, informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitish jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi, chunki mazkur fan nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy faoliyat, algoritmik tafakkur va mustaqil ishlash ko'nikmalarini ham talab etadi. Ushbu metodni qo'llash natijasida o'quvchilarda bir qator muhim kompetensiyalar shakllanadi. Avvalo, o'quvchi uy sharoitida mavzuga oid videodars, elektron taqdimot, animatsiya yoki matnli resurslarni mustaqil o'rganish jarayonida ma'lumotni tahlil qilish, asosiy g'oyani ajratib olish va xulosa chiqarishga odatlanadi. Bu unda tanqidiy fikrlash ko'nikmasini rivojlantiradi. Masalan, "Algoritm va blok-sxema", "Axborot xavfsizligi", "Elektron jadvallar", "Dasturlash" kabi mavzularda o'quvchi avval nazariy tushunchalarni mustaqil o'zlashtirib, dars vaqtida o'qituvchi rahbarligida amaliy topshiriqlar bajaradi, xatolarini tahlil qiladi va turli yechimlarni

solishtiradi. Buning natijasida u faqat tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki fikrlovchi va qaror qabul qiluvchi subyektga aylanadi.

Mazkur metod muammoni hal qilish kompetensiyasini shakllantirishda ham katta imkoniyat yaratadi. Informatika fanida deyarli har bir mavzu ma'lum bir masalani yechishga yo'naltirilgan bo'ladi. Masalan, dasturlash oid mavzularni o'qitishda o'quvchilarga biror arifmetik jarayonni avtomatlashtirish, ma'lumotlarni saralash, shartli operatorlardan foydalanib masala yechish yoki elektron jadvalda formula tuzish vazifasi beriladi. Teskari ta'lim metodida nazariya avvaldan o'zlashtirilgani sababli dars vaqtining asosiy qismi aynan amaliy muammo yechishga sarflanadi. Bu o'quvchining faolligini oshiradi, mantiqiy fikrlashini kuchaytiradi va masalaga bir necha usulda yondashish malakasini rivojlantiradi. O'qituvchi bu jarayonda nazorat qiluvchi emas, balki yo'naltiruvchi va maslahat beruvchi rolini bajaradi. Shu jihatdan mazkur metod informatika va AT fanida amaliy natijadorlikni oshiruvchi samarali pedagogik vosita hisoblanadi.

Bundan tashqari, teskari ta'lim o'quvchilarda jamoada ishlash va kommunikativ ko'nikmalarni ham rivojlantiradi. Informatika fanida ko'plab topshiriqlarni juftlikda yoki kichik guruhlarda bajarish mumkin: masalan, bir guruh taqdimot tayyorlaydi, boshqa guruh ma'lumotlarni elektron jadvalda qayta ishlaydi, yana bir guruh dastur algoritmini ishlab chiqadi. Bunday faoliyat jarayonida o'quvchilar o'zaro fikr almashadi, vazifalarni taqsimlaydi, bir-birining xatolarini ko'rsatadi va umumiy natijaga erishishga intiladi. Bu ularda muloqot madaniyati, hamkorlik, mas'uliyat va o'z fikrini asoslab bayon qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslarda Google Classroom, Quizizz, Kahoot, Padlet, Canva, Scratch yoki elektron test platformalaridan foydalanish o'quvchilarning darsga qiziqishini oshirib, bilimni chuqurroq o'zlashtirishiga xizmat qiladi. Demak, informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda teskari ta'lim metodidan foydalanish o'quvchilarning nazariy bilimni amaliyot bilan bog'lash, kompetensiyalarini kompleks rivojlantirish hamda zamonaviy ta'lim talablariga mos shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.



1-rasm. An'anaviy ta'lim va teskari ta'lim (Flipped Classroom) metodlarining taqqoslanishi

Ushbu rasmda an'anaviy ta'lim modeli va teskari ta'lim (flipped classroom) metodining asosiy farqlari vizual tarzda taqqoslab ko'rsatilgan. Rasmning chap qismida an'anaviy ta'lim jarayoni tasvirlangan bo'lib, unda o'quvchilar dars vaqtida o'qituvchidan nazariy ma'lumotlarni tinglaydi, ya'ni ma'ruza sinfda beriladi, amaliy mashqlar esa uyga vazifa sifatida bajariladi. Bu jarayonda o'quvchi ko'proq passiv tinglovchi rolida bo'ladi.

Rasmning o'ng qismida esa teskari ta'lim metodining modeli aks ettirilgan. Unda o'quvchilar nazariy bilimlarni uy sharoitida, asosan video darslar orqali mustaqil o'zlashtiradi, dars vaqtida bilimlarini amaliy mashg'ulotlar, muhokamalar va guruh ishlari orqali mustahkamlaydi. Natijada o'quvchilar faol ishtirokchiga aylanadi, ularning mustaqil fikrlash, muloqot qilish va muammoni hal qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

Muhokama va natijalar. Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda innovatsion pedagogik metodlardan, xususan, teskari ta'lim yondashuvidan foydalanish o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshiradi. An'anaviy ta'lim modelida o'quvchilar asosan passiv tinglovchi sifatida ishtirok etib, dars jarayonida nazariy ma'lumotlarni qabul qilish bilan cheklanadi, natijada bilimlarning amaliy qo'llanilishi yetarli darajada shakllanmaydi. Aksincha, teskari ta'lim metodida o'quvchilar nazariy materialni mustaqil ravishda oldindan o'zlashtirib, dars vaqtida amaliy mashg'ulotlar, muammoli vaziyatlar va interaktiv topshiriqlar orqali bilimlarini

mustahkamlaydilar. Bu o'quvchilarning faolligini oshirib, bilimlarni chuqurroq anglash va uzoq muddatli xotirada saqlashga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, nazariy bilimlarni amaliyot bilan integratsiyalash o'quv jarayonining samaradorligini oshiruvchi asosiy omillardan biridir. Xususan, informatika fanida algoritmlar tuzish, dasturlash, elektron jadvallar bilan ishlash, ma'lumotlarni qayta ishlash kabi amaliy topshiriqlar orqali o'quvchilar o'z bilimlarini real vaziyatlarda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu tariqa ularda muammoni tahlil qilish, yechim topish va qaror qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi. Bundan tashqari, innovatsion metodlar asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilarning motivatsiyasi va darsga bo'lgan qiziqishi ortib, ularning mustaqil o'rganishga bo'lgan intilishi kuchayadi. Shu bilan birga, o'qituvchi faoliyati ham transformatsiyalanib, u bilim beruvchi emas, balki ta'lim jarayonini tashkil etuvchi, yo'naltiruvchi va fasilitator sifatida namoyon bo'ladi.

Olingan natijalar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanish nafaqat o'quvchilarning akademik ko'rsatkichlarini yaxshilaydi, balki ularning zamonaviy kompetensiyalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Xususan, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, axborot bilan ishlash madaniyati, raqamli savodxonlik kabi ko'nikmalar shakllanib, bu esa o'quvchilarni kelajakdagi kasbiy faoliyatga samarali tayyorlash imkonini beradi. Demak, ta'lim jarayonida nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlovchi innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan hamda yuqori samaradorlikka ega ekanligi bilan tavsiflanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda innovatsion pedagogik metodlardan, xususan, teskari ta'lim (flipped classroom) yondashuvidan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. Mazkur metod an'anaviy o'qitish modelidan farqli ravishda o'quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirib, uning mustaqil bilim olish, tanqidiy fikrlash va muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, informatika fanining amaliy yo'naltirilganligi teskari ta'lim metodining samarali qo'llanilishiga qulay sharoit yaratadi, chunki bu fan doirasida nazariy bilimlar bevosita amaliy mashg'ulotlar bilan mustahkamlanadi.

Ta'lim jarayonida ushbu yondashuvni qo'llash orqali o'quvchilarning darsdagi faolligi ortadi, bilimlarni o'zlashtirish darajasi chuqurlashadi hamda o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj shakllanadi. Shu bilan birga, teskari ta'lim yondashuvi o'quvchilarda jamoada ishlash, muloqot qilish, axborot bilan ishlash va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish kabi zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchi bu jarayonda bilim beruvchi emas, balki ta'lim jarayonini tashkil etuvchi, yo'naltiruvchi va maslahat beruvchi rolini bajaradi, bu pedagogik faoliyatning sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishiga olib keladi.


Shuningdek, ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish o'quvchilarning individual xususiyatlari va o'rganish tezligini inobatga olish imkonini beradi, bu differensial va shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, o'quvchilar nafaqat bilimlarni egallaydi, balki ularni amaliyotda qo'llash, yangi g'oyalar yaratish va zamonaviy jamiyat talablariga moslashish qobiliyatiga ega bo'ladi. Shu bois, informatika fanini o'qitishda innovatsion metodlardan keng foydalanish ilmiy jihatdan asoslangan, amaliy jihatdan samarali hamda ta'lim tizimini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Mo'minov B., Pardayev A. Informatika o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013. – 256 b.
3. Bergmann J., Sams A. Flip Your Classroom: Reach Every Student in Every Class Every Day. – Alexandria: ASCD, 2012. – 120 p.
4. Reidsema C., Kavanagh L., Hadgraft R., Smith N. The Flipped Classroom: Practice and Practices in Higher Education. – Cham: Springer, 2017. – 134 p.
5. Abduqodirov A.A. Ta'limda axborot texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2019. – 312 b.
6. Xolmurodov N., Raximov B. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2020. – 280 b.

7. Khan S. Let's use video to reinvent education // TED Talks. – 2011. – URL:
https://www.ted.com/talks/sal_khan_let_s_use_video_to_reinvent_education

SAN'ATSHUNOSLIK VA MADANIYATSHUNOSLIK

**Pirmagambetova Mariya***O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi**Urganch filiali assistent o'qituvchisi.*

0009-0004-5024-377X

mariyaturgunbayevna@gmail.com

RAQS SAN'ATI – NOMODDIY MADANIY MEROS ELEMENTI SIFATIDA YOSHLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY TAFAKKURINI YUKSALTIRISHDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada raqs san'atining O'zbekistonning nomoddiy madaniy merosi sifatida tutgan o'rni, uning yoshlar ma'naviy-axloqiy tafakkurini shakllantirishdagi o'rni, xalqning tarixiy xotirasi va estetik tarbiyasidagi roli yoritilgan. Madaniyat va san'atning inson qalbini yuksaltiruvchi kuchi, ayniqsa yosh avlodning ongini shakllantirishdagi ijtimoiy ta'siri tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *nomoddiy madaniy meros, raqs san'ati, ma'naviyat, axloqiy tarbiya, yoshlar, estetik tafakkur.*

Аннотация: *В данной статье раскрыта роль танцевального искусства как элемента нематериального культурного наследия Узбекистана, его значение в формировании духовно-нравственного мышления молодежи, а также роль в сохранении исторической памяти народа и эстетическом воспитании. Проанализировано влияние культуры и искусства как силы, возвышающей человеческую душу, особенно их социальное воздействие на формирование сознания подрастающего поколения.*

Ключевые слова: *нематериальное культурное наследие, танцевальное искусство, духовность, нравственное воспитание, молодежь, эстетическое мышление.*

Abstract: *This article explores the role of dance art as an element of Uzbekistan's intangible cultural heritage, highlighting its significance in shaping the spiritual and moral thinking of youth, as well as its contribution to the preservation of national historical memory and aesthetic education. The uplifting power of culture and art on the human soul is analyzed, with particular attention to their social impact on the development of the younger generation's consciousness.*

Keywords: *intangible cultural heritage, dance art, spirituality, moral education, youth, aesthetic thinking.*

Bugungi globallashuv davrida milliy qadriyatlar, ayniqsa nomoddiy madaniy meros elementlarini saqlab qolish va rivojlantirish masalasi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Har bir xalqning madaniy merosi - bu uning tarixiy taraqqiyotini, ijtimoiy-ma'naviy hayotini, estetik qarashlarini va dunyoqarashini ifodalovchi noyob boylikdir.

YUNESKO tomonidan qabul qilingan "Nomoddiy madaniy merosni asrash to'g'risida"gi Konvensiyada ham ushbu merosning saqlanishi, uzluksizligi va avlodlar

o'rtasida uzatilishini ta'minlash davlatlar zimmasiga yuklatilgan muhim vazifa sifatida qayd etilgan.

O'zbekiston Respublikasi ham ushbu konvensiya ishtirokchisi sifatida o'z milliy madaniy boyliklarini, jumladan raqs san'atini asrab-avaylash, rivojlantirish va targ'ib etish borasida tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda. Raqs san'ati - bu nafaqat estetik ifoda vositasi, balki xalq ruhiyatining, tarixiy xotirasining va ijtimoiy ongining harakatdagi timsolidir. Ayniqsa, xalq raqslari orqali xalqning urf-odatlarini, marosimlari, hayot tarziga xos jihatlari, hatto o'tmishdagi ijtimoiy munosabatlar haqida chuqur tasavvur hosil qilish mumkin. Shu jihatdan qaralganda, raqs san'ati xalqning o'zligini anglash, milliy identitetni saqlab qolish va mustahkamlashda beqiyos vositadir.

Bundan tashqari, raqs san'ati yoshlar tarbiyasida, ularning ma'naviy-axloqiy tafakkurini yuksaltirishda, estetik didini shakllantirishda, sog'lom jismoniy va ruhiy rivojida muhim rol o'ynaydi. Bu jihat psixologiya, pedagogika va madaniyatshunoslik fanlari tomonidan ham ilmiy asosda isbotlangan. Estetik tarbiyaning muhim vositasi sifatida raqs yosh avlodni san'at bilan bog'lab, ularda nafosatga, tartib-intizomga, ijodiy fikrlashga va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini shakllantiradi.

Ushbu maqolada raqs san'atining nomoddiy madaniy meros elementi sifatidagi o'rni, yoshlarning ma'naviy-axloqiy tafakkurini yuksaltirishdagi ijtimoiy va estetik funksiyalari, shuningdek, madaniyat va san'atning inson kamolotidagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda nazariy adabiyotlar, amaliy tajribalar va zamonaviy yondashuvlar asosida ilmiy fikrlar bayon etiladi.

Nomoddiy madaniy meros - bu avloddan avlodga o'tuvchi, jamiyatning madaniy xotirasini ifodalovchi va uning ijtimoiy hayotida uzluksiz yashovchi bilim, ko'nikma, san'at, qadriyat va urf-odatlar majmuasidir. O'zbek raqs san'ati esa ana shu merosning yorqin namunasidir. Milliy raqslarimiz, jumladan "Lazgi", "Tanovar", "Andijon polkasi", "Katta uyin", "Bayot", "Munojat" raqslari o'zining harakatlar tizimi, mazmuniy yuklamasi va sahnaviy ifodasi bilan xalqning madaniy tarixini ifoda etadi.

Lazgi - bu Xorazm hududiga xos qadimiy o'zbek milliy raqsi bo'lib, u inson qalbidagi quvonch, sevgi va hayotiy energiyani ifodalaydi. Bu raqs o'zining jo'shqin harakatlari, mimika va ritmik uyg'unligi bilan ajralib turadi.

2019-yilda **Lazgi** UNESCO tomonidan **insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga** kiritildi.

Bu hodisa Lazgining nafaqat O'zbekistonda, balki butun dunyoda madaniy boylik sifatida e'tirof etilganini anglatadi.

Bugungi kunda Lazgi turli **xalqaro festivallar** va madaniy tadbirlarda namoyish etilmoqda. Turizm va milliy brend sifatida keng targ'ib qilinmoqda. Shu jumladan bizning O'zbekiston Davlat xoreografiya akademiyasi Urganch filialida ham yoshlarga milliy raqsimiz Lazgining tarixini, qadimgi ishtirokchilarini, xorazm xalqining urf-odatlarini, yashash tarzi, tabiyati, kiyimlari, madaniyati chuxur o'rgatilmoqda. Yoshlarning

tarbiyasida bu katta ahamiyatga ega, sababi hozirgi shiddatli ruvojlantirish davrida raqs orqali milliy urf - odat va an'analar, Vatanga muhabbat va faxr tuyg'usi kuchayadi. Madaniy meros avloddan- avlodga yetkaziladi, xalq raqslari orqali tarixiy an'analar yoshlar ongiga singdiriladi.

Shu yilning 25-30 –aprel kunlari Xuva shahrida “Lazgi” III Xalqora raqs festivali bo'lib o'tadi. Bu bizning xalqimiz uchun katta bayram. Bu festivalga Xorazm xalqining 7 yoshidan 70 yoshgacha bo'lgan raqs ishtirokchilari qizg'in tayorgarlik ko'riyapti. Festival ilk bor 2022-yilda tashkil etilgan. U har ikki yilda bir marta o'tkaziladi.

Tadbirda dunyoning turli mamlakatlaridan raqs jamoalari, san'atkorlar va folklor guruhlar ishtirok etadi. Festival asosan Ichan-Qal'a hududida o'tkaziladi (UNESCO merosi).

Raqs san'ati yoshlarning har tomonlama barkamol bo'lib voyaga yetishida muhim vositadir. U jismoniy sog'lomlik, ruhiy barqarorlik, ijtimoiy faollik va milliy ongni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois yoshlarni raqs san'atiga jalb etish ularning tarbiyasida katta ahamiyat kasb etadi. Raqs san'ati yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida samarali vosita sifatida o'zini namoyon qilmoqda. U yoshlarda nafaqat jismoniy faollikni, balki ichki uyg'unlik, o'zini ifodalash, san'at orqali o'z qarashlarini bildirish, jamiyatda o'z o'rnini anglash kabi ruhiy-ijtimoiy funksiyalarni shakllantiradi. Shuningdek, raqs darsida o'rgatilgan tartib-intizom, o'zini tutish madaniyati, jamoa bilan ishlash, mas'uliyat va badiiy did yoshlarni ongli, ma'naviy boy shaxs sifatida kamol toptirishda muhim omil hisoblanadi.

Raqs san'atining nomoddiy madaniy meros sifatidagi o'rni, xalqning estetik didi, tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va ruhiy holatining badiiy ifodalanishida namoyon bo'ladi. Ularning aksariyati marosim, an'ana va turmush tarziga bog'liq holda vujudga kelgan va shu sababli madaniy identitetni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jihatdan qaraganda, raqs san'ati jamiyatning ijtimoiy-madaniy tuzilmasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, antropologik va sotsiologik jihatdan ham tahlil etilishi mumkin bo'lgan muhim hodisadir.

Pedagogik yondashuvda esa raqsning yoshlar tarbiyasidagi roli ta'limning kognitiv, affektiv va psixomotor komponentlari orqali yoritiladi. Bu degani, raqs faqat jismoniy harakatlar emas, balki fikrlash, his qilish, badiiy estetikani anglash va baholash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Milliy raqslar orqali yoshlar o'z xalqining tarixiy xotirasini, ruhiy-estetik qadriyatlarini, ijtimoiy ongini chuqurroq anglaydilar.

Milliy o'zlikni anglash - bu shaxsning o'z xalqiga, tarixiga, madaniyatiga, tili va san'atiga nisbatan ongli munosabatini shakllantiruvchi jarayondir. Bu jarayon madaniy-ma'rifiy muhitda, xususan san'at orqali samarali amalga oshadi. Raqs san'ati esa milliy o'zlikni anglash va mustahkamlashda emotsional va estetik ifoda vositasi sifatida eng samarali vositalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasida “Yangi O'zbekiston” g'oyasining asosiy ustunlaridan biri - bu milliy o'zlikni anglash, yoshlarni vatanparvarlik, estetik did, madaniy merosga

hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan davlat siyosatidir. Shu nuqtai nazardan qaralganda, raqs san'atini yoshlar orasida keng targ'ib qilish, ularni milliy madaniyatga oshno etish orqali jahonshumul qadriyatlarni milliylik bilan uyg'unlashtirish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, raqs san'ati - bu xalq qalbining harakatdagi ifodasi, milliy ong va estetik didning badiiy ko'zgusidir. Uni faqat tomosha san'ati sifatida emas, balki jamiyatning madaniy, tarbiyaviy va ruhiy hayotidagi muhim ijtimoiy institut sifatida ham tahlil qilish zarur. Yoshlarning ma'naviy-axloqiy tafakkurini yuksaltirishda raqs san'atining o'rni beqiyosdir. Zero, san'at orqali tarbiya topgan avlod - o'zligini anglaydigan, badiiy tafakkurga ega, ma'rifatli va mas'uliyatli avlod bo'lib voyaga yetadi.

O'zbekistonning boy madaniy merosi tarkibida raqs san'ati alohida o'ringa ega bo'lib, uni ilmiy jihatdan o'rganish, amaliyotda tatbiq etish va yosh avlodga chuqur singdirish madaniy uzviylik va meros davomiyligini ta'minlaydi. Bu esa jamiyat barqarorligi va madaniy o'zlikni saqlab qolishda hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirzaahmedov A. (1997). O'zbek raqs san'ati. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot.
2. Shukurova N. (2021). Madaniyat va san'at: Yoshlar tarbiyasidagi dolzarb omillar. – T.: Ma'naviyat.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularni bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish” to'g'risidagi qarori, 2021.
4. To'xtaboyev I. (2023). Nomoddiy madaniy meros va san'at sotsiologiyasi. – T.: Ilm ziyo.

Sapayeva Barno Sultannazirovna

Yo'ldasheva Munisa Rashid qizi

O'zDXA Urganch filiali konsertmeysterlari,

UrDPI 251-guruh magistrarlari

MUSIQA ILMI TARAQQIYOTIDA SHARQ VA G'ARB ALLOMALARINING ILMIY MEROSI

НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ ВОСТОЧНЫХ И ЗАПАДНЫХ УЧЕНЫХ В РАЗВИТИИ МУЗЫКИ

THE SCIENTIFIC HERITAGE OF EASTERN AND WESTERN SCIENTISTS IN DEVELOPMENT MUSICIANS

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada Sharq va G'arb allomalarining musiqa fani rivojiga qo'shgan hissalarini, musiqa so'zining ma'nosi, notaga asos solgan Sharq va G'arb allomalarining munosib xizmatlari, musiqa haqida faylasuflar, olimlarning fikrlari, musiqaning inson hayotida, jamiyatda ma'naviyat, madaniyat gullab yashnashidagi ahamiyati tarixiy-ilmiy asosda keng yoritilgan.

Kalit soʻzlar: tarix, musiqa, hayot, sanʼat, goʻzallik, ruhiyat, madaniyat, nota, milliy meros, Gʻarb va Sharq, faylasuf, olim, qomusiy olim, ohang.

Аннотация: Данная научная статья подробно рассматривает вклад восточных и западных ученых в развитие музыкологии, значение слова «музыка», достойные заслуги восточных и западных ученых, основоположников музыкальной нотации, мнения философов и ученых о музыке, а также важность музыки в жизни человека, расцвет духовности и культуры в обществе, на историческом и научном уровне.

Ключевые слова: история, музыка, жизнь, искусство, красота, духовность, культура, музыкальная нотация, национальное наследие, Запад и Восток, философ, ученый, энциклопедист, мелодия.

Abstract: This scientific article extensively covers the contributions of Eastern and Western scholars to the development of musicology, the meaning of the word music, the worthy services of Eastern and Western scholars who founded musical notation, the opinions of philosophers and scientists about music, and the importance of music in human life, the flourishing of spirituality and culture in society, on a historical and scientific basis.

Keywords: history, music, life, art, beauty, spirituality, culture, musical notation, national heritage, West and East, philosopher, scientist, encyclopedist, melody.

Dunyoda hech bir narsa inson ruhiyatini musiqachalik koʻtara olmaydi. Inson dunyoga kelar ekan, uning qalbiga musiqa yaʼni ilohiy ohang ona allasi orqali singib ketadi va ona bilan farzand oʻrtasidagi ilohiy mehr-muhabbat paydo boʻladi. Tabiatda suvlarning shildirab oqishi, daraxt yaproqlarining shitirlashi, qushlarning tongdagi sayrash, yulduzlar va Oyning goʻzal manzaralari vujudimizga ajib bir ohang boʻlib, goʻzal bir tuygʻular baxsh etadi. Buning oʻzi musiqa emasmi?

Musiqa hayotning ajralmas qismidir. Siz musiqani sevasizmi yoki musiqa tinglaysizmi, musiqa chalasizmi oʻsha lahzadayoq qalbingizda, ruhiyatingizda qandaydir ilohiy bir koʻtarinkilik, kuch-quvvat paydo boʻladi. Shuning uchun ham “Musiqa – qalb tilidir” deb bejizga taʼriflanmagan.

“Musiqa hayot sirini ochib tinchlik keltiradi va kelishmovchilikni yoʻq qiladi”.

Halil Jubron

“Fizik boʻlmaganimda musiqachi boʻlardim. Men tez-tez musiqa haqida oʻylayman. Men orzularim bilan musiqada yashayman”.

Albert Eyneshteyn

“Musiqa- bu inson zotini biz tushunganimizdan ham buyukroq ekan”.

Napoleon Bonapart

Taniqli bolalar yozuvchisi Xans Kristian Andersin musiqaga shunday baho bergan.

Musiq – hayot nafasidir.

Musiq - dunyoning kalitidir.

Musiq - ikki dunyo o‘rtasidagi ko‘prikdir.

Dunyoga o‘zining betakror ilm zakovati, tafakkuri bilan mashhur bo‘lgan Sharq allomalari ham musiq ilmini egallaganlar. Sharq allomalari qomusiy olim deb tan olinishi uchun ular quyidagi fan va sohalarni mukammal bilishlari lozim bo‘lgan.

- Riyoziyot (matematika)
- Falakiyot (astronomiya)
- Tarix
- Fiqh (huquq)
- Tabobat

Falsafa va albatta biz tilga olib yoritmoqchi bo‘lgan musiq ilmidir. Sharq va G‘arbda “Ikkinchi muallim” (Ikkinchi Arastu) deb e’tirof etilgan Abu Nasr Farobiy bobomiz ham musiq fani rivojiga munosib hissa qo‘shganlar. Abu Nasr Farobiy bobimiz matematika, astronomiya, tabobat ilmi, faylasuf fizik, shoir sifatida Sharqqa ma’lum va mashhur bo‘lgan qomusiy olimdir. Olim 70 dan ortiq tilni bilgan va bu tillarda bemalol gaplasha olgan. Buyuk Yunon olimlarining ilmiy meroslari Farobiyning arab tiliga qilgan tarjimasi orqali bizgacha yetib kelgan. Farobiy bobomiz musiq faniga ulkan hissa qo‘shib **NOTA** ga asos solgan va o‘zi musiq asbobi yasab kuylar ham yaratgan degan tarixiy-ilmiy ma’lumotlar mavjud. Alloma to‘lqin uzunligini **NOTA**ga butun parda bilan taqqoslab, **MUSIQA NAZARIYASI**ga asos solgan. [1;18-19-21 b].

Buyuk falakaiyot olimi Mirzo Ulug‘bek ham aniq fanlarni egallashlari bilan birga musiq faniga ham hissa qo‘shgan. Alloma o‘zi she’rlar yozib mavsumiy qo‘shiqlarga musiq yozgan.

Donishmand, dohiy va bashariyatning aqlu-zakovati sanalgan Abu Ali Ibn Sino dunyo ilm-fani rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan. Uning 450 dan ortiq asarlaridan 242 tasi bizgacha

yetib kelgan. Musiqa ilmiga ham Abu Ali Sino Forobiydan keyin yangi davrga asos solgan musiqashunos olim sanaladi. Abu Ali Ibn Sino yoshligidan musiqa ilmiga qiziqqan. Ibn Sino matematika, tabobat, falakiyot ilmini egallashi bilan birga musiqaga doir bir qancha asarlar yozgan bo'lib, qomusiy asarlar tarkibiga kirgan. Uning "Shifo" kitobining musiqaga bag'ishlangan "Musiqa ilmi to'plami" qismi alohida e'tiborga molikdir. Bundan tashqari Ibn Sinoning "Najot" kitobi, "Musiqa ilmi haqida qisqacha ma'lumot", "Donishmandnoma"ning musiqaga oid qismlari allomaning musiqa fani uchun qilgan ma'naviy meroslaridan bebaho xazina hisoblanib, uning dunyoga mashhur bo'lgan "Tib qonunlari" va "Ishq risolasi" kitoblarida ham ilmiy ma'lumotlar ko'pgina. Ibn Sinoning "Musiqa ilmi to'plami" musiqashunoslikka oid barcha ma'lumotlarni o'z ichiga olgan. Bunda alloma ovoz, musiqiy ovoz, nag'maning hosil bo'lishidan to musiqiy asarning yaratilishigacha, sibizg'adan tortib to ud musiqa asbobigacha "Musiqa" so'zi ma'nosidan musiqaning inson ruhiyatiga ta'sirigacha bo'lgan tarixiy-ilmiy ma'lumot va fikrlar keng bayon qilingan. Ibn Sinoning musiqaga oid asarlari bir necha tillarga tarjima qilingan. [2; Internet sahifalari], [3;180b]

Musiqaga, notaga nafaqat Sharq allomalari balki, G'arb olimlari, faylasuflari ham katta ulush qo'shganlar. Yunon faylasufi Pifagor ham notaga asos solganligi bizga ma'lum. Shu o'rinda **NOTA**ning mazmuni nima? Degan savol bizni juda qiziqtiradi. Musiqaga, qo'shiqchilikka har xil qarash bor. Ayniqsa, bizga musulmon olamidagi qarashlar juda bahsli, ziddiyatli.

Qaysidir bir kun chet ellik olim ma'ruzasidan parcha eshitib qoldimu, bu masalaga qiziqib qoldim. Musiqa-yetti **NOTA**ga ifoda qilinuvchi ohanglar tizimi. Notalar nomi o'z vaqtida Italiyalik Gvido g'Aresso tomonidan o'ylab topilgan. Xo'sh, ana shu notalar (**DO-RE-MI-FA-SOL-LYA-SI**) nima ma'noni bildiradi.

"DO" - dominus-tangri

"RE" - rerum-materiya

"MI" - mirakulum- mo'jiza

"FA" - familiya-planetariya, sayyoralar olami, oilasi.

“SOL” - solarium-quyosh

“LYA” - somon yo‘li

“SI” - ko‘k yuzi (osmonlar).

Xullas, olim ham shularni ta’lidlab xulosa qiladi: “DO-RE-MI-FA-SOL-LYA-SI” Tangri koinotni mo’jizasi o‘laroq yaratdi” degan ma’noni bildiradi. Balki shundan bo‘lsa kerak, musiqa eshitgan inson ruhiyatiga o‘zgacha bir quvvat, ilohiylikni his qiladi.

Musiqa fani tarixi, notalarning yaratilishi, G‘arb va Sharq allomalarining musiqa rivojiga qo‘shgan hissasi haqidagi ma’lumotlarni o‘rganish bilan birga musiqa asboblarining ham tabiat bilan uyg‘un ekanligini bilish lozim. Yunonlarning tirnama musiqa asbobi Lira deb yuritiladi. Bu atama eng sayroqi chiroyli ovozli qush **LIRA** nomidan olingan. Qadimda shoirlar ushbu musiqa asbobini chalib she’rlar o‘qiganlar. [4; 78-85 b].

Yuqoridagilardan shu narsaga amin bo‘lish mumkinki, musiqa bu hayotning bir qismi, inson ruhiyatining kaliti ekanligini his qilishimiz tabiiydir.

Bugungi kunda tibbiyotda bemorlarni davolashda **MUSIQIY TERAPIYA** dan foydalanilayotganligi yuqori samara bermoqda. Ayniqsa, murakkab operatsiyalarni amalga oshirishdan oldin bemor qaysi musiqani yaxshi ko‘rishi so‘raladi va operatsiya boshlanayotganda o‘sha musiqa yangrab turadi. Bu holat esa bemorning operatsiyasi muvaffaqiyatli amalga oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Nemis musiqashunosi Zaks Kurtdan “Sizning musiqalaringiz juda yoqimli hammaga birday yoqadi, buning sababi nima?” deb so‘rashganida “Men raqsdan ilhom olib musiqa yarataman”, - deb javob bergan ekan. Demak, san’atning barcha turi insonlarga xushkayfiyat ulashib, ularni go‘zallikka, ezgulikka undar ekan. Demakki, biz hayotni musiqasiz tasavvur qila olmasligimizni yana bir bora anglab yetdik. Zero, musiqa bu hayot nafasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. T. Usmonov. Fizika VI-IX sinflar uchun qo‘shimcha darslik.
2. Internet sahifalari.

3. Абу Али Ибн Сина Математические главы. “Книга знания” (“Donishmandnoma”) Умарова С. М. и Розенфельда Б.А - Душанбе: “Урфон”, 1967г.
4. I. Akbarov. Musiqa lug‘ati.G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot. 1987 y.

Azamat Tillayev

O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

Urganch filiali “Xoreografiya” kafedrası o‘qituvchisi

RUS XALQ RAQSLARIDA XALQ RUHIYATI VA ESTETIK TAFAKKUR IFODASI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada rus xalq raqsining kelib chiqishi, tarixiy rivojlanish bosqichlari hamda sahnaviy shakllanish jarayoni tahlil qilinadi. Rus raqslarining xalq marosimlari, mehnat jarayonlari va estetik dunyoqarash bilan bog‘liqligi ochib beriladi. Shuningdek, rus xalq raqsining plastika, ritm va kompozitsion tuzilishidagi o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy asosda yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *rus xalq raqsi, xoreografiya, xalq san‘ati, folklor, sahnaviy raqs.*

Аннотация: *В данной статье анализируются происхождение русского народного танца, этапы его исторического развития и процесс сценического формирования. Раскрывается связь русских танцев с народными обрядами, трудовыми процессами и эстетическим мировоззрением. Также на научной основе освещаются специфические особенности пластики, ритма и композиционной структуры русского народного танца.*

Ключевые слова: *русский народный танец, хореография, народное искусство, фольклор, сценический танец.*

Abstract: *This article analyzes the origin of Russian folk dance, the stages of its historical development, and the process of its formation on the stage. The connection of Russian dances with folk rituals, labor processes, and aesthetic worldview is revealed. In addition, the specific features of the plasticity, rhythm, and compositional structure of Russian folk dance are examined on a scientific basis.*

Keywords: *Russian folk dance, choreography, folk art, folklore, stage dance.*

Kirish. Rus xalq raqsi Sharqiy Yevropa xalqlarining boy madaniy merosi tarkibida alohida o‘rin egallagan noyob xoreografik hodisadir. U asrlar davomida rus xalqining turmush tarzi, mehnat faoliyati, urf-odatları, marosimlari va estetik qarashlari bilan uzviy bog‘liq holda shakllanib kelgan. Raqs xalqning ichki ruhiy olami, ijtimoiy munosabatlari va badiiy tafakkurini ifodalovchi muhim madaniy vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Rus xalq raqsining shakllanishida tabiat bilan uyg'unlik, jamoaviylik, marosimiylik va obrazlilik muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Ilk davrlarda raqslar hosildorlik, fasllar almashinuvi, oilaviy va diniy marosimlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular orqali xalq o'z dunyoqarashi va hayotga munosabatini ifodalagan. Vaqt o'tishi bilan bu raqslar badiiy jihatdan boyib, ijro texnikasi, ritmik tuzilishi va plastik ifodasi murakkablashib borgan.

XIX–XX asrlarga kelib rus xalq raqsi professional sahnaga olib chiqilib, yangi estetik talqin kasb etdi. Bu jarayonda xalq raqslari klassik balet va teatr san'ati bilan uyg'unlashib, sahnaviy xoreografiya sifatida rivojlandi. Natijada rus xalq raqsi nafaqat folklor merosi, balki milliy va jahon xoreografiya san'atining muhim tarkibiy qismiga aylandi.

Asosiy qism: Rus xoreografiya maktablari – Moskva, Sankt-Peterburg, Perm, Novosibirsk va boshqa yirik markazlar – rus xalq raqsini folklor an'anasidan professional sahna san'ati darajasiga olib chiqqan yetakchi ilmiy-amaliy muassasalar sifatida e'tirof etiladi. Ushbu maktablar faoliyati natijasida rus xalq raqsi tartibga solingan pedagogik tizim, sahnaviy qonuniyatlar va metodik yondashuvlarga ega bo'lgan mustaqil xoreografik yo'nalishga aylandi.

Rus xoreografiya maktablarining asosiy tamoyili shundan iboratki, har bir raqs avvalo o'zining etnografik manbai asosida o'rganiladi. Ya'ni raqs qaysi hududda, qaysi ijtimoiy muhitda, qanday marosim yoki turmush jarayonida shakllanganligi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Masalan, shimoliy rus hududlaridagi sokin, oqimga o'xshash ayollar raqslari bilan janubiy viloyatlarga xos jo'shqin va sakrashlarga boy erkaklar raqslari o'rtasidagi farq folklor asosida tushuntiriladi.

Pedagogik jarayonda raqs harakatlari: plastik tuzilishi, ritmik tarkibi, obrazli ifodasi bo'yicha alohida tahlil qilinadi. Bu esa talabalarga nafaqat texnik ijroni, balki raqsning ichki mazmunini ham anglash imkonini beradi. Raqs oddiy mexanik harakatlar yig'indisi sifatida emas, balki xalq xarakteri, ruhiyati va hayot falsafasining ifodasi sifatida o'rganiladi.

Rus xoreografiya maktablarining muhim xususiyati – sahnaviy talqin folklor an'anasini buzmasdan amalga oshirilishidir. Sahna uchun moslashtirilgan raqslar dramatik kompozitsiya, sahnaviy dinamika va vizual ifodaviylik bilan boyitiladi, biroq xalqona harakatlar, obrazlar va musiqiy asos o'z asl mohiyatini yo'qotmaydi. Bu yondashuv rus xalq

raqsini sun'iy teatr shakliga emas, balki xalq madaniyatining yuksak sahnaviy talqiniga aylantirdi.

Igor Moiseyev, Tatyana Ustinova va Pyotr Virskiy kabi yirik xoreograflar yaratgan maktablar rus xalq raqsining professional sahnadagi rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynadi. Ular xalq raqslarini tizimlashtirib, murakkab sahnaviy kompozitsiyalar yaratdilar, shu bilan birga raqslarning milliy xarakterini, temperamentini va badiiy ifodaviyligini saqlab qoldilar. Aynan ushbu maktablar faoliyati tufayli rus xalq raqsi jahon sahnalarida mustaqil va yuqori badiiy qiymatga ega san'at turi sifatida tanildi.

Zamonaviy xoreografiya ta'limida, ayniqsa hududiy filiallarda (jumladan, Urganch filiali sharoitida) talabalarining eng katta muammolaridan biri - oyoqlarning texnik tayyorgarligining yetarli darajada shakllanmaganligi hisoblanadi. Ko'plab talabalar raqsni asosan qo'l plastikasiga, yuqori tana ifodasiga yoki umumiy obrazga tayangan holda ijro etadi, biroq oyoq texnikasi, sakrash mexanikasi va yer bilan ishlash madaniyati yetarlicha rivojlanmay qoladi.

Bu esa quyidagi muammolarga olib keladi:

sakrashlarda og'irlik va "qattiq tushish";

tez harakatlarda beqarorlik;

ritmik zarbning yo'qolishi;

oyoq mushaklarining tez charchashi;

sahnadagi umumiy estetik ko'rinishning pasayishi.

Aynan shu nuqtada rus xalq raqsi texnikasi pedagogik yechim sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

Rus xalq raqslari yer bilan faol ishlashga asoslangan. Har bir sakrash, qadam yoki burilish oyoq panjasi, tizza va son bo'g'inlarining uyg'un ishlashi orqali bajariladi. Natijada talaba tanasini "yerga urish" emas, balki yer bilan muloqotda bo'lishni o'rganadi. Oyoq panjasi va tizza amortizatsiyasi (yerga yumshoq tushish mexanikasi) shakllanib, sakrashlar shikast yetkazmasdan, elastik va nazoratli bajarila boshlaydi.

Tezkor qadamlar va zarbli harakatlar esa ritmik muammolarni bartaraf etadi. Ko'plab talabalar musiqaga kechikib yoki oldindan chiqib ketish holatiga ega bo'ladi. Rus raqsi

elementlari oyoq orqali musiqani “urish”ni o‘rgatadi, ya’ni zarbni nafaqat eshitish, balki jismonan his qilish imkonini beradi. Bu esa sahnadagi aniqlikni keskin oshiradi.

Sakrashlar balandligi va nazorat masalasida ham rus xalq raqsi o‘ta samarali vositadir. Chunki rus raqslari:

kuchli turtki,

havodagi muvozanat,

yumshoq tushish

uchligini bir butun mexanizm sifatida shakllantiradi. Natijada talaba sakrashdan qo‘rqmaydi, u havoda tanasini boshqarishni o‘rganadi.

Kuch – chidamlilik masalasi ham shu yerda hal bo‘ladi. Rus xalq raqslari qisqa vaqt ichida yuqori intensivlikda bajariladi. Bu yurak-qon tomir tizimini, oyoq mushaklarini va umumiy jismoniy chidamlilikni rivojlantiradi. Talaba uzoq raqs kombinatsiyalarini sahnada “so‘nmasdan” ijro etishga tayyorlanadi.

Muvozanat va koordinatsiya esa burilishlar, keskin yo‘nalish o‘zgarishlari va sakrashlar orqali mustahkamlanadi. Talaba o‘z tanasini makonda erkin boshqarishni o‘rganadi, bu esa keyinchalik o‘zbek, qoraqalpoq yoki klassik balet elementlarini o‘zlashtirishni ham osonlashtiradi.

Rus raqsi bilan shug‘ullangan va shug‘ullanmagan talabalar farqi bo‘yicha tadqiqot modelini (tahlilini) yaratishga harakat qilib ko‘rdik:

Ko‘rsatkich	Rus raqsi bilan ishlagan talaba	Faqat milliy raqs bilan
Sakrash balandligi	Yuqori va nazoratli	Pastroq va beqaror
Ritmik aniqlik	Kuchli, zarbli	Ba‘zan sust
Tana barqarorligi	Mustahkam	O‘zgaruvchan
Charchash darajasi	Kech charchaydi	Tez charchaydi
Sahna ishonchliligi	Yuqori	O‘rtacha

Rus raqsi o‘zining kuchli va jozibadorligi bilan talabalarda katta ishtiyoh paydo qilishi mumkin, men boshqa xalq raqslarini yomonlamoqchi emasman, bu fikrdan yiroqman, lekin funksional harakatlanish zavqi baribir rus xalq raqsida beqiyosiyiligini ta’kidlamoqchiman.

Xulosa. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, rus xalq raqsi nafaqat alohida etnografik va badiiy hodisa, balki zamonaviy xoreografiya ta'limida samarali pedagogik vosita sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Uning kuchli oyoq texnikasi, aniq ritmik zarbi, sakrash va burilishlarga asoslangan dinamik plastika tizimi talabalarning jismoniy, texnik va sahnaviy tayyorgarligini kompleks ravishda rivojlantiradi.

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Urganch filiali sharoitida rus xalq raqsi elementlarini o'quv jarayoniga kiritish talabalarning professional poydevorini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, oyoq tayanchi, muvozanat, koordinatsiya va ritmik sezgirlik kabi asosiy ijro ko'nikmalari rus raqsi metodikasi orqali samarali rivojlanadi. Bu esa talabalarning milliy (o'zbek va qoraqalpoq) raqslarni ham texnik va sahnaviy jihatdan yanada mukammal ijro etishiga imkon yaratadi.

Rus xoreografiya maktablari va Urganch filiali tajribasining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, akademik texnika va milliy obrazlilik uyg'unlashganda raqs san'ati yanada yuqori badiiy darajaga ko'tariladi. Rus xalq raqsi elementlari talabalarda sahnaviy intizom, ansambl madaniyati va ijro ishonchliligini kuchaytirib, ularni ko'p yo'nalishli professional xoreograf sifatida shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Моисеев И.А. Народные танцы. – Москва: Искусство, 1977. – С. 15–28, 74–96.
2. Устинова Т.А. Русский народный танец. – Москва: Просвещение, 1985. – С. 42–67, 101–120.
3. Богданов Г.Ф. Основы народно-сценической хореографии. – Москва: ГИТИС, 1990. – С. 33–58, 112–139.
4. Ткаченко Т.В. Методика преподавания народного танца. – Москва: Академия, 2006. – С. 55–79, 134–160.
5. Кириллова Т.Е. Русский танец: традиции и сценическое воплощение. – Москва: Музыка, 2016. – С. 21–44, 88–105.

*Azamat Tillayev**O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi**Urganch filiali "Xoreografiya" kafedrası o'qituvchisi*

OLIIY TA'LIM TIZIMIDA KLASSIK RAQS FANINI O'QITISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida klassik raqs fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalari tahlil qilinadi. Klassik raqs mashg'ulotlarida zamonaviy ta'lim metodlari, interfaol yondashuvlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo'llanilishi talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, klassik raqs darslarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali ijrochilik mahoratini oshirish, nazariy va amaliy tayyorgarlikni takomillashtirish imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Klassik raqs, innovatsion texnologiyalar, oliy ta'lim, xoreografiya pedagogikasi, interfaol metodlar, kasbiy kompetensiya, raqs ta'limi, pedagogik texnologiya, ijrochilik mahorati.

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы использования инновационных педагогических технологий в преподавании дисциплины классического танца в системе высшего образования. Рассматривается применение современных образовательных методов, интерактивных подходов и информационно-коммуникационных технологий в учебном процессе, а также их влияние на развитие профессиональных компетенций студентов. Обосновываются возможности повышения исполнительского мастерства, совершенствования теоретической и практической подготовки посредством внедрения инновационных технологий в занятия классическим танцем.

Ключевые слова: Классический танец, инновационные технологии, высшее образование, хореографическая педагогика, интерактивные методы, профессиональная компетенция, танцевальное образование, педагогические технологии, исполнительское мастерство.

Abstract. This article analyzes the issues of applying innovative pedagogical technologies in teaching classical dance within the higher education system. The study examines the use of modern educational methods, interactive approaches, and information and communication technologies in the educational process, highlighting their role in developing students' professional competencies. The article also substantiates the possibilities of improving performance skills and enhancing theoretical and practical training through the implementation of innovative technologies in classical dance classes.

Keywords: Classical dance, innovative technologies, higher education, choreography pedagogy, interactive methods, professional competence, dance education, pedagogical technology, performance skills.

Oliy ta'lim tizimida klassik raqs fanini o'qitish jarayoni bugungi kunda san'at pedagogikasining eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy ta'lim tizimida bo'lajak xoreograflarni tayyorlash jarayonida klassik raqs nafaqat texnik tayyorgarlikning asosi, balki talabaning sahnaviy tafakkuri, ijro madaniyati hamda kasbiy kompetensiyasini shakllantiruvchi fundamental fan sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois klassik raqsni o'qitishda an'anaviy metodlarni zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish dolzarb masalalardan biridir.

Klassik raqs pedagogikasining ilmiy asoslari jahon balet maktabining ko'p asrlik tajribasi negizida shakllangan. Bu borada Agrippina Vaganova tomonidan ishlab chiqilgan metodik tizim alohida o'rin egallaydi. Olimaning ta'kidlashicha, klassik raqsni o'rgatish jarayoni izchil ketma-ketlikka asoslangan bo'lib, unda har bir harakat avval sodda shaklda o'zlashtirilib, keyinchalik murakkab kombinatsiyalar tarkibida takomillashtiriladi [1. B.192.]. Mazkur metodika bugungi kunda ham dunyoning ko'plab xoreografik oliy ta'lim muassasalarida asosiy pedagogik model sifatida qo'llanib kelmoqda.

Klassik raqsning nazariy va metodik asoslarini takomillashtirishda Marius Petipaning sahnaviy merosi ham muhim ahamiyatga ega. Uning balet spektakllarida shakllangan kompozitsion yechimlar, texnik mukammallik hamda ijro intizomi klassik maktabning estetik mezonlarini belgilab berdi. Petipa yaratgan sahna tajribasi keyinchalik klassik raqs pedagogikasi uchun metodologik manba vazifasini bajardi.

Klassik raqsni o'qitish jarayonining samaradorligi, avvalo, mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil etishga bog'liq. K.S.Sagatov klassik raqs metodikasini "ijrochining jismoniy imkoniyatlarini izchil rivojlantirishga xizmat qiluvchi maxsus pedagogik tizim" sifatida tavsiflab, darslarni o'quvchilarning individual imkoniyatlari asosida tashkil etish zarurligini qayd etadi [3. B.31-35.]. Ushbu yondashuv ayniqsa oliy ta'lim tizimida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki talabalar tayyorgarlik darajasi, fiziologik imkoniyatlari va ijro tajribasi jihatidan sezilarli farqlanadi.

R.R.Iskandarova klassik raqs mashg'ulotlari jarayonida gavdaning to'g'ri qo'yilishi, oyoq va qo'l pozitsiyalarining mukammal o'zlashtirilishi keyingi murakkab elementlarni egallashning zarur sharti ekanligini ta'kidlaydi [2. B.10-12.]. Muallifning fikricha, klassik

raqsdagi barcha mashqlar korpus barqarorligi, muvozanat va koordinatsiyani rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ular bosqichma-bosqich o'zlashtirilishi lozim.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar klassik raqsni o'qitish metodikasiga sezilarli o'zgarishlar olib kirmoqda. Videotahlil, multimedia taqdimotlar, interaktiv vizual platformalar va raqamli monitoring vositalari talabalar tomonidan harakat texnikasini chuqurroq idrok etish imkonini yaratadi. Harakatlarning biomekanik tahlili asosida xatolarni aniqlash va korreksiya qilish o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Bu jihatdan innovatsion texnologiyalar Vaganova metodikasidagi vizual ko'rsatish prinsipining zamonaviy shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Interfaol pedagogik metodlar ham klassik raqs ta'limida alohida ahamiyatga ega. Reflektiv tahlil, guruhli muhokama, ijodiy topshiriqlar va keys-metodlar talabalarni nafaqat texnik ijroga, balki harakat mohiyatini tahlil qilishga ham o'rgatadi. Pedagog olimi Maria Knebel ta'lim jarayonida ijodiy tafakkurni shakllantirish o'quvchining mustaqil kasbiy qaror qabul qilish salohiyatini oshirishini ta'kidlaydi [6. B.45-48.].

Differensial yondashuv innovatsion texnologiyalar tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Talabalarining individual anatomik xususiyatlari, mushak elastikligi, koordinatsion imkoniyatlari va texnik tayyorgarlik darajasini inobatga olib mashg'ulotlarni rejalashtirish o'qitish sifatini oshiradi. Ayniqsa klassik raqsda turnout, aplomb va allegro elementlarini shakllantirishda individual mashqlar kompleksidan foydalanish yuqori natija beradi.

Elektron portfolio va raqamli monitoring vositalari yordamida talabaning texnik rivojlanishini muntazam kuzatish imkoniyati ham innovatsion ta'limning muhim afzalligidir. Ushbu texnologiyalar pedagogga talabaning rivojlanish dinamikasini tahlil qilish, individual korreksion mashqlar ishlab chiqish va baholash mezonlarini obyektiv belgilash imkonini beradi.

Innovatsion texnologiyalarni klassik raqs ta'limiga joriy etish natijasida talabalarining texnik ijro mahorati, nazariy tayyorgarligi, mustaqil ishlash ko'nikmalari hamda sahnaviy tafakkuri rivojlanadi. Shu bilan birga, an'anaviy ekzersis tizimining ilmiy-metodik asoslarini saqlab qolish muhimdir. Chunki klassik raqs pedagogikasining asosi bo'lgan barre

mashqlari, port de bras, adagio va allegro elementlari ijrochilik maktabining poydevorini tashkil etadi.

Shunday qilib, oliy ta'lim tizimida klassik raqs fanini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish bo'lajak pedagog-xoreograflarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning samarali vositasidir. An'anaviy klassik maktab tajribasi hamda zamonaviy raqamli va interfaol pedagogik yondashuvlar uyg'unligi xoreografik ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi.

Klassik raqs ta'limining zamonaviy modelini ishlab chiqishda tarixiy-pedagogik tajribani chuqur tahlil qilish alohida ahamiyatga ega. XVIII asr fransuz balet nazariyotchisi Jean-Georges Noverre o'zining mashhur "Raqs va balet haqida maktublar" asarida raqs ta'limi faqat texnik mashqlar tizimi bilan cheklanib qolmasligi, balki unda ijrochining fikrlash qobiliyati, obrazni his etish madaniyati va sahnaviy tafakkuri ham shakllanishi zarurligini ta'kidlaydi [7. B.27-31.]. Ushbu qarash bugungi innovatsion pedagogika tamoyillari bilan mushtarak bo'lib, talabaning harakatni mexanik takrorlash emas, balki uning mazmunini ongli ravishda idrok etishini talab etadi.

Noverre klassik raqsni "ruh va tananing uyg'un ifodasi" sifatida talqin etar ekan, pedagogning asosiy vazifasi o'quvchida harakatning ichki motivatsiyasini shakllantirishdan iborat ekanligini qayd etadi [7. B.44-46.]. Mazkur tamoyilni oliy ta'lim tizimida qo'llash klassik raqs mashg'ulotlarini interfaol pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishni taqozo etadi. Chunki talaba har bir elementning texnik bajarilishidan tashqari, uning estetik mohiyatini ham tushunishi lozim.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar orasida vizual modellashtirish metodlari klassik raqs darslarida alohida samaradorlik ko'rsatmoqda. Harakatlarni raqamli formatda tahlil qilish, uch o'lchamli vizualizatsiya vositalari orqali murakkab kombinatsiyalarni ko'rsatish, ayniqsa pirouette, fouetté, grand battement kabi elementlarni o'zlashtirishda muhim vosita hisoblanadi. Bunday texnologiyalar o'quvchining fazoviy tasavvurini rivojlantirib, harakat amplitudasini aniq idrok etishiga xizmat qiladi.

Klassik raqs mashg'ulotlarida teskari aloqa mexanizmini kuchaytirish ham innovatsion yondashuvning muhim tarkibiy qismidir. Odatdagi pedagogik amaliyotda o'qituvchining og'zaki ko'rsatmalari asosiy baholash vositasi hisoblanadi. Biroq raqamli

yo'zuvlar asosida tahlil olib borish, talabani o'z ijrosini mustaqil kuzatishi va xatolarini aniqlashi reflektiv tafakkurning shakllanishiga yordam beradi. Bu esa ijrochilik sifatining izchil takomillashuviga olib keladi.

Klassik raqs darslarida harakatlarni muntazam takrorlash bilan birga, ularga ongli yondashuv zarurligini alohida ta'kidlash lozim. Ushbu prinsip zamonaviy elektron ta'lim vositalari bilan boyitilganda talabani mashqni bajarish sifati sezilarli oshadi. Masalan, harakatni sekinlashtirilgan formatda ko'rish va biomekanik tahlil qilish o'quvchiga harakat fazalarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Innovatsion texnologiyalar klassik raqsda musiqiylikni rivojlantirishda ham samarali qo'llaniladi. Maxsus audio-vizual dasturlar yordamida ritmik strukturalarni modellashtirish, harakat va musiqaning sinxronligini tahlil qilish, talabada ichki metr-ritm sezgisini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu, ayniqsa, adagio va allegro bo'limlarini o'zlashtirishda muhim metodik vositadir.

Pedagogik jarayonda muammoli vaziyatlar yaratish metodidan foydalanish ham klassik raqs ta'limida yuqori natija beradi. Talabaga ma'lum kombinatsiyani mustaqil tahlil qilish, texnik yechim topish yoki xatoni aniqlash vazifasi berilganda uning ijodiy va analitik salohiyati rivojlanadi. Bu yondashuv Noverrening raqqosni "fikrlovchi ijrochi" sifatida tarbiyalash haqidagi konsepsiyasiga to'liq mos keladi.

Oliy ta'lim muassasalarida klassik raqsni kredit-modul tizimi asosida tashkil etish ham innovatsion ta'limning dolzarb shakllaridan biridir. Mazkur tizim talabani mustaqil ta'lim ulushini oshirib, individual mashg'ulotlar, videodarslar, onlayn tahlil platformalari orqali o'z ustida ishlash ko'nikmasini shakllantiradi. Natijada talaba darsdan tashqari vaqtda ham texnika ustida izchil ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Klassik raqs ta'limida psixologik-pedagogik monitoringning yo'lga qo'yilishi ham muhimdir. Chunki murakkab texnik elementlarni o'zlashtirish jarayonida talabani emotsional holati, motivatsiyasi va sahna oldidagi psixologik tayyorgarligi bevosita natijaga ta'sir ko'rsatadi. Innovatsion diagnostik vositalar pedagogga bu holatlarni aniqlash va korreksion metodlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Shuningdek, klassik raqsni o'qitishda fanlararo integratsiyani kuchaytirish zamonaviy ta'limning muhim talabi hisoblanadi. Anatomia, musiqa nazariyasi, sahna

harakati, san'at tarixi kabi fanlar bilan uzviy bog'liqlikda olib borilgan mashg'ulotlar talabani harakatni chuqur ilmiy asosda tushunishiga xizmat qiladi. Bu integrativ yondashuv kasbiy kompetensiyaning kompleks shakllanishini ta'minlaydi.

Klassik raqsdagi har bir mashq ma'lum fiziologik va pedagogik vazifani bajaradi. Shu bois innovatsion texnologiyalarni qo'llashda an'anaviy ekzersis tizimining metodik mantig'i buzilmasligi zarur. Aks holda ta'limning tashqi zamonaviyligi mazmuniy samaradorlikni ta'minlay olmaydi.

Klassik raqs pedagogikasida innovatsion texnologiyalarni joriy etishning yana bir muhim jihati pedagogning kasbiy kompetensiyasini uzluksiz rivojlantirish bilan bog'liqdir. O'qituvchi nafaqat klassik maktab metodikasini mukammal egallagan bo'lishi, balki zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish, interfaol ta'lim metodlarini qo'llash va ta'lim natijalarini analitik baholash ko'nikmalariga ham ega bo'lishi lozim. Ana shundagina innovatsion yondashuv klassik raqs ta'limining haqiqiy sifat ko'rsatkichiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ваганова А.Я. Основы классического танца. – Санкт-Петербург: Издательство «Лань», 2007. – 192 с.
2. Искандарова Р.Р. Классический танец: учебное пособие. – Ташкент: Navruz, 2017. – 220 с.
3. Сагатов К.С. Методика преподавания классического танца. – Ташкент: Фан, 2020. – 156 с.
4. Базарова Н.П., Мей В.П. Азбука классического танца. – Санкт-Петербург: Лань, 2006. – 240 с.
5. Костровицкая В.С. 100 уроков классического танца. – Санкт-Петербург: Лань, 2009. – 262 с.
6. Кнебель М.О. Поэзия педагогики. – Москва: Искусство, 1984. – 528 с.
7. Noverre J.-G. Lettres sur la danse et sur les ballets. – Paris: Librairie Théâtrale, 1803. – 386 p.
8. Петипа М. Материалы. Воспоминания. Статьи / сост. Ю.И. Слонимский. – Ленинград: Искусство, 1971. – 447 с.

9. Красовская В.М. История русского балета. – Ленинград: Искусство, 1978. – 356 с.
10. Захаров Р.В. Сочинение танца: страницы педагогического опыта. – Москва: Искусство, 1983. – 238 с.

Ruzmetov Sarvarbek Adilbekovich

O'zbekiston davlat xareografiya akademiyasi

Urganch filiali jo'rnavozi

O'ZBEK MILLIY CHOLG'USI – DOIRA VA UNING O'ZBEK RAQSIDAGI O'RNI

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek milliy cholg'u asboblariidan biri bo'lgan doiraning kelib chiqishi, tuzilishi hamda uning o'zbek raqs san'atidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, doira chalishni o'rgatish jarayoni, darslarning mazmuni va ularning yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati tahlil qilingan. Maqola milliy madaniyatni rivojlantirish va asrab-avaylash masalalariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: doira, milliy cholg'u, o'zbek raqsi, ritm, san'at, musiqa, an'ana, ta'lim, madaniyat

Аннотация: В данной статье рассматриваются происхождение, структура и особенности узбекского национального музыкального инструмента — доиры, а также её роль в узбекском танцевальном искусстве. Особое внимание уделяется процессу обучения игре на доире, содержанию занятий и их значению в воспитании молодого поколения. Статья направлена на сохранение и развитие национальной культуры.

Ключевые слова: доира, национальный инструмент, узбекский танец, ритм, искусство, музыка, традиции, образование, культура

Abstract: This article explores the origin, structure, and characteristics of the Uzbek national musical instrument — doira, as well as its role in Uzbek dance art. Special attention is given to the process of teaching doira performance, the content of lessons, and their importance in educating the younger generation. The article is devoted to the preservation and development of national culture.

Keywords: doira, national instrument, Uzbek dance, rhythm, art, music, tradition, education, culture

O'zbek xalqining milliy madaniyati juda boy va rang-barangdir. Unda milliy cholg'u asboblari muhim o'rin egallaydi. Shunday cholg'ulardan biri doira bo'lib, u nafaqat musiqa, balki raqs san'ati bilan ham chambarchas bog'liqdir. Doira - o'zbek xalqining qadimiy zarbli cholg'u asboblariidan biridir. U yog'och gardish va unga tortilgan teridan iborat bo'lib, ichki

qismida metall halqachalar joylashgan. Doira chalinganda o'ziga xos jarangdor tovush hosil qiladi. O'zbek raqslarida doira muhim rol o'ynaydi. Raqs harakatlari ko'pincha doira ritmiga moslab bajariladi. Doira ritm beruvchi asosiy vosita sifatida raqqosa va raqqoslarga yo'nalish beradi hamda chiqishning jozibasini oshiradi.

Doira urib chalinadigan cholg'u asbobi bo'lib, "Dap", "childirma", "chirmanda" deb ham ataladi; u aniq bir baland tovushga ega bo'lmasa ham, xilma-xil ovoz – tembr va dinamik imkoniyatlarga egadir. Doira "pog'ora", "qayroq", "safoil", "reznogora", "dul" kabi urib chalinadigan cholg'u asboblari turkumiga mansubdir. Doira o'zbek xalq musiqasi tajribasida o'ziga xos usulini yaratib, ansamblning barcha turlarida, albatta, qatnashadi, o'zbek musiqasi uchun xarakterli bo'lgan ritmik-tembrik fonni yaratadi. O'zbek musiqa san'atining raqs janrida doira mustaqil suratda chalinadi. Shuningdek, doira ham zamonaviy professional, ham havaskorlik orkestrlari va xalq cholg'u ansambllari tarkibidan mustahkam o'rin olgan. Doira yog'och gardishdan iborat bo'lib, bir tomoniga tarang teri qoplangan, uning ichki tomoniga metall halqachalar – "shing'iroqlar" o'rnatilgan. Doira gardishi odatda tut, yong'oq, tok poyasi yoki zarang daraxtidan ishlanib, gardishning diametri taxminan 38 sm dan 41 sm gacha, qalinligi esa 5–6 sm bo'ladi. "Parda" membranasi esa ot, buzoq, echki terisining to'sh qismidan, ba'zi hollarda esa baliq terisidan ham tayyorlanadi. Membrana gardishga maxsus elim bilan yopishtiriladi. Ichki tomondan esa 50–75 tagacha (bu gardish diametriga bog'liq) metall halqachalar (shing'iroqlar) o'rnatiladi, ular asbob silkittirilganda yoqimli shing'iroq tovush chiqaradi. Doira bir xil tembrli usul bilan chegaralanuvchi boshqa urib chalinadigan cholg'u asboblardan farqli o'laroq, ko'p miqdordagi tembr vositalariga ega. Doira va uning tasviri haqidagi ma'lumotlar X asrdan boshlab ko'pgina adabiy va ikonografik manbalarda uchraydi. Dastlabki doira tasviriga ko'ra shakli jihatidan tog'li tojiklarning doirasiga, gardishdagi teshikchalariga "likopcha"simon shing'iroqlar o'rnatilgan "daf"ga ancha yaqin turadi. Ammo bu eski cholg'u asboblari zamonaviy asboblarga nisbatan ancha kichik edi.

Ritmika haqidagi ta'limot va uning bir qismi bo'lgan ritmik figuratsiyalar – "usullar" haqidagi ta'limot O'rta Osiyoning atoqli olimlari musiqa bo'yicha yozgan ko'pgina traktatlarda katta o'rin tutadi (masalan, Abdurahmon Jomiyning "Musiqa haqidagi traktati" va XVII asrdagi buxorolik musiqachi Darvish Alining asarlari). Sharqdagi ko'pgina

mamlakatlarda – Hindistonda, Eronda, Afgʻonistonda, Pokistonda, shuningdek, Ozarbayjonda, Tojikistonda hozir urib chalinadigan doirasimon asboblar uchraydiki, ular raqsga, qoʻshiqqa joʻr boʻlib chalinadi. Doira sadolari Lotin Amerikasi va Afrika mamlakatlarining urib chalinadigan asboblar guruhi ishtirokida ijro etiladi. Shuning uchun ham bizning doirachilarimiz ijrosi butun dunyo tomoshabinlarini hayratga soladi.

Doira musiqasi ilgari nota yozuviga ega boʻlmagan, shu sababli ogʻzaki ravishda avloddan-avlodga oʻtib kelgan. Doiraviy musiqani qayd qilish bilan oʻtgan asrning 80-yillarida harbiy kapelmeystr A.F.Eyxgorn, 20–30-yillarda musiqa sanʼatining koʻzga koʻringan vakillaridan V.M.Belyayev, V.A.Uspenskiy, N.N.Mironovlar shugʻullanganlar, ular oʻz qaydlarida asosan ritmik tomonni aks ettirganlar [1-3 bet].

Oʻzbek xalq cholgʻu asboblari orasida urib chalinadigan asboblar gruppasi kuyning oʻziga xos ritm qatorini tashkil etib, alohida oʻrin egallaydi. Juda koʻp hollarda xalq kuylari urib chalinadigan asboblarning ritmlari asosida ijro etiladi.

Ur ib chalinadigan asboblardan eng koʻp tarqalgani doiradir. Bu asbob aniq bir baland tovush chiqarmaydi. Musiqiy qator tembrli ohangdorligining, ritmik-dinamik fonning butun xilma-xilligi ikki qoʻlning zarbi va hamma barmoqlar ishtirokida taʼminlanadi. Doira sadolari oʻziga xos xarakterga ega, u yakka ijro etilganda, raqs joʻrligida yaxshi qabul qilinadi, oʻzbek xalq cholgʻu asboblari orkestri yoki ansambllariga kiritiladi, sharq kuylarining oʻziga xos koloritini taʼkidlab koʻrsatadi.

Doira chalishni oʻrganuvchi kishi sogʻlom va baquvvat boʻlishi lozim. Buning uchun ijrochi doira chalishni oʻrganish mashgʻulotlari bilan bir qatorda fizkultura, gimnastika, gantel, espander, yugurish va sportning boshqa turlari bilan shugʻullanishi lozim. Mashgʻulotlarning hamma turlarida barmoqlar va qoʻl muskullarini mustahkamlovchi mashqlarga alohida eʼtibor berish kerak.

Doirachi oʻz barmoqlarini ayniqsa parvarish qilishi zarur. Har kuni qoʻl barmoqlari va panjalarni mustahkamlovchi mashqlar bilan shugʻullanishi kerak. Barmoqlar yorilmasligi va qadoq boʻlmasligi uchun doira chalishdan oldin va keyin ozgina tuz solingan iliq suvda qoʻlni sovunlab yuvish maqsadga muvofiq. Agar barmoqlarda qadoq yoki yoriq paydo boʻlsa, zudlik bilan shifokorga (dermatolog) murojaat qilish kerak.

O‘z-o‘zini davolash esa og‘ir oqibatlarga olib kelishi va barmoqlarning surunkali kasalligini keltirib chiqarishi mumkin. [1-4 bet]. Keng tarqalgan “Gul o‘yin” raqsi quyidagi usullar bilan boshlanadi: DOIRACHI – doira chaluvchi, ijro etuvchi. Farg‘onada chirmandachi, Buxoroda – doyra-dast deb yuritiladi.

Doira usul (zarb)lari – xonanda, sozanda, xalq cholg‘u asboblari yoki raqsga jo‘r bo‘lib chalinadigan doira usul (zarb)lari. Ular turlicha: Raqs uchun chalinadigani, bunda Doira usullari ancha murakkab bo‘lib, “yakka qars”, “qo‘sh qars”, “zang” va shunga o‘xshash nomlarga ega. Bulardan bir nechtasi qo‘shilib, to‘la bir raqs o‘yini hosil bo‘ladi. Keng tarqalgan raqs zarblari “Oqsatma”, “Gul o‘yin”, “Chor qars” va boshqalardir. Xalq ashulalariga jo‘r bo‘luvchi doira usullari. Ular turlicha bo‘lib, ayrimlarining o‘lchovi bir turli bo‘lgan ashulalarda qaytarilishi mumkin. Maqom yo‘llariga jo‘r bo‘luvchi usullar. Maqomlarda bir turli nom bilan ataladigan hamma kuylarning doira usullari bir xil. Masalan, olti maqomning hammasida uchragan “Tasnif” lar turlicha kuyda bo‘lsa-da, deyarli bir xil doirausuli bilan ijro etiladi. [2. 96,97 - bet].

Raqs musiqasi – aniq o‘lchovga ega, raqsga jo‘r bo‘lishga mo‘ljallangan musiqa. Raqs musiqasi aniq ritmga ega bo‘lishi, har bir raqsning o‘ziga xos xarakteri, ritmi va sur‘atiga mos bo‘lishi shart. Har bir raqs uchun turlicha musiqalar yaratiladi. Bularning ritmi ham turlicha bo‘ladi, lekin bu ritm raqsdagi ritmga bo‘ysunishi, bog‘lanishi kerak. Bu ritm doimiy qaytariluvchi yoki variatsion o‘zgaruvchan holatga ega bo‘ladi. Raqs musiqasining aksari cholg‘u tarzda bo‘ladi. Xalq raqslari esa ashula va xorlar bilan ijro etiladi. Raqs musiqasi faqat cholg‘u asboblari chalish yoki ashula qilib aytish bilangina emas, uning ritmi doira va boshqa urma sozlarda chalilishi yoki qarsak bilan bajarilishi ham mumkin. Raqs musiqasi baletda, konsertlarda qo‘llanilganidek, yengil musiqa va jazlarda ham salmoqli o‘rin egallaydi. Raqs musiqasi ritmlari yirik musiqa asarlarining ayrim qismlarini ham tashkil etadi. Aksariyat syuita, siklli sonata shaklining ayrim qismlari raqssimon yaratiladi.

O‘zbek xalq kuylaridan “Mirzadovlat”, “Dilxiroj”, “Ufor”, “Qashqarcha” va boshqalar cholg‘u R. musiqasi hisoblanadi. “Gul o‘yin”, “Qari navo” va ayrim yallalar ashulali R. musiqasi namunalari hisoblanadi. Doira va nog‘oralar ritmida ijro etiladigan raqslar O‘zbekiston va Tojikistonda juda keng tarqalgan. “Zang”, “Chor qars”, “Duchava”,

“Gul o‘yin” (faqat doira ijro etiladigan varianti) va boshqalar doira jo‘rligida ijro etiladi. [2. 278bet]

Farg‘ona-Toshkent musiqa uslubida xotin-qizlar ijodi unumli bo‘lib, ular orasida, jumladan, tarafma-taraf bo‘lib lapar aytishlar. turli qo‘shiqlarni kuylash, to‘y marosimi aytimlari bo‘lgan yor-yor. kelinsalom va o‘lanlarni kuylash ommaviy tus olgan Bular ichida. ayniqsa, yallalar sevib ijro etiladi. Yalla bu band naqarot shakliga ega aytim bo‘lib, u raqsga tushib kuyulanadi. Bunda yakkaxon yallachi doyra jo‘rligida raqsga tushib bandlarni kuylasa, naqarotlarni davrada hozir bo‘lgan ko‘pchilik qo‘shilib aytadi. Bundan tashqari, Buxoro - Samarqand sozandalari va Xorazm xalfalari san'atiga yaqin bo‘lgan kasbiy yallachilar ham bo‘lib, ular yakka holda yoki ansambl tarzida namoyon bo‘ladi. Yakka holdagi yallachi, odatda, o‘z aytimlariga dutor yoki doyra sozida jo‘r bo‘ladi. Yallachilar ansambli esa 2-3 ayoldan iborat bo‘lib, faqat doyra jo‘rligida kuylaydilar. Xotin-qizlar davrasida hozir bo‘lgan yallachilarning repertuari asosan qo‘shiq, lapar, yalla va to‘y marosimi aytimlaridan tuzilgan bo‘ladi. [3 .31bet].

Xulosa qilib aytganda, doira o‘zbek xalqining ko‘p asrlik tarixiy-madaniy merosini o‘zida mujassam etgan noyob zarbli cholg‘u asbobi hisoblanadi. Uning shakllanishi va rivojlanish jarayoni xalqning turmush tarzi, urf-odatlari hamda estetik qarashlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Doira nafaqat musiqiy ijro vositasi, balki milliy o‘zlikni ifodalovchi muhim madaniy timsol sifatida ham e’tirof etiladi.

Mazkur tadqiqot doirasida doiraning o‘zbek raqs san’atidagi o‘rni alohida ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Zero, doira ritmi raqs harakatlarining asosiy mezon bo‘lib, u ijrochining harakatlarini muvofiqlashtiradi, sahnaviy ifodaning dinamikasi va emotsional ta’sirchanligini oshiradi. Ayniqsa, an’anaviy raqs kompozitsiyalarida doira sadolari raqqosa va tomoshabin o‘rtasida o‘ziga xos estetik muloqotni yuzaga keltiradi.

Shuningdek, doira chalishni o‘rgatish jarayoni nafaqat amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, balki yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim pedagogik vosita ekanligi ta’kidlandi. Doira darslari orqali o‘quvchilarda ritmik tafakkur, musiqiy eshitish qobiliyati, diqqat va ijodiy yondashuv rivojlanadi. Bu esa ularning nafaqat san’at sohasida, balki umumiy intellektual va estetik kamolotida ham muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, zamonaviy ta’lim tizimida doira darslarini ilmiy asosda tashkil

etish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va amaliy mashg'ulotlar samaradorligini oshirish zarurati mavjud. Bu esa milliy musiqa va raqs san'atining uzluksiz rivojlanishini ta'minlaydi hamda uni global madaniy makonda munosib namoyon etishga xizmat qiladi. Umuman olganda, doira o'zbek milliy san'atining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, uning o'rganilishi, rivojlantirilishi va yosh avlodga yetkazilishi dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mazkur yo'nalishda olib boriladigan ilmiy izlanishlar va ta'limiy faoliyatlar kelgusida ham izchil davom ettirilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O.Kamolxo'jayev A.Liveyev "Doira darsligi", Toshkent -"O'qituvchi"-1985.
2. I.A. Akbarov "Muzika lug'ati" G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 1987.
- 3.Odilxon Ibrohimov, Jamil Sadirov Musiqa 7-sinf uchun darslik, Toshkent-2008.
4. Karomatov, F. "O'zbek xalq musiqasi asoslari". – Toshkent: Fan nashriyoti, 1987.
5. Sagdullayev, A. "Musiqa asboblari va ularning rivojlanish tarixi". – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, 2001.
6. Jabborov, A. "Doira ijrochiligining asosiy xususiyatlari". – Toshkent: San'at nashriyoti, 2015.
7. Usmonov,O. "O'zbek xalq cholg'u asboblari: tarixi va rivojlanishi". – Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti, 2003.

Adamov Boburjon Shuhrat o'g'li

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

Urganch filiali Lazgi bo'limi kichik ilmiy xodimi

Email:boburadamov7gmail.com

Tel: +998 (99) 759-07-14

RAQS VA MUSIQA UYG'UNLIGI: INSON HIS-TUYG'ULARINI IFODA ETISH SAN'ATI

ГАРМОНИЯ ТАНЦА И МУЗЫКИ: ИСКУССТВО ВЫРАЖЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЭМОЦИЙ БЕЗ СЛОВ

HARMONY OF DANCE AND MUSIC: THE ART OF EXPRESSING HUMAN EMOTIONS WITHOUT WORDS

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqs va musiqa uyg'unligi inson his-tuyg'ularini so'zsiz ifoda etishning eng kuchli vositasi sifatida tahlil etiladi. Nazariy asos ritm, tempo va emotsional ohang orqali ochib beriladi. O'zbek milliy raqs maktablari misolida madaniy-tarixiy jihatlar ko'rib chiqiladi. Raqs-musiqa terapiyasining emotsional regulyatsiya, stressni kamaytirish va hissiy intellektni rivojlantirishdagi ahamiyati asoslanadi. Maqola ta'lim, psixoterapiya va madaniy merosni saqlashdagi amaliy rolini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: raqs va musiqa uyg'unligi, his-tuyg'ularni ifoda etish, o'zbek milliy raqslari, emotsional regulyatsiya, raqs terapiyasi, musiqa psixologiyasi, xoreografiya, milliy meros, hissiy intellekt, psixoterapiya.

Аннотация. В данной статье гармония танца и музыки анализируется как самое мощное средство безсловесного выражения человеческих эмоций. Теоретическая основа раскрывается через ритм, темп и эмоциональный тон. На примере узбекских национальных школ танца рассматриваются культурно-исторические аспекты. Обосновывается значение танцевально-музыкальной терапии в эмоциональной регуляции, снижении стресса и развитии эмоционального интеллекта. Статья подчеркивает практическую роль в образовании, психотерапии и сохранении культурного наследия.

Ключевые слова: гармония танца и музыки, выражение эмоций, узбекские национальные танцы, эмоциональная регуляция, танцевальная терапия, музыкальная психология, хореография, национальное наследие, эмоциональный интеллект, психотерапия.

Abstract. This article analyzes the harmony of dance and music as the most powerful means of wordless expression of human emotions. The theoretical basis is revealed through rhythm, tempo and emotional tone. Cultural-historical aspects are examined using examples of Uzbek national dance schools. The importance of dance-music therapy in emotional regulation, stress reduction and development of emotional intelligence is substantiated. The article emphasizes the practical role in education, psychotherapy and preservation of cultural heritage.

Keywords: harmony of dance and music, expression of emotions, Uzbek national dances, emotional regulation, dance therapy, music psychology, choreography, national heritage, emotional intelligence, psychotherapy.

KIRISH. Raqs va musiqa san'ati insoniyatning eng qadimiy ifoda vositalaridan biri bo'lib, ular birgalikda inson his-tuyg'ularini so'zsiz yetkazishning eng samarali mexanizmini yaratadi. Ushbu san'at turlari ritm, tempo va emotsional ohang orqali miyaning limbik tizimini faollashtirib, quvonch, qayg'u, muhabbat va g'azab kabi universal emotsiyalarni gavdalantiradi [Sievers B. va boshq., 2013, pp. 70-75].

Raqs va musiqa insoniyatning eng qadimiy va eng kuchli san'art turlaridan bo'lib, ular birgalikda so'zsiz "ruh tilini" yaratadi. Qadimiy Yunonistonda bu birlik "xoreya" deb atalgan bo'lib, u nafaqat estetik zavq, balki insonni ruhiy va jismoniy jihatdan poklash, tarbiyalash va yuksaltirishning muqaddas vositasi hisoblangan.

Nazariy ma'lumot: Raqs va musiqa uyg'unligi ularning umumiy elementlarida – ritm, tempo, dinamika va emotsional ohangda namoyon bo'ladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, musiqa va harakat bir xil dinamik tuzilishga ega bo'lib, quvonch, qayg'u, muhabbat, g'azab kabi universal emotsiyalarni so'zsiz, ammo nihoyatda ta'sirchan tarzda ifodalaydi [Sievers B. va boshq., 2013, pp. 70-75]. Bundan tashqari, musiqa to'g'ridan-to'g'ri miyaning emotsional markazlarini (limbik tizim) faollashtirib, dopamin va serotonin kabi neyrotransmitterlar chiqarilishini kuchaytiradi, raqs esa bu hislarni jismoniy harakat orqali gavdalandiradi va ichki qarama-qarshiliklarni bartaraf etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Raqs va musiqa uyg'unligi mavzusi ilmiy adabiyotda keng yoritilgan. G'arbiy tadqiqotlarda musiqa va harakatning umumiy dinamik tuzilishi va ularning universal emotsiyalarni ifodalashdagi roli ko'rsatilgan. Raqs-harakat terapiyasi emotsional regulatsiya, stressni kamaytirish va hissiy intellektni rivojlantirishdagi samaradorligi tahlil qilingan.

O'zbekiston ilmiy adabiyotida bu mavzu milliy kontekstda o'rganilgan. "O'zbek raqsda musiqaning o'rni" maqolasida musiqa va raqsning uzviy bog'liqligi, bastakorlarning ijodiy yondashuvlari va milliy raqs maktablari tahlil etilgan. "San'at, raqs va musiqaning uyg'unligi" tadqiqotida raqs san'artini rivojlantirishda musiqaning o'rni va zamonaviy xoreograflar faoliyati ko'rib chiqilgan. "Musika va raqs san'ati" ishida esa o'zbek milliy musiqa va raqsning jamiyatdagi ma'naviy-tarbiyaviy roli ta'kidlangan.

Tarixiy jihatdan temuriylar davri va XX asr ustozlari Isohor Oqilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva ijodini o'rganuvchi ishlar raqs va musiqaning sahna san'artidagi birligini ko'rsatadi. Ammo mavjud adabiyotlarda raqs-musiqa terapiyasining O'zbekistondagi amaliy qo'llanilishi va yosh avlod tarbiyasidagi roli yetarli darajada chuqur o'rganilmagan. Ushbu tadqiqot ana shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Ushbu tadqiqot nazariy va tahliliy xarakterga ega bo'lib, quyidagi metodlarni qo'llagan: nazariy tahlil va sintez, tarixiy-taqqosiy usul, madaniy kontekstual tahlil hamda

ilmiy adabiyotlar sintezi. Tadqiqot materiali sifatida ilmiy maqolalar, YUNESKO hujjatlari, festival materiallari va O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi dasturlari ishlatilgan. Empirik kuzatishlar “Sharq taronalari” festivali va milliy ansambllar ijrolari asosida amalga oshirilgan.

Natijalar. Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

Raqs va musiqa birligi ritm, tempo va emotsional ohang orqali universal his-tuyg‘ularni quvonch, qayg‘u, muhabbat, iztirob so‘zsiz ifodalaydi [Sievers B. va boshq., 2013, pp. 70-75].

O‘zbek milliy raqslari “Lazgi” – energiya va hayotshukurlik; “Tovus” – muhabbat va go‘zallik; “Munojat” – ruhiy poklik musiqa jo‘rligida tomoshabinni chuqur emotsional holatga keltiradi. “Lazgi” 2019-yilda YUNESKO nomoddiy meros ro‘yxatiga kiritilgani bu birlikning xalqaro ahamiyatini tasdiqlaydi [UNESCO, 2019, nomination file No. 01364].

Raqs-musiqa terapiyasi stressni 30-40% ga kamaytiradi, empatiya va hissiy intellektni oshiradi [Zhang X., 2024, e35733].

O‘zbekiston ta’lim va psixoterapiya tizimida bu san’art bolalar hissiy madaniyatini shakllantirish va ruhiy salomatlikni saqlashda yuqori samaradorlikka ega.

“Sharq taronalari” festivali kabi tadbirlar madaniy merosni saqlash va insonlarni birlashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Muhokama. Ushbu tadqiqot natijalari xorijiy va mahalliy adabiyotlar bilan to‘liq mos keladi va ularni amaliyotda chuqur tasdiqlaydi. Sievers va boshq. [Sievers B. va boshq., 2013, pp. 70-75] tadqiqotida musiqa va harakatning umumiy dinamik tuzilishi universal emotsiyalarni ifodalashda asosiy mexanizm ekanligi isbotlangan bo‘lsa, Zhang [Zhang X., 2024, e35733] raqs-harakat terapiyasining (DMT) emotsional regulyatsiya, stressni kamaytirish va hissiy intellektni rivojlantirishdagi yuqori samaradorligini ko‘rsatgan. O‘zbek milliy raqslari (“Lazgi”, “Tovus”, “Munojat”, “Samo”) bu nazariy xulosalarni amaliyotda to‘liq tasdiqlaydi. Masalan, “Lazgi” raqsining ritmik titrashi jismoniy va hissiy bloklarni ochishda, “Munojat” esa meditatif tinchlantirishda samarali ekanligi aniqlandi [Mahmudova M.M., 2023; UNESCO, 2019, nomination file No. 01364].

O‘zbekiston kontekstida raqs va musiqa uyg‘unligi nafaqat estetik, balki chuqur ma’naviy-tarbiyaviy va tibbiy ahamiyatga ega. Milliy raqslarning tabiiy ritmi, emotsional

palitrasi va milliy cholgʻu asboblari bilan uygʻunligi xalqaro DMT dan ustunlik beradi, chunki u madaniy va ruhiy qadriyatlar bilan birlashgan. Bu bolalar va oʻsmirlar hissiy madaniyatini shakllantirish, stressni kamaytirish va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashda samarali vosita boʻlib, Oʻzbekiston Prezidentining 2020-yil farmonlarida belgilangan taʼlim va ruhiy salomatlik siyosatiga toʻliq javob beradi. Ayniqsa, “Lazgi” va “Tovus” raqslari travma, depressiya va oʻziga ishonchsizlik holatlarida jismoniy-hissiy integratsiyani taʼminlab, bemorlarda ichki ozodlik va hayotshukurlikni tiklaydi.

Biroq, hozirgi amaliyotda raqs-musika terapiyasining maktab, klinika va psixologik markazlarda keng joriy etilishi yetarli emas. Bu tadqiqotning asosiy muammosi va boʻshliqni koʻrsatadi. Tadqiqotning cheklovlari: asosan nazariy va tahliliy xarakterga ega boʻlib, katta miqyosli empirik soʻrovlar va klinik tajribalar oʻtkazilmagan. Kelajak tadqiqotlari virtual reallik (VR) texnologiyalari yordamida raqs-musika interaktiv dasturlarini sinovdan oʻtkazishi, Oʻzbekistonda DMT ning klinik samaradorligini oʻrganishi va milliy raqslarning terapevtik protokollarini ishlab chiqishi mumkin. Natijalar xoreografiya taʼlimini takomillashtirish, yosh avlodni barkamol tarbiyalash, ruhiy salomatlikni saqlash va madaniy merosni saqlashda katta amaliy ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot raqs va musika uygʻunligining ilmiy asoslarini ochib berish bilan birga, Oʻzbekistonda terapevtik amaliyotni rivojlantirishga chaqiriq sifatida xizmat qiladi.

Xulosa. Raqs va musika uygʻunligi inson his-tuygʻularini ifoda etishning eng goʻzal, chuqur va kuchli sanʼart shaklidir. U nafaqat estetik zavq beradi, balki inson ruhiyatining eng nozik qatlamlariga yetib borib, emotsional regulyatsiyani taʼminlaydi, stress va ichki qarama-qarshiliklarni bartaraf etadi hamda hissiy intellektni rivojlantiradi [Sievers B. va boshq., 2013, pp. 70-75; Zhang X., 2024, e35733].

Raqs va musika uygʻunligi – inson ruhining eng sof va eng kuchli tili boʻlib, u soʻzlar orqali yetib boʻlmaydigan chuqurliklarga yetadi. Bu sanʼat nafaqat estetik zavq beradi, balki insonning ichki dunyosini ochib, hissiy yaralarni davolaydi, ruhiy mustahkamlikni oshiradi va hayotga yangicha maʼno qoʻshadi. Oʻzbekiston kabi boy tarixiy-madaniy merosga ega mamlakatda raqs va musika birligi milliy oʻzlikni saqlashning asosiy tayanchi boʻlib qolmay, yosh avlodni maʼnaviy barkamol, empatiyaga boy va ichki erkin shaxslar qilishning eng tabiiy va samarali yoʻlidir.

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida, insonlar bir-biridan tobora uzoqlashayotgan bir paytda, raqs va musiqa uyg'unligi odamlarni yana birlashtiruvchi, qalbni poklovchi va ruhni yuksaltiruvchi kuchga aylanadi. Shu bois, raqs va musiqa uyg'unligini ta'lim, tibbiyot va madaniyat tizimlariga chuqurroq joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Inson ruhining so'zsiz tilini saqlash va boyitish – bu nafaqat san'at, balki insoniyatning kelajagini belgilovchi muhim mas'uliyatdir. Ushbu tadqiqot ana shu mas'uliyatni anglashga va amaliy qadamlar tashlashga chaqiriq sifatida xizmat qiladi.

Takliflar. Raqs-musiqa terapiyasini maktab va tibbiyot muassasalarida majburiy dastur sifatida keng joriy etish.

Xalqaro ilmiy hamkorlikni kuchaytirish va virtual texnologiyalarni qo'llash orqali yangi interaktiv dasturlarni yaratish.

Milliy raqs ansambllari va "Sharq taronalari" kabi festivallar faoliyatini yanada rivojlantirish hamda ularni terapevtik maqsadlarda qo'llash.

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida raqs-musiqa terapiyasi bo'yicha maxsus mutaxassisliklar ochish.

Inson ruhining so'zsiz tilini saqlash va boyitish – bugungi globallashuv davrida eng dolzarb vazifalardan biridir. Ushbu tadqiqot raqs va musiqa uyg'unligining ilmiy asoslarini ochib berish bilan birga, amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini kengaytirishga chaqiriq sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Mahmudova M.M. O'zbek raqsda musiqaning o'rni. CyberLeninka, 2023.
- 2.Musiqa va raqs san'ati. Zenodo, 2024.
- 3.San'at, raqs va musiqaning uyg'unligi. ResearchGate, 2026.
- 4.Saitova E.Y., Abaykulova N.E. Xoreografiya va raqs san'ati asoslari. T.: Fan va texnologiya, 2015.
- 5.Sievers B. va boshq. Music and movement share a dynamic structure that supports universal expressions of emotion. PNAS, 2013.
- 7.Toshpo'latova I.S. Musiqaning inson ruhiyatiga ta'siri. CyberLeninka, 2023.
- 8.Khorazm Dance, Lazgi. UNESCO, 2019.

9. Zhang X. The role of dance movement therapy in enhancing emotional regulation: A literature review. Heliyon, 2024.

Sapayev Shixnazar Sultonazarovich

O'zbekiston davlat xareografiya akademiyasi

Urganch filiali jo'rnavozi

Sintezator elektron cholg'u asbobining milliy musiqamizdagi o'rni va ahamiyati

Annotatsiya: Mazkur maqolada sintezator elektron cholg'u asbobining o'zbek milliy musiqasidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Zamonaviy texnologiyalar asosida yaratilgan sintezatorning an'anaviy musiqa ijrochiligiga kirib kelishi, uning imkoniyatlari va milliy ohanglarni yangi talqinda ifodalashdagi roli yoritiladi. Shuningdek, sintezator yordamida xalq kuylarini qayta ishlash, yosh avlod orasida musiqaga qiziqishni oshirish hamda milliy merosni saqlashdagi ahamiyati ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: sintezator, elektron cholg'u, milliy musiqa, o'zbek musiqasi, zamonaviy texnologiya, an'anaviy kuylar, musiqiy innovatsiya, ijrochilik, aranjirovka.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль и значение синтезатора как электронного музыкального инструмента в узбекской национальной музыке. Анализируется внедрение современных технологий в традиционное музыкальное исполнительство, а также возможности синтезатора в интерпретации национальных мелодий. Особое внимание уделяется его роли в обработке народных песен, популяризации музыки среди молодежи и сохранении культурного наследия.

Ключевые слова: синтезатор, электронный инструмент, национальная музыка, узбекская музыка, современные технологии, народные мелодии, музыкальная инновация, исполнительство, аранжировка.

Abstract: This article examines the role and significance of the synthesizer as an electronic musical instrument in Uzbek national music. It explores the integration of modern technologies into traditional musical performance and highlights the synthesizer's capabilities in reinterpreting national melodies. The study also discusses its importance in arranging folk music, increasing youth engagement in music, and preserving cultural heritage.

Keywords: synthesizer, electronic instrument, national music, Uzbek music, modern technology, folk melodies, musical innovation, performance, arrangement.

Sintezator - bu elektron cholg'u asbobi bo'lib, u turli tovushlarni sun'iy tarzda yaratish, o'zgartirish va takrorlash imkoniyatiga ega. Ushbu asbob yordamida turli cholg'ular tovushi, ritmlar va effektlarni hosil qilish mumkin. Sintezatorlar ko'pincha klaviatura shaklida bo'ladi va pianinoga o'xshash tarzda ijro etiladi. Uning asosiy afzalligi shundaki, bitta asbob orqali o'nlab, hatto yuzlab turli cholg'ular ovozini chiqarish mumkin. Bu esa ijrochilarga keng imkoniyatlar yaratadi.

O'zbek milliy musiqasi asrlar davomida shakllangan boy merosga ega. Dutor, tanbur, gijjak, doira, nay kabi cholg'ular milliy kuylarning asosiy vositalari hisoblanadi. Ushbu


cholg'ularning har biri o'ziga xos tembr va ohangga ega bo'lib, milliy musiqaning ruhini ifodalaydi.

An'anaviy musiqa asosan jonli ijroga asoslangan bo'lib, unda cholg'uchilarning mahorati katta ahamiyat kasb etadi. Har bir kuy ijrochining his-tuyg'ulari orqali o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi.

So'nggi yillarda sintezator milliy musiqaga ham kirib keldi. Avvaliga bu yangilik sifatida qabul qilingan bo'lsa, hozirda u keng qo'llaniladigan vositaga aylandi. Ayniqsa, to'y marosimlari, konsertlar va estrada sahnasida sintezatorning o'rni sezilarli darajada oshdi. Sintezator yordamida milliy kuylar zamonaviy uslubda qayta ishlanmoqda. Bu esa musiqaning yangi shakllarini yaratishga xizmat qilmoqda. Natijada milliy va zamonaviy musiqa o'rtasida uyg'unlik yuzaga kelmoqda.

Sintezatorning milliy musiqadagi ahamiyatini bir necha jihatlar orqali ko'rish mumkin: Birinchidan, u ko'p funksiyalilikka ega. Bitta sintezator yordamida turli cholg'ular tovushini chiqarish mumkin. Bu esa kichik jamoalarda ham boy musiqa yaratish imkonini beradi. Ikkinchidan, u iqtisodiy jihatdan qulay. Ko'plab cholg'ular o'rniga bitta sintezator ishlatilishi xarajatlarni kamaytiradi. Uchinchidan, sintezator yordamida yangi uslublar yaratiladi. An'anaviy cholg'ular va sintezatorni birgalikda qo'llash eng yaxshi yechim hisoblanadi. Bu orqali ham milliy ruh saqlanadi, ham zamonaviylik qo'shiladi.

Har qanday yangilik singari sintezatorning ham ayrim kamchiliklari mavjud. Birinchidan, u jonli ijro o'rnini to'liq bosa olmaydi. An'anaviy cholg'ularning tabiiy ovozi va ruhiy ta'siri sintezatorda to'liq aks etmaydi. Ikkinchidan, ortiqcha foydalanish milliy musiqaning asl ko'rinishini o'zgartirib yuborishi mumkin. Bu esa an'anaviylikning yo'qolishiga olib keladi. Uchinchidan, ayrim hollarda tayyor ritmlar va avtomatik funksiyalar ijrochining mahoratini kamaytirishi mumkin. Eng muhim jihat - bu muvozanatni saqlashdir. Sintezatorni to'g'ri va me'yorida ishlatish orqali milliy musiqani yanada rivojlantirish mumkin. An'anaviy cholg'ular va sintezatorni birgalikda qo'llash eng yaxshi yechim hisoblanadi. Bu orqali ham milliy ruh saqlanadi, ham zamonaviylik qo'shiladi. Musiqiy tovushqatorlarning asosiy pog'onasi lotin alifbosida bosh harflar bilan keltirilgan C(do), D(re), E(mi), F(fa), G(sol), A(lya), B(H)(si), harflarini anglatadi. Bundan esa akkordning qaysi tovush (nota)dan qurilganligini anglab olish mumkin. Quyidagi rasm orqali ko'rib olishingiz mumkin.



Major uch tovushligi alifbodagi bosh harflar bilan belgilanadi.

«C» harfidan qurilgan (do-mi-sol) major yoki minor uchtovushligini anglatadi.

«D» harfi re va h.k.dan qurilgan major yoki minor uchtovushligini anglatadi.

Si-bemol notasi «B» (H) harfini anglatadi. Shuningdek, «B» (H) harfi Si-bemol dan qurilgan major yoki minor uchtovushligini anglatadi.

Bosh harflar bilan belgilanayotgan minor uchtovushligi oldiga doimo lotin grafikasidagi kichkina m (em) harfi qo'yiladi.

Do dan qurilgan minor uchtovushligi Cm ko'rinishida yoziladi.

C+5 - bu major uchtovushligining do notasidan qurilgan va ko'tarilgan kvintali tonini anglatadi.

+ (plyus) belgichi va 5 raqami - major uchtovushligi kvintali toni-yarim notaga ko'tarishni anglatadi. do notasidan qurilgan, pasaytirilgan kvintali tonga ega bo'lgan minor uchtovushligi Cm-5 ko'rinishini anglatadi.

(minus) belgisi va 5 raqami minor uchtovushligining kvintali toni yarim notaga pasayishini bildiradi. Ko'pincha uchovozlikning asosiy akkorddan katta seksta (yuqori) oralig'iga to'rtinchi ovoz saqlanib qo'shiladigan ko'rinishi qo'llaniladi.(1. 15-16-bet)

Sharq allomalari, shayxulmashoyixlar musiqa san'atiga yuqori baho berib, uning inson ruhiga ma'naviy quvvat bo'lib xizmat qilishini alohida ta'kidlaganlar. Xususan, Hazrat Abu Bakr Buxoriy-Kalobodiy (vaf 994-y.) musiqa tovushlari nag'malarni ta'riflab, ularni «jon quvvati va ruh ozig'iturur. Agar jon nag'madan quvvat topsa, o'z maqomi sari ishrof aylaydi, ul maqom ila mashg'ul bo'lardi», deb yozadi.

Demak, musiqa insonga ma'naviy oziqa bo'lishi bilan birga uni tarbiyalashda ham ahamiyatli ekan. Chunki, ruhi tetik va barkamol kishi o'zida yaxshi insoniy fazilatlarni mujassam eta oladi.

Vatandoshimiz Abu Nasr Forobiyning (873-950) bu xususdagi fikri ham e'tiborlidir. «Musiqa ilmi shu ma'noda foydaliki, u o'z muvozanatini yo'qotgan odamlar xulqini tartibga keltiradi, mukammallikka yetmagan xulqni mukammal qiladi va muvozanatda bo'lgan odamlar xulqining muvozanatini saqlab turadi. (2. 84-bet)

Hozirgi davr o'zbek musiqa madaniyati qadimiy va rango-rang, ayni paytda, yangi zamon an'alarini o'zida mujassam etgan holda rivoj topmoqda. Bunda, eng avvalo, xalq musiqasi, an'anaviy mumtoz musiqa, bastakorlik va kompozitorlik ijodiyotlari hamda ommabop estrada qo'shiqchiligi jabhalari namoyon bo'ladi.

O'zbek xalqining ma'naviy go'zalligi asrlar qa'ridan kelayotgan kuy-ohanglarida o'zining ajoyib va betakror badiiy ifodasini topgan. Binobarin, milliy musiqa ko'p asrlar davomida shakllangan ajdodlarimiz boy ma'naviyatining sadolardagi jonli ifodasi bo'lib, bugungi kunda yangi, buyuk davlat bunyodkori bo'lmish xalqi-mizning ruh quvvati va jon ozig'i bo'lib xizmat qilmoqda. Shu boisdan ham Respublikamizda milliy musiqa qadriyatlarimizni qayta tiklash va rivojlantirishga qaratilgan ko'plab ko'rik-tanlov hamda festivallarning o'tkazilishi an'anaga aylanib bormoqda. Xususan, bu o'rinda «Alla», baxshi-shoir va maqom ijrochilarining ko'rik-tanlovlari muntazam o'tkazilib kelinayotganligini aytish mumkin.

Ayni chog'da, G'anijon Toshmatov, Muhammadjon Mirzayev, Orifxon Hotamov, Fattohxon Mamadaliyev, G'ulomjon Hojiqulov, Salohiddin To'xtasinov, Abduhoshim Ismoilov, O'lmas Rasulov singari yetuk san'atkorlar ijodida bastakorlik an'analari yangi bosqichga yuksaldi. Shuningdek, kompozitorlik sohasida Ikrom Akbarov, Mirsodiq Tojiyev, Mustafu Bafoyev, Mirxalil Mahmudov, Farhod Alimov, Bahrullo Lutfullayev, Habibulla Rahimov, Rustam Abdullayev va Nadim Norxo'jayevlar barakali ijod qilib, talaygina musiqa asarlarini tinglovchilarga taqdim etdilar (2.115-bet)

Xulosa qilib aytganda, sintezator elektron cholg'u asbobi bugungi kunda milliy musiqamiz rivojida muhim o'rin tutmoqda. U musiqaga yangicha yondashuv olib kirib, ijodkorlarga keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Shu bilan birga, undan oqilona foydalanish zarur. Chunki milliy musiqaning asl qadriyatlari saqlanib qolishi muhimdir. An'anaviy va zamonaviy musiqani uyg'unlashtirish orqali kelajak avlodga boy va rang-barang musiqa merosini qoldirish mumkin.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, sintezator elektron cholg'u asbobi zamonaviy musiqiy jarayonlarning ajralmas qismiga aylanib, o'zbek milliy musiqasining rivojlanishida muhim o'rin egallamoqda. Uning texnologik imkoniyatlari an'anaviy musiqa ijrochiligini yangi bosqichga olib chiqish, milliy kuy va ohanglarni zamonaviy talqinda ifodalash hamda keng auditoriyaga yetkazishda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Sintezatorning asosiy ustunliklaridan biri - uning ko'p funksiyaliligi va universalligidir. Ushbu asbob orqali turli cholg'ular tembrini modellashtirish, murakkab aranjirovkalarni yaratish hamda musiqiy kompozitsiyalarni boyitish mumkin. Bu esa, ayniqsa, kichik ijrochilik jamoalari yoki yakka ijrochilar uchun katta qulaylik yaratadi. Shu bilan birga, iqtisodiy jihatdan ham sintezator an'anaviy cholg'ular majmuasiga nisbatan tejamkor vosita hisoblanadi.

Biroq, sintezatorning imkoniyatlari qanchalik keng bo'lmasin, u an'anaviy cholg'ularning tabiiy jarangi va ijrochilik mahoratiga asoslangan jonli ijroni to'liq almashtira olmaydi. Milliy cholg'ular - dutor, tanbur, gijjak, doira va nay - o'zining noyob tembri, ifoda vositalari va ruhiy ta'siri bilan milliy musiqaning asosini tashkil etadi. Shu sababli sintezatorni me'yoridan ortiq qo'llash milliy musiqaning asl qiyofasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, uning an'anaviy xususiyatlarini susaytirishi mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, eng maqbul yondashuv - bu an'anaviylik va zamonaviylik o'rtasidagi muvozanatni saqlashdir. Sintezatorni milliy cholg'ular bilan uyg'un holda qo'llash orqali nafaqat milliy musiqa merosini asrab qolish, balki uni zamon talablariga mos ravishda rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi. Bunday sintez (uyg'unlashuv) milliy musiqaning yangi shakllarini yaratish, yosh avlodning qiziqishini oshirish va uni global musiqiy makonda keng targ'ib etishga xizmat qiladi.

Shuningdek, sintezatordan foydalanishda ijrochilarning kasbiy mahorati, estetik didi va milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabati muhim ahamiyat kasb etadi. Texnologik imkoniyatlardan ongli va maqsadli foydalanishgina yuqori badiiy natijaga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, sintezator o'zbek milliy musiqasining rivojlanishida innovatsion vosita sifatida muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning to'g'ri va muvozanatli qo'llanilishi milliy musiqa san'atining boyishi va taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ulug'bek Mirzahmedov Pedagogika va kallejlar uchun mo'ljallangan o'quv uslubiy qo'llanma, Toshkent-2017 "Tafakkur qanoti" nashriyoti
- 2.Odilxon Ibrohimov, Jamil Sadirov 7-sinf musiqa darsligi. Toshkent-2008, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi
- 3.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
- 4.Rajabov I. O'zbek xalq musiqasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1981.
- 5.Matyoqubov O. Maqom asoslari. – Toshkent: Fan, 2004.
- 6.Abdullayev R. Musiqa nazariyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2002.
- 7.Yuldashev Q. Zamonaviy musiqa va texnologiyalar. – Toshkent: Tafakkur, 2015.

Babajanova Yulduz Bektemirovna

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

Urganch filiali Axborot-resurs markazi direktori

XALQ RAQSLARINI SHAKLLANTIRISHDA BADIY ADABIYOTNING O'RNI VA AHAMIYATI

Annatatsiya: Ushbu maqolada Xalq raqsi alohida janr sifatida shakllanganligi, bugungi kunda raqs san'atiga bo'lgan e'tibor, raqs san'ati tarixini o'rganishda badiiy adabiyotlarning o'rni nihoyatda katta ekanligi keng yoritilgan.

Kalit so'z: Folklor, Xip-xop, syujet, Etnik raqs, Xalq raqsi, badiiy adabiyot, san'at, etnik raqs, an'anaviy raqs, madaniyat.

Аннотация: В данной статье подробно рассматривается формирование народного танца как отдельного жанра, внимание, уделяемое современному танцевальному искусству, и чрезвычайно большая роль художественной литературы в изучении истории танцевального искусства.

Ключевые слова: фольклор, хип-хоп, сюжет, этнический танец, народный танец, художественная литература, искусство, этнический танец, традиционный танец, культура.

Abstract: This article extensively discusses the formation of folk dance as a separate genre, the attention paid to dance art today, and the extremely large role of fiction in studying the history of dance art.

Keywords: Folklore, Hip-hop, plot, Ethnic dance, Folk dance, fiction, art, ethnic dance, traditional dance, culture.

Raqs hamisha insoniyatning ma'naviy ma'rifiy va madaniy rivojlanish ko'zgusi hisoblanadi. Raqs san'ati barcha san'at turlari orasida eng qadimiysi hisoblanadi. Imo-ishora raqsning birlamchi manbai sanalib, eng oddiy va ibtidoiy odam o'zining ruhiy va jismoniy kechinmalarini ifodalash uchun foydalangan eng birinchi usuldir. Bu inson o'zida kashf etgan ilk in'om hisoblanadi.

Xalq raqsi – tabiiy muhitda ijro etiladigan va ma'lum harakatlar, ritmlar, liboslar va shunga o'xshash hudud uchun an'anaviy bo'lgan folklor kundalik raqsi. Folklor (inglizchadan –folk “xalq”, lore “bilim”, “donolik”)–xalq ijodini ifodalovchi termin. raqsi – bu birinchi navbatda o'zi uchun, keyin esa tomoshabin (jamiyat, guruh) uchun ijro etiladigan his- tuyg'ular, kayfiyat, his-tuyg'ularning o'z-o'zidan namoyon bo'lishidir.

“Xalq raqsi” atamasi ba'zan Yevropa madaniyati va tarixida tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan raqslarga nisbatan qo'llanadi. Boshqa madaniyatlarda uchun „etnik raqs“ yoki „an'anaviy raqs“ atamalarini ba'zan ishlatiladi, garchi („an'anaviy raqs“) atamalarini o'z ichiga olishi mumkin

Xip-xop kabi bir qator zamonaviy raqslar mavjud bo'lib, ular o'z-o'zidan rivojlanadi, ammo “xalq raqsi” atamasi odatda ularga nisbatan qo'llanilmaydi, uning o'rniga “ko'cha

raqsi” atamasi qo‘llanadi. “Xalq raqsi” atamasi asosan an‘analar bilan bog‘liq bo‘lgan va “oddiy xalq” raqslari va “yuqori jamiyat” raqslari o‘rtasida farqlar mavjud bo‘lgan davrda paydo bo‘lgan raqslarga mo‘ljallangan.

“Etnik raqs” va “an‘anaviy raqs” atamalari raqsning madaniy ildizlarini ta’kidlash uchun ishlatiladi. Shu ma’noda, deyarli barcha xalq o‘yinlari etnikdir. Xalq sahnasi raqsida professional san‘at folklorni estetiklashtiradi, uni bezatadi (ba’zan ataylab qo‘pollashtiradi), umuman olganda, murakkablashtiradi va o‘zgartiradi. Raqqoslar va xoreograflar o‘z mahoratlarini namoyish etishga, syujetli sahna kompozitsiyalari bilan jamoatchilik e’tiborini jalb qilishga intiladilar. Professional xalq raqs ansambllarining ijodi sahnaviy ishlov berish – an‘anaviy raqs asosida to‘liq folklor materialiga asoslanmagan va xalq amaliy san‘atining asl nusxasi bo‘lmagan yangi san‘at asarlarini yaratish bilan tavsiflanadi.

Umumiy slavyan madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlari uzoq o‘tmishda shakllana boshladi, bu qo‘shiqlar, raqsar, kiyimlar va hatto soch turmagi uchun ham amal qiladi. Birinchi raqsar atrofdagi dunyodan hissiy taassurotlarning namoyon bo‘lishi sifatida paydo bo‘ldi. Raqs harakatlari hayvonlar, qushlar harakatlariqa taqlid qilish va keyinchalik ma’lum mehnat jarayonlarini aks ettiruvchi imo-ishoralar (masalan, ba’zi dumaloq raqsar) natijasida ham rivojlangan. Asl raqs, xuddi qo‘shiq kabi, sehrli rol o‘ynagan, shuning uchun taqvim va marosim raqsar orasida arxaik xususiyatlarning aksariyati saqlanib qolgan. Xalq sahnasi raqsar professional klassik, xalq maishiy raqsar va asl folklor manbalarining simbiozidir. Rossiyada xoreografik faoliyatning ushbu mustaqil turi 20-asrda bir qator xalq raqs ansambllari paydo bo‘lgandan keyin paydo bo‘lgan.

Mahmud Koshg‘ariyning “Devon-ul lug‘otit turk” asarida qadimgi ajdodlarimizning turli-tuman mashg‘ulotlari, urf-odatlar etiqod va qiziqishlarining aksini ko‘rishimiz mumkin. Ota-bobolarimiz azal-azaldan yosh avlodning sog‘lom, aqlli, dono, mehnatsevar, vatanparvar bo‘lishini orzu qilishgan va shunga harakat qilishgan. Qadimgi qo‘shiqlar, maqol, afsona, qissa, dostonlarda Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshg‘ariy, Ahmad Yassaviy, Sayfi Saroyi, Xorazmiy, Gadoiy va bir qancha adib va yozuvchilarning asarlarida ana shu holatlar o‘z ifodasini topgan.

O‘zbek adabiyoti o‘zbegimning o‘zi kabi boy va qadimiy tarixiga ega hisoblanadi. SHu boisdan uning o‘ziga yarasha shakllanish va rivojlanish qonuniyatlari bor.

Adabiyotimizning uzoq tarixi soʻz sanʼatining takomillashish jarayonlarini mumtoz namoyondalari haqida maʼlumot berib oʻtadi. Shu fan sababli uzoq oʻtmishimizda yashab ijod qilgan buyuk adiblarning durdona asarlari va yangiliklar haqida tushuncha hosil qila olamiz.

Bugungi kunda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishdan asosiy maqsad madaniyatli, maʼnaviyatli, dunyo qarashi keng boʻlgan shaxsni kamol toptirishdir. Bu esa oʻz navbatida madaniyatli kishini tarbiyalashda sanʼat va adabiyotning oʻrni beqiyosdir. Bu ikkala kuch kitoblarda jamlangandir. Ayniqsa badiiy adabiyotning oʻrni va ahamiyati nihoyatda katta ekanligini aytib oʻtishimiz joizdir.

Hammamizga shu narsa maʼlumki, bugungi tobora rivojlanib borayotgan davrimizda kitobga boʻlgan qiziqish, talab kamayib bormoqda. Buning sababi shundaki XXI asr kompyuter texnologiyalari asri sababidan barcha yosh avlod internet va boshqa ijtimoiy tarmoqlar bilan band boʻlib kelishmoqda. Ona vatanimizning ertasi boʻlgan yosh avlodni mana shunday oʻrgimchak toʻridan asrashimizning birdan-bir yoʻli bu - badiiy adabiyotga, sanʼatga boʻlgan qiziqishini kuchaytirishdir.

Kitobxonlik madaniyatini kuchaytirish maqsadida yurtboshimiz Sh.M.Mirziyayev ilgari surgan besh tashabbusni aytib oʻtmaslikdan iloj yoʻqdek.

Besh tashabbusning toʻrtinchisi yoshlar maʼnaviyatini yuksaltirish va ular oʻrtasida kitobxonlikni rivojlantirishga yosh avlodni kitobga jalb qilish boʻyicha tizimli ishlarni tashkil etishga yoʻnaltirilgandir. Kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda va badiiy adabiyot targʻibotini rivojlantirishda axborot kutubxona tashkilotlarining roʻli va ahamiyati kattadir. Kitob oʻqish ajoyib va foydali mashgʻulot ekanligini koʻplagan insonlar yaxshi bilishadi ammo hamma ham sabr va qund bilan mutolaa qilishni uncha yoqtirishmaydi. Oʻqish miyamiz uchun mashq boʻlgani kabi sport bilan muntazam shugʻullanmaydigan inson uchun jismoniy mashqlardan qiyini yoʻq. Ammo haqiqiy sport inson uchun eng yaxshi dam olish va vaqtni oʻtkazish ham mashq hisoblanadi. Demak, kitob oʻqish ham miyamizni chiniqtiradi shu bilan bir qatorda fikrlash qobiliyatimizni oshirib boradi. Eng koʻp oʻqiladigan insonning qalbiga eng tez yetib boradigan bu- badiiy adabiyotdir.

Badiiy adabiyotning kitobxonlari turli jins, yosh va millat vakillari boʻlishi mumkin. Kitobxonlarning xilma-xil boʻlishi, ularning qiziqishlari talab va ehtiyojlarini, badiiy didini,

saviyasi darajasini o'rganishni talab qiladi. Kutubxona xodimi har bir kitobxonning o'qish maqsadini, oldin nima qanday asarlar o'qiganini, uni qanday qabul qilganini, qanday syujetli asarlarni yoqtirib o'qishini, qaysi muallifning ijodi yoqishini suhbat asosida bilib olishlari lozim bo'ladi.

Badiiy adabiyotda ko'zda tutilgan xalq og'zaki ijodidagi asosiy ta'lim tarbiya shaklidagi buyruq, nasihat, namuna, o'rnak o'qish madaniyati rivoj topishining muhim asos sifatida odam hayotida asosiy o'rinlardan biri hisoblanadi. Kutubxonalarda o'zga davlat, mamlakatlarning badiiy asarlari ham targ'ib qilish bilan birgalikda kitobxonlarning ma'naviy dunyo qarashini rivojlantirish, vatan qadr-qimmatini bilish anglash hissi tarbiyalanadi. Shuni aytib o'tib o'tishimiz kerakki, boshqa davlatlarda ham bizning o'zbek adabiyotimizga qiziqish tobora ortib bormoqda. Misol qilib aytadigan bo'lsak: A.Qodiriyning "O'tgan kunlar", "Temur tuziklari", Z.M.Boburning "Boburnoma" va shu kabi bir qator asarlar xorijiy tillarga tarjima qilingan.

Bugungi kunda ko'pchilik afsuski kitob o'qishni bilishmaydi va ko'p hollarda juda ko'plagan insonlar nima uchun o'qiyotganlarini tuzukroq anglab ham yetmaydilar. Aslida kitob mutolaasi bo'yicha har bir kishi o'zi uchun kerak bo'lgan kuch va ruhiy ta'sir bera oladigan kitoblarnigina topa olishi to'g'riroq emasmikan. Adabiyot bu so'z san'ati. Biroq san'at turlari juda ko'p va turli tumandir. Masalan: Raqs harakatlar, tana azolarining ifoda imkoniyatlariga suyanadi. Musiqa esa tovushlarning hamohangligiga bog'liq. Tasviriy san'at uchun bo'lsa ranglarning uyg'unligi alohida ahamiyatga ega. Adabiyot esa bu san'atlardan so'z va ruhning beqiyos imkoniyatlari bilan farqlanadi.

O'qish bu-diqqatni to'plashga majbur etuvchi mashg'ulot bo'lib bu ovunish uchungina o'qish, bu faqat o'z o'zini aldashdir. Loqayd kishilar uchun bu ummuman biror narsadan ovunishning hojati yo'q. Balki ular hamma joyda diqqat-e'toborli bo'lishlari va qayerda nima ish qilishmasin nima haqda fikr yuritishmasin o'zlarini butun borlig'i bilan voqealar girdobida his etmoqlari lozim.

So'zlarda badiiy matnning dunyoga kelishiga sababchi bo'ladi. Biroq qanday matn va so'zlar badiiy adabiyotga bog'liq bo'lavermaydi. So'z sehr mo'jiza bilan o'ziga mahliyo qiladi. Bizning O'zDXA Urganch filialimiz Axborot-resurs markazimiz fondiga jahon va o'zbek raqs san'ati, o'zbek xalqining bebaho milliy ma'rosimimiz, madaniyatimiz, tariximiz

bo'yicha bir qancha adabiyotlar mavjud. Kutubxonamizga raqs – Xalq sahna raqsini o'rganish uslubiyoti, san'at – Doira raqsi, madaniyat-Jahon va o'zbek xoreografiya san'ati tarixi kabi bir qancha adabiyotlar o'rin olgan. Filialimiz talabalari ushbu adabiyotlardan foydalangan holda o'z bilim va ko'nikmalarini oshirish barobarida ular ilmiy maqolalar yozib dunyoning ko'pgina nufuzli jurnallarida nashr qildirmoqdalar. Inson qaysi soha vakili bo'lmasin adabiyotlarni ko'proq o'qib mutolaa qilsa albatta o'z kasbining bilimdoni bo'ladi. Bo'lg'usi baletmeyster talabalarimiz nafaqat raqsning amaliy jihatlarini balki nazariy tomonlarini o'quv o'rgansalar nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Chunki ilmli, salohiyatli yoshlarimiz o'zbekiston kelajagining ishonchi va suyanchi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Usmonov Sh. “Ilm dargohiga bir nazar”.
- 2.Umarova H, Usmonov Sh “San'atga bag'ishlangan umr”.
- 3.Dehqonov R, Tursunova G, “Pedagogical approach to the formation of musical literacy of students in the system of higher education”.
- 4.Boltabayeva U “Nutq san'atining o'ziga xos xususiyatlari”.

Rajabov San'atbek Muradovich

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

Xodimlar bo'limi inspektori

Tel: +998999638507

Yo'ldosheva Nazokat Sa'dullayevna

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

Ish yurituvchi kotib

Tel: +998941193607

MILLIY QADRIYATLAR, MILLIY XALQ O'YINLARINING RAQS

SAN'ATIDAGI O'RNI

Annotasiya: Ushbu ilmiy maqolada milliy qadriyatlarimiz unutilib borayotgan milliy xalq o'yinlari ularning inson salomatligiga ijobiy ta'siri, milliy raqs san'atida folklor janrida tutgan o'rni xususida ko'pgina tarixiy-ilmiy ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Milliy qadriyatlar, xalq o'yinlari, tarbiya, sport, millat, raqs, folklor, san'at, mahalla, tibbiyot, jismoniy bardamlik, ruhiyat.

Аннотация: Данная научная статья представляет собой обширный исторический и научный материал о положительном влиянии национальных ценностей на здоровье человека, роли национальных народных танцев в фольклорном жанре и роли национальных танцев в фольклорном искусстве.

Ключевые слова: Национальные ценности, народные игры, образование, спорт, нация, танец, фольклор, искусство, махалла, медицина, физическая подготовка, духовность.

Abstract: This scientific article presents a lot of historical and scientific information about the positive impact of our national values on human health, the role of national folk dances in the folklore genre, and the role of national dances in the art of folklore.

Keywords: National values, folk games, education, sports, nation, dance, folklore, art, mahalla, medicine, physical fitness, spirituality.

O'zbek xalqi o'zining boy madaniyati va milliy qadriyatlari bilan tarix sahifalarini bitgan eldir. Bugungi kunda madaniy boyliklar, yodgorliklar, ma'naviy meros, an'ana, urf-odatlariga nisbatan ham qadriyatlar iborasi ko'p qo'llaniladi.

Qadriyatlar jamiyat rivoji va kishilar hayotining turli davrlarida turlicha ahamiyat kasb etadi, tarixiy zaruratga mos ravishda goh bu qadriyatlar ijtimoiy taraqqiyotning eng oldingi pog'onasiga chiqadi, boshqalari xiralashgandek tuyuladi. Mustaqillikgacha qadriyatlar mavzusi keng o'rganilmagan edi. Istiqlol davrida bu masalaga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Unutilib borayotgan milliy qadriyatlar, ayniqsa, milliy xalq o'yinlari haqida matbuotlarda, televideniylar chiqish qilishimiz lozim deb o'ylayman. Chunki milliy xalq o'yinlari ham bizning ota-bobolarimizdan qolgan milliy qadriyatlarimizdir [1. 383-707-708 b].

Taniqli pedagog olim A.G'aybullayev milliy o'yinlar borasida shunday deb yozgan edi: tarixdan ma'lumki, sevgida vafodorlik, oilaviy totuvlik kabi insoniy fazilatlar O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek urug'lari va elatlarining xarakterli xususiyati sifatida ro'yobga chiqqan.

Qadimgi o'yinlar fasllarga mosligi, fasllarga qarab o'tkazilishining hayotiyliги bilan alohida ajralib turadi. O'yinlarning tashkil etilishi, ularning o'tkazilishi va mazmunida yoshlarni jismoniy sifatlari, metin irodalari bilan bir qatorda, o'z kuchlariga ishonishlari,

ruhiy bardamliklarini mustahkamlash masalalari ham o'z ifodasini topgan. Pedagog A.Qabulov milliy o'yinlar tarixini quyidagicha izohlaydi.

Milliy o'yinlar, poygalar bellashuvlar turli musobaqalar, marosimlar yordamida avloddan-avlodga o'tib tarixiy merosga aylanib saqlanib kelmoqda. Tarixdan ma'lumki, xalq sayillari, bayramlari, milliy o'yinlarsiz o'tmagan, unda yoshi ulg'ayib qolganlar o'z shogirdlariga hayot estafedasini topshirganlar. Yoshlar musobaqalarning sir-asrorlarini yaxshiroq o'zlashtirish, kundalik faoliyatlariga yordam beradigan omillariga aylantirish uchun intilganlar. Sayillarda bayramlarda musoboqalarni tarafma-taraf bo'lib o'tkazish qatnashchilarning jamoa bo'lib harakat qilishlari ishtirokchilarning baquvvat, epchil va chaqqon, qiyinchilikka chidamli, tirishqoq va tadbirkor bo'lishlarini taqoza etgan [2. 96 b].

Milliy o'yinlar, kurash, ko'pkari va sportning ommaviy turlari xalqlar orasida qadimdan sahovat belgisi sifatida namoyon bo'lgan. Mashhur uloqchilar, polvonlar, xalq o'yinlari ishtiroqchilari tez-tez musoboqalar o'tkazib bellashuvlardan to'plagan mablag'ni yetim-yesirlar, ko'p bolali oilalarga hamda qariyalarga hadya etganlar, ko'priklar, masjidlar, madrasalar, kanallar, yo'l va boshqa xalq hasharlarida ishtirok etganlar va hasharchilarga ilhom bag'ishlaganlar.

O'yinlar yosh avlodni jasorat va adolat, vatanni sevish, xalqiga xizmat qilish, mehnatsevarlik, mehr-sahovat, halolik va poklik ruhida tarbiyalaydi. Xalq shuning uchun ham kurashda halol, mard polvonni, uloqda chapdast va mohir chavandozni qutlaydi. Xalq milliy o'yinlarining g'oliblarini nafaqat chiroyli harakatlari balki, ishtirokchining tantiligi mardligi, chapdastligi evaziga e'zozlaydi.

Pedagog I.I.Kabulov ta'kidicha, mumtoz o'yinlar tarixiy hujjat sanalib, ular "Quvlamachiq", "Saqqa", "Bekinmachiq", "Ko'k terak", "Yetti tosh", "Lanka", "Besh tosh", "Chavandoz", "Chillik" kabi milliy o'yinlardan tashkil topib, qadimda Vatan himoyachilari bo'lgan jangchilarni tayyorlashda, ularni doimiy jangavorliklarini ta'minlashda keng foydalanilgan. Bu holatlar xalqimizning og'zaki ijodida yaratilgan "Alpomish" dostonida mard va jasur Alpomishni sevimli yori Oyibarchinga yetishish uchun 90 qarmoq polvoni bilan kurash tushgani, "Go'ro'g'li" dostonida uning mard va jasurligi, "Intizor" dostonida Avazxon G'irotni yakka g'isht ustida o'ynatar edi deb tasvirlangan [3. 48 b].

Xalq sayillari va bayramlarida kurash musobaqalari o'tkazib turilmaganda yillar o'tgan sayin kurashimiz yo'q bo'lib ketgan bo'lar edi. Poygalar, qiz quvdi, kim uzoqqa otadi mashqlari, ot sporti (ko'pkari) ham nihoyatda qadimiy bo'lib, milliy an'alarimiz evaziga saqlanib qolgan. Psixolog M.M.Mamatov fikricha, milliy qadriyatlar, milliy o'yinlar millat ko'zgusi sanalib, ana shu o'yinlar zahirida keksalarga hurmat, yoshlarga nisbatan mehr-shafqat, bolalar kamoli va tarbiyasi ota-onalarni aziz farzandlari oldidagi burchlari, o'z navbatida farzandlarning ham mehr sadoqatlari mujassamlashadi. Shu boisdan otabobolarimiz bolalariga juda yoshliklaridan xalq qahramonlari, ularni yovuz kuchlarga qarshi kurashlarda ko'rsatgan jasoratlari, matonat, do'stlik, ahillik hamjihatlik fazilatlarini mujjamsam etgan doston va ertaklar, rivoyat va to'qimalarni so'zlab berganlar, milliy o'yinlar asosida halol, rostgo'y bo'lish, to'g'ri gapirish, haqsizlikka qarshi befarq bo'lmaslik, raqibga nisbatan hurmat fazilatlarini singdirganlar. Milliy o'yinlarda mag'lub bo'lgan raqib ustidan hech qachon masxara qilmaganlar. M.M.Mamatov fikricha Bolalar ijodiy faoliyat ko'rsatib o'yin o'ynar ekanlar, tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lib tarbiyalanadilar. Ularda bir maqsad yo'lida o'rtog'iga yordam berish, mustaqil ravishda yoki o'rtoqlari bilan birga masala yuzasidan qaror qabul qilish ijodiy tashabbuskorlik namunasi hisoblanadi [4. 54 b].

Milliy o'yinlarning har qanday turi bolalarda juda ko'plab ijobiy sifat va xususiyatlarni shakllantiradi. Milliy o'yinlar xalqning yashash ehtiyojlaridan kelib chiqqanligi sababli shu millat vakillari bo'lishi yoshlarni kelajakda aynan shu milliy ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli turmush kechirishini ta'minlashga qaratilgandir. Milliy o'yinlarni amalga oshirish uchun xalq o'yinchoqlariga keng urg'u berilgan. Oilada ota-onalar, mahallalarda hunarmandlar loy, yog'och, jun, matolar bilan bolalar uchun turli xil chiroyli bezaklar bilan bezatilgan o'yinchoqlar yasaganlar. Buning natijasida o'ziga xos bejirim, takrorlanmas o'zbek milliy o'yinchoqlari vujudga kelgan. Milliy o'yinchoqlarda, xalqning turmushi, uning qadriyatlari va hatto orzu-istaklari mohirona tasvirlangan. Qo'g'irchoqlar va ular orqali turli o'yinlarning tashkil etilishi oilada bolalarni har tamonlama aqliy-axloqiy, jismoniy va estetik shakllantirishning muhim vositasi bo'lib xizmat qilgan.

Shu o'rinda Xorazmdagi mashhur qo'g'irchoqboz Mansur Quryozov haqida ham so'zlab o'tish joiz deb o'ylaymiz. Mansur Quryozov o'zi tadbirkor sifatida Xorazm vohasiga

xos bo'lgan chiroyli qo'g'irchoqlar yasab sahnada ertaklarni ham jajji bolajonlarga taqdim qilib kelmoqdalar. Mansur Quryozov chet ellarda o'tkazilgan bir necha tanlovlarda g'oliblikni qo'lga kiritgan. Milliy xalq o'yinlari xususida biz nuroniy otaxon va onalarimiz bilan suhbatlar o'tkazdik. Xorazmlik keksa san'atkor O'zbekiston xalq artisti Shirin Ramazonova bilan suhbat jarayonida "O'zbek milliy xalq o'yinlari mening nazarimda avvalom bor hamjihatlikni, do'stlikni mustahkamlaydi. Xalq orasida qadimda navro'z sayillari davrida "Beshtosh" xalq o'yinlari o'ynalgan. Bu o'yindagi beshtosh beshta bir xil silliq tosh tanlab olinadi. Besh tosh o'ng qo'l panjasidan yoyib yerga tashlanadi. Oldin yerdan bittalab toshlar yuqoriga otilib yig'ib olinadi. Keyingi jarayon esa yana besh tosh o'ng qo'l panjasi orasidan yerga yoyilib yuboriladi va toshlar endi ikkita ikkitadan yerdan terib yuqoriga otib yig'iladi. Keyingi jarayonda yerdan uchtdan panja bilan yig'ib olinadi. Bu o'yining tibbiyot tamonlama oladigan bo'lsak bu o'yin ko'zning ko'rish qobiliyatini oshirishga imkon beradi, ishtirokchilarning diqqatini jamlaydi. "Lanki" o'yini esa epchillik, chaqqonlikni talab qiladi. Tibbiy tamonlama esa mushaklarning va qon aylanishini yaxshilashning asosiy omilidir.

"Chillak" o'yinida katta tayoqcha bilan kichik tayoqchani urib mo'ljalga otishi kerak. Bu o'yin esa ayniqsa, yigit bolalarni nishonni to'g'ri tanlashga, diqqatni bir joyga jamlashda ko'mak beradi. Bundan tashqari xalq o'yinlari yoshlarni sabrli bo'lishga undaydi desam nihoyatda to'g'ri bo'ladi [5.121-126 b]. Yuqoridagi suhbatda sizlar (Sh.Ramazonova) qo'g'irchoqlar yasash haqida so'zlab berdingiz biz yoshligimizda cho'plardan qo'g'irchoqlar yasab o'zimiz yoki dugonamiz kuylakchalar tikib kiygizib qo'yib qo'g'irchog'imizga allalar aytardik. Sal katta bo'lib qolganimizda esa ukalarimiz yig'laganlarida onalarimizdan eshitgan allalarimizni aytib uxlatar edik. Bu holat esa yoshlarimizni xotirasining rivojlanishiga asos bo'ladi. Chunki psixologlarning fikricha, xotira bolada 3 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan davrda yaxshi rivojlanar ekan. Demak, bizning milliy qadriyatlarimiz milliy xalq o'yinlari o'zligimizni saqlashda, qadriyatlarimizni avloddan avlodga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi (mualliflar).

Bugungi kunda nafaqat keksalar orasida qonning quyushuvi, turli xil jurralar (grija) kabi kasalliklar avj olib bormoqda. Buning asl sababi yoshlar o'rtasida jismoniy ishlarning kamligi, milliy xalq o'yinlarini o'ynalmayotganligi deyarli bu o'yinlarning

unutilib borilayotgani sabab desak bo‘ladi. Qadimda ota bobolarimiz valiy bo‘lganlar. Ularning aytgan so‘zlariga amal qilsak kam bo‘lmaymiz degan so‘zlari juda to‘g‘riligining isbotini yuqoridagi misollar orqali ko‘rishimiz mumkin.

Shu o‘rinda yana bitta misolni keltirib o‘tishimiz joiz deb bilaman. Qadimda kuyov bo‘lishni sinash maqsadida unga o‘tin yordirganlar. Bu orqali yigitning jismoniy baquvvatligi va mahorati sinovdan o‘tgan. Bu esa yigitga qizning ota-onalari tamonidan qo‘yilgan shart hisoblangan. Bu shartlar esa bugungi kunda yoshlarni hayotga, oilaga tayyorlash, ularning jismoniy sog‘ligini sinovdan o‘tkazish usuli bo‘lib xizmat qilgan. Azal-azaldan mehr oqibatli inoq bo‘lgan xalqimiz orasidagi bunday qadriyatlarni unutmasligimiz lozim. Chunki o‘zligini yo‘qotgan xalqdan millatdan nimani kutsa bo‘ladi? Bugungi kunda milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni xalqqa ayniqsa yosh avlod qalbiga singdirish uchun milliy bayramimiz hisoblangan “Navro‘z” sayillarida san’atkorlarimiz folklor jamoalari yuqorida qayd etib o‘tilgan o‘zbek milliy xalq o‘yinlarini raqs kompozitsiyalari orqali namoyish qilib kelmoqdalar. Zero milliy qadriyatlar, urf-odatlar, milliy xalq o‘yinlari ota-bobolarimizdan bizgacha yetib kelgan ma’naviy meros ekan, biz uni ko‘z qorachig‘iday asrab avaylashimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Маънавият асосий тушунчалари изоҳли луғати Ғ.Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи. Тошкент -2009.
2. Ғайбуллаев А.Н. Педагогика тарихи. Т.-2003. [4. 54 б.]
3. И.И.Кабулов “Турон якка кураш тарихи” Т. Шарқ. 2002.
4. М.М.Маматов “Этнопсихологиядан маърузалар матни”. Т. Университет.
5. Ёшлар тарбиясида миллий халқ ўйинлари ва маросимларининг роли. Хидоятова Гулзода Абдурафиқовна мақоласи. (интернет саҳифаси)

Таирова Юлия Рафаэльевна

*Базовый докторант Государственной
академии хореографии Узбекистана*

Email: julie3395sa@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-2902-622X>

ЭТНОСТИЛЬ В ХОРЕОГРАФИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ: СТРАТЕГИИ ФОРМИРОВАНИЯ СТИЛИСТИЧЕСКОЙ ИНДИВИДУАЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ РЕГИОНАЛЬНЫХ ТАНЦЕВАЛЬНЫХ ТРАДИЦИЙ

XOREOGRAFIK TA'LIMDA ETNIK USLUB: MINTAQAVIY RAQS AN'ANALARIGA ASOSLANGAN STILISTIK SHAXSNI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI

ETHNIC STYLE IN CHOREOGRAPHIC EDUCATION: STRATEGIES FOR FORMING STYLISTIC INDIVIDUALITY BASED ON REGIONAL DANCE TRADITIONS

Annotatsiya. Ushbu maqolada xoreografik ta'limda etnik uslubning roli kelajakdagi xoreograflarning stilistik individualligini shakllantirish omili sifatida tahlil qilinadi. O'zbekistonning Qashqadaryo viloyati raqs an'analari o'rganish empirik asos bo'lib xizmat qiladi. Mahalliy raqs shakllarini o'zlashtirishga va ularni zamonaviy ta'lim paradigmasiga integratsiyalashga qaratilgan pedagogik strategiyalar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar. Etnik uslub, xoreografik ta'lim, stilistik individuallik, Qashqadaryo raqsi, mintaqaviy raqs an'analari, pedagogik strategiyalar, madaniy o'ziga xoslik, somatik o'rganish, improvizatsiya, merosni saqlash.

Аннотация. Настоящая статья посвящена анализу роли этнического стиля в системе хореографического образования как фактора формирования стилистической индивидуальности будущих хореографов. В качестве эмпирической базы используется исследование танцевальных традиций Кашкадарьинского региона Узбекистана. Рассматриваются педагогические стратегии, направленные на освоение локальных танцевальных форм и их интеграцию в современную образовательную парадигму.

Ключевые слова. Этностиль, хореографическое образование, стилистическая индивидуальность, Кашкадарьинский танец, региональные танцевальные традиции, педагогические стратегии, культурная идентичность, соматическое обучение, импровизация, сохранение наследия.

Abstract. This article analyzes the role of ethnic style in choreographic education as a factor in shaping the stylistic individuality of future choreographers. A study of the dance traditions of the Kashkadarya region of Uzbekistan serves as an empirical basis. Pedagogical strategies aimed at mastering local dance forms and integrating them into the modern educational paradigm are considered.

Keywords. *Ethnic style, choreographic education, stylistic individuality, Kashkadarya dance, regional dance traditions, pedagogical strategies, cultural identity, somatic learning, improvisation, heritage preservation.*

В эпоху глобальных процессов и внедрения международных образовательных норм, особую актуальность приобретает разработка таких педагогических подходов, которые бы способствовали становлению уникального стиля хореографа, не забывая при этом о самобытности местных танцевальных обычаев. Этнокультурный стиль, рассматриваемый как образовательная и культурная концепция, дает возможность гармонично соединить преемственность и новаторство, что несомненно, отвечает государственной потребности в подготовке высококвалифицированных кадров. Существующая система подготовки хореографов действительно сталкивается с рядом вызовов, которые требуют осмысления и системного решения. Единообразие методик, при всей своей внешней эффективности, может привести к унификации творческого мышления, нивелируя индивидуальность будущих мастеров. Этнические народные танцы функционируют не просто как дисциплина движения, но и как динамичное средство, посредством которого студенты могут взаимодействовать с национальной идентичностью, социальной сплоченностью и межкультурной компетентностью [1, С.798]. Однако, гораздо реже уделяется внимание тому, как личностные качества хореографа соотносятся с культурным наследием в танце, с региональной историей и спецификой этнокультурных традиций. А ведь именно этот аспект, хоть и неочевидный, но глубоко заложенный в мышечной памяти и эстетике движений, определяет то, что мы называем стилистической самобытностью танца. Танцевальное образование обладает глубокой значимостью, соединяя традиционную культуру, устойчивое развитие и личностное развитие обучающихся [2, С. 5].

В последние годы в подготовке профессиональных хореографов намечается заметная тенденция к стандартизации выразительных средств. Академические курсы, мировые медиаресурсы, престижные конкурсы и единые стандарты обучения создают некий универсальный танцевальный язык, который постепенно вытесняет индивидуальные стилистические черты. Это приводит к тому, что начинающие хореографы, овладевая множеством техник, зачастую утрачивают прочную связь с

культурными истоками танцевального искусства. Включение этнических танцевальных традиций в учебный процесс доказано способствует более глубокому пониманию культурных различий и развитию творческой индивидуальности студентов. Важным направлением становится и применение технологий для сохранения и передачи традиционных форм движения. Цифровые инструменты, такие как виртуальная реальность, системы захвата движения и онлайн-платформы, предоставляют новые возможности для документирования сложных пластических структур и их использования в образовательных целях [3. 51]. Исследователи подчеркивают, что сочетание традиционного танцевального наследия и современных педагогических методов, подкрепленное цифровыми технологиями, создает устойчивые модели культурной передачи и способствует сохранению нематериального культурного наследия в условиях глобальных изменений.

Унификация хореографии – сложная проблема, корни которой лежат как в глобализации, так и в специфике педагогических подходов. Этно-стилевая методика предлагает сделать упор на региональную традицию, рассматривая ее не просто как дополнение к программе, а как фундамент для развития художественного видения.

Кашкадарьинская танцевальная традиция представляет собой исключительное явление в культурном пространстве Южного Узбекистана. Она уникальна тем, что органично сочетает в себе элементы степной и оазисной культур, народные ритмы и сюжеты из повседневной жизни. В отличие от более известных региональных танцев Узбекистана, кашкадарьинские танцы глубоко укоренены в быту, отражая как трудовые процессы, так и социальные ритуалы. Например, характерные для мужских танцев Кашкадарьи подпрыгивания на одной ноге несут глубокий смысл: это не просто акробатика, а имитация стремительности и ловкости степного охотника, передача ощущения пространства и ритма степной среды [4, С. 30].

Этнокультурная педагогика также предполагает развитие способности к импровизации. «Достаточно новое понятие – «этнокультурная педагогика» в последнее время используется в лексике ученых не только, как распространенный научный термин, но и как процесс раскрытия содержания основ педагогической практики» [5, С.95]. Современное академическое обучение зачастую ограничивает

свободу импровизации, фокусируясь на доскональном воспроизведении. Однако именно импровизация может стать инструментом синтеза традиции и авторского прочтения. Осваивая базовые принципы движения определенной культуры, а затем экспериментируя с ними в процессе импровизации, студент постепенно формирует собственный выразительный язык. Этот язык может включать элементы различных техник, но при этом сохранять связь с культурным кодом унаследованной традиции [6, С.239].

В хореографическом обучении этностиль играет центральную роль, закладывая основы уникального стилистического почерка будущего хореографа. Региональные танцевальные традиции содержат в себе этнокультурные принципы, которые определяют как структуру, так и художественную организацию танцевальных движений. Эти принципы формируют характер пластики, систему пространственных ориентиров, особенности перемещений, пропорции телесной выразительности, а также влияют на динамику, ритм и эмоциональную окраску исполнения. Освоение этих компонентов позволяет студентам не только овладеть техникой народного танца, но и глубже проникнуть в культурный код региона, который лежит в основе каждого движения.

Список использованной литературы:

1. Lyu Y., Wong R.M.M. Pedagogical Innovations in Teaching Ethnic Folk Dance in Chinese Higher Education // Journal of Neonatal Surgery. 2025. Vol. 14, № 32s. - С. 797 -800.
2. Huang R., Zhang L., Li Y. Transforming Dance Education in China: Enhancing Sustainable Development and Cultural Preservation // Research in Dance Education. 2025. – С. 1 - 29.
3. Zhu A., Gee L.P. Technological Innovation and Classical Dance Education: Application and Impact of Digital Tools in Teaching // Educational Innovation Research. 2024. - С. 50 - 55.
4. Таирова Ю. Р. Хореографическое наследие Кашкадарьинского региона Узбекистана: традиции, интерпретация и вызовы сохранения. Актуальные вопросы культуры, искусства, образования. № 4 (46) 2025. – С. 27–35.

5. Чень Цзе. Этнокультурные регулятивы как основы хореографического искусства // Культура и цивилизация. 2024. Том 14, № 2А. - С. 236 - 247.

6. Стадник Ю.А. Этнокультурный компонент хореографического образования в СПбГУП // Вестник Академии русского балета им. А.Я. Вагановой. 2016. № 1 (42). - С. 97 - 104.

Shermatova Xilola Bahtiyorjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

“Musiq ta’limi va san’at” yo’nalishi 1-bosqich magistranti

e-mail: hilolashermatova066@gmail.com

TEL: +998 (94) 388-17-77

BALET SAN’ATINING PAYDO BO’LISHI VA SHAKLLANISHI

Annotatsiya: Balet – bu musiqa, xoreografiya va sahna san’atining uyg’unlashgan ko‘rinishi bo‘lib, u raqs orqali badiiy obraz va g‘oyalarni ifodalaydi. Ushbu san’at turi XV-XVI asrlarda paydo bo‘lib, keyinchalik klassik, romantik va zamonaviy yo‘nalishlarga ajralgan. Balet bugungi kunda ham an’anaviy va zamonaviy shakllarda rivojlanib, jahon va shuningdek, O‘zbekiston musiqa madaniyatida muhim o‘rin egallab kelmoqda.

Kalit so‘zlar: Balet, xoreografiya, libretto, klassik, romantizm, romantik, modern, opera, kompozitor, syujet.

Аннотация: Балет – это сочетание музыка, хореографии и исполнительского искусства. Балет – это форма танца, выражающая художественные образы и идеи посредством танца. Этот вид искусства возник в XV-XVI веках и впоследствии разделился на классическое, романтическое и современное направления. Сегодня балет продолжает развиваться в традиционных и современных формах, занимая важное место в музыкальной культуре мира и Узбекистана.

Ключевые слова: балет, хореография, либретто, классика, романтизм, романтической, современный, опера, композитор, сюжет.

Abstract: Ballet is a combination of music, choreography and performing arts. It is a form of dance that expresses artistic images and ideas through dance. This art form emerged in the XV-XVI centuries and later divided into classical, romantic and modern directions. Ballet continues to develop in traditional and modern forms today, occupying an important place in the musical culture of the world and Uzbekistan.

Keywords: Ballet, choreography, libretto, classical, romanticism, romantic, modern, opera, composer, plot.

KIRISH. Balet - so‘zining etimologiyasi uning tarixini aks ettiradi. Balet so‘zi fransuz tilidan olingan bo‘lib, (Ballet- raqsga tushaman) degan ma‘noni anglatadi. Balet raqsning rasmiylashtirilgan janri bo‘lib, XV-XVI asrlarda Italiyada Uyg‘onish davrida musiqa, raqs va teatrnı birlashtirgan saroy raqsi sifatida paydo bo‘lgan. Balet ham huddi operadek qorishma (sintetik) janrdir. Unda ham dramaturgiya, musiqa, tasviriy san‘at va raqs asosiy o‘rinni egallaydi.

Qadimgi an‘ana bo‘yicha operaning o‘rta pardalarida ko‘pincha balet, ya‘ni bir qator xarakterli raqslar yoki bal raqlari kiritilar edi. Ular cholg‘u musiqasiga taalluqli bo‘lib, o‘sha musiqaga xos bo‘lgan umumiy qoidalar asosida tuziladi. Balet musiqasiga vocal partiyalarnı kiritish xollari ham uchrab turadi. (Borodinning “Knyaz Igor” operasidan ikkinchi parda).

Asosiy qism. Balet rivojlanishining asosiy bosqichlari:

Uyg‘onish davri (XV-XVI asrlar Italiya, Fransiya) balet shimoliy Italiyadan Fransiyağa Ketrin de Medichining yordami bilan saroy balet an‘anasi tarqaldi. Balet davri butun dunyoda 1573-yil namoyish etilgan “saroy baleti” sahnalashtirilgan (Polsha baleti) nomlanuvchi asar birinchi balet deb tan olingan. Venetsiya va Fransiyağa raqsga bag‘ishlangan maxsus kitoblar chop etila boshladi. XVI asr oxir-XVII asr boshlarida italyan kompozitorlari Fransiyağa taklif qilindilar. Fransiyağa shakllangan yangi balet butun Yevropaga tarqaldi. Milanda “La Skala” teatri qoshida raqs maktabi ochildi.

Klassik baletning rivojlanishi (XVII-XVIII asrlar Fransiya): Lyudovik XIV 1661-yil “Qirollik raqs akademiyasi”ga asos solgan. U yerda klassik xoreograf asoslari J,Luver tomonidan pantomima va hikoyalilik ishlab chiqilgan. K.V.Glyuk (“Don Juan yoki Tosh mehmon”, “Semiramida”, “Ifigeniya”), L.van Beetxoven (“Prometey yaratgan mavjudotlar”)

Romantik balet (XIX asrning birinchi yarmi) bu davr balet janri romantizm davri estetikasi asosida rivojlanadi. Romantik kompozitorlardan A.Adan (“Jizel”, “Korsar”, “Faust”), J.Shneystxoffer (“Silfida”), S.Puni (“Esmeralda”, “Faravonning qizi”) kabi asarlarnı ko‘rishimiz mumkin. Romantizm davrining daholari: Shuman, Shubert, Mendelson, Shopenlar balet janri bo‘yicha ulkan ijodiy ishlarnı amalga oshirdi. Bu davrda

obrozlarni yanada yorqinroq ko'rsatish uchun balerin raqqoslar uchun maxsus Puent (oyoq uchida turish uchun), Tyutyu (balet yubkasi) paydo bo'ldi.

Rus klassik baleti (XIX asr oxiri) Rossiyada baletning gullab yashnaga davri. Bu davrda rus balet janriga jon bag'ishlay olgan raqs ijodkori Marius Ivanovich Petipe ayta olishimiz mumkin. U ko'p yillik ijodiy faoliyati davomida rus kompozitorlari va rassomlar bilan hakorlikda baletlar sahnalashtirdi. Peterburg va Moskva balet maktablarida ta'lim olgan buyuk raqqos va raqqosalar jahon balet sahnasi egalladilar. Bular V.F.Nijinskiy, Fokinlar oilasi, A.M.Pavlova, T.P.Karsavinalar edi. M.I.Petipe va P.I.Chaykovskiy bilan hamkorlikdagi ("Shelkunchik", "Uyqudagi go'zal", "Oqqush ko'li") baletlari rus baleti tarixida katta muvaffaqiyat qozondi. Shunindek, D.D.Shostakovichning ("Oltin asr", "Bolt", "Svetliy ruchey"), S.S.Prokofyev balet janrida eng sermaxsul ijod qilgan kompozitorlardan biridir. U butun hayoti davomida rus musiqasi va balet janriga qiziquvchi butun dunyo tomoshabinlariga 10dan ortiq baletlarini taqdim etdi. Bunga quyidagi "Romeo va Djuliyetta", "Toshgul" kabi baletlarni misol qilishimiz mumkin.

Modern va XX asr: Bu davr balet janrida qat'iy qoidalar asosiga qurilgan klassik baletdan qarama – qarshi bo'lib, unda raqqosning harakatlari erkin, yuz ifodasining muhimligi va har bir raqqosning ijro jarayonida obrozni erkin tasvirlab bera olishi bilan farqlanadi.

1. Erkin shakllari: qo'l va oyoqlar uchun qat'iy turish qoidalari yo'q. harakat asimmetrik "siniq" bo'lishi mumkin.
2. Tortish kuchi bilan ishlash: klassik balet shaklida harakat yuqoriga intilgan. Modernda esa, yiqilish, tana og'irligi bilan pastga tortilishi va jufliklararo muloqot.
3. His-hayajonlilik: raqs ichki his-tuyg'ularni ifoda etishi kerak. Unda psixologik ba'zan esa falsafiy qarashlar ustun turadi.
4. Yangi plastika: ko'proq nafas olish, tarang hissiyot va uning aksi xotirjamlashgan inson qiyofalari ko'rsatilgan

Modern balet janrida rus va yevropa kompozitorlari ijodida ko'plab baletlar yaratildi. I.Stravinskiy ("Olovli qush", "Petrushka", "Muqaddas bahor"), M.Ravel ("Dafnis va Xloya", "Bolero").

Zamonaviylik: bu davrga kelib klassik balet an'analari bilan zamonaviy uslublar birlashadi. U klassik balet texnikasidan va ko'p hollarda klassik puanta texnikasidan foydalanadi, ammo u yuqori tana harakatlarining kengroq doirasini ta'minlaydi va an'anaviy klassik baletga xos bo'lgan qat'iy belgilangan chiziqlar va tana shakllari bilan cheklanmaydi. Jorj Balanchin zamonaviy baletning otasi deb ataladi. U XX asr boshlarida ishlab chiqqan xoreografik uslub neoklassik balet deb ataladi va an'anaviy klassik balet va zamonaviy balet o'rtasidagi tish davri shaklini ifodalaydi.

Baletda musiqa yetakchi unsur hisoblanadi. Balet raqsi musiqasiz mavjud bo'la olmaydi. Qahramonning xarakteri musiqa orqali beriladi. So'z yo'qligi sababli, musiqa asosiy "hikoya aytuvchi" bo'lib, tomoshabin asar mohiyatini musiqa orqali tushunadi. Balet musiqasi simfonik orkestr ijro etadi. Musiqasi tez tempda – jonli raqs, sekin tempda – lirik sahna raqslari bo'ladi.

Adabiy asosi-libretto (kitobcha) – bo'lib, opera va baletda asar hikoyasini aks ettiradi. Operada libretto so'z kuchidan foydalana ololganligi sababli, tomoshabinga ta'siri kuchli, biroq balet janri so'z kuchidan foydalana olmaydi Shu sababli. Balet ijrochisidan tana harakati, yuz ifodalari va mimikasi orqali tomoshabinga asar mazmuni yetkazilib beriladi.

❖ Adabiy asarlarga murojaat: bunda kompozitor yaratayotgan asariga o'tmishdagi yoki o'z davrida mashhur shoirlarga murojaat qiladi. S.S.Prokofyevning (V.Shekspir "Romeo va Djuliyetta") baleti

❖ Maxsus balet uchun yozilgan libretto: bunda kompozitor baletmeyster va shoir bilan hamkorlikda yaratilayotgan asar uchun maxsus yoziladi. S.S.Prokofyevning ("Toshgul") yoki A.Xachaturyan ("Spartak", "Gayane")

❖ Librettosiz balet: kompozitor baletning bu turida xech qanday syujetga asoslanmaydi. Asar musiqali raqslarga asoslanadi va u yerda mavzuiylik ustuvor turadi. F.Shopenning ("Shopeniana"), I.Stravinskiyning ("Apollon va Musaget", "Agon")

Balet ijrochilarning nomlari quyidagicha nomlanadi.

Ayol balet ijrochisi – ballerina

Erkak balet ijrochisi – balet artisti

❑ Solist – bosh qahramon. Bu balet spektaklida yakkaxon chiqish qiladigan yoki muhim rol ijro etadigan raqqos yoki raqqosa.

☐ Duet raqs – ikki qahramonning konflikti

☐ Juftlik raqs (pas de deux) – fransuzcha (ikki kishilik raqs) deb ataladi. BU erkak va ayol raqqoslarning birgalikdagi sahna chiqishi bo‘lib, baletning eng muhim va murakkab qismlaridan biridir.

☐ Xarakterli raqs – tabiat va muhitni ko‘rsatish

Balet asarini yaratish uchun faqatgina kompozitorni mehnati emas, balki baletmeyster bilan hamkorlikda ish olib borishi kerak. Baletmeyster so‘zi balet (ballet – fransuz tilidan olingan bo‘lib, “raqsga tushaman”), meyster (Meister – nemis tilidan olingan bo‘lib, “usta”, “boshqaruvchi”) ya’ni umumiy xulosa qilganda “raqs ustasi” ma’nosi kelib chiqadi. Baletmeyster vazifasi balet asarini sahnalashtiradi, raqqos va raqqosalarga o‘rgatadi va ijroni nazorat qiladi. Ya’ni u rejissor, pedagog va xareograf vazifalarini bajaradi. Ilk baletmeysterlar J.B.Lyulli (saroy baletini rivojlantirgan), P.Bauchamp (klassik baletning 5ta pozitsiyasini yaratgan), J.G.Noverre (balet-drama asoschisi) M.Petipe (rus va yevropa komozitorlari bilan hamkorlikda eng mashxur baletlarni sahnalashtirgan) va xokazo. O‘zbek balet ijodida quyidagi baletlarga “Gulandom” baletiga baletmeyster – Mixail Moiseyev, “Tanovar” baletiga baletmeyster – Mukarrama Turg‘unboyeva.

O‘zbekiston kompozitorlarining balet janriga qiziqishi aynan urushdan keyingi yillarda ancha jonlandi. Xilma-xil mavzu va syujetlarda balet uchun an’anaviy mavzu bo‘lgan muhabbat mavzusiga oid (M.Leviyevning “Suhayl va Mehri”, LAkbarovning “Layli va Majnun”, M.Ashrafiyning “Sevgi tumori”, G.Mushelning “Bibixonim” baletlari), qahramonlik va vatanparvarlik (M.Ashrafiyning “Sevgi va qilich” baleti), ommabop mavzuda (A.Kozlovskiyning “Tanovar” baleti) asarlari yaratildi.

“Katta” syujetli balet janriga 60-yillar oxirida M.Ashrafiy murojaat qildi. Uning “Sevgi tumori” baleti hind dramaturgi B.Gargining “Soxanni va Maxival” poemasi asosida yozilgan. Bu romantik rivoyat buxorolik yigit Mirzoning Hindistonga qilgan safari va uning hind qizi Soxanniga bo‘lgan sevgisi, sevishganlar yo‘lidagi to‘siqlar va ularning fojiali halokati haqida hikoya qiladi.

60-70-yillar baletlarida, shubhasiz, 50-yillar oxirida boshlangan sovet xoreografik san’atining umumiy yuksalishi bilan bog‘liq bo‘lgan yirik, dramatic to‘liq spektakllar yaratishga, keskin, ko‘pincha fojeali syujetlar ifodalashga intilish seziladi. Urushdan keying

davr balet san'atida G.Mushelning "Raqqosa" baleti katta ahamiyatga molikdir. Uning musiqali-xoreografik kompozitsiyasi o'zining umumiy xususiyatlarida klassik balet spektakli tuzilishiga tayanadi. Bunda raqs va pantomime epizodlarining almashishi, yaxlit kompozitsiyaning asosi sifatida klassik syuita va xalq raqs syuitalari mavjudligida ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, o'zbek ayollar ijro etadigan qadimiy o'zbek qo'shig'I "Tanovar" romantik janr an'alarida yozilgan uch pardali baleti A.Kozlovskiyning ijodida alohida o'rin egallaydi. Bu balet muallifning musiqiy g'oyasi bosh qahramon "Nurxon" fojeali halok bo'lishi edi. Milliy o'zbek ohang va klassik xoreografiyaning uyg'un qo'shilishi, "Tanovar" baletiga o'zgacha ruh bag'ishlagan.

Xulosa. O'zbek baleti bosgan tarixiy yo'lga nazar tashlar ekanmiz, bu janr rivojlanishi yuksalish yo'lidan borayotganligini ta'kidlashga haqlimiz. Bu borada o'zbek kompozitorlari ijod etgan asarlari bunga misol bo'la oladi. Agar dastlabki partituralar o'zida folklor matrealini syuita prinsipida mujassamlashtirilgan bo'lsa, oxirgi o'n yillikka mansub asarlarda folklor manbalarini erkinroq talqin etishga va voqeani musiqali sahna ifodasida zamonaviy usullarga asoslanib, spektakl musiqa dramaturgiyasining yaxlitligiga erishildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ю.Тюлин, Т.Бершадская "Музыкальная форма" Изд. "Музыка" Москва 1965г. Стр.37.
2. Агриппина Ваганова "Щедровы классического танца" Санкт-Петербург 1934. Стр.98-145
3. И.В.Способин «Анализ музыкальных произведений» Изд. «Музыка» Москва 1968 г. Стр. 286
4. Жан-Жорж Новер "Письма о танце и балетах" (1760) Стр. 193-204
5. Л.Михеева "111 балетов и забытых опер" Санкт-Петербург 2004. Стр. 433-487
6. В.И.Протопопова "Вопросы музыкальной формы" Выпуск 2. Изд. "Музыка" Москва 1972 г. Стр.354
7. М.Фокин "Против течения" Москва 1962. Стр.102-124
8. Пенчо Стоянов «Взаимодействие музыкальных форм» Изд. «Музыка» Москва 1985 г. Стр.221

9. А.Фитрат “Ўзбек классик мусикаси ва унинг тарихи” Тошкент. 1993 Стр.88-98

10. А.Ваганова “Основы классического танца” Т., 1934 выпуск 1.

Boboxonova Oyniso Oltiboy qizi

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

Urganch filiali «Xoreografiya jamoalar rahbari»

ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

SURXONDARYO RAQSLARIDA MAROSIM VA MEHNAT MOTIVLARINING BADIY IFODAVIY TALQINI

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot ishida Surxondaryo vohasiga xos folklor raqslarining shakllanishi, rivojlanish jarayoni hamda ularning mehnat va marosim an'analari bilan uzviy bog'liqligi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida hudud raqslarining harakat plastikasida aks etgan mehnat motivlari, ularning semantik mazmuni va badiiy ifoda vositalari ochib berilgan. Shuningdek, folklor raqslarining zamonaviy sahna xoreografiyasiga moslashtirilish jarayoni, ansambllar repertuaridagi talqinlari hamda ularning badiiy-estetik ahamiyati yoritilgan. Ish natijasida Surxondaryo raqs san'atining milliy madaniy meros sifatidagi o'rni va zamonaviy xoreografiyani boyitishdagi ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Surxondaryo, folklor raqsi, raqs san'ati, mehnat motivlari, marosim an'analari, xoreografiya, sahnaviy talqin, milliy madaniyat, raqs plastika, folklor meros.

Аннотация: В данной работе рассматриваются особенности формирования и развития фольклорных танцев Сурхандарьинского региона, а также их тесная связь с трудовой деятельностью и обрядовыми традициями. В ходе исследования анализируются трудовые мотивы, отражённые в пластике движений танцев, раскрываются их семантическое содержание и художественно-выразительные средства. Особое внимание уделяется процессу адаптации фольклорных танцев к современной сценической хореографии, их интерпретации в репертуаре ансамблей и художественно-эстетическому значению. В результате обосновывается роль танцевального искусства Сурхандарьи как важной части национального культурного наследия и источника обогащения современной хореографии.

Ключевые слова: Сурхандарья, фольклорный танец, танцевальное искусство, трудовые мотивы, обрядовые традиции, хореография, сценическая интерпретация, национальная культура, пластика танца, фольклорное наследие.

Annotation: This study examines the formation and development of folk dances specific to the Surkhandarya region, as well as their close connection with labor processes and ritual traditions. The

research analyzes labor motifs reflected in the movement plasticity of regional dances, revealing their semantic meanings and artistic expressive means. It also highlights the adaptation of folk dances to modern stage choreography, their interpretations in ensemble repertoires, and their aesthetic significance. The findings substantiate the role of Surkhandarya dance art as an important part of national cultural heritage and its contribution to the enrichment of contemporary choreography.

Keywords: *Surkhandarya, folk dance, dance art, labor motifs, ritual traditions, choreography, stage interpretation, national culture, dance plasticity, folklore heritage.*

Kirish. Milliy raqs san'ati xalqning turmush tarzi, mehnat faoliyati, marosim an'analari, ijtimoiy munosabatlari hamda dunyoqarashini harakat va ritmik ifoda orqali aks ettiradi. Shu boisdan ham raqs folklorini o'rganish nafaqat san'atshunoslik, balki etnografiya, folklorshunoslik va madaniyatshunoslik fanlari uchun ham muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, hududiy raqs maktablarini o'rganish orqali xalqning tarixiy taraqqiyoti, madaniy aloqalari va ijtimoiy hayoti haqida qimmatli ilmiy xulosalar chiqarish mumkin. Surxondaryo vohasi o'zining qadimiy tarixiy-madaniy an'analari bilan ajralib turuvchi hududlardan biri hisoblanadi. Ushbu hudud raqs san'ati chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik kabi mehnat jarayonlari hamda turli marosimlar bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan. Surxondaryo raqslarida harakatlar tizimi, ritmik qurilish va obrazlar xalq turmush tarzi bilan uzviy uyg'unlikda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, mavsumiy marosimlar, oilaviy urf-odatlar va mehnat jarayonlariga bag'ishlangan raqslar hudud folklorining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

So'nggi yillarda xalq raqslarini asrab-avaylash, ularni ilmiy asosda o'rganish va sahnaviy talqinda rivojlantirish masalasi xalqaro miqyosda ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida milliy folklor san'atini targ'ib qilish maqsadida turli xalqaro folklor festivallari muntazam tashkil etilmoqda. O'zbekistonda ham bunday festivallar milliy madaniy merosni asrash va targ'ib qilishda muhim madaniy maydon sifatida shakllanmoqda. Xususan, Surxondaryo viloyatida o'tkazib kelinayotgan "Boysun bahori" xalqaro folklor festivali hudud folklorining boy an'analari, jumladan, raqs san'ati namunalarini namoyish etish, ularni ilmiy o'rganish va yosh avlodga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etmoqda [1]. Mazkur festival orqali Surxondaryo vohasining

marosim, urf-odat va mehnat an'analari bilan bog'liq raqs namunalarining badiiy qiymati keng jamoatchilik e'tiboriga havola etilmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mamlakatimiz hududida ibtidoiy jamiyat hayotini yoritib beruvchi noyob manbalar qatorida qoyatosh suratlari alohida o'rin egallaydi. Bunday tasvirlar respublikaning turli hududlarida uchrashi bilan birga, ular qadimgi ajdodlarimizning turmush tarzi, e'tiqodlari va jamoaviy hayotini anglash imkonini beradi. Surxondaryo viloyatining Sherobod tumani hududida joylashgan Zarautsoy dasaridan topilgan qoyatosh suratlari ana shunday muhim manbalardan biridir. Ushbu tasvirlarda ibtidoiy tuzum davriga mansub odamlarning ovga chiqishdan oldin o'tkazgan muqaddas marosimi aks etgan. Qoyatosh rasmlarida odamlarning davra bo'lib, ovlanishi rejalashtirilayotgan hayvon atrofida jamlanib, ma'lum marosimiy harakatlarni bajarayotgani tasvirlangan. Bu holat ov jarayoni qadimgi jamiyatda shunchaki tirikchilik manbai bo'lmay, balki muayyan e'tiqod va marosimlar bilan bog'liq muhim ijtimoiy hodisa bo'lganini ko'rsatadi. Zarautsoy rasmlarini tadqiq qilgan olimlar ushbu tasvirlar zahirida ibtidoiy jamoa hayotining muhim jihatlari mujassam ekanini ta'kidlaydilar. Jumladan, A.A. Formozov va A.P. Okladnikov kabi mutaxassislar qoyatosh suratlarida ovning muvaffaqiyatli kechishiga ishonch uyg'otish, hayvonni osonlik bilan qo'lga kiritish istagi hamda sehr-jodu bilan bog'liq diniy tasavvurlar ifodalanganini qayd etadilar. Ularning fikricha, bu rasmlar ibtidoiy qabilalarning ijtimoiy hayotidan olingan real voqealarni aks ettiribgina qolmay, balki ularning tabiat kuchlari bilan munosabati, e'tiqodiy qarashlari va jamoaviy marosimlarini ham ochib beradi. Shu jihatdan Zarautsoy qoyatosh suratlari qadimgi ajdodlarimizning marosim amaliyoti va jamoaviy harakatlarining dastlabki shakllarini o'rganishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi [2. B-34.].

Raqs unsurlarining shakllanishida og'zaki ijod, xususan, marosim qo'shiqlari muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Manbalarda "Avesto" marosimlari va boshqa dinlar marosimlari ham kuy, qo'shiq va pantomimik raqs harakatlari bilan olib borilgani ta'kidlanadi. Qo'shiq matni ko'pincha bajarilayotgan harakatlarning ma'nosini belgilab bergan. Ayrim harakatlar bevosita qo'shiq matnidagi so'zlar bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Shu sababli raqs va qo'shiq o'zaro ajralmas birlik sifatida shakllangan.

Muhokama. Surxon raqs maktabiga xos harakat plastikasida mehnat jarayonlarining asosiy belgilaridan biri sifatida tananing yer bilan bog‘liqligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Og‘irlik markazining pastda saqlanishi, tizzalarning faol ishlashi, gavdaning oldinga intilishi chorvachilik va dehqonchilik bilan bog‘liq jismoniy mehnat ritmini eslatadi. Bu holat raqsga vazminlik, ichki kuch va bardoshlilik ruhini bag‘ishlaydi. E. Saitova va Sh. Qurbanova [3] o‘z risolasida Surxon raqslarida qo‘l harakatlari alohida semantik yuklamaga ega ekanini ta’kidlaydi. Qo‘llarning pastga, oldinga yoki yon tomonga yo‘nalishi yerga ishlov berish, hosil yig‘ish, urug‘ sochish kabi mehnat jarayonlarini ramziy tarzda ifodalaydi. Ushbu harakatlar sahnada tomoshabinga tanish hayotiy jarayonlarni eslatib, raqsning obrazli ta’sir kuchini oshiradi. Surxondaryo raqslarida mehnat motivlarining ritmik tuzilishi ham alohida e’tiborga loyiqdir. Harakatlarning takroriyligi, ma’lum maromda davom etishi mehnat jarayonining uzluksizligi va mashaqqatini ifodalaydi. Aynan shu ritmik barqarorlik raqs dramaturgiyasining ichki asosini tashkil etib, sahnaviy kompozitsiyaning mantiqiy rivojini ta’minlaydi.

Sh.Qurbanova va X.Xursandov o‘z tadqiqotlarida Surxon raqslariga xos tabiiylik masalasiga alohida urg‘u beradilar. Ularning fikricha, mehnat motivlari sun’iy dramatizatsiya qilinmaydi, balki hayotdagi real harakatlar badiiy qayta ishlangan holda ifodalanadi. Bu xususiyat raqsning sahnadagi ishonchliligini oshiradi. Ayollar raqslarida mehnat motivlari ko‘pincha nafislik va ichki sokinlik bilan uyg‘unlashadi. Uy-ro‘zg‘or ishlari, to‘qimachilik yoki suv tashish jarayonlari mayin, ammo mazmunli harakatlar orqali ifodalanadi. Bu raqslarda mehnat ayol tabiatiga xos muloyimlik va sabr bilan uyg‘un holda talqin etiladi. Erkaklar raqslarida esa mehnat motivlari kuch, chaqqonlik va jismoniy bardoshlilik orqali ochiladi. Chorvachilik, og‘ir jismoniy mehnat bilan bog‘liq harakatlar keskin va aniq plastika yordamida sahnaga ko‘chiriladi. Bu raqslarda mehnat jasorat va irodani ifodalovchi badiiy vositaga aylanadi. Mehnat motivlari obraz yaratishning muhim vositasi hisoblanadi. Raqs ijrochisi faqatgina harakatni emas, balki mehnat jarayonidagi ruhiy holatni ham ifodalashi lozim. Shu jihatdan Surxon raqslari ijrochidan nafaqat texnik mahorat, balki aktyorlik qobiliyatini ham talab etadi.

Natijalar. Mamlakatimizda o‘tkazib kelinayotgan “Navro‘z” umumxalq bayrami doirasidagi ommaviy madaniy dasturlar Surxondaryo folklor raqslarining maydon raqsi

shakliga moslashtirilish jarayonini yaqqol namoyon etadi. Xususan, “Boysun” folklor jamoasi chiqishlarida ijro etilgan “Urchiq”, “So‘zana”, “Kadi” kabi an’anaviy buyumlar bilan boyitilgan raqslar Surxon raqslarining sahnaviy talqin bilan bir qatorda keng maydon, ochiq makon va ommaviy tomoshabinga mo‘ljallangan shaklga ko‘chirilganini ko‘rsatadi. Ushbu raqslarda xalqning kundalik turmushi va mehnat faoliyati bilan bog‘liq buyumlar faqat dekorativ unsur sifatida emas, balki raqs harakatining mazmuniy asosini belgilovchi ramziy vosita sifatida qo‘llaniladi. Natijada folklor raqsi o‘zining ichki mantiqi va an’anaviy ifoda vositalarini saqlagan holda, zamonaviy bayram tomoshalarining talablariga mos ravishda kengaytirilgan badiiy shaklga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, “Navro‘z”, “Navbahor” kabi ashula va raqs ansambllari hamda “Tumor” raqs ansambli repertuarida Surxondaryo vohasiga xos “Uloq” chopish an‘analari asosida yaratilgan professional sahna raqslarini kuzatish mumkin. Ushbu raqslarda harakatlarning tezkorligi, keskin burilishlar, jamoaviy kompozitsiyalar va ritmik uyg‘unlik orqali ruh va jismoniy faollik badiiy ifodalanadi. Bunday sahna asarlari Surxondaryo folkloridagi mehnat va marosim motivlarining professional xoreografiya orqali umumlashtirilgan, badiiy jihatdan mukammal talqinini yaratishga xizmat qiladi. Natijada folklor raqsi an’anaviy ijro doirasidan chiqib, zamonaviy sahna va maydon san’ati kontekstida yangi badiiy mazmun kasb etadi. “Uloq” chopish, aslida, tarixiy manbalarda “Ko‘pkari” nomi bilan qayd etilgan bo‘lib, u Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy ot sporti va marosimiy o‘yinlaridan biri hisoblanadi. Ushbu o‘yin qadimdan Xorazm, turkman va qozoq xalqlari orasida “Ko‘pkari”, “Ko‘k bo‘ri”, “Go‘k bo‘ri” nomlari bilan mashhur (Sh.Botirov tadqiqotlaridan) va chorvachilik madaniyati, harbiy mashg‘ulotlar hamda jamoaviy musobaqa an‘analari bilan chambarchas bog‘liq holda shakllangan. O‘yinning mohiyati bir guruh chavandozlarning so‘yilib, maydon o‘rtasiga tashlangan uloqni egallash va belgilangan joyga olib borish uchun o‘zaro kurash olib borishiga asoslanadi. Bu jarayonda chavandozlardan nafaqat jismoniy kuch va chaqqonlik, balki jasorat, epchillik va ot ustida mukammal boshqaruv mahorati talab etilgan bo‘lib, “Ko‘pkari” xalq ongida mardlik va bahodirlik timsoli sifatida qaralgan. Shuningdek, an’anaga ko‘ra, uloqni yutib olgan chavandoz uning go‘shini “shifo manbai” deb bilib, qishloqdagi kasal yotgan insonlarga bo‘lib berishi odat tusiga kirgan bo‘lib, bu holat

o'yinning nafaqat musobaqaviy, balki ijtimoiy ma'naviy ahamiyatga ega ekanini ham ko'rsatadi.

Xulosa. Ishning ilmiy-nazariy qismida Surxondaryo raqs san'atining o'rganilganlik darajasi tahlil qilinib, mazkur hudud raqslari uzoq yillar davomida alohida maktab sifatida tizimli o'rganilmaganligi, asosan folklor namunalari va sahnaviy talqinlar doirasida mavjud bo'lib kelgani aniqlandi. Shu bilan birga, so'nggi yillarda E. Saitova va Sh. Qurbanovalar tomonidan yaratilgan "O'zbek raqsini o'rganish uslubiyoti (Surxon maktabi misolida)" hamda Sh. Qurbanova va X. Xursandovning "Surxon raqs maktabi" kabi ilmiy-metodik qo'llanmalar mazkur sohani ilmiy jihatdan tizimlashtirish yo'lidagi muhim qadam sifatida baholandi. Tadqiqot davomida ushbu manbalarga tayangan holda Surxondaryo raqslaridagi mehnat motivlarining badiiy xususiyatlari, harakat plastikasining semantik mazmuni va sahnaviy imkoniyatlari ochib berildi. Ijodiy-amaliy qismda Surxondaryo folklor raqslarining professional sahna xoreografiyasiga moslashtirilish jarayoni baletmeysterlik nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Xususan, "Shodlik", "Boysun", "Navbahor", "Tumor" kabi folklor va professional ansambllar repertuaridagi sahna asarlari misolida mehnat va marosim motivlarining zamonaviy sahna talablari asosida qayta ishlanishi ko'rsatib berildi. "Xo'p mayda", "Uloq (Ko'pkari)" kabi raqs namunalarida jamoaviy mehnat, musobaqaviy ruh, hamjihatlik va baraka g'oyalari sahnaviy dramaturgiya orqali muvaffaqiyatli ifodalanganligi aniqlandi. Shuningdek, "Surxondaryocha raqs"ning 40 libretto, kompozitsion ish rejasi, sahnalashtirish va repetitorlik faoliyati amaliy jihatdan ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Surxondaryo folklor raqslaridagi mehnat va marosim motivlari nafaqat milliy madaniy merosning muhim qismi, balki zamonaviy professional xoreografiyani boyituvchi kuchli badiiy manba hisoblanadi. Ularni sahna san'atiga ilmiy asoslangan holda tatbiq etish milliy raqs maktabining rivojiga, yosh ijrochilarda milliy o'zlik va madaniy xotirani shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur bitiruv malakaviy ishda olingan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar xoreografiya ta'limi jarayonida, folklor va professional raqs jamoalari repertuarini boyitishda hamda baletmeysterlik amaliyotida samarali foydalanish mumkinligi bilan ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. “Boysun bahori” xalqaro folklor festivali to‘g‘risida // O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi rasmiy ma’lumotlari. – URL: [https://madaniyat.uz] (<https://madaniyat.uz>)
2. Hoshimov M., Kucheryavix V. Tabiatning nodir sayrgohlari.– Toshkent . Mehnat, 1991.– 34-b.
3. E. Saitova, Sh. Qurbanova. “O‘has” o‘quv qo‘llanma.



Ko‘palova Olmaxon

O‘zDXA Urganch filiali XJR ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi

olmaxonkopalova@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0009-4016-1064>

RAQS SAN’ATIMIZNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI HAMDA TENDENSIYALARI

(Farg‘ona raqs maktabi misolida)

Annotatsiya: O‘zbek raqs san’atining XIX asr oxiri XX asr boshlarida shakllanishi, milliy raqs san’atimizning asoschilari haqida xususan “Bahor” davlat raqs ansamblining tashkil topishi, taraqqiyot bosqichlari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Fidokorlik, madaniyat, qadriyat, ansambl, raqs.

Аннотация Рассмотрены становление узбекского танцевального искусства в конце 19-начале 20 века, основоположники нашего национального танцевального искусства, в частности создание государственного танцевального ансамбля «Бахор», и этапы развития.

Ключевые слова: Жертвоприношение, культура, ценность, ансамбль, танец.

Abstract: The formation of Uzbek dance art in the late 19th and early 20th centuries, the founders of our national dance art, in particular the establishment of the «Bahor» state dance ensemble, and the stages of development are discussed.

Keywords: Selflessness, culture, value, ensemble, dance.

KIRISH. O‘zbek raqs san’atining shakllanishida milliy qadriyatlarimiz asosi bo‘lgan, ijtimoiy hayotimizdagi asl manba hisoblangan urf-odatlar va an’analar asosida vujudga kelgan yuksak mumtoz raqslarimiz xalqimizni asrlar davomida insonparvarlik, ona vatanga muhabbat, jasorat, kurashchanlik go‘zal xulq ruhida tarbiyalashda yordam berib kelmoqda.

METODLAR. Ushbu maqolada tarixiy-tavsifiy metod, biografik metod, tahliliy metod, hujjat-manbaviy metodi, deskriptiv-qiyosiy metodlardan foydalanildi.

MUNOZARA VA NATIJALAR. O‘zbek raqs san’ati shakllanish tarixi uzoq taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Ijodkor va mehnat sevar xalqimiz tomonidan yillar osha yaratilgan raqslar o‘zbek raqs san’atimizning noyob durdonalari ,xususan raqs san’atining asoschilari Usta Olim Komilov, Yusufjon qiziq Shakarjanov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg‘unboyevna, Roziya Karimova kabi XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab o‘tgan o‘nlab raqs ustalari milliy raqslarimiz hamda raqs maktablarimizni shakllanish yo‘lida qo‘shgan hissalar chuqur ahamiyat kasb etadi. Usta Olim Komilov 1875-yilda Marg‘ilonda dunyoga keladi, ota–onasi uni savodli bo‘lishini hohlashadi ammo uni maktabga yuborishga imkoniyatlari bo‘lmaganligi sababli tahsil ololmagan. U o‘n yoshida otasiz qolgan mardikor bo‘lib ishlay boshlaydi, keyinchalik Usta Olim Komilov samarqandga vagonchi tog‘asining uyiga yaxshi yashash maqsadida ko‘chib boradi va tog‘asining qo‘l ostida ishlay boshlaydi. Usta Olim Komilov musiqaga qiziqqan, bo‘sh vaqtlarida tambur va doira chalishni o‘rgana boshlagan va o‘zi o‘rgangan doira zarblarini o‘zining teng qurlariga o‘rgata boshlaydi. Usta Olim Komilov doira zarblariga mos raqs harakatlarini ham mohirlik bilan ijro eta olganligi, uning eng katta yutug‘i bo‘la oladi. U milliy raqslarimizni targ‘ib qila olgan birinchi erkak raqqosa hisoblanadi. Usta Olim Komilov to‘plagan va o‘zi yaratgan o‘zbek raqsi usullari raqqos va raqqosalar uchun asosiy qo‘llanma bo‘lib qoldi. U milliy raqslarimiz refarmotorlari Tamaraxonim va Mukarrama Turg‘unboyeva kabi mashxur buyuk baletmeysterlarimizning ustozidir. Ular birgalikda o‘zbek milliy raqslarimizni yaratganlar. Tamaraxonim 1906-yil 29-mart kuni Turkiston o‘lkasining Anna va Artyom Petrosyanlar oilasida dunyoga kelgan. Tamaraxonim yoshligidan san’atga qiziqqan. U yosh bo‘lishiga qaramay ko‘p davralarda o‘zing san’atini namoyish etib kiyinchalik u Moskva teatr texnikumida o‘qishga kiradi va Yusufjon qiziq Shakarjanov Usta Olim Komilov va

boshqalardan raqs, qo‘shiqchilik va aktyorlik maxoratlarini mukammal o‘rganib. Sahnadagi ijodiy faoliyatini boshlaganlar. Tamaraxonim “Lolaxon”, “Qorasoch”, “Bilakuzuk”, “Oyijon”, “Dilxiroj”, “Qari navo” kabi o‘zbek lapar va yallalariga mos imo-ishoralar, mimikalar bilan raqs harakatlarni ijro etgan hamda ommaviy raqslar sahnalashtirgan. U 500 dan ortiq qo‘shiq va raqslarni 86 tilda aytib ijro qilgan. Tamaraxonim Mukarrama Turg‘unboyevaga maxsus raqs mashg‘ulotlarini o‘rgatadi va unga “Duchaba”, “Katta o‘yin”, “Sadr”, “Ufori soxta” “Dilxiroj” kabi ko‘plab yakka raqslarni o‘rgatgan.

Mukarrama Turg‘unboyevaga 1913-yil 31-mayda Farg‘ona vodiysida dunyoga keladi. Mukarrama Turg‘unboyevaga Farg‘onada pedagogika bilim yurtida o‘qib, havaskorlik to‘garagiga qatnashadi va 1939- yilda Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatirida ishlaydi. Mukarrama Turg‘unboyeva 1957- yilda ”Bahor” raqs ansambilini tashkil etdi. “Bahor” ansambli birinchi qaldirg‘ochlari Toshkent xoreografiya bilim yurtini bitirgan 12 nafar qizdan iborat bo‘lgan edi, keyinchalik u raqqosalar sonini qirqtaga yetkazdi, shundan keyin “Bahor” ansambli ko‘pincha “Mukarram va 40 go‘zal” deb aytilar edi. “Bahor” ansambli San Petirburg shaxrida bo‘lib o‘tgan Yoshlar feftivalida 40 ta qiz bilan qatnashadi va o‘zlarining tashref qog‘oziga aylangan ”Bahor valsini”ijro etishib oltin medalga sazovor bulishadi. Mukarrama Turg‘unboyeva yakka va jamoaviy raqslar yaratdi. “Rohat”, “Tanavor”, “Bayot”, “Farg‘ona ruboyisi”, “Bahor valsi” kabi ko‘plab raqslarni saxnalshtirgan. O‘zbek raqs miliy folklorlarining sahnaga professional tarzda namoyish qila olgan.

Mukarram Turg‘unboyeva bugungi kunda o‘zbek madaniyati xazinasini bo‘lgan 200 dan ortiq milliy merosiy raqslarni yaratdi. Bu raqslar nafaqat o‘zbek xalqining urf-odatini balki ko‘hna zaminning ko‘p asrlik tarixini musiqa va harakatlar orqali bayon etgan. Bahor ansamblining tashref qog‘ozi bulgan “Bahor valsi” hamda ansambl repertuaridan bulgan kuplab raqslar insonlar qalbidan joy olib kelgan raqslar “Diddor”, “Farg‘ona ruboiysi”, “Gulnoz”, “Namangan olmasi”, “Andijon polkasi”, “Piyola” singari Farg‘onacha uslubda yaratilgan raqslar, shuningdek “Samarqand beshqarsagi”, “Buxoro davrasi”, “Xorazm lazgisi”, “Qirq qiz”, “Nilufar”, “Oq oltin”, “Dugonalar”, “Sho‘xi pari”, “Nozanin”, “Guldasta” kabi raqslar tomoshabinlarga manzur. Mehnat shavqi aks etgan “Pilla”, “Paxta bayrami” raqs syuitari va “Gulsara”, “Namangancha”, “Rohat”, “Pomir raqsi” qizlarning

eng sevgan raqslaridir. “Yetti Sayyora”, “Samarqand bahori”, “Quda-andalar”, “Cho‘pon”, “Qo‘g‘irchoq” kabi syujetli raqslar ansambl repertuarining xilma-xilligini oshirdi. Jamoa repertuaridan hind, Pokiston, birma, yapon, koreys, Arab, turk, afg‘on, Kuba, Venger, Vetnam, Chex kabi jahon xalqlarining raqslari xalqimiz qalbidan munosib o‘rin olgan. Ular ansamblning o‘ziga xos yilnomasi bo‘lib, yorqin ijodiy voqea va yutuqlarga boy. Hozirgi kunda ushbu hujjatli ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Davlat san’at muzeyida saqlanmoqda va mashhur ansambl ijodi muxlislarida shubhasiz qiziqish uyg‘otmoqda.

Mukarram Turg‘unboyeva ijodiga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Davlat san’at muzeyi fondlarida “Bahor” ansamblining badiiy ahamiyati katta bo‘lgan sahna liboslari namunalari o‘rin olgan. O‘z-o‘zidan sahna liboslarining har bir to‘plami dekorativ-amaliy san’at asari bo‘lib, sahna ustalarining raqs libosiga qanchalik e’tibor qaratganligidan dalolat beradi. Ommaviy axborot vositalari “Bahor” ansamblining chiqishlarini tasvirlar ekan, raqqosalarning yorqin, rang-barang milliy sahna liboslari va aksessuarlariga doimo e’tibor qaratdi. Milliy raqs obrazini yaratishda dekorativ elementlar, jumladan, bosh kiyimlar, ko‘krak nishonlari, peshonalar va boshqa bezaklar muhim rol o‘ynagan, bu nashr etilgan materiallar mualliflari tomonidan doimo qayd etilgan.

Shuni afsus bilan aytamizki, bahor ansambli ba’zi naqulayliklar sababli o‘z faoliyatini to‘xtatdi. Ansambl faoliyatini to‘xtatgandan keyin Bahor ansamblida qatnashgan ustozlarimining etibordan chetda qolgandek endi raqs hech kimga kerak bo‘lmagandek bo‘lib qoldi. Ko‘cha kuyda to‘y bazimlarda yoshlar o‘z bilganicha raqs tushib raqs harakatlarini biroz unutgandek bo‘lgan edi desak mubolog‘a bo‘lmaydi. Chunki yurtimizda raqs san’atiga shunchaki havaskor tugaragidek qarash vujudga keldi raqqos va raqqosalarga etibor susaydi. Ammo shunday vaziyatda ham raqs sanatini o‘zining hayoti mazmuniga aylantirgan madaniyat san’at hodimlari ustoz raqqosh va raqqosalar raqs san’atini targ‘ib qilishdan to‘xtashmadi va nihoyat 2022-yil 12-dekabr kuni “Toshkent haqida maktublar” saytida “Bahor” ansambli tashkil etilganining 65 yilligiga bag‘ishlangan “Bahor” – tiklanish yo‘li” nomli tahririyat maqolasi e’lon qilindi. Maqolada ansamblning yaratilish tarixi va uning ijodkori O‘zbekiston xalq artisti Mukarram Turg‘unboyevaning ijodiy yo‘li ko‘rib chiqiladi. Maqolada ta’kidlanganidek, “Bahor” ansambli O‘zbekistonning tashrif qog‘ozi

deb ataladi, uning asosiy vazifasi o'zbek xalqining raqs san'atini asrab-avaylash va ommalashtirishdan iborat.

“Bahor” ansambli deyarli butun dunyo bo'ylab sayohat qildi, oltmishdan ortiq mamlakatlarda bo'ldi, har bir mamlakatda o'zbek madaniyatidan bir parcha qoldirdi. Ansamblning yorqin, rang-barang, otashin raqslari xorijlik tomoshabinlarni o'zbek xalqining o'ziga xos milliy san'ati, qadimiy tarixi va madaniyati va boy an'analari bilan tanishtirdi. Ansambl dasturida O'zbekistonning turli hududlariga xos raqslar bilan bir qatorda dunyo xalqlarining raqslari ham bo'lgan. Faol gastrollarda bo'lgan “Bahor” doim sahnada o'zi chiqqan mamlakatning xalq raqslarini namoyish etib kelgan. Mukarram Turg'unboevaning eng hayratlanarli spektakllaridan biri urushdan suyukli yigitlarini kutayotgan ayollarga bag'ishlangan “Tanovar” raqs she'ridir. “Tanovar” xoreografiyasi ayol qalbi tuyg'ulari asosida yaratilgan sahna dramasidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-mayda PQ-3022-son “Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori, 2018-yil 28-noyabrda PQ-4038-son “O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi qarori, 2020-yil 4-fevralda PQ-4585-son “Raqs san'ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori, 2020-yil 4-fevralda PQ-4584-sonli “Milliy raqs san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son “Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni, 2022-yil 29-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” farmonilarining qabul qilinayotgani bugungi kunda yurtimizda san'at va madaniyat sohalariga yuksak darajada qilinayotgan e'tibor ekanligini ko'rsatadi.

1997-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Milliy raqs va xoreografiya san'atini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoniga muvofiq Mukarram Turg'unboyeva nomidagi “O'zbekraqs” Respublika ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi. “Bahor” ansambli afsonaviy asoschisidan keyin “Bahor” ansambliga turli davrlarda Qunduz Mirkarimova, Ravshana Sharipova va Ma'mura

Ergashevalar rahbarlik qilgan.Ularning har biri Mukarram Turg'unboyeva asos solgan an'analarni saqlashga harakat qildi. Hozirgi kunda ansamblga "O'zbekistonda xizmat korsatgan artist", "Qoraqalpog'iston Respublikasi xalq artisti" Madrahimova Ziyoda Ubaydullaevna "Bahor" davlat raqs ansambli badiiy rahbari etib tayinlandi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, o'zlarining butun hayotini o'zbek milliy raqs san'atimizning gullab-yashnashi uchun bag'shida etgan ustozlarimiz izini davom ettirishiz boy merosimizni asrab avaylab kelajak avlodga yetkazishimiz uchun tinmay izlanishimiz, tariximizni o'qib o'rganishimiz, millir raqs san'atining rivojlanishida, yanada ravnaq topishi uchun astoydil, sidqidildan harakat qilmog' zarurdir, yangi O'zbekistonning yangi o'zbek milliy raqs durdonalari ila xalq qalbidan joy oladi va alabatta ustozlarimiz boshlab bergan yo'lni gullab yashnatadi. Men ham yoshligimdan boshlab raqs san'atiga ixlos qo'yganman o'quvchilik davrimdan maktabda o'tkazilgan tadbir, tanlovlarda faol ishtirok qilib kelganman bugungi kunda men O'zbekiston davlat xareografiya akademiyasi Urganch filialida 2-kursda o'qib kelmoqdaman mening ustozlarim Samandarova Shaxnoza, Shonazar Botirov, Habibulla Akbarovich, Pirlepsova Zibash kabi raqs san'atining ustalaridan saboq olib kelmoqdaman. Mening kelgusidagi maqsadim o'zbek milliy san'atining ajralmas qismi bo'lgan raqs san'ati namayondalari hisoblangan Tamaraxonim, Mukarram Turg'unboyeva, Yuldo'z Ismatova, Mamura Ergashova, Dilafiruz Jabbarova, Qizlarxon Do'stmuxammedova, Rushana Sultanova, Gavhar Matyaqubova kabi raqs namayondalarining raqs san'ati maktabini o'rganib kelgusida men ham ularga o'xshab raqs san'ati bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lishni xohlayman va jahonga o'zbek milliy raqslari jozibasini ko'rsatishni oldimga maqsad qilib qo'yganman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avdeyeva L.A. O'zbek milliy raqsi tarixidan. Тошкент.: Mukarrama Turg'unboeva nomidagi "O'zbekraqs" milliy raqs birlashmasi, 2001 y.
2. Avdeeva L.A. Mukaramma Turg'unboevaning raqsi. -Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1989 y.
3. АвдееваЛ.А. Танцевальше искусство Узбекистана. -Ташкент: Государственное издательство художественной литературы Узбекской ССР, 1966 г.
4. Каримова Р. Ферганский танец (методическое пособие). -Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1973 г.

*Djumabaeva Maqpal Maksat qizi**O'zDXA Urganch filiali**XJR ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

RAQS VA HAYOT UYG'UNLIGI

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqs san'ati va hayotning o'zaro uyg'unligi, raqsning inson hayotidagi o'rni hamda uning jismoniy, ruhiy va madaniy taraqqiyotga ta'siri tahlil etiladi. Raqs insonning ichki dunyosini ifodalash vositasi bo'lib, turli jamiyatlarda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Tadqiqot davomida raqsning estetik va ijtimoiy ahamiyati o'rganilib, uning insonlar hayotiga ijobiy ta'siri yoritiladi.

Kalit so'zlar: raqs, san'at, uyg'unlik, madaniyat, jismoniy rivojlanish, estetik tarbiya.

Аннотация. В статье анализируется гармония танцевального искусства и жизни, роль танца в жизни человека и его влияние на физическое, духовное и культурное развитие. Танец является средством выражения внутреннего мира человека и имеет свои особенности в разных обществах. Исследование изучает эстетическое и социальное значение танца и подчеркивает его положительное влияние на жизнь людей.

Ключевые слова: танец, искусство, гармония, культура, физическое развитие, эстетическое воспитание.

Abstract. This article analyzes the harmony of dance art and life, the role of dance in human life, and its impact on physical, spiritual, and cultural development. Dance is a means of expressing the inner world of a person and has its own characteristics in different societies. The study studies the aesthetic and social significance of dance and highlights its positive impact on human life.

Keywords: dance, art, harmony, culture, physical development, aesthetic education.

KIRISH. Raqs san'ati qadimdan insoniyat madaniyatining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Turli xalqlarning urf-odatlar va an'analari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan raqs, nafaqat estetik zavq beruvchi san'at turi, balki shaxsning jismoniy va ma'naviy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi kunda raqs terapevtik vosita sifatida ham keng qo'llanilib, stressni kamaytirish, jismoniy faollikni oshirish va ijtimoiy integratsiyani ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada raqs san'ati va hayot uyg'unligi o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilinadi va uning ijtimoiy-madaniy jihatlari yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Raqs san'ati bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, u insonning ruhiy va jismoniy salomatligiga ijobiy ta'sir qiladi. Turli olimlar va tadqiqotchilar raqsning terapiyaviy xususiyatlari haqida turli

fikrlarni ilgari surishgan. Jumladan, A. Smith¹² (2019) raqs harakatlarining stress va depressiyaning kamaytirishdagi o'rnini o'rgangan. Shuningdek, J. Brown¹³ (2021) jismoniy faollik va raqsning yurak-qon tomir tizimiga foydasi haqida tadqiqotlar olib borgan.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida quyidagi usullardan foydalanildi:

1. Nazariy adabiyotlarni tahlil qilish;
2. Empirik tadqiqotlar natijalarini umumlashtirish;
3. Raqs bilan shug'ullanuvchi insonlar orasida so'rov o'tkazish.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Raqs inson hayotiga ko'plab ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Quyida bu ta'sirlarni tahlil qilamiz.

1. Raqsning jismoniy rivojlanishga ta'siri

Jadval 1. Raqsning jismoniy salomatlikka ta'siri

Raqs turi	Yurak-qon tomir tizimiga ta'siri	Moslashuvchanlikka ta'siri
Klassik balet	Yurak ritmini yaxshilaydi	Elastiklikni oshiradi
Sport raqslari	Qon aylanishini tezlashtiradi	Muvozanatni yaxshilaydi
Milliy raqslar	Mushaklarni mustahkamlaydi	Harakatlar koordinatsiyasini oshiradi

2. Raqsning psixologik va ijtimoiy ahamiyati

Raqs insonning ruhiy holatini yaxshilashda katta ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqs bilan muntazam shug'ullanadigan insonlarda depressiya va stress darajasi past bo'ladi.

Jadval 2. Raqsning psixologik va ijtimoiy ahamiyati

Omillar	Raqs bilan shug'ullanadiganlar	Raqs bilan shug'ullanmaydiganlar
---------	--------------------------------	----------------------------------

¹² Smith A. (2019). *Dance and Mental Health: The Psychological Benefits of Movement*. Oxford University Press.

¹³ Brown J. (2021). *The Impact of Dance on Cardiovascular Health*. Cambridge University Press.

Stress darajasi	20% kamroq	Yuqori
Ijtimoiy moslashuv	Yaxshi rivojlangan	O'rtacha
Ishonch darajasi	Yuqori	Past

XULOSA. Raqs san'ati inson hayotining ajralmas qismi bo'lib, u jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jihatdan ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada raqs va hayot uyg'unligi tahlil qilinarkan, quyidagi xulosalarga kelindi:

Jismoniy rivojlanish: Raqs insonning harakat faolligini oshirib, yurak-qon tomir tizimining yaxshilanishiga yordam beradi. Harakatlar muvozanati va elastiklik rivojlanadi.

Ruhiy salomatlik: Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqs depressiya va stressni kamaytirib, inson ruhiyatini barqarorlashtiradi. Raqs terapiyasi hozirgi kunda jahon tibbiyotida ham qo'llanilmoqda.

Ijtimoiy ahamiyat: Raqs jamoaviy faoliyat bo'lib, insonlar o'rtasidagi muloqotni kuchaytiradi. Jamoaviy raqslar ijtimoiy integratsiyani mustahkamlashga xizmat qiladi.

Madaniy merosni asrash: Har bir xalqning o'ziga xos raqs san'ati bor va u milliy madaniyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Raqs orqali tarixiy va madaniy qadriyatlar yangi avlodlarga yetkaziladi.

Shunday qilib, raqs san'ati inson hayotida muhim o'rin tutadi va uning jamiyatdagi ahamiyati beqiyosdir. Bu san'at turini keng targ'ib etish orqali sog'lom va ijtimoiy faol jamiyatni shakllantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Smith A. (2019). *Dance and Mental Health: The Psychological Benefits of Movement*. Oxford University Press.
2. Brown J. (2021). *The Impact of Dance on Cardiovascular Health*. Cambridge University Press.
3. Williams K. (2020). *Cultural Heritage and Dance: Preserving Traditions*. Routledge.
4. Johnson R. (2022). *Therapeutic Dance: Healing Through Movement*. Springer.

5. Xudoyberdiyev O. (2020). *O'zbek milliy raqslari tarixi*. Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti.

Zahiriddinova Nigina Muxiddin qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Magistratura bo'limi "Musiqqa ta'limi va san'at" yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Ilmiy rahabr prof. M.A.Ashurov

Email: niginazahiriddinova8@gmail.com

Tel: +998 (91) 171-51-01

ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSIYALARNING RAQS SAN'ATIGA RIVOJI

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalarning raqs san'ati rivojiga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar, multimedia vositalari, virtual va interaktiv sahna elementlari hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning raqs ijrosi va ta'lim jarayonidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, texnologiyalar orqali raqs san'atining badiiy imkoniyatlari kengayishi va ijodkorlikni rivojlantirishdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: raqs san'ati, zamonaviy texnologiyalar, innovatsiya, multimedia, raqamli texnologiyalar, xoreografiya, ta'lim, ijodkorlik.

Аннотация: В данной статье анализируется влияние современных технологий и инноваций на развитие танцевального искусства. Рассматриваются роль цифровых технологий, мультимедийных средств, виртуальных и интерактивных сценических элементов, а также современных педагогических подходов в процессе исполнения танца и обучения. Также раскрывается значение технологий в расширении художественных возможностей танца и развитии творческого потенциала.

Ключевые слова: танцевальное искусство, современные технологии, инновации, мультимедиа, цифровые технологии, хореография, образование, творчество.

Abstract: This article analyzes the impact of modern technologies and innovations on the development of dance art. It examines the role of digital technologies, multimedia tools, virtual and interactive stage elements, as well as modern pedagogical approaches in dance performance and education. The study also highlights the importance of technologies in expanding artistic possibilities and enhancing creativity in dance art.

Keywords: dance art, modern technologies, innovation, multimedia, digital technologies, choreography, education, creativity.

Kirish. Raqs san'ati insoniyat madaniyatining eng qadimiy va muhim san'at turlaridan biri hisoblanadi. U insonning estetik didi, ichki kechinmalari, ruhiy holati hamda ijtimoiy-madaniy qarashlarini ifodalovchi muhim badiiy vosita sifatida shakllangan. Raqs orqali inson nafaqat o'z his-tuyg'ularini namoyon etadi, balki o'z xalqining an'analari, urf-

odatlari va madaniy qadriyatlarini ham ifoda etadi. Shu bois raqs san'ati jamiyatning ma'naviy hayotida alohida ahamiyat kasb etadi va madaniy merosning ajralmas qismi sifatida e'tirof etiladi [1; B.7], [7; B.10].

O'zbek xalqining boy va rang-barang madaniy merosida ham raqs san'ati muhim o'rin egallaydi. Xalq raqslari milliy o'zlikni anglash, estetik didni shakllantirish va tarixiy an'analarni saqlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Xususan, "Lazgi", "Tanovar", "Buxoro raqslari" kabi namunalarda xalqning hayot tarzi, dunyoqarashi va san'atga bo'lgan munosabati o'z aksini topgan. Ayniqsa, Xorazm vohasiga xos bo'lgan Lazgi dance o'zining betakror ritmik harakatlari, jo'shqinligi va chuqur ifodaviyligi bilan milliy raqs san'atining yorqin namunasi sifatida xalqaro miqyosda e'tirof etilgan.

Raqs san'ati tarixiy taraqqiyot jarayonida turli bosqichlarni bosib o'tgan bo'lib, dastlab u marosim va diniy urf-odatlar bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan. Qadim zamonlarda insonlar tabiat hodisalari, hosildorlik, diniy e'tiqodlar bilan bog'liq marosimlarda raqsdan keng foydalanganlar. Vaqt o'tishi bilan esa raqs asta-sekin mustaqil estetik san'at turi sifatida rivojlanib, har bir xalqning o'ziga xos madaniy belgilarini aks ettiruvchi muhim vositaga aylangan [7; B.12]. O'zbek raqs san'ati ham uzoq tarixga ega bo'lib, uning shakllanishida xalq urf-odatlari, milliy musiqa va sahna san'ati muhim rol o'ynagan. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, o'zbek mumtoz raqslari nafis harakatlari, ritmik tuzilishi hamda estetik go'zalligi bilan ajralib turadi [3; B.7].

O'zbek raqs san'ati ham uzoq tarixiy rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan bo'lib, uning shakllanishida xalq og'zaki ijodi, milliy musiqa, teatr san'ati va urf-odatlar muhim rol o'ynagan. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, o'zbek mumtoz raqslari nafis harakatlar tizimi, mukammal ritmik tuzilishi va estetik uyg'unligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, qo'l va tana harakatlarining nozik uyg'unligi, mimika va plastikaning ifodaviyligi milliy raqs san'atining o'ziga xos jihatlarini belgilaydi.

Hozirgi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda san'atning barcha turlari qatori raqs san'ati ham tub o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Zamonaviy texnologiyalar sahna bezagi, ijro uslublari, ta'lim metodlari hamda tomoshabin bilan o'zaro aloqani yangi bosqichga olib chiqmoqda. Raqs endilikda faqat an'anaviy sahna bilan cheklanib qolmay, balki raqamli platformalar orqali keng auditoriyaga yetib

borayotgan global san'at turiga aylanmoqda. Jumladan, YouTube va TikTok kabi platformalar orqali raqs san'ati ommalashib, yangi ijodiy yo'nalishlar paydo bo'lmoqda [10; B.2-3], [9; B.15].

Hozirgi davrda milliy raqs san'ati nafaqat an'anaviy shaklda, balki zamonaviy sahna san'ati bilan uyg'unlashgan holda rivojlanmoqda. Bu jarayonda texnologik taraqqiyot muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda raqs san'ati rivojida zamonaviy texnologiyalar muhim rol o'ynamoqda. Ayniqsa, multimedia texnologiyalari, video proyeksiyalar, lazer yoritish tizimlari hamda raqamli sahna dekoratsiyalari raqs tomoshalarining badiiy ifodasini yanada boyitmoqda.

Zamonaviy sahna san'atida raqamli texnologiyalar orqali uch o'lchamli vizual effektlar yaratish, interaktiv sahna dekoratsiyalari qo'llash va tomoshabinlar uchun yangi estetik muhit yaratish imkoniyati paydo bo'lmoqda. Bu esa raqs san'atining badiiy imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bundan tashqari, video texnologiyalar yordamida raqs mashg'ulotlarini yozib olish va tahlil qilish imkoniyati mavjud. Bu raqqosalar va xoreograflarga o'z ijrolarini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va harakatlarni takomillashtirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar — virtual reallik (VR), kengaytirilgan reallik (AR), multimedia vositalari va raqamli sahna texnologiyalari raqs san'atining rivojlanishiga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ular yordamida nafaqat ijro sifati oshirilmoqda, balki tomoshabinlar bilan interaktiv muloqot o'rnatish imkoniyati ham kengaymoqda. Bu esa raqs san'atining mazmuni va shakliga yangicha yondashuvlarni talab etmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalarning raqs san'ati rivojiga ta'sirini o'rganish dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolaning maqsadi — raqs san'atining tarixiy rivojlanish jarayonini tahlil qilish hamda zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalarning ushbu san'at turiga ko'rsatayotgan ta'sirini ilmiy jihatdan asoslab berishdan iborat.

Zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Raqs ta'limi jarayonida ham raqamli texnologiyalar, onlayn platformalar va multimedia vositalari keng qo'llanilmoqda.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirib, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi [2; 4; 9].

Zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, raqs ta'limi jarayonida ham raqamli texnologiyalar, onlayn platformalar va multimedia vositalaridan keng foydalanish ta'lim samaradorligini oshirmoqda. Bugungi kunda video darslar, virtual sinflar va interaktiv o'quv platformalari orqali raqs harakatlarini o'rganish an'anaviy usullarga nisbatan ancha qulay va samarali shaklga ega bo'lmoqda.

Bu jarayonda o'quvchi o'z ijrosini bevosita ko'rib tahlil qilish, xatolarini aniqlash va ularni tuzatish imkoniga ega bo'ladi.

Shuningdek, masofaviy ta'lim tizimi rivojlanishi natijasida turli mamlakatlar o'rtasida tajriba almashish imkoniyati kengaydi. Bu esa raqs pedagogikasi sohasida yangi metodlar va innovatsion yondashuvlarning paydo bo'lishiga xizmat qilmoqda [2; B.25-26], [4; B.7].

Shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida masofaviy ta'lim tizimi rivojlanib, turli mamlakatlarning xoreograflari bilan tajriba almashish imkoniyati paydo bo'lmoqda. Bu esa raqs san'ati rivojiga yangi g'oyalar kirib kelishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar yordamida o'qituvchilarning texnologik kompetensiyalarini rivojlantirish ham muhim hisoblanadi. Zamonaviy pedagogika sharoitida texnologiyalarni samarali qo'llash san'at ta'limining sifatini oshiradi [2; B.25-26], [4; B.7].

Texnologiyalar nafaqat ta'lim jarayonini, balki ijodiy faoliyatni ham rivojlantiradi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida xoreograflar yangi sahna ko'rinishlari, innovatsion raqs kompozitsiyalari va eksperimental raqs yo'nalishlarini yaratish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Raqamli texnologiyalar orqali sahna bezagi, musiqa va harakatlar uyg'unligi yanada mukammal darajada tashkil etilishi mumkin. Bu esa tomoshabinlarga kuchli estetik ta'sir ko'rsatadi.

Raqamli texnologiyalar nafaqat ta'lim jarayoniga, balki ijodiy jarayonga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy xoreograflar yangi sahna ko'rinishlari, innovatsion raqs kompozitsiyalari va eksperimental yo'nalishlarni yaratishda multimedia vositalari, 3D grafika va sahna effektlaridan foydalanmoqda.

Sahna san'atida LED ekranlar, lazer yoritish tizimlari va vizual effektlar raqsning badiiy ifodasini yanada kuchaytiradi. Bu tomoshabinda kuchli estetik hissiyot uyg'otadi va raqs mazmunini chuqurroq idrok etishga yordam beradi.

Shuningdek, "raqamli texnologiyalar yordamida raqs harakatlarini tahlil qilish va takomillashtirish imkoniyati kengayib bormoqda" [2; B.25-26], [9; B.320]. Maxsus dasturlar orqali raqqosaning harakatlari, ritmga mosligi va tana koordinatsiyasi professional darajada o'rganilmoqda.

Zamonaviy texnologiyalar yordamida raqs san'atini ommalashtirish jarayoni ham ancha osonlashdi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali raqs videolari tez tarqalib, turli xalqlarning raqs madaniyatlari bir-biriga yaqinlashmoqda.

Bu jarayon globallashtirish sharoitida madaniy almashinuvni kuchaytirib, milliy raqslarning xalqaro miqyosda tanilishiga imkon yaratmoqda. Xususan, o'zbek milliy raqlari ham global platformalarda namoyish etilib, keng auditoriya e'tiborini tortmoqda.

Jumladan, "Lazgi raqsi insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida YuNESKO tomonidan e'tirof etilgan" [12]

Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar yordamida raqs san'atini ommalashtirish ham osonlashdi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali raqs videolari keng tarqalib, turli xalqlarning raqs madaniyatlari bir-biriga yaqinlashmoqda.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalar raqs san'ati rivojida muhim omil hisoblanadi. Ular sahna san'atining badiiy imkoniyatlarini kengaytiradi, raqs ta'limi jarayonini takomillashtiradi hamda yangi ijodiy yo'nalishlarning paydo bo'lishiga xizmat qiladi.

Kelajakda texnologik taraqqiyot bilan birga raqs san'ati ham yangi bosqichlarga ko'tarilishi kutilmoqda. Shu sababli raqs san'ati mutaxassislari zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Asqarova S., Kenjayeva S. Madaniyat va san'at ta'lim tashkilotlarida o'qitishning zamonaviy metodlari. – “Advances in Science and Education”, 2025.
2. Egamov S. Raqamli texnologiyalar va ta'lim. – JDPU ilmiy jurnali, 2024..
3. Maxmudov M. O'zbek mumtoz raqs san'ati. – Toshkent: San'at nashriyoti, 2013.
4. Mardonov R., Xursandova M. Raqamli texnologiya muhitida bo'lajak o'qituvchilarning texnologik kompetensiyalarini rivojlantirish. – Qarshi DU ilmiy konferensiyasi materiallari, 2023.
5. Shokirov N. Mumtoz raqslar va ularning estetikasi. – Toshkent: Musiqa nashriyoti, 2015.
6. Vohidov A. O'zbek raqslari: tarixiy rivojlanish va zamonaviy ijro. – Toshkent, 2016.
7. Yusufov T. O'zbek xalq raqslari va ularning tarixi. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2010.
8. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. “Raqs san'ati” maqolasi.
9. Dixon, S. Digital Performance: A History of New Media in Theater, Dance and Performance Art. – MIT Press, 2007. (1; 320 b.)
10. <https://www.sciencedirect.com/topics/social-sciences/digital-learning>
11. <https://mitpress.mit.edu/9780262042340/digital-performance>
12. <https://ich.unesco.org/en/RL/lazgi-dance-01590>

Raxmonova Avazjon

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

Urganch filiali, Xoreografiya jamoalari rahbari yo'nalishi talabasi

XORAZMNING XUSHOVOZ XALFALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm vohasi musiqiy folklorining o'ziga xos tarmog'i bo'lgan xalfachilik san'ati va lapar janrining tarixiy-madaniy ildizlari hamda taraqqiyot bosqichlari tahlil qilingan. Tadqiqotda xalfachilikning vujudga kelishi, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida uning ijrochilik uslubiga garmon cholg'usining kirib kelishi hamda "Garmonchi qizlar" ansamblining shakllanish tarixi yoritilgan. Shuningdek, Xorazm dostonchilik maktablari (Shirvoniy va Eroniy uslublar), lapar janrining badiiy-estetik xususiyatlari, uning xalq hayoti, urf-odatlar va marosimlari bilan bog'liqligi Onajon Sobirova, Anabibi qori Otajonova, Saroxon Ollaberganova kabi yirik xalfa namoyandalari faoliyati misolida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Xorazm, xalfachilik san'ati, lapar, folklor, garmon, dostonchilik, Shirvoniy uslub, Eroniy uslub, an'anaviy musiqa, milliy meros.

Аннотация. В данной статье анализируются историко-культурные корни и этапы развития искусства хальфы и жанра лапар, представляющих собой уникальную ветвь музыкального фольклора Хорезмского оазиса. Исследование охватывает возникновение хальфы, введение фисгармонии в её исполнительский стиль в конце XIX и начале XX веков, а также историю формирования ансамбля «Хармончи кизлар». Кроме того, на примере деятельности таких выдающихся деятелей хальфы, как Онажон Собирова, Анабиби Кори Отаджонова, Сарохон Оллаберганова, раскрываются хорезмские школы эпической поэзии (ширванский и иранский стили), художественно-эстетические особенности жанра лапар, его связь с народной жизнью, обычаями и ритуалами.

Ключевые слова: Хорезм, искусство хальфы, лапар, фольклор, фисгармония, эпическая поэзия, ширванский стиль, иранский стиль, традиционная музыка, национальное наследие.

Abstract. This article analyzes the historical and cultural roots and stages of development of the art of khalfa and lapar genre, which are a unique branch of the musical folklore of the Khorezm oasis. The study covers the emergence of khalfa, the introduction of the harmonium instrument into its performance style in the late 19th and early 20th centuries, and the history of the formation of the "Harmonchi qizlar" ensemble. Also, the Khorezm schools of epic poetry (Shirvani and Iranian styles), the artistic and aesthetic features of the lapar genre, its connection with folk life, customs and rituals are revealed on the example of the activities of such major khalfa figures as Onajon Sobirova, Anabibi qori Otajonova, Sarokhon Ollaberganova.

Keywords: Khorezm, art of khalfa, lapar, folklore, harmonium, epic poetry, Shirvani style, Iranian style, traditional music, national heritage.

Kirish. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan buyon bizning yurtimizda ijtimoiy, siyosiy va madaniy-ma'rifiy tamonlama katta o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. O'zligimizni anglashga, qadim tariximizni o'rganishga, ajdodlarimiz tamonidan qoldirgan milliy qadriyatlarimizni chuqur o'rganish, madaniy merosni asrab avaylashga katta e'tibor berilmoqda. Xalfa atamasi arabchadan olingan bo'lib asosiy ma'nosi – shariat, aqida, diniy bilimlarini yaxshi bilgan, savodxon, odob – axloqqa halollik xususiyatlari ega bo'lgan shaxs hisoblanadi. Xalfachilik – xalq qo'shiqlari, doatonlari, urf – odat va adabiyot bilan chambarchas bog'liq bo'lgan janrlardan biridir.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida xalfachilik san'ati yanada kengaydi, zamonaviy asboblardan xususan garmon ijrochilarda qo'llanila boshladi. 1936-yilda Xivada Garmonchi qizlar ansambli tashkil etilgan. Ushbu ansamblida Onajon Sobirova, Soraxon Ollaberganova, Roviya Otajonova, Reyma Xakimova, O'g'iljon Masharipova, Poshshaxon Matchanova kabi iste'dodli xalfalar birgalikda ijod qilganlar. 1939 – yilda ansambl Toshkent va respublikamiz bo'ylab gastrol safarlarida bo'lgan. O'zbek xalqi boy o'ziga xos qatlam va musiqa merosiga ega. Xalqimizning musiqa boyliklari juda ko'pqirrali, sermazmun va rang-barangdir. Ohangdor ajoyib kuylarimiz va folklor namunalari kishiga quvonch, xursandchilik bag'ishlaydi, og'ir damlarni yengil qiladi. U insonni oliyjanob fazilatlarini, his va tuyg'ularini ifodalab beruvchi kuchga egadir. Folklor barcha san'atning boshlanishi, sarchashmasi, shu sababli ham boshqa ko'pgina san'atlar bilan uyg'unlikka ega, shuning bilan birga hech biriga o'xshamagan o'ziga xosligi bilan ajralib turuvchi alohida san'at turidir. Bu soha o'z ichiga musiqa, raqs, hunarmandchilik, tasviriy, badiiy va boshqa san'atlar bilan bog'liq tasavvurlarni qamrab oladi. Boshqacha qilib aytganda, og'zaki ijod xalqning o'tmishi, buguni va kelajagini o'zida ifoda etuvchi, uning taqdiri bilan chambarchas bog'liq ijodiy jarayondir. Shuning uchun ham allomalarimiz uni el adabiyoti deb atagan. Biror bir xalqning qanday xalq ekanligini bilish uchun dastavval uning milliy an'analariga, urf-odatlariga nazar solish lozim bo'ladi.

Har bir o'zbek xalqini o'zining yo'nalishiga xos va voqe'lik bilan bog'lik bolgan janrlar vujudga kelganki, ular asrlar davomida xalqlar milliy an'onalarida yuzaga kelgan. Bular: alla, yalla, lapar, terma, qo'shiq. Adabiyotlar sharhi. Qadimdan madaniyat va san'at maskani bo'lgan ushbu hududda o'ziga xos xalq musiqa ijodiyoti (bolalar va marosim qo'shiqlari, xalqa laparlari va boshqalar), og'zaki an'anadagi kasbiy musiqa (doston, talqinchi va go'yandalar san'ati, maqom va boshqalar) namunalari keng o'rin tutadigan. Xorazm musiqa uslubi. Xalq musiqa asarining eng qadimgi davrlariga mansub kuyohang namunalari o'z aksini topgan. Jumladan, bolalar ("Momom moshidi", "Aravachi mani doyim", "Tuyalar, ho tuyalar" va boshqalar) va mavsum marosim qo'shiqlari ("Suyet xotin", "Ashsha daroz" va boshqalar) da musiqaning ilk bosqichlariga oid dastlabki tuzilma va ohang alomatlarini, boshlang'ich parda asoslari saqlanib qolgan.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda Xorazm vohasining xalfachilik san'ati va lapar janrini o'rganishda bir nechta ilmiy uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Birinchidan, tarixiy-qiyosiy metod asosida Xorazm xalfachilik an'alarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilindi. XIX–XX asrlar oralig'idagi o'zgarishlar, xususan garmon cholg'usining kirib kelishi va ansambl ijrochiligining shakllanishi tarixiy manbalar orqali o'rganildi. Ikkinchidan, tizimli tahlil metodi yordamida xalfachilik san'ati folklor tizimining tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqildi. Unda lapar, dostonchilik, marosim qo'shiqlari va ijrochilik an'analari o'zaro bog'liqlikda tahlil etildi. Uchinchidan, etnografik yondashuv qo'llanilib, Xorazm hududidagi xalq og'zaki ijodi namunalarining marosimlar, to'ylar va sayillarda ijro etilish jarayonlari o'rganildi.

Bu orqali laparlarning ijtimoiy va madaniy funksiyalari aniqlashtirildi. Shuningdek, komparativ (solishtirma) metod orqali Xorazm laparlarining boshqa hududlar (masalan, Toshkent va Janubiy Qozog'iston) lapar an'analari bilan o'xshash va farqli jihatlari aniqlandi. Tadqiqot davomida adabiyotlar tahlili ham muhim o'rin tutdi. Ilmiy manbalar, folklorshunos olimlarning asarlari, dala yozuvlari va arxiv materiallari o'rganilib, mavzuga oid nazariy xulosalar chiqarildi.

Muhokama va natijalar. Xorazmda xonandalik, sozandalik va raqqoslikni o'ziga kasb qilib olgan san'atkorlar guruhlarini "sozanda qo'shlari" deyilgan. Ular ikki xil tarkibda, ya'ni 2 ta surnaychi, doirachi, tanburchi ashulachi, sozchi (garmonchi)ashulachi, raqqos, masxaraboz, so'z ustasi (shuning o'zi mag'aldoqchiakrobat); dorbozchi, chodir xayol (qo'g'irchoqboz) va boshqalardan tashkil topgan. Sozanda qo'shlarining vazifasi to'yda baxshi dostonni tugatgandan keyin yoki to'yni yanada qizdirish maqsadida o'z san'atlarini (Lazgi kabi kuy va raqslarni ijro etib) namoyish qilishdan iborat. El orasida tanilgan sozanda qo'shlarining boshliqlaridan Husayn Kalot, Sobir Kalot, Shomurod surnaychi, Ushli Kal (mashhur "Ushlini uforisi" yallasining muallifi), Durdi karnaychi, Sobir Dorboz, Xo'ja Ko'r, Otoq Jonli, Kupal Hoji, Bayotvoy, Ollabergan Hoji, Xudoybergan Vovoq va boshqa mashhur.

Xorazm musiqa uslubi uning baxshi dostonchilar san'ati o'ziga xos bo'lib, alohida o'ringa ega. Dostonning nasriy qismi hikoya, nazmiy qismi esa qo'shiq shaklida ochiq ovozda cholg'u ansambl jo'rligida ijro etiladi. Xorazm baxshichiligi Shirvoniy va Eroniy

uslublarga bo‘linadi. Shirvoniylar uslubi Amudaryoning yuqori va o‘rta oqimidagi hududda tarqalgan (markazi - Xiva). Bu uslub namoyandalari dutor, g‘ijjak, bo‘lamon va doyra jo‘rligida kuylaydilar. Unda 72 ta doston kuylari mavjud bo‘lib, bular: Muxammaslar turkumi (5 ta kuy), Ilg‘orlar (4), Eshvoylar (5), Naylarmanlar (5), Noliqlar (7), Shirvoniylar (3), Zorinjilar (2), “Rahm ayla”, “Boboxonim”, “Gulandom” va boshqa. Eroniy uslubi Amudaryoning quyi oqimi hududida tarqalgan (markazi - Mang‘it sh.). Ushbu uslub baxshilari dutor, g‘ijjak, bo‘lamon jo‘rligida doston kuylashadi. Ularning qo‘shida doira qatnashmaydi. Eroniy uslubda 32 ta doston kuylari bo‘lib, ularning ko‘pchiligi Shirvoniylar nomlari bilan o‘xshash, lekin Sarparda, Ko‘r qiz, Qo‘shadas, Qo‘shim Polvon Ilg‘ori va boshqalar bilan ajralib turadi.

18-asr oxiri va 19-asr boshlarida Xiva xonligida 40 dan ortiq baxshilar faoliyat ko‘rsatgan va ulardan eng mashhurlari Eshvoy baxshi, Muhammadniyoz Go‘rji, Rizo baxshi, Ernazar baxshi, Suyov baxshi, Jumanazar baxshi, Axmad baxshi, Bola baxshi, Abdullayev va boshqa. Xorazm musiqasi uslubida talqinchi va go‘yandalar ijodi aniq bir janr bilan chegaralanmagan bo‘lsada, ularning o‘z yo‘llari va o‘ziga xos uslublari mavjud. Ayniqsa, ular suvoralar va ularning savtlari hamda boshqa yirik shakldagi mumtoz ashulalarni Mashrab, So‘fi Olloyor, Mahtumquli, Mulla Nafas kabi shoirlarning tasavvuf yo‘lidagi g‘azallari, nasihat hamda o‘gitlariga solib kuylaganlar. Shuningdek, musulmonchilikni targ‘ib qiluvchi “Kiyiknoma”, “Sayid Vaqqos”, “Kaptar”, “Amir Hamza”, “Me‘rojnoma”, “Sultonbobo hikoyati”, “Payg‘ambarlar hikoyati” kabi nomlarni ham ijod qilganlar. Talqinchi va go‘yandalar “Diyralishma” deb nomlangan erkin tanlovlarda sinalgan, ulardan Polli Duzchi, Kalandar Banggi, Qurji ota va boshqa mashhur. Xorazm laparlari haqida musiqada ham alohida o‘rin bor. Xorazmning musiqasi madaniyati, ayniqsa, xalq musiqasi va an‘anaviy qo‘shiqlarida, bu hududning gastronomik xususiyatlari va laparlari bilan bog‘liq bo‘lgan ifodalar ko‘pincha uchraydi.

Xorazm musiqasi va laparlari bir-biriga bog‘liq bo‘lib, ular bir-birini to‘ldiradi. Musiqasi va oshxona o‘rtasidagi bu bog‘lanish, Xorazm madaniyatining o‘ziga xosligini yanada kuchaytiradi. Xorazm laparlarini (yoki “lapar” deb ataladigan xalqqa xos musiqiy kuylash usulini) asosan Xorazm viloyatida, ayniqsa, Urganch, Xiva va boshqa hududlarda o‘tkazilgan an‘anaviy musiqiy kechalarda yoki to‘ylar, marosimlar va boshqa bayramlarda

o'rganish mumkin. Laparlar - bu xalq musiqasining bir turi bo'lib, unda o'zgacha bir so'z aytish, suhbat qilish va ko'pincha biror mavzu yuzasidan turli satrlarda takroriy ravishda qo'shiqlar aytish an'anasiga asoslanadi. Xorazm laparlarining o'ziga xosligi shundaki, ular ko'pincha diqqatni jalb qilish, kulgili yoki ma'naviy maqsadlar bilan ifodalanadi, shuningdek, ba'zan satira yoki ijtimoiy muammolarni ko'tarish uchun ishlatiladi. Lapar - musiqiy folklor janri; voqeabandligi va kuy tuzilishi jihatidan uncha murakkab bo'lmagan, tor diapazonli, naqarotsiz, cholg'u jo'rligisiz aytiladigan qo'shiqlarga yaqin. Ikki turi mavjud: 1) to'y marosimi, xalq sayili, hashar kabi yigirlarda yigit va qizlar tomonidan tarafma-taraf bo'lib dialog shaklida ijro etiladigan laparlar. Bunda davradagi qizlar navbatmanavbat xohlaganiga "lapar solidi", bunga yigit javob qaytarishi kerak. Mos javob qaytarilsa, dastro'mol, belbog' kabi sovg'alar beriladi. Laparni maxsus laparchi ayollar boshqarib boradi. Marosim laparlarning kuylari, ko'pincha, epik tusda, nutqdosh yoki kuychan ohanglarda bo'ladi. Bularda, asosan, yigit va qizning muhabbat kechinmalari, orzu-umidlari aks etadi, shuningdek, yengil hajv va yumor ham qo'shib ketadi. To'rtlik shaklidagi termalardan iborat bo'lgan laparning bu turi, asosan, Toshkent viloyati va Janubiy Qozog'iston o'zbeklari orasida keng tarqalgan; 2) o'yin lapar Xorazm xalfalari, Buxoro sozandalari orasida "labidan", "labi uchidan" aytiladigan, yengil harakterdagi qo'shiqlarga nisbat berilgan. Odatda, ikki kishi galma-galdan raqs tushib ijro etadi. Kuylari yengil, o'ynoqi, jozibali bo'ladi. Yakka qo'shiqchi tomonidan cholg'u jo'rligida ham raqs bilan aytiladi. Xalq orasida "Qora soch", "Oyijon", "Qilpillama", "Bilak uzuk", "Nahori nashta" kabilar ommalashib ketgan. Lapar ijrochilaridan Tamaraxonim, G.Otaboyeva va boshqa mashhur. Xalq laparlari o'zbek kompozitorlari tomonidan qayta ishlanib, xor, vokal simfonik, estrada musika asarlaridan keng o'rin olgan. Laparlar ba'zan, keng ma'noda, umuman qo'shiq tushunchasini ham ifodalaydi. O'zbek xalq musiqasining ikkinchi qatlamini tashkil etuvchi lapar ikki kishi tomonidan ijro etiladigan aytimdir. Odatda turli ommaviy marosimlar va katta ommaviy tadbirlarda, ko'proq sayilgohlarda yigit bilan qiz o'rtasida lapar-aytishuv o'tkaziladi. Lapar orqali qiz bilan yigit bir-biriga muhabbat izhor etib, birga ichki tuyg'ulami ifoda etadilar. Hozirgi kunda kuylanib kelinayotgan laparlarning aksariyati marosimlar bilan bog'liq bo'lmay, bevosita turli oilaviy yig'ilishlarda ijro etiladi.

Laparlarda sevgi-muhabbat asosiy mavzuni tashkil qiladi. Ularda hazil-mutoyiba mazmunidagi she'rlar aks ettirilgan. Laparda she'r misralari orasida naqarotlar bo'lmaydi. Shu bois ikki kishi tomonidan aytilib, savol-javob asosiga qurilgan. Lapar kuy ohanglari nisbatan ixcham va barqaror tuzilmalarga tayangan holda qo'shiq bilan birgalikda raqs ham qo'shilib ketadi. «Bilaguzuk», «Qoraqosh», «Nima-nima deysiz?» kabi laparlar xalq orasida mashhur bo'lib, kuylanib kelinayotgan laparlardir. Nihoyatda mashhur bo'lgan «mahalliy laparlar» Xorazm vohasida ijro etiladi. Bu xildagi laparlar qo'shiq janriga yaqin bo'lib, raqsbopligi sababli o'zining asil holatini saqlab kelgan. «Galdim sana mehmon bo'lib», «Par devol» shular jumlasidan. Xorazm musiqasi o'zbek xalqining boy madaniy me'roslaridan biri hisoblanadi. Shu o'rinda yana bir narsani ham ta'kidlash joiz-ki bu zaminning nodir va o'chmas tarixga ega bo'lgan xalfalari ham mavjud, bular: Onajon Sobirova, Anabibi qori Otajonova, Saroxon Ollaberganova, Sora Ahmedova, Shukirjon xalfa, Nazira Sobirova, Ullibibi Boyjonova, Ra'no Ollaberganova shular jumlasidandir. Endi bu insonlarga qisqacha ta'riflar berib o'tsak. Onajon Sobirova; mashhur raqqosa, ijrochi Anash xalfa ganch ustasi oilasida tug'ilgan bo'lib uning san'atga bo'lgan qiziqishi oldiga chiqqan to'siqlarni yengib o'tishiga sababchi bo'lgan. Tug'ma iste'dodga ega bo'lgan Anajon garmon cholg'u asbobida mohir ijrochi va Xiva xalfa qo'shiqlarini mahorat bilan ijro qilgan. Respublikada xizmat ko'rsatgan artist unvoniga sazovor bo'lgan Gavhar Rahimova 1939- yilda Toshkentda Garmonchi xotin – qizlar ansambli tashkil qilib bu ansamblga Anajon xalfa Sobirova boshchiligidagi bir guruh xalfalarni taklif qilgan. Anabibi qori Otajonova (Ojiza) xalfa – mashhur shoira, san'atkor, ko'zi ojizligiga qaramasdan juda ham iste'dodli xalfalardan biri bo'lgan. Soz yani garmon chalib kuylagan. Uning “Sangar qishlog'i”, “Targ'uncha”, “ Galmadi galmadi nechun galmadi ”, “ Siz bu gulni qaydan oldingiz ”, “ Dilbar bu jahon ichra”, “ Aytmasam armon”, “ Xabar galmish”, undan tashqari dostonlarni ham mahorat bilan ijro qila olgan: “ Tohir va Zuhra”, “ G'arib va Shohsanam”, “ Go'ro'g'li”, “ Sayyod va Hamro” kabi dostonlar shular jumlasidandir. Saroxon Ollaberganova: mashhur Xorazm bastakori, xalfa qo'shiqlar va doston ijrochisi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist. U ham ustozlari singari “Garmonchi qizlar” ansamblida edi.

“Oshiq g'arib va Shohsanam”, “ Go'ro'g'li”, “ Avazxon”, “ Bozirgan”, “ Oshiq Mahmud” kabi doston kuylarini hamda o'zi bastalagan kuylardan: “ Yor keldi”, “ O'ynab

galling”, “ Baxt oftobi”, “ Qolxo‘zchi qiz”, “Yur sevgilim” shular jumlasidandir. Xorazm vohasining xalfachilik san’ati o‘zbek xalq og‘zaki ijodining muhim va o‘ziga xos yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu san’at turi asrlar davomida shakllanib, xalqning urf odatlari, qadriyatlari, estetik qarashlari hamda hayotiy tajribasini o‘zida mujassam etib kelmoqda. Ayniqsa, lapar janri orqali insonlarning ichki kechinmalari, sevgi-muhabbat, hazil-mutoyiba va ijtimoiy fikrlar badiiy ifodasini topgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, xalfachilik nafaqat musiqiy ijrochilik, balki adabiyot, raqs va marosim madaniyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan murakkab va ko‘p qirrali san’at turidir. Xorazm xalfalari, jumladan, Onajon Sobirova, Anabibi qori Otajonova, Saroxon Ollaberganova kabi san’atkorlar ushbu an’anani rivojlantirish va keyingi avlodga yetkazishda muhim o‘rin tutganlar. Bugungi kunda ham xalfachilik an’analari saqlanib qolgan bo‘lib, u milliy madaniy meros sifatida e‘zozlanmoqda. Uni yanada chuqur o‘rganish, yosh avlodga o‘rgatish va sahna san’ati orqali targ‘ib etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zero, xalfachilik san’ati xalq ruhiyati va tarixining tirik ifodasi sifatida o‘z qadrini yo‘qotmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. J. Qobulniyozov. o‘zbeksovet folklorining rivojlanish yo‘llari
2. N. Hotamov, B. Sarimsoqov. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha o‘zbekcha izohli lug‘ati.
3. S. Sobirovaning “Dala yozuvlari” 1980-yil.
4. Sofiya Sobirova, Xojiboy Solayev “Xiva bulbullari” 2000 – yil Xiva.

IQTISODIYOT

*Isakjanova Saboxat Muhamedovna**Toshkent davlat iqtisodiyot**Universiteti PhD talabasi**Tel raqami: +998991123691*

**O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI
